

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**IJTIMOY-IQTISODIY FAKUL'TETI**

**«O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH  
NAZARIYASI VA AMALIYOTI» KAFEDRASI**

**SOTSILOGIYA  
FANIDAN**

***IZOHЛИ LUG'AT***

**Namangan – 2015**

Tuzuvchilar:	M.Mo‘ydinova
	S.Qozoqov
Mas’ul muharrir:	t.f.n N.Gofurov
Taqrizchilar:	s.f.n. A.Abdulazizov “O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi” kafedrasi dotsenti  f.f.d. T.Abdullayev FarDU “Falsafa” kafedrasi professori

Ushbu lug'at Namangan davlat universiteti o‘quv-uslubiy kengashining 2015 yil \_\_\_\_\_ ning\_\_\_\_\_- sonli majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

## **KIRISH**

Mustaqillik yillarda mamlakatimizda ta’limni rivojlantirishga alohida e’tibor berilmoqda. Ta’lim sifatini oshirish, ta’limda uzviylikni va uzlusizlikni ta’minlash bugungi kunning dolzARB vazifalaridandir. O’zbekiston mustaqillikka erishgandan so’ng ta’lim jarayoniga ko‘plab yangiliklar olib kiritilmoqda. Yangilanish, mamlakat, siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish, modernizatsiyalashtirish jarayoni barcha sohalar kabi ijtimoiy fanlarni o‘qitish, ularning mazmun-mohiyati davr talablari asosida qaytadan o‘zgartirish vazifasini qo‘ydi.

Mustaqillik tufayli milliy tafakkurga keng yo‘l ochilib, ijobiy o‘zgarishlar qilindi. O’zbekistonda faylasuf va sotsiolog olimlar tamonidan jamiyat siyosiy hayoti, ijtimoiy munosabatlarida ro‘y bergen o‘zgarishlarni chuqur, mufassal yoritish hamda sotsiologiyaning ilg‘or nazariy va amaliy tajribalaridan keng foydalanish asosida darslik, o‘quv qo‘llanmalari yaratilmoqda. Sotsiologiya fanidan ham ko‘plab adabiyotlar, darsliklar chop etilmoqda. Hozirgi paytda sotsiologiya fani bo‘yicha o’zbek tilidagi mavjud adabiyotlar ham kirill alifbosi asosida nashr etilgan. Ushbu lug’atda sotsiologiya fanining eng muhim atamalarining qisqacha izohi berilgan. Eng muhimi lotin alifbosi asosida tayyorlangan bo’lib, talabalarga ancha qulaylik yaratadi. Mazkur lug’at talabalar ilmiy so‘z boyligini oshirishga yordam beradi.

# A

**Abdullayev To‘lqin Ubaydullaevich** (1953.10.5, Farg‘ona sh.) - Faylasuf. Fal. fanlari d-ri (1992), prof. Farg‘ona davlat pedagogika in-tini “rus tili va adabiyoti” (1975) hamda shu in-tni “tarix va jamiyatshunoslik” ixtisosligi bo‘yicha tamomlagan (1982). “Turmush va turmush tarzining o‘zaro bog‘liqligi” mavzuida nomzodlik (1983), “Turmush sohasida milliy va umuminsoniy qadriyatlar dialektikasi” mavzuida doktorlik (1992) dissertatsiyalarini yoqlagan. Ilmiy-pedagogik faoliyati 1977 y.dan boshlangan. Ilmiy sotsiologiya naz-yasi (1985), umumiy sotsiologiya (1989), amaliy sotsiologiya kafedrasi dotsenti (1992), Farg‘ona davlat un-ti “Amaliy sotsiologiya” kafedrasi prof. (1995 y.dan). Fal. sohasida, asosan, turmush moddiy va ma’naviy asoslарining rivojlanishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning namoyon bo‘lishi, ularning funksiyalari, xususiyatlari, ziddiyatlari yo‘nalishlarida 30 ga yaqin ilmiy ishlari nashr etilgan. “Turmush sohasida milliylik va baynalmilallik” (1991) monografiyasi muallifi.

**Abdushukurov Telman Rustamovich** (1935.21.7, Samarqand viloyati, Kattaqo‘rg‘on tumani — 1989, Toshkent) — faylasuf. 2-jahon urushi qatnashchisi. Fal. fanlari d-ri (1972), prof. Toshkent davlat un-tining tarix f-tini “tarix” ixtisosligi bo‘yicha tamomlagan (1958). “Ishchilar madaniy-texnik darajasining o‘sishi to‘g‘risida” nomzodlik (1963), “Ilmiy-texnika revolyusiyasi va ishchilar sinfi” mavzuida doktorlik (1972) dissertatsiyalarini yoqlagan. Mehnat faoliyati 1958 y.dan boshlangan. O‘zbekiston FA Fal. va huquq in-tida ilmiy xodim, katta ilmiy xodim, aniq sotsiologik tadqiqotlar sektorining mudiri (1968-74), Tosh DU huzuridagi Ijtimoiy fanlar o‘qituvchilari malakasini oshirish in-ti direktorining o‘rinbosari. Sotsiologiya, ijtimoiy fal. yo‘nalishlarida 80 dan ziyod ilmiy ishlari chop etilgan. Inson, ilm-fan, texnika taraqqiyoti, ishlab chiqaruvchi kuchlar, kishilar ma’naviy, intellektual saviyasi kabi muhim muammolar yechimi ustida ijod qilgan. “Ilmiy-texnika revolyusiyasi va yoshlar” (1974, rus tilida, hamkorlikda), “O‘zbekiston sanoatida mehnat unumdorligini oshirishning ba’zi muammolari” (1970), “Hozirgi zamon ilmiy-texnika revolyusiyasining ijtimoiy oqibatlari” (1976) va b. monografiya, risolalarining muallifi. Toshkent, Samarqand, Moskva shaharlarida o‘tkazilgan Xalqaro ilmiy anjumanlar ishtirokchisi.

**Aborigenlar** (lot. aborigine - qadimdan, boshidan) — 1) biror mamlakat, o‘lkaning qadimdan o‘sha joyda yashab kelayotgan tub aholisi. Qadimgi Rim rivoyatlariga ko‘ra, Apennin tog‘lari etaklaridagi Latsiyada yashovchi qadimgi qabila A. deb atalgan. Mas. Amerika va Avstraliya mustamlaka qilinish davrida A.ning ko‘pchiligi qirib tashlangan, qolgan

qismi maxsus ajratilgan hududlarga - rezervatsiyalarga quvib chiqarilgan, kamsitishlarga duchor etilgan.

**Absolut monarxiya** – (yoki buni cheklanmagan – mutloq ham deyiladi) bunda monarxning vakolati cheklanmagan, u yagona hukmdor bo‘ladi. Davlat hokimiyatini boshqa bironta idora bilan cheklanmagan monarx (qirol, podsho, imperator) amalga oshirsa (masalan, Saudiya Arabistonida) bunday monarxiya mutlaq monarxiya deyiladi. Mutlaq monarxiya hozirgi kunda 8 ta mamlakatda saqlangan, ular qatoriga Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklar, Quvayt va boshqalar kiradi.

**Abstraktsiya** (lot. abstractio – chalg‘ish, chetlashish) — narsalar xossa va nisbatlarining boshqalari, mazkur tadqiqotda jiddiy bo‘lmagan va ikkinchi darajali deb ko‘rib chiqilayotganlardan xayolan ajratib olish (farqlash) jarayoni. Abstraksiya (mavhumlash) natijasi mavhum ob’ektlarning hosil bo‘lishidir.

**Adaptatsiya** — (lot. adaptatio - moslashtirish) insonning yanga faoliyat sharoitlariga, ma’lum bir ijtimoiy guruhlardagi munosabatlар tizimiga moslashuvi, biologik organizmning muayyan sharoitda yashashga moslashish qobiliyati.

**Adler (Adler) Maks** (1873. 15. 1–Vena – 1937 28.6) – avstriyalik faylasuf, sotsiolog, sotsial-demokratik partiyaning rahbarlaridan biri. Vena unting prof.i. Kantning “narsa o‘zida” ta’limotini neokantchilik ruhida talqin qilgan. A. materialistik in’ikos naz-yasiga qarshi faol kurashdi. Dialektik usulni e’tirof etdi va uni “fizik idealizm” talabiga moslashtirdi, jarayonlar haqidagi relyativistik ta’limotga aylantirdi, hodisalar o‘rtasidagi munosabatlarda “moddiy substansiya”ga o‘rin yo‘q, degan xulosaga keldi. A. fal.ni materializm va idealizm yo‘nalishlarida bo‘linishini tanqid qildi. Ishlab chiqarish munosabatlarini “ma’naviy hayot hodisasi” deb izohladi. Ijtimoiy turmush va ijtimoiy ong tushunchalarini o‘xshash tushunchalar deb atashni taklif qildi.

**Adorno Teodor (1903–1960)** – nemis faylasufi, Frankfurt falsafa maktabining yirik vakillaridan biri, sotsiolog, musiqa shunos, kompozitor. U modernizm estetikasi taraqqiyotiga katta hissa qo‘shtigan tadqiqotchi sifatida tanilgan. A.T. o‘zining ijtimoiy faoliyatini 17 yoshlik chog‘idan, tanqidiy yo‘naltirilgan «Ekspressionizm va badiiy haqiqat» /1920/ maqolasini chop etish bilan boshladi. So‘ngra, u musiqa haqida bahs–munozaralarga keng yo‘l ochib bergen, tanqidiy ruhdagi qator maqolalarni yozdi. A.T.ning tadqiq qilish metodi o‘ziga xos bo‘lib, u musiqa materialini ratsional baholashga tayanadi. Olim 1920–yillardan boshlab, Frankfurt ijtimoiy tadqiqotlar institutining intelektual doirasiga taklif etildi.

A.T. falsafasi jamiyat haqidagi har qanday e’tiborli nazariyalarga tanqidiy yondashish tamoyiliga amal qiladi. A.T.ning ilk falsafiy izlanishlari

K’erkegor va Gusserlning ijtimoiy reallikka e’tiborsizlik bilan qarashi va sub’ekt rolini o’ta bo’rttirishga qarshi qaratilganligi bilan ajralib turadi. U marksizmga, ayniqsa, Lukach va Korsh tomonidan ishlab chiqilgan nomutaassib marksizmga xayrixohlik bilan qaraydi. A.T. 1934 yili fashistlar Germaniyasini tark etib, Angliyaga ko‘chib o’tadi, 1933 yildan umrining oxiriga qadar AQSHda yashaydi.

A.T.ning asosiy asarlari: «Ekspressionalizm va badiiy haqiqat» /1920/, «Ma’rifat dialektikasi» /1947/, «Yangi musiqa falsafasi» /1949/, «Avtoritar shaxs» /1950/, «Negativ dialektika» /1966/, «Estetika nazariyasi» /1970/ va b.

A.T.ning Xorkxaymer bilan hamkorlikda yozgan «Ma’rifat dialektikasi» /1947/ asarida tarixiy taraqqiyot mavzusiga murojaat qiladi. Unda jamiyat tarixi ko‘p qamrovli ma’rifatning umumbashariy tarixi sifatida olib qaralib, inson zoti hayot uchun kurash jarayonida doimo mukammalashib, aqliy jihatidan ulg‘ayib boradi. A.T. o‘zining tarixiy taraqqiyotga bo‘lgan tanqidiy munosabati orqali adolatli jamiyat konsepsiyasini yaratdi. U o‘z tadqiqotlarida negativ dialektikaga asos soldi. Uning ta’kidlashicha, ashyolar va ularni o‘zida ifoda etadigan tushunchalar o‘rtasida bir–biriga mos kelmaydigan, muayyan konfrontatsiya, o‘zaro kelishmovchilik yuzaga keladi. Negativ dialektikada ma’naviy hayotning barcha ko‘rinishlari ijtimoiy jihatdan belgilanganligi qayd etilib, ijtimoiy–tarixiy reallikning insonga bo‘lgan berahm, o’ta zo‘ravonligiga alohida urg‘u beriladi.

A.T.ning falsafiy qarashlari hozirgi zamon G‘arb falsafasi, sotsiologiyasi, estetikasi, musiqashunosligi 1960 yillarda shakllana boshlagan so‘l–radikal talabalar harakatiga faol ta’sir ko‘rsatdi.

**Agassi Jozeff** (1927) – isroillik faylasuf va fan tarixchisi, postpozitivistik fan tarixining etakchi namoyandalaridan biri, K.Popperning shogirdi, shu jihatdan o‘z falsafiy qarashlari tanqidiy ratsionalizmga yaqinroq. Tell–Aviv universitetining professori, ayni paytda AQSH va Kanada universitetlarida ham dars beradi, ilmiy tadqiqotlarda ishtirok etadi. A.sining falsafadagi nuqtai nazarlarida antropologizm va mantiqiy–metodologik dalillashdan tortib, diniy asoslashgacha bo‘lgan keng qamrovli metodologik yondashuvni kuzatish mumkin. A. fan metodologiyasiga muhim tarixiy–madaniy nuqtai nazardan yondashadi. U poppercha, fan bilan metafizika orasidagi chegaralarni aniqlashtirish nuqtai nazarini rivojlantirib, fan bilan texnologiya orasidagi chegarani ham aniqlab olish vazifasini qo‘yadi.

**Agglomeratsiya** — talay sanoat korxonalari joylashgan bir qancha bir–biriga tutash aholi punktlarini qamrab olgan va shu tufayli iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy va boshqa manfaatlar uyg‘unlashib ketgan hudud.

Aglomeratsiyadagi ma'muriy-hududiy birliklar o'z mustaqilligini saqlab qoladi, lekin ularning organlari umumiy muammolarni hal etishda hamkorlik qilishlari kerak bo'ladi. A. bitta katta shahar va uni o'rabi olgan nisbatan kichik shaharlar hamda shaharchalardan iborat bo'lishi mumkin. Biroq A. bir necha katta va o'zaro tutash mustaqil shaharlardan ham iborat bo'lishi mumkin (masalan, Germaniyadagi Rur Aglomeratsiyasi). A. - avvalo iqtisodiy (va muayyan darajada ijtimoiy) kategoriya. Lekin unga davlat-huquqiy nuqtai nazaridan ham qarash mumkin. Masalan, katta shahar organlarining A. butun hududi bo'yicha muayyan muvofiqlashtiruvchi vazifalarni bajarishi (xususan, poytaxt shaharlarning ma'murlari hamisha poytaxt atrofidagi shaharlar rivojlantirilishiga ta'sir ko'rsatishga harakat qiladilar), ularning tutash hududlar ma'murlari bilan birgalikda ish olib borishi, A. muammolari bo'yicha umumiy organning tuzilishi va uning A. da mavjud bo'lgan ma'muriy-hududiy birliklarning organlari bilan o'zaro hamkorlik qilishi shular jumlasidandir.

**Agnostitsizm** – inson ob'ektiv borliqni to'liq bilishi mumkin emas, deb hisoblaydigan falsafiy ta'limot.

**Agrar** (lot. agrarius) — 1) yerga,yerdan foydalanishga, unga egalik qilishga oid (mas, A. tanglik, A. islohot); 2) sanoatga nisbatan q.x. ishlab chiqarishi asosiy o'rinda turishini ifodalovchi so'z (mas, A. mamlakat va h.k.).

**Agrar tanglik** — qishloq xo'jaligida yuz beradigan iqtisodiy inqiroz. Uning mahsulotlarni ko'p ishlab chiqarish tufayli yoki mahsulotlarni kam ishlab chiqarish oqibatida yuz beradigan ko'rinishlari bor. Birinchi turdag'i A.t. sababi bozor iqtisodiyotidagi noaniqlikning bulishidir, buning natijasida talab va taklif muvozanati buziladi. Talab ortib borganda narx ko'tarilib xo'jaliklar foydani ko'p ko'radilar, ular ishlab chiqarishni kengaytiradilar, mahsulotlar haddan ortiq ko'payib ketib, ularning taklifi talabdan oshib boradi. Mahsulotlarning bir qismi sotilmay qoladi yoki o'ta past narxda sotiladi. Bozorning kasodligi dehqonlarni og'ir ahvolga solib qo'yadi, ular ishlab chiqarishni qisqartirishga majbur bo'ladilar, o'z sarf-xarajatlarini qoplay olmay xonavayron bo'ladilar. SHunday tangliklar 20-a. mobaynida bir necha bor yuz bergen. Uning eng dahshatlisi 1929 - 32 y.lardagi tanglikdir. Bu A.t. butun dunyodagi mamlakatlarni, qishloq xo'jaligining barcha tarmoqlarini chulg'ab oldi. A.T.ning ikkinchi turi agrar munosa-batlar eskirib qolganda, ular ishlab chiqarishni rag'batlantirmay qo'yganda yuz beradi. Dehqonlar mahsulotni ko'paytirishdan manfaatdor bo'lmay qoladi, chunki ularning daromadi qisqarib ketadi. Bozor narxlarining o'zgarishi dehqonlar zarariga bo'ladi, ya'ni dehqonchilik mahsuloti narxiga nisbatan sanoat mahsuloti narxi tez o'sadi. Natijada dehqonlar sanoat mahsulotini olish uchun o'z mahsulotini tobora ko'proq sotishga majbur bo'ladilar.

Bunday A.t. dan chiqish uchun qishloq xo‘jaligi isloh etiladi: yerga mulkchilik o‘zgartiriladi, yer dehqonlar mulkiga aylantiriladi, ijarachilikka keng yo‘l beriladi, serkapital inshootlar (irrigatsiya), yo‘llar va energetika sohalari davlat hisobidan rivojlantiriladi va h.k. Rivojlangan mamlakatlarda A.t.ni bartaraf etish uchun qishloq xo‘jaligi bo‘yicha maxsus qonunlar qabul qilingan bo‘lib, davlat qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotish mumkin bo‘lgan narxlarning eng quyi chegarasini belgilab qo‘yadi («fermerlarni qo‘llab-quvvatlash narxi»), ortiqcha qishloq xo‘jaligi mahsulotini xarid etib, uning zaxiralarini tashkil etadi, ortiqcha mahsulotni bozorga chiqarmay turgan yoki ekin maydonini bozorga qarab qisqartirgan fermerlarga subsidiya beradi va b. Qishloqdagagi mulkiy munosabatlar va xo‘jalik yuritish usullarini o‘zgartirish ishlab chiqarishni rivojlantirib, A.t.-dan chiqish imkonini beradi.

**Agressiya** (lot. aggressio – xujum) – bir davlat tomonidan o‘zga davlatga mustaqillikdan, hududiy yaxlitlikdan va taraqqiyotdan mahrum qilish maqsadida birinchi bo‘lib xujum qilinishi yoki kuch ishlatilishi. Davlatlarga biror bir boshqa maqsadlar b-n qurolli kuch ishlatilishi qam A. qisoblanadi. Mas., fashistlar Germaniyasining sobiq Ittifoqqa xujumi, AQSHning Gvatemala va xujumi, sobiq SSSRning Chexoslovakiya va Afg‘onistonga xujumi A. deb baholanishi mumkin. 20-a. boshlarida A. insoniyatga qarshi hilingan jinoyat deb e’tirof etildi. Turli mamlakatlar orasida tuzilgan shartnomalarda, xalqaro xujjatlarda A.ni ta’qiqlash prinsipi o‘z ifodasini topa boshladi. A.ni ta’qiqlagan va uni qonundan tashqarida deb e’lon qilgan birinchi xalqaro xujyat 1928 yilgi Parij pakti bo‘ldi. Pakt ilk bor A.ga qarshi kurashishni, agressiv siyosat olib borgan mamlakatlarni javobgarlikka tortishni belgilab berdi. Shu davrdan boshlab xalharo munosabatlarda kuch ishlatmaslik g‘oyasi umume’tirof etilgan qoidaga aylana bordi. 20-a.ning o‘rtalarida xalqaro vaziyatning keskinlashib ketishi BMT Bosh Assambleyasining sessiyalarida A. muammolarini muxokama qilishga majbur etdi. BMT Bosh Assambleyasining 1950-1951 y.larda o‘tkazilgan 5 va 6 sessiya-larida A.ga aniq ta’rif berildi. Shu vaqtadan e’tiboran bir davlat tomonidan boshqa davlatga nisbatan qar handay maqsadlarda qurolli kuch ishlatilishi A. deb e’tirof qilindi. Ushbu ta’rif asosida A.ning uch ko‘rinishi ko‘rsatib berildi: bevosita A., bilvosita A., A.da ishtirok etish. o‘zga davlat hududiga bostirib kirish, unga nisbatan birinchi bo‘lib kuch ishlatish, anneksiya siyosatini amalga oshirish bevosita A. deb baholanadi. o‘zga davlat hududiga bomba tashlash, uning qirg‘oq va portlarini ishg‘ol qilish, quruqlikdagi, suvdagi va havodagi qo‘sishlariga atayin xujum qilish, o‘zga davlat hududida o‘z qurolli kuchlarini joylashtirish haqidagi xalqaro shartnomasi va kelishuvlarni buzish bevosita A.ko‘rinishlari xisoblanadi. Bilvosita A.da aggressor-davlat o‘zga davlatga nisbatan yashirin tarzda qurolli kuch ishlatadi. Buning uchun, mas., qurollangan jangari

guruqlar yoki harbiy bo‘linmalar yollanishi mumkin. Biroh, BMT Nizomining 7-moddasiga muvofiq, xalqlarning milliy-ozodlik harakatida ishtirok etgan harbiy tuzilmalar agressor hisoblanmaydi. Biror bir davlatga A. qilish uchun o‘z hududini, harbiy bazalari va inshootlarini taqdim etish A.da ishtirok etish deb baholanadi. A.ga duchor bo‘lgan mamlakat, BMT Nizomining 51-moddasiga muvofiq, yakka tartibda yoki o‘zga mamlakatlar b-n hamkorlikda o‘zini himoya qilishga xahlidir. Biroh, bu haqda avval BMT xabardor etilishi shart. BMT Xavfsizlik Kengashi A. akti amalga oshirilganiga amin bo‘lsa, agressor davlatga nisbatan harbiy ahamiyatga ega bo‘lmasan choralar qo‘llaydi. Mas., agressor b-n iqtisodiy munosabatlar to‘xtatilishi, uning b-n diplomatik aloqalar uzib qo‘yilishi mumkin. Ushbu choralar ta’sir qilmagan taqdirdagina harbiy harakatlarga ruxsat etiladi.

**Agrobiznes** — qishloq xo‘jalik mahsulotlarini mexanizatsiyaga tayanib ommaviy ishlab chiqarish.

**Alteratsiya harakati** — individual xulq-atvor va ongni o‘zgartirish maqsad qilib qo‘yilgan harakat.

**Alternativ** (frans. alternative, lot. alter, — ikkitadan biri) — muqobil so‘zi, bir-birini istisno etuvchi emkoniyatlar xilma-xilligini, ulardan birini tanlash zarurligini bildiruvchi tushuncha. A.ga oabiiy bir holat sifatida qarash kerak. A. ao‘lmasan joyda yagona g‘oya va sub’ektiv fikrga erk beriladi. Tanlash imkoniyati mavjud bo‘lmaydi. Bunday holat tafakkur rivojiga, umuman taraqqiyotga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun, A. erkinlik va demokratiyaning eng muhim tamoyillaridandir.

**Alturizm** (frans. Altruisme, lot. alter - boshqa) — egoizmga qaramaqarshi axloqiy prinsip bo‘lib, u boshqa kishilarga beg‘araz xizmat qilishdan, ularning baxt-saodati uchun o‘z shaxsiy manfaatlarini qurban etishdan iborat. A. terminini fal.ga O.Kont kiritgan. A. tushunchasi odatda, yaqinlarga mehrmuhabbat b-n qarash, odamlarning xatolarini kechirish, o‘zining qadr-qimmatini chetlab o‘tib, o‘y-fikri va xatti-harakatini boshqalar hayotiga bag‘ishlash, o‘zini tamomila unutishni anglatadi. A.ga ko‘ra “Vivre pour altuz” (“boshqalar uchun yasha”) - bu ibora kelajakda axloqiy talabning epigrafi bo‘lib qolmog‘i kerak.

**Amaldorlar** — yirik tashkilotlarda rasmiy lavozimlarni egallab turgan odamlar.

**Amoralizm** (lot. a – yo‘q, moralis – axloq) — kishilar munosabatlarida axloq me’yorlarini inkor etish, umume’tirof etilgan xulq-atvor mezonlariga yengil-yelpi munosabatda bo‘lish. Amaliyotda A. alohida bir shaxsning ma’naviy yetuk emasligi yoki jamiyatdagi butun tabaqalarni ma’naviy tubanlikka olib keluvchi ijtimoiy ziddiyatlar b-n ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ongli, hayotiy nuqtai nazar sifatida A. urug‘ va qabilachilik munosabatlarining yemirilishi davrida kelib chiqadi. Bu davrda faoliyat

ko'rsatayotgan urf-odatlardan, an'anaviy odob mezonlaridan ma'naviylikni ajralib chiqishi sodir bo'ladi. Turmush tarzining mustahkamlanib qolgan tartibotlariga alohida munosabat yuzaga keldi. Antik jamiyatda, urug'chilik hayot kechirishning ma'naviy mezonlarini keskin buzilishi tezlashganda, har xil urf-odatlar va tabaqaviy mezonlar o'rtasidagi to'qnashuvlar tez-tez sodir bo'lganda A. har qanday axloq-odob qoidalari, mezonlarni shartli qabul qilish, ularni to'la nisbiyligini tan olishda o'z ifodasini topadi. Ijtimoiy madaniyatning hamma qadriyatlari inkor qilinadi.

Bu sharoitda hukmron ma'naviylik amaliy A. b-n birga kuzatiladi. qarama-qarshi kuchlar esa, A.ni qabul qilib har qanday ma'naviylikni rad etadilar. 19-a. o'rtalarida madaniyatning inqirozi davrida A.ning boshqacha shakli-immoralizmning g'oyalari rivojlana boshlagan. Bu g'oyalarning mazmuni ma'naviylikning to'la siyosiy maqsadlarga bo'ysundirilishi lozimligi uqtiriladi. A.ning o'ta shafqatsiz insoniylikka zid, yovuz shakli fashizmning g'oyasi va amaliyotida o'z ifodasini topdi. Buning eng asosiy ko'rinishi (fyurer) shaxsiga sig'inishdir. Bu sig'inishda har qanday vijdoniy mezonlar rad etiladi. Insonga muhabbat, hurmat, vijdon axloqiylik, mezonlari buzilishi A.ga olib keladi.

**Anaksagor**(mil.avv.500-428y)-qadimgi yunon faylasufi, Afina falsafa maktabining asoschilaridan biri.Bizgachaa asarlaridan 20 ta fragment yetib kelgan. U dunyoning yaratilishini materialistic nuqtai nazardan tariflangan. Unga ko'ra, dunyoning boshlang`ich holati harakatsiz shaklsiz, son-sanoqsiz, mayda qismlardan iborat. Bu aralashma aylanma harakatga kelgan va "qism"lar bir ko'rinishdan boshqa ko'rinishga o'ta boshlagan. Oddiy "qism"larning harakati, birikish va bo'linishida birlamchi ta'sir kuchini "nus"(aql) deb atagan.Nus o'ta yengil va nozik modda sifatida tushunilgan. Anaksagor kosmologiyasi samo jismlarining vujudga kelisini qismlarning birlamchi aralashuvlari va ularning aylanma harakatlari natijasida deb tushuntiradi.

**Anaksimandr** (mil. av. 610-546 yillar,Milet)-faylasuf,Milet maktabining vakili, "Tabiat haqida" deb nomlangan falsafiy asarning muallifi o'z ustozи Falesdan farqli o'laroq, Anasimandr koinotning markazida yassi silindr shakliga ega bo`lgan yer atrofida uch osmoniy halqa (quyosh, oy, yulduz,) aylanadi. Yunon naturfaylasufi bo`lgan. Anaksimandr bilish nazariyasida – tajriba, kuzatish, empirik bilishni asosiy usullardan biri deb hisoblagan.

**Anaksimen** (mil. av. 588-525 yillar,Milet) –antik olamning faylasufi. Anaksimennenning ta'limotiga ko'ra, dunyoning asosini, tabiatning mohiyatini havo tashkil qiladi. Havo benihoya, abadiy harakatchandir, ya'ni havodan vujudga keladi va yana unga qaytadi. Uning fikrich, makon o'z-o'zini rivojlantirib, o'z-o'zini boshqaradi, koinot abadiydir. Anaksimennenning

ta'limotida afsonaviy – diniy g'oyadan yiroqlashib, inson ongi bunyod etgan g'oyalarga yaqinlashadi.

**Anarxiya** (yunon. anarchia – bosh–boshdoqlik, hokimiyatsizlik) – ijtimoiy–siyosiy ta'limot bo'lib, shaxsni har qanday nufuzlar va turli–xil iqtisodiy, siyosat va ma'naviy ta'sirlardan ozod qilishni maqsad qilib qo'yadi. Davlat A. uchun salbiy manba bo'lib, uni zo'ravonlik, inqilobiy yo'llar bilan yo'q qilishi kerak.

A. ijtimoiy–siyosiy oqim sifatida G'arbiy Evropada XIX asrning 40–70 yillarida vujudga keldi. Uning nazariy asoslarini M.Shtirner, P.J.Prudon, M.A. Bakuninlar ishlab chiqishdi.

Bakuninning "kollektiv" anarxizmi («Davlatchilik va anarxiya», 1873) har qanday davlat ommaning ezish qurolidir va u zo'rovonlik-revolusion yo'l bilan yo'qotilishi zarur degan, g'oyani ilgari suradi. Ularning fikriga ko'ra, A. mayda xususiy mulkchilikni, undan foydalanishni yoqlab chiqadi.

A. ta'limotida ishlab chiqarish assotsiatsiyalarini o'z xohishiga ko'ra birlashuvi – ijtimoiy sistemaning ideali sanaladi. Keyingi davrlarda A.Yevropadagi «so'l oqim» harakatining biron ko'rinishlari sifatida namoyon bo'lmoqda.

**Anglangan harakatlar** — odamning muayyan sabab tufayli va anglangan maqsadlarga erishish uchun bajarayotgan harakatlari. Inson harakatlarining ko'pchiligi ongli tarzda bajariladi, shu sifat inson faoliyatini tabiatdagi voqeя va hodisalardan ajratib turadi.

**Androgenital sindrom** — individda erkak genitaliyasi bo'lgani holda, ayol gormonal tuzilmasiga ega bo'lishi tufayli yuz beradigan endokrin buzilishlar.

**Animizm** — dunyodagi hodisalarni ruhiy mohiyatlar boshqarishiga e'tiqod qilish.

**Anomaliya** (gr. notebris) — me'yor, umumiy qonuniyatdan chekinish.

**Anomik guruhlari** — manfaatli guruhlarning xarakteri va uyushqoqlik darajasiga ko'ra bo'lingan turlaridan biri. A.g. stixiyali tarzda paydo bo'ladiganlar va yemiriladigan guruhlardir. Ular uzoq yashamaydilar, tashkiliy jihatdan tarqoq va davlat organlari bilan muntazam aloqada bo'lmaydilar. Anomik guruhlarga stixiyali paydo bo'ladigan mitinglar, namoyishlar, boshqa norozilik aksiyalari ishtirokchilarining guruhlari misol bo'la oladi. Ko'pincha ularning harakati kuch ishlatish, majbur qilish shaklini oladi.

**Antik falsafa** — qadimgi davrda (mil. av. 8-a.da Yunonistonda, mil. av. 2-a.da Rim jamiyatlarida) shakllanib, mil. 6-a.ga qadar rivojlanib kelgan fal.iy ta'limotlar umumlashmasi. Sokrat, Platon, Aristotel, Geraklit, Demakrit kabi o'nlab f.lar mansub bo'lgan A.f. insoniyat fal.iy tafakkurining shakllanishida muhim rol o'ynagan. A.f. odam va tabiatning mohiyati haqidagi inson

tasavvurlari afsonalaridan ozod bo‘la boshlagan, Sharqning astronomik, matematik va b. fanlarga oid bilimlari Yunonistonda tarqala boshlagan davrdan shakllana boshladi. Mil.av. 6-5-a.larda tabiat to‘g‘risidagi bilimlar va fal. hali bir-biridan ajratilmagan edi. Amaliy tekshirish imkoniyati yo‘qligi sababli ko‘plab gipotezalar vujudga keldi. Bu gipotezalar dunyoni turli-tuman ta’riflashdan iborat edi. Bu xilma-xillik A.f.ni keyingi avlodlar uchun fal.iy tafakkur matabiga aylantirdi. Dunyoning yaratilishi masalasida A.f. monizm, materializm va idealizm, dialektika va metafizika yo‘nalishlarida taraqqiy qildi. Fales, Anaksimandr, Anaksimen, Anaksagor, Demokrit kabilar atonizm, materializm, idealizm yo‘nalishlaridagi qator fal.iy g‘oyalarning asoschilaridir. Mil. 529 y. imperator Yustinning Afinadagi fal. maktabini yopish to‘g‘risida qaror qiladi. Bu davrga kelib, A.f. fal.ning asosiy g‘oyalari masalasida o‘z taraqqiyotining yakuniga etgan edi.

**Antissientizm** – fanning jamiyat hayotidagi roli va ahamiyatini salbiy baholaydigan falsafiy nuqtai nazar.

**Antropogen** – inson faoliyati bilan bog‘liq.

**Antropotsentrizm** – dunyoni bilishda insonni ustun qo‘yuvchi falsafiy yondashuv.

**Anomiya** — bu tushuncha sotsiologiyaga Dyurkgeym tomonidan kiritilgan. U ijtimoiy me’yorlar individ xulq-atvorini belgilay olmaydigan vaziyatni anglatadi

**Antropologiya** — an’anaviy madaniyatlar va inson evolyusiyasiga oid masalalarni tadqiq qiluvchi ijtimoiy fan bo‘lib, u sotsiologiya fani bilan uzviy bog‘liqdir.

**An’anaviy davlat** — ishlab chiqarish negizini dehqonchilik va chorvachilik tashkil qiladigan davlatlar. An’anaviy davlatlar “ilk tamaddunlar” nomi bilan ham yuritiladi.

**Anketa** - (fr. enquête) o‘z mazmun va shakliga ko‘ra tartiblangan savollar va mulohazalar bayon qilingan so‘rov varaqasi.

Anketa so’rovi - sotsiologik tadqiqotlarda qo‘llaniladigan so‘rovlarning asosiy xilidan biri.

**Antropologiya maktabi** - Sotsiologiyada sotsioetnografik muammolar vujudga keldi. Bu o‘scha davr Britaniya koloniyasri va dominionlarni boshqarishda katta rol o‘ynardi. London Universitetida Edvard Vester Mark (1862 — 1931) sotsiologiya kafedrasini tashkil etdi. London maktabi funksionalizm tamoyillarini ishlab chiqdi. Bu nazariyaga ko‘ra jamiyat ehtiyoji bilan bog‘liq vujudga keladigan va rivojlanadigan barcha sotsial institutlar, ular bajaradigan murakkab vazifalar haqida keng fikrlar ilgari surildi. Bu esa keyinchalik strukturali funksionalizm nazariyasini yanada boyitdi. Ular odamlar o‘rtasidagi iqtisodiy va ijtimoiy aloqalarni o‘ziga xos farqini ko‘rsatib berishga harakat qildi.

**An'analar** - uzoq vaqt davomida avloddan avlodga o'tkazib beriladigan va ma'lum jamiyatlarda, ijtimoiy guruhlarda saqlanib boradigan ijtimoiy va madaniy meros elementlari.

**Aparteid** — Janubiy Afrikada vujudga kelgan irqiy segregatsiya tizimi. Hozirgi kunda yo'q qilingan.

**Aprior** — tajribadan tashqarida. Inson tafakkurida tajribada ko'rilmunga qadar, tajribadan qat'iy nazar paydo bo'lgan obraz, g'oya, tushuncha.

**Aristokratiya** (yun.aristokratia — yaxshilar hukmronligi) — 1) Ilk davlatning vujudga kelishi va rivojlanishi tizimida, shuningdek, imtiyozli urug' boshliqlari yoki boylar (dvoryan yoki er egalari bo'lgan yuqori tabaqalar); 2) iqtisodiy hukmron sinf, zadagonlarning siyosiy hokimiysi, hukmronligi. A. birinchi marta antik davrning mashhur mutafakkirlari — *Aristotel*, *Platon* tomonidan ilk davlat tuzumini idora etish vositasi sifatida ishlab chiqilgan.

**Aristotel** - (er.av. 384–322) ning «Metafizika» (yoki «Birinchi falsafa»), «Fizika», «Jon to'g'risida», «Analitika», «Kategoriyalar», «Siyosat to'g'risida», «Ritorika», «Etika» kabi asarlari bilan sotsiologik an'analari rivojiga katta xissa qo'shdi. Uning ta'limoticha, jamiyatning qul va qul egalariga bo'linishi, quldlarning hukmronligi va qullarning qulligi tabiiy holatdir. Axloqiy fazilatlar faqat erkin kishilarga, qul egalariga xosdir. U xalqni 2 yo'l bilan boshqarish mumkin deydi: qo'rquv urug'ini sochib boshqarish; mehr-muxabbat qozonib boshqarish mumkin.

**Assimilyasiya** — ozchilikning ko'pchik aholi ichiga singishib ketishi, bunda ozchilik aholi hukmron madaniyat me'yorlari va qadriyatlarini qabul qiladi.

**Assotsiatsiya** (lot. associo - birlashish, qo'shish) — umumiy maqsadga erishish uchun tuzilgan uyushma, ittifoq, guruh.

**Assotsial xulq** - (yunoncha - inkor va socialis - ijtimoiy)-alohida olingan shaxs yoki odamlarning ijtimoiy-salbiy sabablar asosida yuzaga keladigan ijtimoiy hayoti shakli bo'lib, bunday hatti-harakat boshqa shaxs, ijtimoiy guruh va hatto jamiyatga noqulayliklar yoki zarar yetkazishi mumkin (masalan, ichkilikbozlik yoki jinoyatchilik).

**Atributsiya** - (lot. attributum - berilgan) - ijtimoiy ob'ektlarga (inson, guruh, ijgimoiy birliklar) xos bo'lgan lekin ko'z ilg'amaydigan xususiyatlar.

**Autguruhlar**- bu guruh yoki sotsial kategoriya bo`lib, bunday guruhda individ guruhga a`zoligini his etmaydi.Bunday guruhsalar uyushmagan guruhsalar bo`lib, individ guruhda "biz" tushunchasini his etmaydi, o`zini bu guruhga begonaday ko`radi.

**Autsayder** - rasmiy guruhlarda o'z o'rnini topa olmagan, o'zini ko'rsatishga imkoniyati yo'q odam.

**Avom** (arab.) — 1) omma, barcha kishilar, oddiy xalq degan ma'noni

bildiradi; 2) ba'zan o'qimagan, bilimsiz nodon kishi ma'nosida ham ishlatilgan (mas, A. odam).

**Avtokratik harbiy boshqaruv** — o'z qo'lida butun hokimiyatni jamlagan harbiy yetakchining idora qilishi.

**Avtoritet** (lot. autoritas – hokimiyat) – keng ma'noda: bir shaxs yoki tashkilotning hayotda yoki jamiyatda qabul qilgan norasmiy ta'siri (mas. tarbiya, fan); tor ma'noda: hukumat qarorlarini amalga oshirishning bir turi. Ko'p hollarda A. qonun, qoida yoki ijtimoiy me'yorlar ta'siri bo'layotgan shaxslar tarafidan zarur, deb tan olinganligidir. A. shaxs yoki bir guruh shaxslarni kuch ishlatmay, zo'ravonliksiz fikrlashga yoki ishlashga yo'naltirishdir. A. ishlab chiqarishda, siyosatda va b. ijtimoiy jabhalarda alohida individlarning faoliyati, ko'proq mutasaddi tashkilotlar va mansabdor shaxslar tomonidan belgilanadi, ular qaror qabul qilib uning ijrosini nazorat qiladi. A.ning qay turda va qaysi jabhada amalga oshishi jamiyatning tarixiy rivojlanishiga bog'liq. T.Gobbs "Suveren A."da jamiyatni anarxiyadan saqlash chorasini va "hammani hammaga qarshi kurashishdan qutqarishning yagona choraside" degan edi. Anarxistlar esa, A.ni jamiyatda individning erkinligi, shaxs yagonaligini e'tirof etishgan. Nemis sotsiolog M.Veber A.ning "formal tipologiyasini" taqdim etdi. Unda A. falsafiy yo'l-yo'riqqa asoslanib, yo hukumatga erishishda aniq bir qoidalarga rioya qilish va uni qo'llash chegaralarini belgilaydi yoki tartib tushunchasi uning muqaddas va o'zgarmas muqaddas alomatlari mujassamlangan daho shaxsiyati b-n bog'liq. Veberning fikricha, A faqat avliyolar, targ'ibotchilar va siyosiy dohiylarga xosdir.

**Avtokratiya** (yun. autos – o'zim, kratos - hokimiyat) — yakka shaxsning hech qanday qonun, huquqiy me'yorlar cheklanmagan yagona hokimligi, ya'ni mustabid, yakka hokimiyatchilik, bir shaxsning nazoratsiz to'la hukmronligi. A. qad. davlatlar — Yunoniston, Rim imperiyasida faqat zo'rlik va qurol kuchiga tayangan, o'rta asrlarda esa, mutlaq monarxiyaga asoslangan davlatning belgisini ifodalagan. A. ayniqsa fashistik va kommunistik siyosiy tuzumlarda diktatorning huquq va ozodlikka qarshi qaratilgan shaxsiy o'zboshimchaligi ramziga aylandi.

**Avtomatlashtirish** — odamning minimal ishtirokida ishlab chiqarish jarayonining mashinalar tomonidan boshqarilishi va nazorat qilinishi.

**Avtonomiya** (yun. autos – o'zim va nomos - qonun) — xususiy qonuniyat tabiatiga muvofiq, o'z aqli va kuchi asosida, yashash, faoliyat yuritish. Ijtimoiy ma'noda A. muxtoriyatni anglatadi. 1) muayyan davlat tarkibida o'z-o'zini idora qiluvchi milliy davlat tuzilishi. Avtonom davlat Konstitutsiya doirasida o'z-o'zini mustaqil idora etadi. A. muayyan bir hududda bir butun bo'lib yashaydigan millatlarning o'z-o'zini siyosiy idora qilishini nazarda tutadi. A.davlatda hokimiyat organlari, sud, prokuratura

organlarining ishlari, maktablarda ta’lim tili mazkur millat tilida olib boriladi.

2) A. keng ma’noda muassasa, tashkilotlarning muayyan masalalarini o‘z holicha, mustaqil hal qilish hamdir. Axloqiy A. esa, o‘z aqli, o‘z tabiatiga muvofiq, o‘z kuchi b-n axloqiy mavqeini o‘zi belgilash huquqini anglatadi.

Nemis fay.i Kant buni axloqiy etuk odamga munosib yagona xususiyat deb hisoblaydi. A.ga qarama-qarshi tushuncha — geteronomiyadir.

**Avtoritar jamiyat** - (lotincha ijodkor, asoschi,boshlovchi, avtor) demokratik bo‘lmagan siyosiy rejimga asoslangan yoki siyosiy ongning avtoritar shakli. Bu siyosiy hukmronlik qilishning o‘ta reaksiyon shakli. Shaxsning diktatorlik elementlari bilan uyg‘unlashib ketadi.

**Avtoritar shaxs** — o‘z tarkibiga rigidlik, dunyoqarashdagi murosasizlik va turli nuqtai nazarlarni qabul qilishga layoqatsizlikni qamrab oladigan shaxsiyat tavsiflari yig‘indisi.

**Avtoritar tafakkur** — yangiliklardan va ijodiylikdan mahrum bo‘lgan fikr yuritish usuli bo‘lib, ijodiy tafakkurga ziddir. Unda mulohaza yuritish va uning chinligini aniqlash vazifasi noto‘g‘ri tamoyilga asoslangan bo‘ladi. A.t. biror muammoni o‘rganishdan avval o‘zini “asosiy mulohazalar yig‘indisi” b-n cheklab qo‘yadi. Bu mulohazalar yig‘indisi tadqiqotning asosiy yo‘nalishini belgilab beradi va ko‘pincha avvaldan ma’lum bo‘lgan natijani keltirib chiqaradi. Dastlabki asos bo‘lgan fikrlar sistemasi namuna sifatida qabul qilinadi va b. fikrlar unga bo‘ysundiriladi. Agar asosiy mulohazalarning deyarli barchasi avtoritetlar tomonidan aytilgan bo‘lsa, uning davomchilariga bu fikrlarni tushuntirish va izohlash qoladi. Avtoritetlar, nufuzli manbalar, jamiyat a’zolari, xususan yoshlarda milliy mafkura va milliy g‘oyani shakllantirishda asosiy omillardan biridir. Shu o‘rinda matbuotning, ayniqsa radio va televideniyaning u yoki bu manbaning avtoritet deb tan olinishidagi roli e’tiborlidar. Avtoritetlar masalasi murakkab va ko‘p qirralidar. Shu sababdan, fikr-mulohazalarning chinligini asoslashda avtoritet hisoblangan fikrlangan konkret sharoitga mos ravishda, me’yorga amal qilgan holda yondashish zarur.

**Avtoritaizm** (lot.autoritas-hokimiyyat) boshqaruvning tazyiiqiy uslublar bilan ifodalanuvchi davlat tizimi.

**Avtoritet** (lot. autoritas – hokimiyyat) – keng ma’noda: bir shaxs yoki tashkilotning hayotda yoki jamiyatda qabul qilgan norasmiy ta’siri (mas. tarbiya, fan); tor ma’noda: hukumat qarorlarini amalga oshirishning bir turi. Ko‘p hollarda A. qonun, qoida yoki ijtimoiy me’yorlar ta’siri bo‘layotgan shaxslar tarafidan zarur, deb tan olinganligidir. A. shaxs yoki bir guruh shaxslarni kuch ishlatmay, zo‘ravonliksiz fikrlashga yoki ishlashga yo‘naltirishdir. A.ning mavjudligi shaxslarda uchraydigan muammolarni faliy mushohada qilish imkoniyati chegaralanganligi, bu esa, o‘z vaqtida borliqning juda ham murakkabligidandir. Shulardan kelib chiqqan holda,

A.egasining tasdiqlariga ishonib yurish zaruratini asoslab berish qobiliyati nazarda tutilmoxda. A. ishlab chiqarishda, siyosatda va b. ijtimoiy jabhalarda alohida individlarning faoliyati, ko‘proq mutasaddi tashkilotlar va mansabdor shaxslar tomonidan belgilanadi, ular qaror qabul qilib uning ijrosini nazorat qiladi. A.ning qay turda va qaysi jahada amalga oshishi jamiyatning tarixiy rivojlanishiga bog‘liq. Gobbs “Suveren A.” da jamiyatni anarxiyadan saqlash chorasiini va “hammani hammaga qarshi kurashishdan qutqarishning yagona choraside”, degan edi. Anarxistlar esa, A.ni jamiyatda individning erkinligi, shaxs yagonaligini e’tirof etishgan. Nemis sotsiolog M.Veber A.ning “formal tipologiyasini” taqdim etdi. Unda A. fal-iy yo‘l-yo‘riqqa asoslanib, yo hukumatga erishishda aniq bir qoidalarga rioya qilish va uni qo‘llash chegaralarini belgilaydi yoki tartib tushunchasi uning muqaddas va o‘zgarmas muqaddas alomatlari mujassamlangan daho shaxsiyati b-n bog‘liq. Veberning fikricha, A faqat avliyolar, targ‘ibotchilar va siyosiy dohiylarga xosdir. Hoz. zamon fal.sida A. to‘g‘risida xilma-xil qarashlar mavjud.

**Axborot** — 1) biron voqeа haqidagi batafsil xabar, ma’lumot. Davlatlar o‘rtasidagi muzoqaralar natijasida tuzilgan bitim yoki shartnoma to‘g‘risida hukumatning rasmiy xabari. Tor ma’noda axborot-jamiyat hayotiga oid ahamiyatli, dolzarb faktlar haqidagi qisqa, sharxlanmaydigan ma’lumotlar. Keng ma’noda axborot-to‘planadigan, saqlanadigan va qo‘llanadigan har qanday ma’lumotlar.

**Axborot agentliklari** — matbuotda nashr etish, radio va televideniya orqali uzatish uchun axborotlarni to‘plash va tarqatish bilan shug‘ullanuvchi tashkilot. Maqomiga ko‘ra: hukumat agentliklari, kooperativ, xususiy, jamoatchilik agentliklari mavjud. Tarqatiladigan axborot xajmi va faoliyat ko‘lamiga ko‘ra - Juhon Axborot agentligi (inglizlarning Reyter, fransuzlarning AFP); mintaqaviy va milliy Axborot agentliklari mavjud.

**Axborot jamiyati** — sanoati rivojlangan davlatlarda axborotning yangi rolini, axborot ishlab chiqarish, uni qayta ishlash, tarqatishning sifat jihatidan yangi usullarini tasniflash uchun qo‘llaniladigan atama. Axborot jamiyati konsepsiyalari zamonaviy jamiyatlar o‘z tarixiy taraqqiyotlarida yangi bosqichga ko‘rilganliklarini ta’kidlaydi. Axborot jamiyatining tarixiy o‘rnini baholashda ikki yondashuv mavjud: Yu.Xabermas, E.Giddenslar tomonidan ishlab chiqilgan birinchi yondashuv axborot jamiyatini sanoatlashgan jamiyatning bosqichi sifatida talqin etadi. D.Bell va O.Tofflerga tegishli ikkinchi yondashuv axborot jamiyatini taraqqiyotning yangi bosqichi (“uchinchi to‘lqin”) tarzida o‘rganishni taklif etadi. Axborot jamiyatida birinchi o‘ringa xizmatlar ishlab chiqarish ko‘tariladi, jamiyatning malakaviy, ma’rifiy tarkibi, mehnatning tabiatini o‘zgaradi. Qishloq xo‘jaligi va sanoatda mehnat qiluvchilar soni keskin kamayib, asosiy mehnat sohasi – ahborot texnologiyalari sohasiga ko‘chadi. Parsonsiga ko‘ra jamiyat to‘rt

asosiy kichik tizim –iqtisod, siyosat, madaniyat va ijtimoiy sohaga bo‘lingan bo‘lsa, axborot jamiyatida ularga yana telekommunikatsion va ta’lim tizimlari kiritiladi.

**Axborot jamiyati konsepsiysi** — industrial va postindustrial jamiyat nazariyalarining davomi. Unga ko‘ra ijtimoiy tizimlarni o‘zgartirishning yangi omili sifatida informatika, kompyuterlar va elektronika chiqadi va ular negizida yangi sinflar va millatlardan yuqori ijtimoiy guruhlar (uyushmalar) vujudga keladi, ijtimoiy rivojlanish mexanizmlari o‘zgaradi. Nazariyotchilari O.Tofler, J.Neysbit, E.Masuda va boshqalar. «Axborot jamiyati»da insonning barcha muammolari axborotdan global foydalanish hisobiga hal qilinadi.

**Axborot texnologiyasi** — negizada axborot jarayonlaridan va mikrosxemalardan foydalanilayotgan texnologiya turlari.

**Axborotni kodlashtirish** - - 1) empirik ma’lumotlarni zarur talablar asosida qayga ishlash va tahlil qilishga tayyorlash bo‘yicha chora-tadbirlar yig‘indisi; 2)sotsiologik ma’lumotlarni qayta ishlash bosqichining birinchi davri (fazasi).

**Axloqiy-ma’naviy me’yor** - - to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri xulq-atvor va hattiharakat haqidagi g‘oyalar va qarashlar tizimi bo‘lib, u bir xil harakatlarni bajarishni talab etadi va boshqalarini taqiqlaydi.

**Axloq** - - u yoki bu ijtimoiy guruhlar va jamiyatdaga ijtimoiy munosabatlarni nazorat qilish va tartibga solish vazifasini bajaruvchi ijtimoiy institut, me’yorlar, baholar, xulq-atvor namunalari tizimi.

**Aqliy rivojlanish koeffitsienti** — mantiqiy qobiliyatlarni sinashda to‘plangan ballar yig‘indisi.

## B

**Bahoviddun Naqshband**, Muhammad ibn Muhammad Bahouddin an-Naqshband al-Buxoriy (Bahouddin yoki Xoja Bahouddin, Balogardon yoki Shohi Naqshband nomlari b-n ham ma’lum) (1318-Buxoro viloyati, hoz.Kogon tumani – 1389) – mashhur avliyo, naqshbandiya tariqatining aoschisi. U tug‘ilgan qishloq qasri G‘induvon (keyinchalik B.N. sharafiga qasri Orifon) deb atalgan. Uning oilasi va farzandlari to‘g‘risida ma’lumotlar yo‘q. Otasi to‘quvchi, hamda o‘yma naqsh soluvchi (naqshband) bo‘lgan. B.N.ning birinchi piri – ustozи Xoja Muhammad Boboyi Samosiy edi. keksa shayx yosh B.N.ni tarbiyalashni o‘rinbosarlaridan bo‘lmish Amir Sayid Kulolga topshirdi. B.N. ilm istab, Yassaviya tariqati shayxlarining mashhur vakillaridan biri bo‘lmish qusam Shayx oldiga boradi. Uch oy undan ta’lim olib, Buxoroga qaytadi va umri oxirigacha shu erda yashaydi. Ikki marta haj qilgan. G‘aribona hayot kechirgan, faqat o‘z mehnati – kimxobga naqsh

solist b-n kun ko'rgan. O'z ta'limotini yaratishda Yusuf Hamadoniy va Abduxoliq G'ijduvoniy naz-yalariga asoslangan. Ta'limotining asosida "Dil ba yor-u, dast-ba-kor" (Ko'ngil yorda, qo'l ishda) degan shior yotadi.

B.N. tasavvufdagi ilgarilar amalda bo'lgan qattiq bir qadar yumshatdi, mo'tadillashtirdi, kundalik turmushga mosladi. Uningcha, Allohga intilish ko'ngil b-n amalga oshishi kerak. qo'l esa, ish – mehnat b-n band bo'laversin. B.N. ning tarkidunyochilik qilmay ham Allohga etishish mumkinligi haqidagi g'oyasi musulmon olamida tasavvufning juda keng aholi qatlamlari ichiga kirib borishni ta'minladi. B.N. vafotidan keyin Naqshbandiya tariqati keng yoyildi. 15 a.da Xoja Ahror Ubaydulloh Valiy bu tariqatning eng yirik rahnamosi sifatida maydonga chiqdi. Jomiy, Navoiy, Bobur, Mashrab kabi shoirlar ham Naqshbandiya tariqatida edilar. Ular ijodida Naqshbandiya g'oyalari keng va atroficha targ'ib etildi.

**Banda** — individlarning norasmiy birlashmasi bo'lib, uning a'zolari qonun doirasidan chetga chiqadigan xatti-harakatlarni bajarish uchun muntazam uchrashib turadilar.

**Bandlik** - (aholining bandligi) - aholining ijtimoiy ishlab chiqarishga jalg etilganligini ifodaluvchi ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya.

**Bashorat** - (**prognoz**) - ma'lum bir dalillarga asoslangan holda biror-bir jarayon rivojlanishi yo'nalishlarini oldindan ilmiy tarzda ko'ra bilish.

**Begmatov Abdullajon Sirojiddinovich** (1945. 14. 4, Andijon sh.) – faylasuf. Namangan davlat pedagogika in-tining tarix-filologiya f-tini tamomlagan (1962-67). Ilmiy-pedagogik faoliyatini shu in-t o'zbek tilshunosligi kafedrasining o'qituvchi lavozimidan boshlagan. 1969 y.dan Andijon davlat tibbiyot in-ti, 1988 y.dan Andijon tillar pedagogika in-ti, 1994 y.dan Andijon iqtisodiyot va boshqaruvin-tida ishladi. Ayni paytda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi ilmiy-tadqiqotlar bo'limi mudiri (1997y.dan) Fal. sohasidagi ilmiy yo'nalishi ijtimoiy fal., sotsiologiya, ijtimoiy va boshqaruvin psixologiyasi b-n bog'liq. "Estetik baho strukturasi (estetik bahoda manfaatning roli)" mavzuida nomzodlik (1979), "Stimullarning mohiyati va amaliy faoliyatdagi o'rni" mavzuida doktorlik (1991) dissertatsiyasini yoqlagan. 100 dan ortiq ilmiy maqola va risolalar muallifi. Asarlari xorijiy mamlakatlarda, jumladan, Rossiya, Belorussiya, Qirg'iziston va Turkiyada nashr etilgan.

**Begonalashuv** (alienation) — biz insoniy mavjudot sifatida foydalanayotgan imkoniyatlarimizning o'zgalar tomonidan o'zlashtirilayotganini sezish tuyg'usi. Bu tushuncha Marks tomonidan insoniy imkoniyatlarning ma'budlarga yo'naltirilganini ifodalash uchun ishlatilgan. Keyinroq esa u aynan shu atamani ishchilarning tabiat ustidan

nazoratni yo‘qotayotganini, o‘z mehnati natijalari va mahsullariga egalik kila olmayotganini ifodalash uchun ishlatgan.

**Beonglik** (unconsions) — inson ongidan tashqarida mavjud motivlar va g’oyalar. Beonglikning asosiy psixologik murvati individ tomonidan mana shu beonglik darajasiga mansub hisoblangan impul’slar va mayllardir. Freyd nazariyasiga ko‘ra, individning bolaligida vujudga kelgan impulslar va mayllar uning butun hayoti davomida muhim rol o‘ynaydi.

**Beruniy Abu Rayhon (973-1048)** - Beruniy Markaziy Osiyodagina emas, balki umuman Sharqda, jahon fani va madaniyati tarixida ham eng ulug’ va buyuk mutafakkirlardan hisoblanadi. U o’zining «Qadimgi xalqlarlan qolgan tarixiy yodgorliklar», «Minerologiya», «Hindiston» kabi asarlarida ijtimoiy hayot masalalarini yoritgan. «Minerologiya» asarining muqaddimasida inson va uning ijtimoiy ahvoli, yerdagi burchi, olijanobligi, jamiyat hayoti, ijtimoiyadolat to‘g‘risidagi qimmatli fikrlarni bayon etgan. Beruniy tom ma’noda o‘z davri etnosotsiologi xam edi. «Qadimgi xalqlardan qolgan tarixiy yolgorliklar» asarida turli xalqlar: forslar, yunonlar, yaxudiylar, xristian - molikiylar va xristian -nasturiylar, majusiyalar, sobitlar, budparast arablar, musulmon arablar, turklar to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar yozib qoldirgan. «Hindiston» kitobida esa hind jamiyatining ichki tuzilishi to‘g‘risida, bu xalqlarning urf-odatlari, yil, oy va tarixiy sanalari, oilaviy munosabatlar, marosimlar, nikoh masalalarini o‘rgangan.

**Bilish** — tasavvur, tushuntirish va eslab qolishni qamrab oladigan tafakkur jarayoni.

**Biografik usul** — individ hayot yo‘lini uning o‘z yozuvlari, masalan, xatlari asosida o‘rganish.

**Birinchi dunyo** — kapitalistik ishlab chiqarish asosida rivojlangan iqqisodiyotga ega bo‘lgan davlatlar guruhi.

**Birlamchi guruhi** - asosan individning birlamchi ijtimoiylashuvi jarayonini va uning boshqa guruhlarga tortishini ta’minlovchi kichik guruhi. (oila, o‘smirlar guruhi).

**Birlamchi mehnat bozori** — doimiy ish va yaxshi mehnat sharoitlariga ega bo‘lgan individlar guruhining iqtisodiy ahvolini ifodalash uchgun qo‘llaniladigan atama.

**Birlamchi sektor** — hozirgi iqtisodiyotning tabiiy zaxiralarni topish va yig‘ish bilan bog‘liq bo‘lgan qismi, «qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi» ham shu qism ichiga kiradi.

**Bobur** Zahiriddin Muhammad (1483.14.2, Andijon — 1530.26.12, Hindiston, Agra sh.) — o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, tarixchi, olim, temuriylar sulolasining namoyandalaridan biri Umar Shayx Mirzoning to‘ng‘ich o‘g‘li, Amir Temurning nabirasi. Shayboniyxon Samarqandni egallagandan keyin B. majburan ona yurtini tark etib, o‘z yaqin yoronlari va

askarlari b-n Kobulga keladi. 1526 y.da esa Shimoliy Hindistonda o‘z davlatiga asos soldi. Boburiylar sulolasini Hindistonda 332 y. mobaynida hukmronlik qildi. B.ning Hindistonda erishgan buyuk yutug‘i shundaki, u, birinchidan, markazlashgan davlat barpo etgan bo‘lsa, ikkinchidan, tanazzulga uchragan ilm-fan va madaniyatni tiklash uchun urindi. B. turkiy qavm vakili bo‘lganligi uchun ham turkiyzabon adabiyotning Hindistonda ham rivojiga katta yordam ko‘rsatdi. O‘zi ham asarlarini turkiy tilda bitdi. Hatto farzandlari Humoyun, Komron Mirzolar ham forsiy b-n bir qatorda turkiy - chig‘atoy tilida ijod etishgan. B. yirik davlat arbobi bo‘lishi b-n birga etuk adib sifatida ham sermahsul ijod qilgan. Ayniqsa, “Boburnoma” asarida o‘rta Osiyo va Hindiston tarixiga oid boy ma’lumotlar to‘plagan. Ushbu asar bugungi kunda ham bu davr tarixini o‘rganish uchun noyob manba hisoblanadi. B. Hindistonda to‘rt yildan oshiqroq vaqt yashab ijod etdi va taxtni o‘z o‘g‘li Xumoyunga topshirdi. U Hindiston xalqi tarixida bunyodkor podshoh sifatida nom qoldirdi.

**Bokl (Genri Tomas) (1821-1862)** – ingliz tarixchisi va sotsiologi, sotsiologiyaning geografik maktabi namoyandasini. Asosiy asari “Angliya sivilizatsiya tarixi”(1857-1861). Bokl tarixni teologik talqin etishni tanqid qilib, tarixiy jarayonni qonuniyatlarini ochib berishni va bir qancha mamlakatlar misolida ularning amaliyotini ko‘rsatishni vazifa qilib qo‘yadi.

**Boylit** — individ yoki guruhga taalluqli bo‘lgan pul yoki mulk.

**Boshqaruв** - tashkilotning maxsus organining funksiyasi bo‘lib eng kam vositalar (vaqt, kuch, zahiralar) sarflab eng yuqori natijaga erishish bo‘yicha aniq tashkil etilgan faoliyatdir.

**Boshqaruв kapitalizmi** — korxonalarni ularning egalari emas, menejerlar boshqaradigan holat.

**Budda** (sanskrit. Buddha—nurlangan)—*buddizm* dini asoschisi. qad. hind afsonasida aytishicha, B. go‘yo insoniyatni azob-uqubatlardan xalos qilish uchun paydo bo‘lgan. B.ning asli nomi Siddxartxa Gautama bo‘lib, mil.av. 623-544 y.larda yashagan. B. badavlat xonadonga taalluqli shaxs. G‘ayritabiyy fazilatlarga ega bo‘lganligi uchun ota-onasi uni tashqi dunyodan ajralgan holda uyida o‘qituvchilar yollab o‘qitgan. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, Gautama 29 yoshida uyini tark etib o‘rmonlarda qalandarona hayot kechirib, 40 yoshga to‘lganda Banoras shahrida hayotning sirlarini ochganligi uchun unga B., ya’ni “Nurlangan” degan nom berishgan. Buddizm

**Buddizm** (*Buddha* nomidan olingan) — jahon dinlaridan biri bo‘lib, asosan Hindiston, Nepal, Birma, Yaponiyada keng tarqalgan. Er.av 6-asrda Shimoliy Hindistonda rivojlangan. Budda ta’limotida sotsiologik g‘oyalarga ko‘ra, inson hayoti – yovuzlik va azob-uqubatdan iborat, azob-uqubat chekishning sabablari esa istak va extirosdadir, ana shulardan qutilmoq kerak. Budda taklif kilgan «qutilish» yuli dindor kishi uchun «taqvodorlikka intilish»

va «yaxshilik bilan hayot kechirish»ga borib taqaladi. B.(Budda nomidan olingan), B u d d a-v i y l i k - jahonda eng keng tarqalgan dinlardan biri (xristianlik va islom dini b-n birga). Mil. av. 6-5-a.larda Hindistonda paydo bo‘lgan. Markaziy Osiyo, Jan.-sharqiy Osiyo mamlakatlarida va Uzoq Sharqda tarqalgan. Hoz. kunda B. Shri-Lanka, Myanma (Birma), Tailand, Laos, Kambodja, Vietnam, Tibet, Butan va Yaponiya kabi davlatlarning asosiy dinidir. B. muayyan tarixiy davrlarda Xitoy, Hindiston, Koreya va Indoneziyada, deyarli butun Osiyo xalqlari, ya’ni jahonning salkam 2/3 qismi aholisi ma’naviy qadriyatlariga juda katta ta’sir ko‘rsatgan. Rivoyatlarga ko‘ra, B. ga Siddhartha Gautama (Budda) asos solgan. B. da 2 asosiy yo‘nalish mavjud: xinayana va maxayana. Keyingisi juda ko‘p sekta va oqimlarga bo‘linadi. Boshqa dinlardan farkli ravishda B.da hech bir o‘zgarmas narsa yo‘q hatto xudo ham o‘zgaruvchan, deb uqtiriladi. B. ta’limotiga ko‘ra, inson doimo azob-uqubatga mahkum va bunga uning o‘zi sabab bo‘ladi. Bu ta’limotning eng qisqa bayoni "to‘rt oliv haqiqat"dan iborat: 1) azob-ukubat mavjud; 2) azob-uqubatning sababi (istak) mavjud; 3) azob-uqubatning tugashi (nirvana) mavjud; 4) azob-uqubatning tugashiga olib keluvchi sakkiz bosqichli yo‘l mavjud. Sangxa - Budda asos solgan va hozirgacha faoliyat ko‘rsatib kelayotgan rohiblar jamoasi. Sangxa jamoasiga qabul etilgan shaxs quyidagi 10 farzni ado etishga qasamyod qiladi: 1) hech kim yoki hech narsani hayotdan judo qilmaslik; 2) yolg‘on so‘zlamaslik; 3) o‘g‘rilik qilmaslik; 4) jinsiy alokdga kirmaslik; 5) mast qiluvchi ichimlik ichmaslik; 6) kunning ikkinchi yarmidan to ertangi sahargacha ovqat tanovul qilmaslik; 7) uch kiyimdan ortiq hech narsa b-n tanani bezamaslik; 8) ommaviy ko‘ngil-xushliklarda ishtirok etmaslik va tomoshabin sifatida qatnashmaslik; 9) baland va yumshoq o‘rinda yotmaslik; 10) pul ishlatmaslik. B. Shri-Lanka, Jan.-sharqiy Osiyo va Markaziy Osiyo orqali Xitoy, Koreya, Yaponiya va Tibetga yoyilgan. Shri-Lanka va Jan.-sharqiy Osyoning materik qismida txeravada B. (qad. an’analarga sodiqlik), Xitoy, Koreya, Yaponiya va Tibetda esa, maxayana (yangicha yondashuvlar) tarqaldi. 15-a.da Osiyo qit’asida paydo bo‘lgan evropaliklar B. b-n tanishdilar. Ularning ba’zilari B.ga kirgach, Angliya, Germaniya, AQSHda o‘z jamoalarini tashkil etdilar. Xitoylik va yaponiyalik muhojirlar bu e’tiqodni Gavayya orollari va AQSHning g‘arbiy sohillariga olib keldilar. B. ning bir necha xalqaro tashkilotlari ham mavjud.

Odatda 12—13 yoshli o‘spirin 20 yoshgacha, ya’ni balog‘atga etgunga qadar monastirda rohiblikni o‘taydi, lekin taxm. ularning uchdan bir qismi umrbod shu maqomda qoladi. Oddiy qavm yoki dunyoviy kishilarning eng asosiy kundalik vazifasi - rohiblarni ovqat b-n ta’minlashdir. O‘zbekistonda bitta B. jamoasi rasmiy ravishda faoliyat ko‘rsatadi.Burhoniddin Marg’iloniy

**Burhoniddin Marg’iloniy** Abul Hasan Ali ibn Abu Bakr ibn Abul Jalil

al-Farg‘oniy ar-Rishtoniy (1121.23.9, Rishton — 1197.29.10, Samarqand)— fiqh olimi. “Burhoniddin”, ya’ni “Islom va shariatning rad qilib bo‘lmaydigan mutlaq isboti” faxrli unvon sohibi.

B.M. Rishton, Marg‘ilon, Buxoro, Samarqand va b. shaharlarda o‘z padari buzrukвори, akalari qo‘lida, so‘ngra mакtabda va Marg‘ilondagi Fur Siddiq madrasasida tahsil oldi. quroni karim, Hadisi sharif, tafsir ilmini chuqur egalladi.

B. M.ning ulug‘ faqih bo‘lib yetishishida shariatning asoschilarini va nazariyotchi mujtahidlari Abu Hanifa Imom ul-A’зам, Abu Yusuf al-Xorijiy, Imom Muhammad ash-Shayboniy, ayniqsa, Imom Abul Hasan Al-qodiriylar uning “al-Muxtasar” nomli shariatda juda mo‘tabar manba sanaladigan kitoblaridagi huquqiy naz-yalar, g‘oya va qarashlar asosiy o‘rin tutgan.

B. M. 1149 y. haj safarida bo‘ldi. qaytayotib o‘z bilimlarini teranlashtirish maqsadida Mavr shahrida farg‘onalik olim Tojiddin Ahmad ibn al-Husayn al-Banandinjiydan hadislar tinglaydi. Balxga kelib, Abu-shujo Umar ibn Muhammad al-Bistomiydan uning ixtiyorida bo‘lgan barcha asarlarga ijozat oladi. Tahsil yillari tugab, B.M. yetuk faqih darajasiga yetgach, Samarqand Shayx ul-Islomi mansabiga tayinlanadi. o‘ndan ortiq asarlar yaratadi. Shulardan 6 tasi bizgacha etib kelgan bo‘lib, saqlanganlarning barchasi fiqh (islom huquqshunosligi) masalalariga bag‘ishlangan.

B.M.ning “Al-Hidoya” asari mashhur. “Al-Hidoya” hanafiya fiqhining 4 asrlik rivojiga yakun yasadi. “Al-Hidoya” 53 kitobdan (bo‘lim) iborat bo‘lib, amaliy fiqhning (furu’ al-fiqh) hamma jahbalarini qamrab oladi. Asarda islamning asosiy marosim talablari, huquqiy va axloqiy qoidalari, xususan tahorat, namoz, zakot, ro‘za, haj, qurbanlik, oila va nikoh masalalari b-n bog‘liq qoidalari batafsil yozilgan. Unda mulkiy va moliyaviy munosabatlar, jinoyat va jazo, fuqarolik huquqi, sudlar va protsessual masalalar, turmush va faoliyatdagi taqiqlashlar va ijozatlar haqida ham fikr yuritiladi. Bu asar islamdagi sunniylik oqimining hanafiylar mazhabi keng tarqalgan mamlakatlarda amaliy qo‘llanma sifatida keng foydalilanladi.

14-a.da “Al-Hidoya” hanafiy dunyosida mumtoz asar deb tan olindi. Shu davrdan boshlab u madrasa tizimida oliy fiqhshunoslik ma’lumotini olishda yod olinishi lozim bo‘lgan asosiy o‘quv qo‘llanma, deb hisoblana boshladi. B.M.ning bu shoh asari arab tilidan fors, ingliz, rus, o‘zbek va b. tillariga tarjima qilindi.

Marg‘inoniyalar sulolasi nomi b-n bog‘liq musulmon fiqhshunoslaring Farg‘ona mакtabi nafaqat Turkiston hududida, balki butun o‘rta asr arab-musulmon dunyosi huquqshunoslik ilmida asrlar bo‘yicha etakchi bo‘lib qolishida B.M. hal qiluvchi rol o‘ynagan. “Al-Hidoya” o‘rta asrda ham, hoz. kunlarda ham nafaqat shariat qomusi, qonunlar chiqarish ibtidosi, balki, umuman, har qanday huquqiy ma’rifat, ta’lim va tahsilning birlamchi ibtidosi,

shariatdagi hanafiya huquqiy matabiga ergashuvchi, unga amal qiluvchilar uchun emas, balki shariatdagi barcha mazhablar uchun ham andoza manbaidir. B.M. imom, qonunshunos, hadisshunoslik ulamo, qur’oni yoddan bilgan va tafsir qilgan, huquqiy bilimlarni to‘plab, ularni yaxlit va bir butun fan holatiga keltirgan tadqiqotchidir.

B.M. tarixda chuqur iz qoldirdi. Uning uch o‘g‘li – Jaloliddin Muhammad, Nizomiddin Umar, Imomuddin Abu Bakr otalaridan so‘ng uzoq muddatda navbatma-navbat Samarqand shayx ul- islomi bo‘lib turdilar. Nevarasi Abdurahim ibn Bakr al-Marg‘inoniy (vafoti 1253 y.dan so‘ng) o‘zining fiqhiy asari “Al-Fusul al-Imodiya” b-n islom dunyosida shuhrat taratdi. Evarasi Abdulavval ibn al-Marg‘inoniy (vafoti 1411 y.dan so‘ng) Turkiyada mashhur olim va ustoz sifatida tanilgan. Amir Temur va temuriylar (1405—1500) davrida B.M. avlodlari Movarounnahrda uzoq yillar shayx ul-islom lavozimini egallab turdilar.

B.M.ning va umuman shariatning huquqiy merosini, undagi demokratik qadriyatlar, adli-insof, insonparvarlik an'analarini o‘rganish xalqimiz, millatimiz, davlatimizda siyosiy ong, madaniyat, huquqiy shuur, malaka, qonunchilik an'analarini, tarixiy xotirani tiklash, qonunni to‘g‘ri tushunish, talqin etish va qo‘llashdagi xalqimiz, millatimizga hozirjavoblik va qat’iyatlik xislatlarining qaytadan tiklanishi, rivojlanishiga va demak, huquqiy jamiyat qurish ishiga xizmat qiladi.

**Buxoriy**, Imom al-Buxoriy (asl ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy) (810.21.7, Buxoro — 870.31.8, Samarqand yaqinidagi Kartang qishlog‘i) — mashhur hadisshunos olim. B.ning atoqli alloma bo‘lib etishuvida oila, madrasa oarbiyasidan tashqari ustozlarining ham buyuk xizmatlari bor. Imom A.ning “Al-Jome’ as-sahih” asari sunniylar tomonidan y’tirof etilgan “Sihohi sitta” (olti sahib kitob)ning birinchisidir. B.ning boshqa asarlari: “At-Tarix al-kabir”, “At-Tarix as-sag‘ir”, “Az-Zuafo as sag‘ir” (“Zaif hadislar haqida kichik kitob”), “Al-Kuno” (“Roviyarlarnig kunyalari”), “Al-Adab al-Mufrad” (“Adab durdonalari”), “Az-Zuafo al-kabir” (“Zaif hadislar haqida katta kitob”), “At-Tafsir al-kabir” (“Katta tafsir”), “Birrul - validayn” (“Ota-onaga yaxshilik qilish haqida”), “Al-Jome’ al-kabir”, “Al-Musnad al-kabir”, “Asomi as-sahoba” (“Sahobalarning ismlari”), “Kitob al-Hiaa” (Xolis sovg‘a kitobi), “Eitob al-Ilal” (“Illatli hadislar kitobi”). “Kitob al-Favoyid” (“Foydalar haqida”), “Sunan al-Fuqaho” (“Faqiqlarning hukmlari”), “qazoyo as-sahobati va-t-tobe’iyn” (“Sahoba va tobe’iynlarning qozilik hukmlari”), “Xalqu af’alul-ibodi” (“Obidlarning fe’llari xalq qilingani”) va b.

B. umri davomida yozib olgan va yod bilgan 600 000 hadisdan eng ishonchli sahihlaridan 7275 tasini ajratib, “Al-jome’ as-Sahih” kitobiga kiritgan. B.ning o‘zi guvohlik berishicha, 100 000 hadisni yod bilgan . Mazkur to‘plamda rasulullohning hadisi shariflari “Iymon”, “Tahorat”,

“Namoz”, “Zakot”, “haj”, “Nikoh”, “Taloq”, “Savdo-sotiq kitobi”, “Ichimliklar”, “Vakolat kitobi”, “Hadyalar”, “Guvoqliklar kitobi”, “Sulh kitobi”, “Vasiyat kitobi”, “Dastlabki yaratish” (Olamning paydo bo‘lishi), “Jihod”, “Maloikalar haqida” kabi 100 bobga bo‘lingan. har bobda mavzuga doir hadisi shariflar ishonchli roviylar isnodi (manbai) b-n keltiriladi. “Jome’ as-sahih” shunday bir ulkan ma’naviy xazinaki, unda keltirilgan sahih hadislar qur’oni karim oyatlaridan keyin o‘z zamonasida va keyinchalik ham eslom shariati, kalom va fiqh ilmlarida shar’iy hukmlarga asos bo‘lib xizmat qilgan. “Jome’ as-sahih” to‘plamidagi ba’zi hadislar hozirgi tabiatshunoslik ilmlarining ham asosini tashkil etganini ko‘ramiz. Mas. “Suv haqidagi hikmatlar” kitobida barcha o‘simgiklar va jonzotlar suvdan paydo bo‘lgani haqida qudsiy hadis keltirilgan. Vaqf mulklari, merosxo‘rlarning haqlari, ilm-ma’rifat o‘rganish barcha muslimon erkak va ayollarga farzligi haqidagi hadisi shariflar hamda iuhim hayotiy muammolarda shariat hukmlari va sozilarning fatvolariga manba bo‘lgan.

“Al-Adab al-Mufrad” asarida B. inson axloqi, odobi, ma’naviy kamolotiga doir hadislarni turli mavzular bo‘yicha tasnif qilgan va zarur izohlarni bergen. Bu asarda 1322 ta hadis va xabarlar 644 bobda jam qilingan. “Adab durdonalari” asarining ilk boblarida ota-onada oldida farzandlik burchlari, ota-onani rozi qilish, ularning haqini ado qilish, ota-onada amriga itoat qilish, ota-onada mushrik bo‘lsa ham ularga yaxshilik qilish, ularning dilini og‘ritmaslik, ota-onada duosi, qarindosh urug‘lariga mehr-shafqat, rahmdillik, yosh bolalarga, ayollarga mehr-muruvvatli bo‘lish, bolalar va kattalar arazlashib, urishib qolganida yarashtirib qo‘yish, imorat qurishda va boshqa ishlarda kamtarlik bilan ish tutish, takabburlik va so‘kinishning yomonligi, jabr-zulmning yomonligi, rostgo‘ylik va yolg‘onchilik, halol va harom, savob va gunoh ishlar, molni tejash va ko‘paytirishning yaxshiligi kabi enson ma’naviy hayotiga doir muhim muammolar haqida hadisi shariflar asosida fikr yuritiladi. Imom B. hayotida nodir asarlar yozish b-n birga juda ko‘p ajoyib shogirdlar etishtirdi. Bular orasida Abu Iso at-Termizi, Muslim ibn Hajjoj kabi buyuk muhaddis va mufassir allomalar bor. U, Nishopurda at-Termizi b-n bir joyda yashab, besh yil davomida ilm va ijodda hamkorlik qildi. Alloma keyinchalik Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog‘ida qarindoshlari huzurida yashaydi. Shu erda 62 yoshda vafot etadi. Imom B.ning “Jome’ as-sahih” va b. asarlari ko‘p asrlar davomida va hozir ham butun dunyodagi islam mamlakatlarida buyuk ehtirom b-n o‘rganilib, aasturulamal xizmatini o‘tamoqda.

**Byorhgem Jeyms(1905-1971)** – amerikalik sotsiolog, Nyu-York universiteti professori. 1955 yildan “Milliy obraz” jurnali noshiri. “Boshqaruvchilar revolyutsiyasi” nazariyasini ilgari surgan. Byorhgemning fikricha, kelajakda faqat boshqaruv funksiyasiga ega bo‘lgan yuqori

ma'muriyat butun jamiyatning iqtisodiy va siyosiy jihatdan boshqaruvini ta'minlashga qodir bo'ladi.

**Byurokratiya** — aniq hokimiyat ierarxiyasiga, amaldorlar xulq-atvorini belgilab beradigan ko'rsatma va yo'riqnomalarga ega bo'lgan tashkilot tipi, amaldorlar shtati. B.aniq hokimiyat ierarxiyasiga , amaldorlar hulq – atvorini belgilab beradigan ko'rsatma va yo'riqnomalarga ega bo'lgan tashkilot tipi , amaldorlar shtati. Byurokratiya so'zi 1745 yilda de Gurne tomonidan iste'molga kiritilgan. U "idora" va "yozuv stoli" ma'nolarini anglatadigan "byuro" so'ziga yunoncha "boshqarmoq" fe'lini qo'shgan. SHunday qilib "byurokratiya" so'zi amaldorlar hokimiyati degan ma'noni anglatadi. Avvaliga bu so'z faqat davlat idoralariga nisbatan qo'llanilgan , lekin uning ma'nosi asta – sekin kengayib , hozirda har qanday katta tashkilotga nisbatan qo'llaniladi. Boshida bu so'z kansitish ma'nosida qo'llanilgan. De Gurne amaldorlarning ortib borayotgan kuchini "byuromaniya kasalligi" deb atagan. Fransuz yozuvchisi O.Balzak byurokratiyani "olchoqlar tomonidan boshqariladigan ulkan hukumat"deb ataydi . Bunday qarash hozirgi kungacha saqlanib qolgan . Byurokratiya deganda , odatda , ortiqcha ovoragarchilik , samarasizlik va isrofgarchilik yodga keladi .

Biroq ko'plab odamlar byurokratiyani bir oz boshqacharoq , ya'ni boshqaruvning puxta , aniq va samarador modeli deb baholaydilar . Byurokratiya , deydi ular , aslida insoniyat o'ylab chiqqan eng samarali tashkilot turidir , chunki barcha vazifalar qat'iy qoidalar bilan belgilanadi , Maks Veber tomonidan byurokratiyaga berilgan aniq ta'rif bu ikki qarama – qarshi fikrning keltirilgan holatidir . M. Veber fikriga ko'ra , zamonaviy jamiyatda byurokratiyaning tarqalishi qochib qutilib bo'lmaydigan jarayondir . Byurokratik hukumatning rivojlanishi – yirik sotsial tizimlarning ma'muriy talablarini bajarishning yagona yo'lidir . Biroq Veber byurokratiyaga jamiyat hayotiga kuchli ta'sir o'tkazuvchi yirik kamchiliklar xos deb hisoblaydi .

**Bo'sh vaqt** - inson, ijtimoiy guruh va umuman jamiyatda zaruriy ravishda sarflanadigan vaqt zaxiralaridan ortib qoladigan, ya'ni ish vaqtidan tashqaridagi vaqt qismi.

## D

**Dala tadqiqoti** - 1) tor ma'noda: joylardagi (uyda, korxonalarda va h.k) o'tkaziladigan tadqiqot; 2) keng ma'noda -tadqiqot ob'ektini tabiiy «dala» sharoitlarida, uning kundalik hayotini ijtimoiy miqyosda o'rganish.

**Daotsizm** - qadimgi Xitoyda vujudga kelgan diniy – falsafiy ta'limot. Unga *Lao Szi* asos solgan. Lao Szi "Dao", "Si" ta'limotini ishlab chiqqan.

Keyinchalik bu ta'limotni D. deb atashgan. “Dao” – bu tabiiy qonun. Jamiyatning barcha a'zolari tabiiy qonun (“dao”)ga qat’iy bo‘ysunishlari kerak. Kimki “dao” qonunini buzsa, tabiat undan albatta o‘ch oladi. “Si” – bu jismlarning ildizi, ya’ni borliq. U beshta unsur-er, suv, olov, yog‘och va metalldan tashkil topgan. Dunyodagi barcha jismlar beshta unsurning turlicha birikishidan yuzaga kelgan. Lao szi ta'limoti keyinchalik qad. Xitoydagi Mao Szi va Van Chunlar ijodiga ta’sir ko‘rsatgan.

**Darendorf Ralf(1929)** –germaniyalik sotsiologlardan biri. Hozirgi zamon liberalizmning tarafdarlaridan biri. Konfliktologiya fani rivojiga xissa qo’shgan. U o’zining marksizmga qarshi qaratilgan “ijtimoiy konfliktlar” konsepsiyasida sinflarning asosiy belgisi mulkka bo’lgan munosabatlaridangina iborat emasligini ko‘rsatadi. 1970 yillardan boshlab, u “yaxshilanayotgan jamiyat” konsepsiyasini ilgari suradi, bunda taraqqiyot, asosan, ijtimoiy va madaniy tengsizlik tufayli amalgalashadi.

**Daromad** — lavozim ish haqi, maosh yoki investitsiyalar bilan bog‘liq pul kirimlari.

**Devavatsiya** (ing. devolution) — milliy yoki xalqaro pul birligi kursining b. mamlakatlар yoki xalqaro valyuta birligiga nisbatan qadrsizlanishi. D. valyutaning inflyasiya natijasida qadrsizlanishini, alohida mamlakatlarda uning rivojlanishining notejisligini aks ettiradi. D. xorijiy valyuta kursining ko’tarilishiga olib keladi, natijada, xorijiy mahsulotlar narxi nisbatan qimmatlashadi, milliy mahsulotlar esa nisbatan arzonlashadi. D. Jahon valyuta fondining (JVF) asosan rivojlanayotgan mamlakatlар uchun, hozirgi sharoitda esa, Sharqiy Evropa davlatlari uchun ham barqarorlashtiruvchi dasturlarida ko‘zda tutilgan vosita hisoblanadi.

**Deduksiya** (yun. deductio — xulosa chiqarish)— bilish jarayonida fikrda umumiy bilimlardan juz’iy, alohida bilimlarga qarab yo‘nalish jarayoni. D. vositasida tadqiqotchi bir sinf, bir jins, bir guruh narsa yoki hodisa to‘g‘risidagi umumiy bilimlardan ularning har biri haqida alohida bilimlarni hosil qiladi. Insonning bilish tajribasidan shu narsa ma’lumki, agar biron xususiyat bir toifa yoki bir jinsdagi hamma narsa yoki hodisalarga xos bo‘lsa, bu xususiyat shu toifa yoki jinsga oid har bir narsa yoki hodisaga ham xos bo‘ladi. D. asoschisi fransuz fay.i R.Dekartdir. U F.Bekondan farqli o‘laroq, bilishda D. vositali xulosa chiqarishning alohida shakli, bunda xulosa umumiyyadan yakkaga qarab boradi, degan fikrni ilgari surdi.

**Davlat** (state) — muayyan hududda boshqaruvni amalgalashadigan, huquqlari va kuch ishlatish imkoniyati qonuniy mustahkamlangan siyosiy apparat (hukumat institutlari va davlat xizmati amaldorlari). Davlat hamma jamiyatlarda ham bo’lgan emas. U ovchilar va termachilar jamiyatida, shuningdek, agrar tipdagi kichik jamiyatlarda ham bo‘lmagan. Davlatning paydo bo‘lishi insoniyat tarixida juda muxdgm-^adam bo‘ldi, chunki siyosiy

hokimiyatning markazlashuvi ijtimoiy o‘zga rishlar jarayoniga yangi kuch bag‘ishlaydi.

**Davlat boshqaruvi tizimi** – davlat organlari jamiyat siyosiy hayotining barqarorligi va tartibini ta’minlash imkonini beruvchi usullar, vositalar, mexanizmlar birligi. Davlat boshqaruvi tizimi rivojlanishi davlat hokimiyatining bo‘linishi hamda markaz va mintaqalar manfaatlarining birligi va o‘ziga xosligi tamoyillariga asoslanadi. Davlat rivojlanishning umummilliyl ustuvor yo‘nalishlarini, ichki va tashqi siyosat tamoyillarini, mahalliy davlat organlari vakolatlarini ham

**Davlat mexanizmi** – davlat xokimiyatini amalga oshiradigan, jamiyatga davlat rahbarligini ta’minlovchi davlat tashkilotlari tizimidir. Davlat mexanizmi davlat apparatidan, ya’ni davlat organlarining yig‘indisidan, davlat muassasalari va korxonalaridan iborat.

**Davlat sog‘lijni saqlash tizimi** — jamiyatdagi har bir fuqaro uchun ochiq bo‘lgan va davlat tomonidan subsidiya beriladigan sog‘lijni saqlash xizmatlari.

**Davlat to‘ntarishi** — hokimiyatni qurol yordamida egallab olish. Inqilobdan farqli ravishda unda keng xalq ommasi ishtirok etmaydi.

**Davlatchilik jamiyati** — rasmiy apparatga ega bo‘lgan jamiyat.

**Davriy monogamiya** — individning bir necha nikohdan ketma-ket o‘tishiga ijozat beriladi, lekin u ayni paytda faqat bir nikohda bo‘lishi mumkin.

**Dekarseratsiya** — odamlarning ruhiy shifoxona va qamoqxonalardan ozod qilinishi, keyinchalik ular boshqalar — jamiyat orasida yashaydilar.

**Demografiya** - (grekcha demos - xalq hamda grapho yozaman: xalq haqidagi yozuvlar), - aholishunoslik to‘g‘risidagi fan. Demografiya aholining barcha tabaqa va guruhlarini son va sifat jihatidan o‘rganadi. Bu erda asosan tug‘ilish, o‘lim, nikoh, ajrim, migratsiya jarayonlari hamda ularga ta’sir qiluvchi omillar o‘rganiladi. D. atamasini birinchi marta fransuz olimi F.Giyyar qo‘llagan. Aholishunoslik naz-yasini ishlab chiqishga antik davrda D. ijtimoiy, iqtisodiy, biologik, geografik omillar, sabab va shart -sharoitlar asosida nufus dinamikasi, migratsiyasi, o‘rnashuvi, strukturasi qonuniyatlarini o‘rganuvchi ijtimoiy-gumanitar fan hisoblanadi. qonuniyatlar va xulosalar asosida D.nufus naz-yasi va siyosatini ishlab chiqadi, mamlakat, shahar, viloyat, mintaqa va umuman, jahon aholisining o‘zgarish istiqbollarini belgilaydi. Demografik jarayonlar holati ijtimoiy-iqtisodiy, biologik va jug‘rofik omillar b-n chambarchas bog‘liq. D. sotsiologiya, iqtisod, tarix, huquq, etnologiya, sotsial gigiena, aholi geografiyasi, tibbiyot, gerontologiya, genetika, statistika kabi ilmiy sohalar b-n mustahkpam bog‘liq holda rivojlanmoqda.

**Demografik o‘tish** (demographic translition) — aholi o‘sishi sohasidagi o‘zgarishlarni talqinqlish bo‘lib, tug‘ilish va o‘lim daraja-lari o‘rtasidagi barqaror mutanosiblik iktisodiy farovonlikning muayyan darajasida erishilishi mumkinligidan kelib chiqadi. Bu tav-sifga ko‘ra, sanoatlashuvgacha bo‘lgan jamiyatlarda tug‘ilish va o‘lim o‘rtasida taqrifiy muvozanat mavjud bo‘lgan, chunki aholining o‘sishi oziq-ovqatning etarli bo‘lmagani, urush va kasalliklar tufayli o‘lim ko‘p bo‘lishi tufayli aholining o‘sishi cheklab turilgan. Hozirgi ja miyatlarda buning aksicha. Aholi muvozanatiga erishish uchun to‘la im-koniyatlar bor, chunki oiladagi bolalar soni iktisodiy imkoniyat-larga bog‘liq.

**Demokratik jamiyat** - (yunon.xalq hokimiyati)-xalqning hokimiyat manbai ekanligi, davlat ishlarini hal qilishda qatnashishini bildiradi.

**Demokratiyaning plyuralistik nazariyaları** — siyosiy yetakchilar qo‘lida haddan tashqari ko‘p hokimiyat to‘planishiga to‘sqlik qiladigan, manfaat guruhlari orasidagi tafovutlar va raqobatga urg‘u beradigan nazariyalar.

**Demokratik sentralizm** — Sovet Ittifoqi va Sharqiy Evropa mamlakatlari uchun xos bo‘lgan siyosiy tizim bo‘lib, unda saylanuvchi organlar piramida shaklida tashkil etiladi. Har bir bosqichda undan yuqoriq bosqich uchun saylovlar o‘tkaziladi.

**Demokratik elitizm** — cheklangan demokratiya nazariyasi bo‘lib, u yirik jamiyatlarda demokratik faoliyat siyosiy etakchilarini muntazam saylab turish natijasida cheklanadi, deb tushuntiradi.

**Demos** (yun. demos—xalq) — dastlab qad. Yunonistonda qarindoshurug‘chilik aloqalari va umumiy yashash joyi asosida shakllangan kishilar guruhi. Keyinroq oddiy xalq (dehqonlar hamda shahar aholisining quyi qismi (hunarmandlar, mayda savdo ahli). Mil. av.8-7-a.larda asta-sekin erkin shahar (polis) aholisining aristokratiyadan mustaqil savdo-hunarmandchilik qatlami paydo bo‘lib, kuchaya borgan. Bu qatlam rasman bo‘lsa-da, siyosiy huquqlarga ega edi, siyosiy huquqqa ega bo‘lgan erkin xalq D. deb atalgan. Amalda u qishloq va shahar D.ga bo‘lingan. Shahar D.i o‘z mol-mulki va tijorat-hunarmandchilik faoliyatini suiste’mollardan himoya qiladigan qonunlar ishlab chiqishni talab qilgan. qishloq D. ham asoratdan qonunchilik yo‘li b-n himoyalanishga muxtoj bo‘lib, yer uchastkalarini bosib olishga xotima berishni talab qilgan. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot oqibatida aristokratlar orasida ham mulkiy tabaqlanish yuz bergen. Ularning kambag‘allahgan qismi ustaxonalar ochish, tijoratni tashkil qilish b-n shug‘ullana boshlagan. Ularning manfaatlari shahar D.ning yuqori qatlamlari b-n yaqinlashgan. Natijada polislarning aslzodalar hokimiyati ag‘darilgan va hokimiyat D.ning vakillari qo‘liga o‘tgan. D.ning manfaatlarini izchillik b-n himoya qilgan siyosatchilar yetishib chiqqan. Arxaik davrning oxirlarida

(mil. av. 6-a.da) quldorlik demokratiyasi va oligarxiyasi paydo bo‘lgan, qonunlarning yozma shaklga kirishi, xun olishning cheklanishi, xususiy mulkning himoya qilinishi, sud ishlarining yo‘lga qo‘yilishi ham D. va yevpatridlar o‘rtasidagi ziddiyatlarga xotima berolmagan. Amalga oshirilgan islohotlar D.ning iqtisodiy ahvoliga muhim o‘zgarish kiritmagan va uning siyosiy, ilgarigidek huquqsiz holatiga mutlaqo daxl qilmagan. D.ning g‘alabasi natijasida Afinada demokratik respublika shaklidagi davlat vujudga kelgan. D. tarkibiga chet eldan ko‘chib kelganlar (meteklar) va qullar kirmagan. Mil. av. 5-6-a.larga kelib D. va meteklar o‘rtasidagi ziddiyat kuchaygan. Meteklar soni afinaliklar sonining taxm. yarmini tashkil etardi. Ular asosan savdo va hunarmandchilik b-n shug‘ullanganlar. Meteklarning mulkiy huquqlari cheklab qo‘yilgan, ular mamlakat siyosiy hayotida ishtirok etishdan to‘la mahrum bo‘lganlar. Mulkiy tabaqalanish oqibatida D. asosiy qismining ahvoli mushkullashib, davlat va boylardan olinadigan xayr-sadaqa hisobiga kun kechiruvchi lyumpenlar ko‘paygan. Afinalik har bir fuqaro istagan masalasini xalq yig‘iniga qo‘yishga, unda so‘zga chiqishga, yangi qonun loyihasini kun tartibiga kiritishga haqli bo‘lgan. Amalda xalq yig‘inida professional notiqlar-demagoglar so‘zga chiqqanlar. D. tinchlik paytida doimiy soliq to‘lamagan (u meteklardan olingan). Mil. av. 6-a. boshlarida D. asosiy qismining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli og‘irlashuvi natijasida uning siyosiy ta’siri susaya boshlagan.

**Denominatsiya** — dinamizmni yo‘qotib institutsionallashgan diniy sekta, uni taqvodorlar boshqaradi.

**Determinizm** — barcha voqealar va hodisalarning qonuniyligi va sababiy bog‘langanligi haqidagi falsafiy ta’limot.

**Devalvatsiya** (ing. devolution) — milliy yoki xalqaro pul birligi kursining b. mamlakatlар yoki xalqaro valyuta birligiga nisbatan qadrsizlanishi. D. valyutaning inflyasiya natijasida qadrsizlanishini, alohida mamlakatlarda uning rivojlanishining notekisligini aks ettiradi. D. xorijiy valyuta kursining ko‘tarilishiga olib keladi, natijada, xorijiy mahsulotlar narxi nisbatan qimmatlashadi, milliy mahsulotlar esa nisbatan arzonlashadi. D. Jahon valyuta fondining (JVF) asosan rivojlanayotgan mamlakatlар uchun, hozirgi sharoitda esa, SHarqiy Evropa davlatlari uchun ham barqarorlashtiruvchi dasturlarida ko‘zda tutilgan vosita hisoblanadi.

**Deviatsiya** (lotincha chetga og‘uvchi fe’l-atvor degan ma’noni beradi) - ko‘pgina hollarda sotsial sanksiyalarga muhtoj bo‘ladi. Deviatsiyaning shunday ko‘rinishlari borki, ular odamlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar normalarining buzilishi bilan bog‘liq bo‘lib, jamiyatga jiddiy zarar yetkazmaydi. Ular ijtimoiy fikr va o‘zaro munosabatlar qatnashchilarining o‘zları tomonidan boshqariladi.

**Deviant xulq-atvor** - (lot. deviatio - og‘ish) - ijtimoiy normativlar va me’yorlardan og‘ib ketuvchi xatti-harakat.

**Dezintegratsiya** – butunning ayrim qismlarga parchalanishi.

**Diada** - ikki kishidan iborat guruh.

**Dialektika** – harakat, rivojlanish, o‘zgarish haqidagi falsafiy ta’limot.

**Differensiatsiya** – butunning turli-tuman qismlar, bosqichlar, shakllarga bo‘linishi, parchalanishi, ajralishi.

**Diktator** (lot. dictator - buyuraman) — 1) Qadimgi Rimda yuqori lavozimdagи shaxs. Urushda va mamlakat ichida davlat uchun katta xavf tug‘ilgan, juda mushkul favqulodda vaziyatlar yuzaga kelgan paytlarda tayinlangan. D. ayni bir vaqtda oliv fuqarolik, harbiy va sud hokimiyatiga ega bo‘lgan. Qonun chiqaruvchi hokimiyat ham D.ning qo‘lida bo‘lgan, u o‘ziga qarshi qaratilgan har qanday, hatto qonuniy xatti-harakatlardan ham qo‘rmagan. D.lik lavozimiga avval faqat patritsiylar, mil. av. 356 y.dan esa plebeylar ham qo‘yilgan. Mil. av. I asrda muddatsiz diktatura ham bo‘lgan (mas. Sezar diktaturasi); 2) cheklanmagan hokimiyatga ega bo‘lgan yakka hukmron shaxs, hokimi mutlaq; 3) ko‘chma ma’noda - o‘z xohish-irodasini boshqalarga majburan qabul qildiruvchi shaxs.

**Diktatura** (lot. dictatura - cheklanmagan hokimiyat) — davlat hokimiyatini nodemokratik usullar b-n amalga oshirish tizimini ifodalovchi tushuncha, avtoritar yoki totalitar rejim. D.ga asoslangan siyosiy rejimda xrki-miyat bir shaxs - diktator yoki bir necha shaxslarning qo‘lida markazlashadi, siyosatda zo‘ravonlik va terror kuchayadi. D. o‘rnataliganligi diktatorlik hokimiyatining cheklanmaganligi va nazoratsizligi, konstitutsiya e’lon qilgan demokratik ququklar va erkinliklar toptalishi, vakillik organlarining huquklari cheklanishi b-n ajralib turadi. Hokimiyat to‘g‘ridan-to‘g‘ri zo‘ravonlikka tayanadi. Odatda, yirik ijtimoiy guruhlar D.ni ifoda etuvchi kuch sifatida namoyon bo‘lsa ham, u bir shaxs yoki bir guruh shaxslarda mujassamlashadi (Qad. Rimda harbiy boshliqlar D.si va triumviratlar, mutlaq monarxlar, hoz. avtoritar tuzumlar, xuntalar va h. k.). Tarixga ko‘ra, biron-bir davlatda D. o‘rnatalishi, odatda, ichki o‘zaro kurash g‘oyat keskin tus olgan davrlar b-n bog‘liq bo‘lgan (mas., Ispaniyada Franko D.si, natsistlar Germaniyasida fashistlar D.si, sobiq sho‘rolar davrida Stalin D.si va b.).

**Din** (religion) — muayyan hamjamiyat a’zolarining e’tiqodi bo‘lib, o‘z ichiga sig‘inish va ehtirom bilan qaraladigan timsollar, shuning-dek, ritual(marosim)larni qamrab oladi. G‘ayritabiyy moxiyatlarga e’tiqod qilish hamma dinlarda ham mavjud emas. Din va sehrgarlik o‘rtasidagi tafovutni anikdash ancha qiyin, ko‘pincha sehrgarlik alo-hida individlar tomonidan amalga oshiriladi va u ijtimoiy ritu-allar fokusida bo‘la olmaydi, deb hisoblanadi.

**Diniy uyushmalar** — jamiyatning kuchli va ta'sirchan tashkilotlaridan hisoblanadi. Sababi, dunyoda tinchlikni saqlash, kishilarni tarbiyalash, ular o'rtaida umuminsoniy qadriyatlarni qaror toptirish yo'lida turli diniy uyushmalarning imkoniyatlari kattadir. Diniy uyushmalar ham boshqa jamiyat tashkilotlari singari inson va jamiyatni to'g'ri yo'lga, tinch — totuvlikka, olivjanoblikka, hamkorlik va hamjihatlikka chaqirmaqda. Ular ham ug'irlik, bosqinchilik, talonchilikni, zo'ravonlikni,adolatsizlikni qoralaydilar. Bu tashkilotlar ham umidsiz dillarga taskin va yupanch bagishlaydilar, umidbaxsh a'mol sifatida singan ko'ngillarni ko'tara oladilar. Ayni paytda dinni niqob qilib olib undan g'arazli maqsadlarda foydalanuvchi, jamiyatdagi hamjihatlik, davlalararo, millatlararo va dinlararo totuvlik, ijtimoiy barqarorlikka tahdid soluvchi diniy ekstremistik uyushmalar ham yo'q emas. Ularning ko'rinishlari ham xilma — xildir. Bunga misol qilib: musulmon mamlakatlardagi «musulmon birodarlarini»; «toliblar harakati»; «vahobiylar harakatini» ko'rsatish mumkin. Bu ekstremistik tashkilotlar va xarakatlarning maqsadi, ular boshlagan jaholatparastlik faoliyati qanday oqibatga olib kelishi jahon jamoatchiligiga taboro ko'proq ayon bo'immoqda.

**Diskussiya** (lot. tadqiqot, tahlil) — yig'ilishda, matbuotda, xususiy suhbatda qandaydir masalani muhokama qilish, bahs.

**Diskret** – uzlukli.

**Diskriminatsiya** (discrimination) — boshqalar uchun ochiq bo'lgan zaxiralar va daromad manbalariga muayyan guruhlar uchun erishish imkoniyatlarini yo'q qiluvchi harakatlar. Diskriminatsiyani xurofotdan ajratish kerak, garchi bu tushunchalar uzviy bog'liq bo'lsa ham. Amalda muayyan guruhga nisbatan xurofiy qarashga ega bo'lgan individ ularga qarshi diskriminatsiya harakatlarida ishtirok etmasliklari ham mumkin; aksincha odamlar boshqalarga nisbatan xurofiy qarashlarga ega bo'lmasa ham ularni diskriminatsiya qilishlari mumkin.

**Dogma** (yun. dogma - fikr, qoida, ta'limot) — 1) qanday sharoitda qo'llanishidan qat'i nazar, tanqid ko'zi b-n tekshirilmay ko'r-ko'rona qabul qilinaveradigan qoida, dalil-isbotsiz muhokama. Dogmatik fikr bilish yo'liga, fan taraqqiyotiga to'sqinlik qiladi; 2) ilohiyotda dindorlar uchun majburiy hisoblangan, muhokama yuritmasdan e'tiqod qilinadigan ta'limot (q. Aqida).

**Dogmatizm**, aqidaparastlik (yun. dogma – fikr, ta'limot) — biror – bir fikr, ta'limotga, muayyan oqim tarafdarlariga, aqidalarga ko'r-ko'rona ishonish, unga yopishib olish, har qanday sharoitda ham uning o'zgarishiga yo'l qo'ymaslikka harakat qilish. Muayyan aqidani isbotsiz ko'r-ko'rona qabul qilish va unga ishonish D. tarafdarlarining asosiy tamoyilidir. Ular amaliyot, ilm-fan yutuqlari natijasida haqiqat tobora oydinlashib, konkretlashib borishini to'la his qilmaydilar. Ularning nazarida tushunchalar, naz-yalar, gipotezalar, qonunlar o'zgarmaydi. Agar biz bilishning biror-bir

tomonini mutlaqlashtirib, unga ortiqcha baho bersak, D. tomon yo‘l tutgan bo‘lamiz. D.ni yoqlovchilar o‘z fal-iy qarashlari b-n bilishning ob’ektivligini, haqiqat bilishning asosi ekanligini, hamda ob’ektiv olam to‘g‘risida bilimning rivojlanib, kengayib borishini inkor etadilar, bu b-n nisbiy haqiqatning rolini kamsitib, mutlaq haqiqatni bilishning birdan-bir bosqichi deb hisoblaydilar. D.ning xilma-xil shakllari mavjud: Siyosat, ilmiy, diniy va h.k. Ular ijtimoiy hayotda ilm-fan, iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy sohalarda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi, har qanday holatda ham u muayyan g‘oyani mutlaqlashtirib, taraqqiyotga to‘sinq bo‘lib qolaveradi.

**Dramaturgik model** — ijtimoiy o‘zaro ta’sirlarni o‘rganishda teatr bilan bog‘liq metaforalardan foydalanadigan yondoshuv.

**Dunyo sistemasining yadroasi** — sanoati rivojlangan yetakchi mamlakatlar, jahon iqtisodiyotida ular markaziy mavqeni egallaydilar (avvalo, AQSH, G‘arbiy Yevropa, Yaponiya mamlakatlari)

**Dyurkgeym Emil (1858-1917)** – fransuz sotsiologi va faylasufi, klassik sotsiologiya asoschisi, jahonda birinchi sotsiologiya professori, “Sotsiologik yilnama” (1896-1913) jurnalining asoschisi va noshiri. D. Sorbonna va Parij un-tlarida sotsiologiyadan dars berdi, sotsiologiyaning o‘quv predmeti, fan va kasb sifatida rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi. “Sotsiologiya elementlari” (1889), “Ijtimoiy mehnatning taqsimlanishi to‘g‘risida” (1893), “Sotsiologik metod qoidalari” (1895), “O‘z joniga suiqasd qilish” (1897), “Diniy hayotning elementar shakllari” (1912), “Sotsiologiya va falsafa” (1924) singari asarlarida Monteskye, J.Russo, O.Kont, I.Kant, G.Spenserning ilg‘or an’analarini davom ettirdi, sotsiologiya ob’ekti, sotsial reallikning o‘ziga xosligi, uning insonga nisbatan majbur qiluvchi kuchga ega ekanligini asosladi. D. pozitiv sotsiologiyaning nazariyotchisi sifatida “sotsial fakt”, “sotsial bilish”, “sotsial birdamlik”, “mehnat taqsimoti”, “o‘z joniga suiqasd qilish” tushunchalarini ishlab chiqdi va ilmiy muomalaga kiritdi. Uning barcha asarlarida “sotsial fakt” tushunchasi muhim o‘rin egalladi. D.ning ta’kidlashicha, sotsial hayot asosini sotsial faktlar tashkil etadi, uni voqelikning na iqtisodiy, na psixik, na jismoniy omillari b-n ayniylashtirib bo‘lmaydi: sotsial faktlar o‘ziga xos xususiyat va belgilarga ega. Sotsial faktlarning eng muhim belgilari ularning ob’ektivligi, individga bog‘liq bo‘limgan holda yashashga qodirligi va individga nisbatan majbur qiluvchi kuchga ega ekanligidir. D. sotsial faktlarni ikkiga ajratdi: 1) morfologik; 2) ma’naviy, nomoddiy faktlar. D. jamiyat taraqqiyotida kollektiv ongning muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlab, uning turli shakllari (din, axloq, xuquq)ni tadqiq etdi. D. sotsiologik konsepsiyasining nazariy-metodologik asosini sotsiologizm tamoyili tashkil etadi. D. sotsiologizm tamoyiliga tayanib, jamiyatning individdan jismoniy va ma’naviy jihatdan ustunligini ko‘rsatdi. D. inson

uchun individuallik va sotsiallik xosligini, jamiyatsiz din ham, axloq ham, siyosat ham, iqtisodiy i-tlar ham mayjud bo‘la olmasligini, sotsiologizm tamoyiliga ko‘ra, “sotsiallikni faqat sotsiallik orqaligina” izohlash lozimligini ta’kidladi. D. ta’limotining ikkinchi nazariy – metodologik tamoyili “sotsial birdamlik”dir. Bu tamoyil D.ning mehnat taqsimoti, din, siyosiy hokimiyat, jamiyat iqtisodiy i-tlari shakllarining o‘zgarishi to‘g‘risidagi ta’limoti muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. D.ning ta’kidlashicha, jamiyatdagi sotsial birdamlik darajasining o‘sib borishi b-n sotsial taraqqiyot ro‘y beradi. U sotsial birdamlikning ikki variantini: a) mexanik, b) organik birdamlikni farqladi. Mexanik birdamlik arxaik jamiyatlar uchun xos bo‘lib, unda kishilar sotsial jihatdan teng bo‘ladilar, individlar o‘z qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniga ega bo‘lmaydilar, axloq normalaridan har qanday chekinish shafqatsiz jazolanadi. Organik birdamlik sanoatlashgan jamiyat uchun xos bo‘lib, unda inson faoliyati va uning mahsulini ayrboshlash imkoniyati jamiyat a’zolari o‘rtasidagi aloqadorlik va uzviy bog‘liqlikni kuchaytiradi. Ijtimoiy mehnat taqsimotining muhim funksiyasi individlarni jipslashtirishga, sotsial organizmning yaxlitligini ta’minlashga qaratiladi. Chunki bunday jamiyatda individlar yolg‘iz holda nomukammaldir. D.ning fikricha, ijtimoiy birdamlikni rivojlantirish uchun turli kasaba uyushmalar tashkil etish lozim. Ular ishlab chiqarishdan tortib to madaniy va axloqiy funksiyalarni bajarishi, mehnat va kapital o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solishi, shaxsni rivojlantirish va jamiyatdagi inqirozlarni bartaraf etish uchun imkoniyat yaratishi kerak. D.ning barcha asarlarida din jamiyat tabiiy rivojlanishining mahsulidir, degan g‘oya ilgari surildi. Uning fikricha, dinning muhim vazifasi - jamiyatni jipslashtirish va ijtimoiy rivojlanishga beradigan g‘oyalarni ilgari surish. D. axloqiy qadriyatlarni saqlashda, insonni tarbiyalashda, “pozitiv birdamlik”ni qaror toptirishda dinning katta ahamiyatga ega ekanligini ta’kidladi. D.ning “o‘z joniga suiqasd qilish” asarila o‘z joniga suiqasd qilish asosan psixologik ildizga ega ekanligi to‘g‘risidagi konsepsiyalarni keskin rad etib, o‘z joniga suiqasd qilishning sababchisi sotsial hayot, uning qadriyatli-normativ talablari, sotsial aloqalarning muayyan darajada tezlashuvi ekanligini ko‘rsatdi. D. o‘z joniga suiqasd qilishning: 1) egoistik; 2) altruistik; 3) anomik tiplarini ajratdi. D. tomonidan ishlab chiqilgan o‘z joniga suiqasd qilishning nazariy masalalari, uni tadqiq etish usullari hoz. vaqtida jahon sotsiologlari tomonidan qo’llanilyapti. D. o‘zidan boy ilmiy meros, original sotsiologik naz-ya va katta maktab qoldirdi. Uning shogirdlari (S.Bugle, J.Davi, Moss va b.) D. ta’limoti asosida sotsiologiyada yangi yo‘nalish yaratdilar. D. o‘zining betakror va original sotsiologik ta’limoti b-n jahon ijtimoiy fal.si va sotsiologiyasi rivojida alohida o‘rin tutadi.

# E

**Edip kompleksi** — Freyd fikriga ko‘ra, individning ilk psixologik rivojlanish bosqichi bo‘lib, unda bola onasiga nisbatan kuchli sevgi hissini, otasiga nisbatan esa nafrat hissini ko‘ngildan kechiradi. Freyd fikricha, Edip kompleksini bartaraf qilish bola rivojidagi muhim chegara bo‘lib, uning mustaqil shaxs ekanini anglatadi.

**Egalitarizm** (fr. *egalitarisme* – tenglik) — umumiy baravarlashtirishning sotsiumni tashkil etish prinsipiga asoslanuvchi ijtimoiy fikr yo‘nalishlaridan biri.

**Egoizm** (lot. men) — o‘z foydasi, manfaatini ko‘zlovchi xattiharakat, o‘z manfaatini boshqa kishilar manfaatidan ustun qo‘yish. E.ning aksi - altruizm.

**Egotsentrizm** — Piaje fikriga ko‘ra, hayotning ilk yillarida bolaning alohida dunyoqarashi. Egotsentrik tafakkur ob’ekt va hodisalarini bolaning faqat o‘z yoshiga yarasha atamalar yordamida ifodalashi sifatida qaraladi.

**Ehtiyoj** — inson talablari asosida paydo bo‘ladigan tabiiy xususiyat; jonli mavjudot hayot kechirishining yaqqol shart-sharoitlarga, uning shularga nisbatan tobe ekanligini ifoda etuvchi holat. Insonning faolligi boshqa mavjudotlardan tub darajada ham mohiyat, ham shakl jihatdan tafovutga ega bo‘lib, yuzaga kelgan E.larning turli vaziyatlarda qondirilishda o‘z ifodasini topadi. Mavjudotlar (hayvonlar) E.lari maqsadga muvofiq ravishda kechgan bo‘lsa, bu esa o‘z navbatida ularni qurshab olgan yashash muhitiga yengillik b-n moslashuvini ta’minlaydi. Lekin, insonlarning faolligi va ularning faolligi manbai hisoblanmish insoniy E.lar tubdan boshqacha manzaraga ega bo‘lib, biologik shartlanganlikdan tashqari, moddiy va ma’naviy ko‘rinishlardan iboratdir. Odamning E.i unga ta’lim va tarbiya berish jarayonida shakllanadi, ya’ni insoniyat tomonidan yaratilgan ijtimoiy tarbiya, ko‘nikma, malaka, odat, ma’naviyat, qadriyatlar b-n yaqindan tanishish, ularni o‘zlashtirish orqali amalga oshiriladi. Odam boshqa mavjudotlardan farqli o‘laroq, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot davrining xususiy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi muayyan buyumni zaruriyat talabiga binoan qayta o‘zgartirishga, takomillashtirishga qodir ongli zotdir. Shu sababdan, odamning o‘z E.larini qondirish jarayoni ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot darjasini b-n o‘lchanadigan faoliyat shakli va turini egallashning faol, muayyan maqsadga yo‘naltirilganligi, ma’lum rejaga asoslangan ijodiy ko‘rinish sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Inson bir davrning o‘zida ham individuallik, ham ijtimoiylikni aks ettirgan bo‘lganligi sababli uning E.lari shaxsiy va ijtimoiy xususiyatga egadir. Odatda, kelib chiqish xususiyatlariga binoan ehtiyojlar tabiiy va madaniy turga ajratiladi. Tabiiy E.lar tarkibiga odamlarning

ovqatlanishi, tashnalikni qondirish, jinsiy moyillik, uqlash, o‘zini issiq va sovuqdan asrash, musaffo havoga intilish, tana a’zolariga dam berish kabilar kiradi. Madaniy E.lar ob’ektiga tabiiy ehtiyojlarni qondiruvchi uy-ro‘zg‘or buyumlari, mehnat faoliyati orqali boshqa kishilar b-n bog‘lanish vositalari, madaniy aloqalar o‘rnatish usullari, shaxslararo muomalaga kirishish uslublari, ijtimoiy turmush zaruratiga aylangan narsalar, o‘qish va tajriba orttirish yo‘llari kiradi. Psixologiya fanida E.lar o‘z predmetining xususiyatiga ko‘ra, moddiy va ma’naviy turlarga ajratiladi, ularni keltirib chiqaruvchi mexanizmlar manbai turlicha ekanligi e’tirof etiladi.

**Ehtimollik** - kichik va katta darajada hasisatga da’vogarlik siluvchi va bunga yetarli asosi bo’lmagan ilmiy hayotiy tushuncha. Kundalik turmushda shunday hasisatlarga amal silinadiki, bu tushuncha, bu hasida uning mavjudligi, uning borligini isbot qilish qiyin bo’lgan paytlarda, ishlataladi. Ushbu ilmiy tushuncha imkoniyat, zaruriyat, tasodifiyat kabi kategoriyalar b-n yasindan alosada. E.ni, ko’pincha, miqdoriy tomonlari hisobga olingan imkoniyat, deb aytishadi. Ana shu ma’noda, E.ka, ko’pincha, miqdoriy me’yor, deb ta’rif bersa bo’ladi. E. imkoniyat amal siladigan chegaralarni ifodalaydi. Boshqacha aytganda, E. imkoniyatni voqealikka aylanish darajasini ifodalaydi. E. ko’pgina fanlar, chunonchi, matematika, fizika, iqtisodiyot, siyosatshunoslik fanlarining asosiy tushunchasi hisoblanadi. Bilish naz-yasida E. tushunchasi, haqiqatga intiluvchi, lekin, uni tom ma’noda yetarli asosga ega bo’lmagan, kategoriya sifatida o’rganiladi. E. g‘oyasining zamonaviy fanda keng qo’llanishining asosiy sabablaridan biri - fanning murakkab ob’ektlar b-n ish ko’rayotganligi hisoblanadi. Keyingi yillarda yaratilgan kopgina nazariyalarda E. zarur tushunchalardan biri bo’lib qolganligi, boshqacha so’z bilan aytganda, E. yangi naz-yalarda muhim ahamiyat kasb etayotganligi qayd etilmoqda. Shuningdek, E. tushunchasining fanda ishlatalishi va uning fal-iy tahlili sababiyat va determinizmning mohiyatini asoslashda, Laplas determinizmini mutlaslashtiruvchi sarashlarga sarshi kurashda, indeterminizm - ba’zi fikrlarning asossiz ekanligini asoslashda hamda uning so‘llanish

**Eklektiv** (yun. *eklektikos* – tanlovchi) — turli-tuman, ba’zan qaramaqarshi prinsipler, qarashlar, nazariyalar va odatlarni mexanik tarzda qo’shish.

**Eklektizm** (yun. *eklektikos* - tanlovchi) — uzviy bir butunlikni inkor etuvchi, aralash-quralash, turli-tuman tushuncha, g‘oyalar, qarashlar, nazariyalarining ulardagi “chegaradan chiqib ketishlarni” bartaraf qilish niqobi ostida tamoyillarsiz birlashishi.

**Ekzogamiya** — individning o‘zi mansub bo’lgan urug‘dagi ayolga uylanishi yoki erkakka turmushga chiqishini taqiqlovchi tizim.

**Ekologik yondoshuv** — urbanizmni tahlil qilishdagi yondoshuvlardan biri bo’lib, shahar tumanlarining joylashishidagi «tabiiy» xususiyatlarini,

jumladan keskin farqlanuvchi sifatlarni ham o‘z ichiga oladi.

**Ekologik muammo** – jonli organizmlarning atrof muhit bilan muvozanatining buzilishi.

**Ekologik tanglik** – ekologik muammoning keskinlashuvi, bunda uning oqibatlari orqaga qaytarib bo‘lmaydigan xususiyat kasb etadi.

**Ekzistensializm** – diqqat markazida hayotning ma’nosи, inson erkinligi va mas’uliyati muammolari turuvchi falsafiy yo‘nalish.

**Ekologiya** – jonli mavjudotlarning o‘zini qurshagan muhit bilan o‘zaro munosabatlari haqidagi fan.

**Eksplikatsiya** – u yoki bu predmet (yoki madaniyat ob’ekti)ning mohiyatini aniqlash, uning mazmunini keng tavsiflash.

**Ekstravertiv** – sirtga qaratilgan.

**Eksperiment** — fan va bilish sohasida favquloddagi holatdan chiqish, muammoli vaziyatni hal qilish jarayonlari, shaxsning his-tuyg‘ulari, xarakteri, qobiliyati, aql zakovatini o‘rganishda qo‘llanadigan usul. E. tabiiy va laboratoriya usullariga ajratiladi. Tabiiy usul psixologik-pedagogik masalalarni hal qilishda qo‘llaniladi. Bu usulning ilmiy asoslarini A.F. Lazurskiy ta’riflab bergan. Tabiiy sharoitda inson psixikasini o‘rganishda sinaluvchilarning o‘zları bexabar bo‘lishi, ta’lim jarayonida berilayotgan bilimlar tadqiqot maqsadiga muvofiqlashtirilishi, katta yoshdagi odamlarga tarbiyaviy ta’sir o‘tkazish kundalik mehnat tarzi doirasida amalga oshirilishi, zavod va fabrikada esa moddiy mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilishi lozim. Laboratoriya usuli yordami b-n diqqatning sifatlari, sezgi, idrok, xotira va tafakkurning xususiyatlari, emotsiyal, irodaviy hamda aqliy zo‘riqish singari psixik holatlar tekshiriladi. Ko‘pincha laboratoriya sharoitida kishilar (uchuvchi, haydovchi, operator, elektronchilar) va kutilmagan tasodifiy vaziyatlar (halokat, portlash, izdan chiqishi, shovqin ko‘tarilishi)ning modellari yaratiladi. E. aniqlovchi, tarkib toptiruvchi (tarbiyalovchi) va nazorat (tekshirish) qismlariga bo‘linadi. E.ning aniqlovchi qismida ruhiy holat, jarayon, hodisa, xususiyat, o‘yin, o‘qish, mehnat faoliyatlarida tadqiq qilinadi. Tarkib toptiruvchi E.da sinaluvchilarda biror fazilatni shakllantirish, shuningdek, ularga maqsadga muvofiq muayyan malakani, yo‘l-yo‘riq va usulni o‘rgatish rejalashtiriladi. Nazorat (tekshirish) E.da tarkib toptiruvchi bosqichda shakllantirilgan usul, vosita, yo‘l-yo‘riq, ko‘nikma, malaka va shaxs fazilatlarining darajasini, barqarorligini aniqlash, ta’sirchanligiga ishonch hosil qilish uchun mohiyati, mazmuni har xil mustaqil topshiriqlar beriladi. Nazorat E.i orqali tarkib toptiruvchi E.ning samarasi o‘lchanadi. Aniqlovchi, tarkib toptiruvchi va nazorat E.larida yig‘ilgan ma’lumotlar statistik metodlardan foydalilanilgan holda hisoblab chiqiladi (o‘rtacha arifmetik qiymat, tartibga keltirish, moda, mediana, korrelyasiya, dispersiya, kvadrat og‘ish va h.k). Natijada

materiallarning, qo'llanilgan metodikalarning ishonchliligi, validligi va reprezentativligi darajalari aniqlanadi.

**Eksrapoyatsiya** (lot. ekstra-tez, polio-to‘g‘rilayman) -Biror hodisaning bir hismini kuzatish natijasida olingan xulosani shu qodisaning boshha himiga, boshha territoriyaga va kelgusiga tadbih etishni anglatadi.

**Ekstemizm** (lot. – o‘ta, so‘nggi) — siyosatda ashaddiy, favqulodda tadbirlar va qarashlarga tarafdarlik ma’nolarini bildiradi. Dunyodagi bir qator mamlakatlarda 20-a. boshlarida turli ekstremistik guruhrilar maydonga keldi. Ular goh siyosiy, goh diniy, goh hududiy masalani bahona qilib turli jinoyatlarni sodir etadilar. o‘z maqsadlariga erishish uchun davlat rahbarlariga suiqasd uyuştirish, o‘g‘irlash, tuhmat, odam o‘ldirish, bosqinchilik kabi razil illatlardan aslo qaytmaydilar. E.ning siyosiy, terror, diniy, milliy va boshqa guruhlari mavjud. 20-a. oxirida diniy E. faoliyati juda zo‘rayib ketdi. Bunga Afg‘oniston, Tojikiston, Checheniston, Kosovodagi mudhish voqealar misol bo‘la oladi. Diniy E. — diniy tashkilotlardi o‘ta mutaassib guruhlarning ashaddiy reaksiyon faoliyati bo‘lib, xatto dinga ham zarar keltiradi. Ularning asosiy maqsadi dinni niqob qilib, hokimiyatni qo‘lga olish, diniy talablarning ilk darajasiga xos “sofli”ni qayta tiklash, diniy talablarga mos siyosiy tuzumni barpo etishdan iborat. Shu maqsadda diniy tashviqot olib borib, quroq kuchi va zo‘ravonlik b-n davlatni egallashdir. E.ning milliy ko‘rinishi esa, millatlararo nizolarni keltirib chiqaruvchi millatchilik va shovinizmdir. E.ning barcha ko‘rinishlari insoniyatning ijtimoiy, barqaror taraqqiyoti uchun katta xavfdir.

**Elat** — kishilarning til, hudud, iqtisodiy va madaniy jihatdan tarixan tarkib topgan birligi. E.ga ko‘p jihatdan bir-biriga yaqin qabilalar birlashadi. E. millat shakllanishining uchinchi bosqichi, belgisi. qadimda kishilarning E. bo‘lib, bir hududda yashashlari ular orasida umumiyl manfaatdorlik, qon-qarindoshlik his-tuyg‘ularini kuchaytirgan. E.lar, kuchli qabilalarning kuchsiz qabilalarni o‘ziga bo‘ysundirishi va ular b-n aralashib ketishi natijasida ham shakllangan. E o‘z qiyofasini saqlab qolishi, rivojlanib millat darajasiga ko‘tarilishi uchun o‘z davlatiga ega bo‘lishi kerak.

**Elita** (fr. elite - eng yaxshi, saralangan) — jamiyatda boshqaruv vazifalarini bajaruvchi, fan va madaniyatni rivojlantiruvchi oliy imtiyozli ijtimoiy qatlamni anglatadi. E. nazariyasi Platon, Karleyl, Nitsshe tomonidan olg‘a surilgan bo‘lsa ham, qarashlar tizimi sifatida XX asrda V.Pareto, G.Mosko, Ch.Mills va boshqalar tomonidan ta’riflab berildi. Italiyalik olim V.Pareto fikriga ko‘ra, elita terminining bosh g‘oyasi ustunlikdir. Ya’ni aql, xarakter, chaqqonlik singari xilma-xil qobiliyatlargi oliy darajada ega odamlar - elita deyiladi. Ushbu nazariyaga qo‘ra, E. tug‘ma iste’dodli odamlar orasidan paydo bo‘ladi. E.ning 5 toifasi - siyosiy, iqtisodiy, ma’muriy, harbiy va mafkuraviy E. ajratib ko‘rsatiladi. Ular bir-biriga

moslashadi va totalitarizm vujudga kelishining oldi olinadi. Iqtisodiy E.ga, jumladan, yirik biznesmenlar, sanoatning yetakchilari, moliya magnatlari kiritiladi, ular oldindan ko‘ra bilish, tashabbuskorlik va ishbilarmonlik iste’dodi bo‘lgan shaxslar hisoblanadi. E. nazariyasiga ko‘ra, tashabbuskor va ishchan har qanday odam, ishi yurishib ketsa, E.ga kirishi mumkin.

**Empirizm** – hissiy idrok etish va tajribani bilishning asosiy manbai deb hisoblaydigan falsafiy ta’limot.

**Empirik** – tajribada ko‘rilgan.

**Emotsional individualizm** — romantik tuyg‘ularni yashashning asosi deb qarash. Masalan, oilaviy turmushdagi emotsional individualizm.

**Empirik tadqiqotlar** — sotsiologyaning har bir sohasida o‘tkaziladigan faktologik tadqiqotlar.

**Endogamiya** — individning faqat o‘zi mansub bo‘lgan urug‘dagi ayolga uylanishi yoki erkakka turmushga chiqishini taqozo qiladigan tizim.

«**Eritish qozoni**» — etnik tafovutlar aralashib yangi xulq-atvor qoidalarini yaratishi mumkinligi haqidagi g‘oya ifodasi.

**Epistemologiya** – bilish haqidagi falsafiy ta’limot.

**Ergashev Ikrom** (1939.9.9, Toshkent viloyati, G‘azalkent shahri) – faylasuf, tarixchi olim. ToshDUni tarix va jamiyatshunoslik ixtisosligi bo‘yicha tamomlagan (1965), 1972 y. nomzodlik, 1982 y. doktorlik dissertatsiyalarini yoqlagan.

Sirdaryo pedagogika in-tining dotsenti (1972-74), Toshkent viloyati davlat pedagogika in-tining prorektori (1974-88), Guliston davlat un-tida fal. kafedrasining prof.i, mudiri, f-t dekani lavozimlarida ishlagan. Ijtimoiy fal., siyosatshunoslik, sotsiologiya yo‘nalishlarida ilmiy-tadqiqot ishlari olib boradi. “60-y.larda AQSHda kasaba uyushmalari harakati rivojining asosiy tendensiyalari” (1983, rus tilida) “O‘zbekiston madaniyatining tarixiy-sotsiologik tadqiqi” monografiyalari hamda bir qator maqolalar muallifi.

**Erkin tashkilotlar** - kishilar ixtiyoriy ravishda a’zo bo‘ladigan va a’zolikdan ixtiyoriy ravishda chiqadigan tashkilot nazarda tutiladi. Bularga Qizil yarim oy jamiyati, yashillar harakati, jamoat tashkilotlari, xotin-qizlar qo‘mitalari, bolalar oromgoxlari, sanatoriylar (sixatgoh kabi dam olish maskanlari), sport jamoalari (qiziqishlariga qarab , masalan alpinistlar).

**Erlix Yevgeniy** (1862 - 1922) - avstriyalik yurist. Uning 1913 yil nashr etilgan "Huquq sotsiologiyasi asoslari" monografiyasi shu davrni huquq sotsiologiyasini alohida fan sifatida paydo bo‘lishini belgilab bergan. Ushbu asarning asosiy mazmuni, unda so‘zboshida quyidagi dasturiy qoidalarda ifodalangan: "Bizni davrimizda, barcha davrlardagi singari, huquq rivojlantirishning og‘irlilik markazi qonunchilikda emas, hu fanida emas, sud amaliyotida emas, balki jamiyatning o‘zidadir". huquq sotsiologiyasining nazariy-metodologik muammolarini **IISH** chiqish bilan bir qatorda yuristlar

orasida birinchilardan bo‘ hozir konkret-sotsiologik deb ataladigan tadqiqotlarga yaqin tadqiqotlarni (shu jumladan aholi orasida so‘rov o‘tkazish, (rolini, sud amaliyotini o‘rganish va h.k.) o‘tkaza boshlagan.

**Etimologiya** – u yoki bu so‘z yoki iboraning kelib chiqishi.

**Etnik dinlar** — g‘ayritabiyy kuchlarga emas, balki «buyuk muallim» (masalan Buddha eki Konfutsiy) ning axloqiy da’vatiga asoslangan dinlar.

**Etnik guruh** — muayyan bir xalq (qabila, qabila ittifoqi, elatning) ning parchalanib alohida qismlarga bo‘linib ketishi natijasida vujudga keladigan guruh. E.g.ni quyidagicha izohlash mumkin: o‘z xalqidan (qabila, elat) ajralib chiqqan guruh va boshqalar xalqlar tarkibiga kirib, uzoq muddat yashab, shu xalqning tili, xo‘jalik faoliyati, urf-odatlari, turmush tarzini qabul qilib, unga batamom singib, o‘zlarini shu xalq etnik nomi bilan ataydigan bo‘lib qoladi.

**Etnik konflikt** — etnik guruhlararo mojaroning shakllaridan biri. Milliy etnik belgilariga ko‘ra va boshqa manfatlarining qarama-qarshiligi oqibatida yuzaga kelgan konflikt.

**Etnik tozalashlar** — etnik va irqiy asos (mansublik) larga ko‘ra fuqarolarning ta’qib qilinishi, ko‘chirilishi yoki o‘ldirilishi.

**Etnokratiya** (yun. *ethnos* - qabila, xalq) — bir muayyan etnik guruhning boshqa entik guruh (qabila, elat, xalq)lar usitidan erishgan hukmronligi. Bunday tushunchalarni keng tushunish etnokratologiya haqida so‘z yuritishga imkon beradi.

**Etnopsixologiya** — xalqlar mentalitetining o‘ziga xosligini hamda mintaqalarda siyosiy islohotlarning samaradorligi va shakllariga millatlarning etnik xususiyatlarining ta’sirini tadqiq etadi.

**Etnos** (gr. xalq) — odamning biron millatga mansubligi. Etnos doimo rivojlanishda bo‘lib, unga xos hech bir belgini doimiy xoslik deb qarash kerak emas. Millat etnik jamoa hisoblanadi. E. turli jamoalar (qabila, elat) tomonidan qayd etilgan odamlarning mustahkam ijtimoiy guruhining tarixiy paydo bo‘lishi.

**Etnosentrizm** (yun. *etnos* – guruh, lot. *sentrum* – markaz) — alohida shaxs va ijtimoiy guruh tomonidan ijtimoiy xayot hodisalarini muayyan etnik birlik nuqtai nazaridan baholanishi.

**Etokratiya** (yun. *ethika* - axloq, *ethos* – rasm, odat, urf) — nafaqat qonun balki axloq va hurmat asosida boshqariladigan hokimiyat turi.

**Etnogenez** – xalqlar yoki millatlarning kelib chiqishi.

**Etnometodologiya** — odamlarning kundalik ijtimoiy o‘zaro ta’sir doirasida bajargan harakatlari yoki aytgan so‘zlariga qanday ma’no berishlarini o‘rganish. Etnometodologiya o‘zaro ta’sir jarayonida odamlar bir-birlariga ma’no uzatishlarining «etnometodlarini» o‘rganadi.

**Etnotsentrizm** — boshqa madaniyatlar g‘oyalari va amaliyotini o‘z madaniyatining atamalari yordamida idrok qilish. Etnotsentrik hukmlar

boshqa madaniyatlarniadolatli baholash imkonini bermaydi.

**Evolyutsiya** (yun. ebolitio — avj oldirish, rivojlantirish) — revolyusiya (inqilob)ga va inqilobiy yo‘lga qarash bo‘lgan, tadrijiy rivojlanish usuli, u to‘g‘risidagi fal-iy ta’limot. Zamonaviy evolyusion naz-ya butun borliqni rivojlanishda, deb qaraydi. Evolyusion naz-ya XIX a.da paydo bo‘ldi. CH.Darvin o‘zining turlarni kelib chiqishi to‘g‘risidagi ta’limotida organik olamning tadrijiy rivojlanish qonuniyatlarini ko‘rsatib berdi. XX a. oxirida tabiatshunoslikda “katta portlash naz-yasi” paydo bo‘lishi b-n koinotning keyingi E.siga bir qator aniqliklar kiritildi. Hoz. zamon tabiatshunosligi “har qanday mavjudot E. natijasi”dir degan g‘oyaga asoslanadi. Dunyoning zamonaviy manzarasi E.ning umumiylarakterga ega ekanligini isbotlamoqda. Fanlararo soha hisoblangan kibernetika E. mexanizmini o‘rgana boshladi. XX a. 70-y.larida bu soha har qanday ob‘ekt E.sini harakatga keltiruvchi kuchni tahlil qilishga kirishdi. Tabiatda, jamiyatda va ma’naviy dunyodagi E. mohiyatini ochib berishga harakat qilmoqda. Ulug‘ mutafakkirlar inqilob vayrongarchilikka asoslangan, odamlarning moddiy va ma’naviy asoslariga zarar etkazadigan, qadriyatlarni yo‘q qiladigan sotsial hodisa ekanligini ko‘rsatganlar. P. Sorokinning fikricha, inqilob jamiyatni sotsiallashtirmaydi, odamlar ahvolini yomonlashtirib, erkinlikni bo‘g‘adi. Jamiyat o‘z taraqqiyoti yo‘lida kelgan inqirozlarni islohotlar orqali hal etadi. Jamiyatni bosqichli rivojlanish haqidagi naz-yalarda ham bir to‘lqindan ikkinchi to‘lqinga o‘tishda inqilobiy o‘zgarishning yuz berishi aytiladi. Biroq, mohiyatan bu inqilob qonli urushlarni keltirib chiqaradigan ijtimoiy inqilobdan tubdan farq qiladi. Ijtimoiy inqilob deb siyosiy tizimni zo‘rlik bilan va vaziyat hisobga olmay og‘dirib tashlash nazarda tutiladi. Bu esa, jamiyat hayotini izdan chiqaradi, xalqqa kulfat keltiradi. Evolyusion o‘tish esa, hozirgi davrda texnologik o‘zgarishlar, moddiy va ma’naviy ravnaq, ta’lim tizimini isloh qilish orqali ro‘y bermoqda. o‘zbekistonning mustaqillikni mustahkamlash, demokratik jamiyat bozor munosabatlariga bosqima-bosqich o‘tish yo‘li jahon mamlakatlari tadrijiy taraqqiyotining ilg‘or yutuqlariga asoslangan. Bu borada amalga oshayotgan “Taraqqiyotning o‘zbek modeli” ana shu mezonlarga javob beradi. ng o‘z tushunchalari doirasida idrok qilishni xohlamaydigan yoki bunga layoqatsiz shaxs.

**Evolyusion epistemologiya** – bilishni jonli tabiat evolyusiyasining momenti va **uning mahsuli sifatida o‘rganuvchi fan**.

**Evristik** – ijodiy, noma’lum narsalar va hodisalarni bilishda sakrashni amalga oshiruvchi. Fakt.

# F

**Fakt** (lot. factum — bajarilgan, amalga oshirilgan) — 1) haqiqat, voqeа, natija tushunchalarining sinonimi. To‘qib chiqarilgan fikrga qarama-qarshi o‘larоq reallikni, abstraktlik va umumiylitka nisbatan esa, aniqlikni ifodalovchi tushuncha; 2) mantiq fanida va fan metodologiyasida empirik bilimlarni aks ettiruvchi tushuncha; empirik bilimning o‘ziga xos shakli sifatida naz-ya yoki gipotezaga qarama-qarshi qo‘yiladi. F. tushunchasining mohiyatini anglashda hoz. davr fal-iy fanida ikkita asosiy yo‘nalish ko‘zga tashlanadi: 1. Faktulizm. 2. Teoretizm. Faktulizm F.ning har-xil naz-yalarga nisbatan mustaqilligini e’tirof etsa, teoretizm F.ni naz-yaga butunlay bog‘liqligini, naz-yalarning o‘zgarishi fanning faktual asoslari o‘zgarishiga olib kelishini ta’kidlaydi. Lekin F.ni naz-yaga keskin qarama-qarshi qo‘yish va aksincha ularni butunlay uyg‘unlashtirib yuborish mumkin emas. F. sub’ekt va ob’ektning o‘zaro faol ta’siri mahsuli hisoblanadi.

**Faktologik savollar** — faktlarni aniqlashga qaratilgan (nazariy yoki axloqiy muammolarni hal qilishga qaratilmagan) savollar.

**Faktor taxlil** (lot. ishlab chiqaruvchi) — ko‘p o‘lchovli matematik statistika usuli. U ijtimoiy ob’ektlar belgilari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni o‘lchash va belgilarni ana shu o‘zaro aloqalar asosida turkumlashga asoslanadi. Juft korrelyasiyalar asosida faktor tahlilda yangi, yirikroq belgilar olinadi. Ana shular faktor deb ataladi.

**Fales (tax. mil. av. 624-547)** – qadimgi yunon faylasufi, antik falsafa va fanning ilk namoyandasи, Milet maktabining asoschisi. Asarlari bizgacha yetib kelmagan. Fales ta’limotiga ko‘ra hamma narsa suvdan kelib chiqadi va yana oqibatda suvga aylanadi. U dunyoni jonli va ilohiyligi to‘g’risidagi fikrni ilgari suradi. Jonni nozik modda (efir)dan iborat deb bilgan.

**Fan** — ob’ektlar, hodisalar va odamlarni o‘rganishda tadqiqotning tizimli usullari va batafsil mantiqiy taxdilni qo‘llash.

**Faraz** — empirik tadqiqotning asosi sifatida olg‘a surilayotgan g‘oya yoki taxmin.

**Farovonlik (mo‘l-ko‘llik)** jamiyati - g‘arb sotsiologiyasida hozirgi kapitalistik davlatlarning qiyofasi ifodalab, «umumiyl rohat-farog‘at» va «iste’mol qilish jamiyati» degan nazariyasi vujudga keldi. Ushbu nazariyaga ko‘ra iqtisodiyotning o‘sishi va yangi texnologiyaning ishlab chiqarishga tadbiq natijasida jamiyatning ijtimoiy iqtisodiy farovonligi ortib boradi, mo‘l-ko‘lchilik natijasida iste’mol mahsulotlarining ko‘plab realizatsiya qilinishi natijasida jamiyatdagи har bir kishining baxtli va nizolarsiz hayot kechirishi ta’milanadi. Hozirgi kunda shunday davlatlar fikrimizcha rivojlangan kapitalistik davlatlarda, ayniqsa Skandinaviya davlatlari hayotida asta-sekin

namoyon bo‘lib bormoqda.

**Fashizm** — bir irqning boshqasidan ustunligi haqidagi tasavvurlarga asoslangan siyosiy g‘oyalar tizimi yoki real siyosiy tizim.

**Fatalizm** (lot. Fatalis-tahdiriga oid, mash‘um)-har bir hodisa hamda insonning barcha xatti-harakatlarini taqdirga bog‘liq, deb qarovchi dunyoqarash. Fal. tarixida F. ni iroda erkinligi qanday hal qilinganiga qarab uch asosiy turga ajratish mumkin: mifologik F.-irodani aqldan tasqharida, “qorong‘i taqdir” deb qaraydi; teologik F.-taqdir Xudo qudratiga bog‘liq, inson tug‘ilishidan oldin uning kim bo‘lishi, nimalar bo‘lishi peshonasiga yozib qo‘yilgan, deydilar. Bu naz-ya kalom fal.sining eng muqim aqidalaridan hisoblanadi, u kalvinizm va yansenizmda ham o‘zining izchil ifodasini topgan; ratsionalistik F. (mekanistik determinizm b-n qo‘shiluvchi)-tasodifni va inson irodasini azaliy taqdirning zarur sharti deb qaraydi. Uning namoyandalari (pifagorchilar, Demokrit, Nitsshe va b.) doiraviy aylanishning muayyan davrasida voqealar mutlaq takrorlanishini ta’kidlaydi.

**Federatsiya** (lot. foederatio — ittifoq, birlashma) — davlat tuzilishi shakllaridan biri. F. hududi F. sub’ektlari hududidan tashkil topadi. Strukturasiga ko‘ra hududiy asosda (AqSH, Argentina, Avstriya, GFR, Braziliya, Meksika), milliy zaminda (Belgiya, Pokiston) va aralash — milliy-hududiy (Kanada, Rossiya) asosda tuzilgan F.lar farqlanadi. Konstitutsiyaviy huquq naz-yasida shuningdek, konstitutsiyaviy (AQSH, Kanada, Braziliya), konstitutsiyaviy-shartnomaviy (Rossiya) va shartnomaviy (Shveysariya, Birlashgan Arab Amirliklari) F.lar ham ajratiladi. F.da federal organlar va F. a’zolarining organidan iborat oliy davlat organlarining 2 tizimi mavjud. Federal organlar o‘z vakolatini butun F. hududida amalga oshiradi. Federal organlar b-n F. sub’ektlari organlari o‘rtasidagi vakolatlarni chegaralash usullari turli xildir. Bir qator davlatlarda (Argentina, AQSH, Braziliya, Venesuela Shveysariya) federal hokimiyatning va F. sub’ektlarining mutlaq vakolatiga kirgan masalalar, ba’zi bir davlatlarda esa (GFR, Hindiston, Malayziya) yuqoridaq ikki holatdan tashqari bir vaqtning o‘zida ham F., ham F. sub’ekti vakolatiga kiritilgan masalalar belgilab qo‘yilgan. F. sub’ektlari, o‘z konstitutsiyasiga ega bo‘lishi amaliyotda keng tarqalgan. Biroq ba’zi davlatlarda (Kanada, Venesuela) F. sub’ektlari o‘zlarining mustaqil konstitutsiyalariga ega emas. Ayrim mamlakatlarda F. sub’ektlari o‘zaro teng huquqli bo‘lsalarda, o‘zining huquqiy maqomiga ko‘ra farqlanishi ham mumkin. Mas., Rossiya F.si sub’ektlari huquqiy maqomiga ko‘ra respublika, o‘lka, oblast, federal ahamiyatga ega shahar, avtonom oblast va avtonom okruglarga bo‘linadi. Shulardan faqat respublikalar o‘z konstitutsiyasini, boshqa sub’ektlar esa o‘z ustavini qabul qilishi mumkin. F. cub’ektlarining har biri o‘zlarining huquqiy va sud tizimlariga ega. Mas., 50 shtatdan tashkil topgan AQSHda har bir shtatning bir-biridan farq qiluvchi huquq va o‘z sud

tizimi bor. Ko‘pchilik F.larda ham yagona fuqarolik, ham F. sub’ektlari fuqaroligi mavjud. Venesuela, Kanada, Malayziyada faqatgina federal fuqarolik belgilab qo‘yilganligi fikrimizning isbotidir. F. sub’ektlari federal parlamentda maxsus palataga ega. Biroq ular unitar davlatlardagi parlamentlarning yuqori palatasidan deyarli farq qilmaydi. F.ni tashkil etadigan davlatlar to‘la ma’nodagi davlatlar emas. Ular xalqaro munosabatlarda qatnashish huquqidan mahrumlar. Ayni paytda F. konstitutsiyasi yoki qonunchiligi buziladigan bo‘lsa, markaziy hokimiyat F. sub’ektiga nisbatan kuch ishlatsiham mumkin. Bu federal konstitutsiya va qonunlarni buzgan rahbarlarni o‘z vazifasidan chetlatish, ularning o‘rniga markaziy hokimiyatning muvaqqat vakillarini tayinlash, zarur hisoblanganda vakillik organlarini vaqtinchalik tarqatib yuborish, sub’ekt hududiga federal qo‘shinlarni olib kirish kabi harakatlarda namoyon bo‘ladi. Bunday harakatlar konstitutsiya yoki tegishli qonunlarda belgilab qo‘yiladi.

**Feminizm** — XVIII asrda vujudga kelgan va erkak, ayollar o’rtasida tenglik o’rnatish uchun harakat. I bosqichda XIX - XX-asrning birinchi yarmida huquqiy borgan. Hozirgi davrning eng kuchli ijtimoiy-siyosiy harakatlaridan biri.

**Feministik tashkiotlar** — qator mamlakatlardagi xotin - qizlar harakatida asosiy o’rinni egallaydilar. Bunga AQSh yaqqol misol bo‘ladi. Bu mamlakatdagi xotin - qizlar harakatida feministik mafkura eng yorqin va to‘la o’z ifodasini topgan. Keyingi-yillarda feministik mafkura va harakatda ikki oqim: liberal islohotchilik va radikal oqimlar qaror topdi.

**Feminizatsiyaning testikulyar sindromi** — endokrin buzilish bo‘lib, unda odam tana tuzilishiga ko‘ra — ayol, xromosomalar darajasiga ko‘ra esa — erkak bo‘ladi.

**Fenomen** (yun. phainomenon-yuz beruvchi)– 1) ko‘zga ko‘rinib turgan hol; 2) noyob, kam uchraydigan hol, yoki buyuk, yagona bo‘lgan inson; 3) hissiy bilish, tajribada berilgan ma’lum bir holni anglatuvchi fal-iy atama; hissiy tajriba yordamida payhaladigan va anglanadigan hodisa, jonli mushohada ob’ektini bildiradigan tushuncha. Fal. tarixida F. mohiyat yoki hodisaning ifodasi yoki namoyon bo‘lishi sifatida talqin qilinadi (Leybnits, Shelling, Gegel). Idealistik fal.da F. ob’ektiv borliqni aks ettirmaydigan bizning ongimizning sub’ektiv mazmuni. *Kant* fal.sida esa aprior sxemalar yordamida tartibga keltiruvchi hodisalar dunyosidan iborat bilish voheligi sifatida tushuntiriladi. Kant uchun F. noumendant keskin farh hiladi, chunki noumen tajriba doirasidan tashharida holadi. F. tushunchasi yordamida esa, u moqiyatni qodisadan ajratib tashlashga va moqiyatini bilib bo‘lmasligini uhishga urinardi. Sub’ektiv idealizm vakillari tomonidan esa, (mas, Berkli, Yum va b.) F. tushunchasi tajriba va butun reallik b-n aynanlashtirilgan sub’ektiv his-tuyg‘ular, sezgilar kombinatsiyasini anglatgan. Idealistik fal.da

F. ni “sof mohiyat”, o‘ziga xos “g‘oya” lar tarzida ko‘rsatishga urinish mavjud: mas, Platon “g‘oya”si, Gyote ideal tipi va b.

**Fenomenalizm** (yun. Phainomenon - yuz beruvchi) — noyob, kamyob, kam uchraydigan holat yoki inson, his-tuyg‘u tajribasi b-n payialadigan yorqin hodisani anglatuvchi tushuncha b-n bog’liq bo’lgan falsafiy ta’limot. Bunda faqat hodisa (fenomen) largina bilishning ob’ekti hisoblanadi. F. rivojlanishi natijasida olamni g’oyalar yoki “sezgi komplekslari” majmui, deb biluvchi empriokrititsizm (J. Berkli) hamda sezgilar zamirida nima borligini bilish mumkin emas, deydigan agnostitsistik (yun) xulosa hosil bo‘ladi. F. hodisalar olamida tashiaridagi mavjudlikni (“G’oya”, mohiyat, “narsa o’zida”ni) e’tirof etib, uni qanday bo’lsa shundayligicha, “oxirigacha” bilib bo’lmaydi deb ta’lim beradi. F.dagi bunday qarash skeptitsizm va agnostitsizm (I. Kant, O. Kont, G. Spenser va b.) ta’limotlariga xosdir. Hoz. zamon pozitivizmida F. lingvistik shaklga kirmoqda, chunki, uning asosiy tezisi tajribani “ob’ektiv” yoki “fenomenalistik” tilda ifodalash mumkinligidan iborat. Avvalda narsalar haqidagi mulohazalarni ongning mazmuni haqidagi qarashlardan iborat qilib qo’yish batamom mumkinligini e’tirof qilgan ba’zi neopozitivistlar so’nggi vaqtda bu urinislarning behudaligini anglay boshladilar. Haqiqiqiy fal-iy nuqtai nazardan qaraganda F.ning boshlang’ich tezisi asossizdir, chunki unda bilish voqelikdan va amaliyotdan ajratib qo’yilgan.

**Fenomenologiya** –20-asr falsafasidagi yo‘nalish. Asoschisi Gusserl. F.ning manbai ongda amal hiladigan tajribadan va tarixiylikdan tashhari g‘oyaviy mohiyatlarni qayta ko‘rib chiqishdan iborat. Fal-iy ongni naturalistik mohiyatlardan ozod qilishga qaratilgan F.ning markaziy tushunchasi-ongning “intensionalligi” (uning ob’ektiga yo‘naltirilganligi)-“sub’ektsiz ob’ekt yo‘q” degan sub’ektiv idealistik tamoyilni mustahkamlashdan iborat. Gusserl ushbu muammoni hal etish mahsadida o‘z F.siga-ong mohiyatini tavsiflashga qaratilgan yangi fanga asos soldi. Agar qar qanday fal.ning vazifasi bizning tushunchalarimiz mazmunini aniqlashdan iborat bo’lsa, Gusserl taklif etgan usul yordamida esa, F. ong hayotining o‘zini tashkil qiluvchi mazmunlarni shakllanish jarayonini aniqlaydi. Buning uchun fenomenologik metodning talablari quyidagilardan iborat: 1) orenomenologik reduksiya, ya’ni ob’ektiv voqelikka oid bo’lgan va “sof” (ya’ni sub’ektiv) tajribadan tashqariga chiqadigan muhokamalarga yo‘l qo‘ymaslik; 2) transsensual reduksiya, ya’ni bilish sub’ektini real, sotsial, psixofiziologik vujud deb emas, balki “sof”, transsensual ong deb qarash. Shu ma’noda, F. da fal. “sof mohiyatlar” ni o‘rganuvchi fan bo‘lishi lozim, deya da’vo qilinadi va u real faktlarni o‘rganishga qarama-qarshi qo‘yiladi. Ong shakllanishini tahlil qilishda fenomenologik yondashuv psixologiya va psixiatriyada, etika va estetikada, huquq va sotsiologiyada, din va fan fal.sida

keng yoyildi. Transsensual sub'ektivlikni tushunishdagi tafovutlar tufayli Gusserl ta'limotidan farq qiladigan F. ko'rinishlari va shakllari ham paydo bo'ldi. Xususan, uning izdoshlaridan biri Sheler fikr manbaini shaxs ruhida ko'rgan bo'lsa, Gusserlning assistenti Xaydegger esa, ekzistensiyada ko'rdi. Natijada F. dan hosil qilingan ziddiyatli xulosalar ushbu oqimning ichida bo'linish ro'y berishiga va oppozitsiya chiqishiga sabab bo'ldi. Oqibatda bu mакtabning so'l qanoti F.ni irratsionalizm va ekzistensializmdan himoya qilib, saqlab qolish uchun urinmoqda (M. Farber, hisman R. Ingarden). Gusserlning Luven katolik un-ti qoshidagi (Belgiyada) arxivi va "Fal. va fenomenologik tadqiqotlar" jurnalini nashr etuvchi Xalqaro F. jamiyati fenomenologik oqimning hoz. davrdagi nazariy markazlaridandir. Sub'ektivism, tabiiyatshunoslik fanlari b-n bog'liqlikdan yiroqlik F. ning jiddiy kamchiliklari bo'lsa, ssientizm va pozitivizmga nisbatan tanqidiylik uning ijobjiy xususiyatidir.

**Ferdinand Tyonnis**(1855-1936)F.Tyonnis nemis sotsiologi. Asosiy asari «Umumiylig va jamiyat»(1887) deb nomlanadi. Ijtimoiy munosabatlarni u irodaga bog'lab tushuntiradi. Irodaning qanday namoyon bo'lishiga qarab, Tyonnis munosabatlarni 2 turga bo'ladi: insонni ichidan yo'naltiruvchi tabiiy instinktiv iroda; tafakkuriy iroda — ongli ravishda o'yilgan maqsadga qarab harakat qilish va tanlash erkinligidir. Birinchi irodaga ona muhabbati misol bo'la olishi mumkin, ikkinchisiga esa savdogarlik faoliyatidir.Tabiiy iroda jamoani tashkil qiladi, tafakkuriy iroda jamiyatni hosil qiladi. Jamoada instinktlar, hissiyot va organik munosabatlar hukmronlik qiladi. Jamiyatda esa hisob-kitobli tafakkur, mexanizmga monand munosabatlar qonunlariga rioya qilinadi. Tarixiy taraqqiyot davomida ikkinchi tipdagи munosabatlar ustuvorlik qila boshlaydi.

Tyonnis o'zining «Sotsiologiyaga kirish» (1931) nomli asarida yuqorida turlarni murakkablashtiradi va bu munosabatlarga yana «hukmronlik» va «birodarlik» kabi guruhlarni ham qo'shamdi. Uning fikricha, jamiyat nazariyasi inson mavjudotlarining sirtdan qaraganda individlar bir-birlari bilan tinch va yonma-yon yashaganlari uchun ijtimoiy birlikni eslatadigan sun'iy yasalgan agregati bilan ish ko'radi. Biroq birliqda ular ajratuvchi barcha omillarga qaramay bo'linadilar. Jamiyatda har bir kishi o'zicha va boshqalardan ajralgan hoddha yashaydi. Unda individning boshqalarga munosabatida taranglik mavjud. Jamiyatda individlarning faoliyat va hokimiyat doiralari shunday ajratilganki, uzgalarga uz doirasi bilan muloqotni va unga kirishni man qiladi, ya'ni unga kirish dushmanlik ifodasi, deb baholanadi. Boshqalarga nisbatan bunday salbiy ustanovka me'yorga aylanadi va hokimiyatga ega bulgan individlar munosabatlar negizini tashkil qiladi. U tinchlik holatidagi jamiyat uchun ham xos. Unda hech kim o'zgaga biron narsa berish yoki boshqalar uchun biron narsa ishlab

chiqarishni istamaydi, hech kim boshqalarga nisbatan saxiy bo‘lishni xohlamaydi, agar sovg‘a yoki mehnat evaziga barobar shularga deb biladigan biron narsa olmasa ishlamaydi.

**Fohishalik** — pul vositasida amalga oshiriladigan jinsiy xizmatlar.

**Fokuslashgan to‘da** — xatti-harakatlari umumiy maqsadlarga erishish uchun qaratilgan odamlar to‘dasi.

**Fokuslashgan o‘zaro ta’sir** — umumiy faoliyatga yoki bevosita suhbatga tortilgan individlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir.

**Fokuslashmagan o‘zaro ta’sir** — bir joyda turgan, lekin bir-birlari bilan bevosita muloqotga kirishmagan odamlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir.

**Fordizm** — Genri Ford tomonidan ixtiro qilingan ishlab chiqarish tizimi bo‘lib, uning mohiyati — ishlab chiqarishda konveyer usulidan foydalanishdir.

**Formal operatsiya bosqichi** — Piaje nazariyasiga ko‘ra, kognitiv taraqqiyot bosqichi bo‘lib, unda bola mavhum tushunchalar bilan ishlash va taxminlar tuzish layoqatiga ega bo‘ladi.

**Forobiy Abu Nasr** (taxallusi; asl ism-sharifi Abu Nasr Ibn Muhamad Ibn Uzlug‘ Tarxon Forobiy (873, Forob — 950, Damashq) — o‘rta asrlar musulmon Sharqining mashhur mutafakkiri, qadimgi yunon falsafasining eng yirik davomchisi va targ‘ibotchisi. qad. yunon ilm-fanining bilimdoni sifatida Aristoteliing “Metafizika”, “Fizika”, “Meteorologiya” va mantiq sohasiga oid kitoblariga, Ptolemey, Aleksandr Afrodeziyskiy va b.larning axloq-odob, psixologiya, tabiiy fanlar bo‘yicha yaratgan ilmiy risolalariga sharhlar yozgan. (“Ikki faylasuf — Arastu va Galenning barcha fikrlari to‘g‘risida kitob”, “Arastu va Galen o‘rtasida vositachilik” va b.) Ayniqsa, uning Aristotel fal.sini talqin etishdagi va mantiq sohasidagi ishlari shuhrat qozonib, F.ning “Al-muallimi soniy” (“ekkinchi muallim”) va “Sharq Aristoteli” kabi nomlarga sazovor bo‘ldi. Shuningdek, F. ilm-fanning turli sohalariga taalluqli original asarlar muallifi. Birinchilardan bo‘lib o‘z davri ilmlarining tasnifini berdi. Uning musiqa sohasiga atab yozgan asarlari musiqa naz-ni boyitdi, Sharqda keng tarqalgan nay, nog‘ora, chang, rubob kabi musiqa asboblarini ta’riflab, ularning kishilarning ma’naviy hayotidagi o‘rnini ko‘rsatib berdi. F. matematika, tibbiyot, arab tili grammatikasi, alximiya, mantiq ilmlariga oid qimmatli asarlar ham yaratdi. Borliq muammosini hal etishda “vujudi vojib” va “vujudi mumkin” o‘zaro nisbatiga murojaat qilish an’anasi F. dahosiga taalluqlidir. U o‘zining qator asarlarida bu masalaga to‘xtalib, “vujudi vojib” barcha mavjud yoki paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan narsalarning birinchi sababi ekanligini uqtiradi. Birinchi sabab sifatida u o‘zga sabab yoki turtkiga muhtoj emas. Uning zotiga nuqson va qusurlar, ziddiyat, nomutanosiblik, beqarorlik, bilmaslikdan bilishga qarab yo‘nalish kabi jarayon yo‘q. U mutlaq borliq va donishmandlik ifodasidir. U

yaratadi, lekin boshqa narsalar tomonidan yaratilmaydi. “Vujudi mumkin” sultanati esa, aksincha, doimo o‘zgarishda, ziddiyatli munosabatlarda, unda barcha narsalar oddiylikdan murakkablikka, tartibsizlikdan tartiblilikka, norasolikdan kamolotga qarab yuz tutadi. “Vujudi vojib” yaratgan narsalardan dastlabkisi birinchi aqldir. Birinchi aql faol aql sifatida har bir sayyoraga xos aqlarni vujudga keltiradi. Eng so‘nggi samoviy aql natijasida Yerdagi aql-ruh va barcha moddiy jismlarning asosi bo‘lmish to‘rt unsur — tuproq, suv, havo va olov paydo bo‘ladi. Yuqorida zikr etilgan to‘rt unsur negizida o‘simpliklar, hayvonot olami, inson zoti va notirik tabiat yuzaga keladi. Organik olamga o‘simplik ruhi, hayvoniy ruh va insoniy ruh xosdir. Jism va harakat uzviy aloqada bo‘ladi. Harakat va sukunatning ibtidosi sirtqi biron-bir narsaga yoki irodaga borib taqalmasa, uni tabiat deb atashadi. Harakat, o‘z navbatida, vaqt b-n uzviy tarzda bog‘langan. Harakat ibtido va intiho b-n chegaralanmagan. F. bilish muammolariga alohida e’tibor bilan qaraydi. U voqelikni bilish mumkin ekanligiga aslo shubhalanmaydi. Inson o‘zining barcha bilimlarini tashqi olam tufayli oladi. U ko‘pgina vosita va usullar bilan ta’minlanganki, ular (idrok, sezgi, xotira, tasavvur, mantiqiy tafakkur, aql, nutq) orqali voqelikni o‘zlashtira boradi. Aynan shu vositalar tufayli inson ilm-fanni yaratadi. Bilish jarayoni cheksiz bo‘lib, u insoning onli mushohadasi va tafakkurning bilmaslikdan noaniq narsani bilishgacha bo‘lgan o‘ta murakkab yo‘lni qamrab oladi. Bu yo‘nalish hodisalar oqibatini bilishdan uning sababini bilishni, aksidensiyadan substansiyaga yetib borishni maqsad qilib qo‘yadi. Lekin bu yo‘nalish sababdan oqibatga, mohiyatdan hodisaga, aqldan jonli mushohadaga tomon qaratilganda ayni muddao bo‘lar edi. Amalda esa bor imkoniyatdan foydalanish lozim. Aqliy bilish F. talqinida ikki jihatga ega. Birinchidan, u konkretdan uzoqlashish va unda umumiylarini ajratib olishni, ikkinchidan esa, ushbu umumiylig ko‘magida konkret jihatning mohiyatiga chuqurlashishni taqozo qiladi. Pirovardida aql zamin sirlaridan voqif bo‘lib, samoviy qismlarni bilishga kirishadi. Aqliy bilish koinot aqli ko‘magida barkamol ilmga aylanadi. Garchi inson aqlini koinot aqliga tiqishtira berish bilish nazariyasiga mistikaning kirib borishiga yo‘l ochib bergen bo‘lsa-da, u ijobjiy ahamiyatga ega edi, chunki u bilishning ratsional metodini asoslab berishga azmu qaror qilgandi. Bundan tashqari, F. bilish ta’limotining boshqa ko‘pgina jihatlariga ham diqqat-e’tiborini qaratib kelgan. Ayniqsa, ilmiy tadqiqotda kuzatuv, bahs-munozara, bilish metodlari, hissiy mushohadaning cheklanganligi borasida qiziqarli g‘oyalarni ilgari surgan. F. tufayli musulmon Sharqi fal-iy tafakkurida mantiq ilmi chuqur ildiz otdi. U bilishda mantiqqa murojaat qilmagan kimsani qorong‘uda o‘tin yorgan odamga o‘xshatadi. F.ning ijtimoiy-axloqiy, siyosiy qarashlari behad darajada e’tiborlidir. Insonni baxtsaodatga eltuvchi jamoa fazilatli, yetuk, xosiyatli jamoa, chunki insonning

o‘zi dunyo taraqqiyotining eng mukammal va yetuk yakunidir. Inson baxtsaodatga erishishda olam asoslari haqidagi ilmni, tabiiy jismlarning tuzilishini, osmon, jonli tabiat-o‘simlik va hayvonot olami to‘g‘risidagi barcha bilimlarni o‘zlashtirib olishi lozim. Shundan so‘ng u insonni o‘rganishga kirishishi, va uning kamolotga erishuvi sabablari bo‘lmish xayrehsonli ishlar, go‘zal insoniy fazilatlarga diqqatni jalb etishi zarur. F.ningadolatli, fazilatli jamiyat, davlatni demokratiya talab va tamoyillaridan kelib chiqqan holda boshqarish to‘g‘risidagi fikr-mulohazalari diqqatga sazovordir. Mutafakkirning orzusidagiadolatli jamiyatda kishilarning samarali mehnatiga, ilm sohiblariga, ularning aql-zakovatiga, fazilatli axloq-odobiga, hayotiy tajribasiga yuksak baho beriladi. Diniy adovat, o‘zga dinlarga e’tiqod qiluvchilarga nafrat kabi sifatlar qoralanadi. Uning uchun eng muhimi — kishilarning u yoki bu dinga e’tiqod qilishi emas, balki ma’rifatning tantanasi, ilm-fanning iqboli, inson kamoloti, baxtsaodat, ezgulikning qaror topishi, insonlarning o‘zaro hamjihatligidir. Bunday jamiyatda kasb-hunar, ilmni egallashga keng yo‘l ochib beriladi. Jamiyatda tenghuquqlik va erkinlik saltanati hukmronlik qiladi, yakka hokimlikka barham beriladi. Aavlat boshliqlarini fuqarolarning o‘zları saylaydilar. Saylangan boshliqlar xalq manfaatlariga zid harakat qilsalar, ular o‘z amal-mansablaridan chetlashtiriladi. Orzudagi davlat arboblari o‘z faoliyatlarida adolat, tenghuquqlik, fuqarolarning manfaatlarini ko‘zlab ish tutadilar. F.ning undan keyingi avlod ziyolilari, mashhur olim va mutafakkirlari dunyoqarashining shakllanishi va rivojiga ta’siri samarali bo‘lgan. Bundan tashqari, butun Yevropa F. va b.lar orqali antik olam madaniyati, jumladan, tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy g‘oyalaridan xabardor va bahramand bo‘ldi. Asosiy asarlari: “Substansiya haqida so‘z” (“Kalom fi-l-javhar”), “qonunlar haqida kitob” (“Kitob fi-n-navomis”), “Masalalar manbai” (“Uyun-ul-masoil”), “Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi” (“Kitob fi ihso al-ulum va at-ta’rif”), “Mantiqqa kirish kitobi” (“Kitob al-madxal ila-l mantiq”), “Falsafa” tushunchasining ma’nosi haqida so‘z” (“Kalom fi ma’oni ism al-falsafa”), “Fazilatli xulqlar” (“As-sifat al-fazila”) va b.lar.

**Frankfurt maktabi** — XX asrning 30-yillarida Germaniyada, Frankfurt-Mayndagi sotsial tadqiqotlar instituti negizida vujudga kelgan ijtimoiy-falsafiy maktab. U fashizmga, shuningdek, texnokratik ommaviy iste’mol jamiyatiga intellektual muholifatni tashkil etgan.

**Freyd Zigmund** (1856-1939) — avstriyalik nevropotolog, psixiatr, psixolog. Freydizm va psixoanaliz asoschisi. Tibbiyat d-ri (1881). Vena fiziologiya in-ti (1876-82)da, Parijdagi klinikada ishlagan (1885-86). Vena un-ti prof. (1902 y.dan). 1910 y. psixoanalitik assotsiatsiyaga asos solgan. Dastlabki ishlari miya faoliyati lokalizatsiyasi, besh miya fiziologiyasi va anatomiyasi, bolalar falaji va b. masalalarga bag‘ishlangan. 90-y.larning

boshidan fransuz maktabi (SHarko, Berixsiy) ta'sirida asab kasalliklari, ularni psixoterapevtik davolash uslubi va psixologiya asoslari b-n shug'ullandi. 1895 y. asab kasalliklarini davolash uslubini ishlab chiqdi. F. psixikani moddiy sharoitlardan ajratib, mustaqil, ong doirasidan tashqaridagi holat deb hisobladi. Inson psixikasining yangi dinamik va energetik modelini ishlab chiqishga urindi. Ushbu model o'ziga ikki asosiy qismni mujassamlashtiradi: ongsizlik-onglilikdan avval onglilik. F.ning tushuntirishicha, inson xatti-harakati me'yorlarini va patologiyasini ilg'ab olish qiyin bo'lgan motivlar belgilaydi. Uning xatti-harakatidagi xatoliklar, ongsizlikning turli motivlari va ichki psixik ziddiyatlar natijasi ekanligidan dalolat beradi. Evropa psixologik an'analarida, F. qilgan buyuk inqilobiy burilishning mohiyati shundaki, u Dekartning inson to'g'risidagi tasavvurlarini bartaraf etib, fenomonologik yondashuvni eliminatsiya qilish yordamida, ongsizlikni tahlil qilish mumkinligini asoslab berdi. Psichoanaliz an'analariga muvofiq, ongsizlik bilib bo'lmas jarayon deb tushintiriladi. Lekin empirizm va realizm prinsiplariga asoslanib F. o'zining "reprezentiv"ida, ushbu jarayonni bilish mumkin, degan xulosaga keldi. F. 1905 y.da, inson intim munosabatlarining kam rivojlanishi va seksual qoniqmaslik nevrozlar manbai ekanligi haqidagi g'oyani isbotladi. 1907 y.da ongsizlikning klassik ta'rifini bayon qildi. F.ning psichoanalitik fal.si: "To tem tebu" (1913), "qoniqish prinsipining narigi tomonida" (1920), "Omma psixologiyasi va "Men"ning insoniy tahlili" (1921), "Men va u" (1923), "Bir illyuziya kelajagi" (1927), "Madaniyatdagi qayg'urish" (1929), "Muso va monoteizm" (1939) asarlarida har tomonlama rivojlantirildi. F.ning psichoanalitik fal.si inson borlig'ini vujudga keltirgan asoslarni aniqlashga harakat qildi. Ayniqsa, inson shaxsi tarkibining asosiy komponentlari, elementlarini aniqlab berishga, kishi xulq-atvori, xarakaterining yuzaga kelishi sabablari, individ tur mush tarzi prinsiplarining hosil bo'lishini tushuntirishga intildi. F.ning ta'kidlashicha, inson shaxsida bo'ladigan o'zgarishlar borliqning o'ziga xos, muhim xususiyat va xossalarga ega bo'lgan shaklidir. F.ning psichoanaliz uslubiga muvofiq, inson shaxsi uchta asosiy komponentdan tashkil topadi. Id, Ego va Superego birlashib, bir butun inson shaxsini vujudga keltiradi. Inson shaxsining asosiy komponentlaridan biri Id-kishi tug'ilgan paytda mavjud bo'lgan barcha psixologik holatlar, instinkt (tug'ma his-tuyg'ular)ning yig'indisi. Shuning uchun ham Id inson shaxsi tarkibidagi markaziy komponentdir. Ushbu komponent inson tanasining ichki ehtiyojidan kelib chiqadi. o'z navbatida, xuddi shu komponent shaxs tarkibidagi b. komponentlar: Ego va Superegolarning faoliyat ko'rsatishi uchun ham imkoniyat yaratib beradi. Id, o'z navbatida, shaxs energiyasining zaxirasidir. Lekin unda hech qanday zamon ta'siri bo'lmaydi, zamonga qarab o'zgaravermaydi. Unda hech qanday yaxshilik

ham, yomonlik ham, axloq ham yo‘q, qadriyatlarning ham ta’siri sezilmaydi. Idning mazmuniga ongsizlik hukmronlik qiladi. Chunki Id o‘zida insondagi barcha tug‘ma ruhiy-psixologiya holatlarni birlashtiradi. Uning barcha psixologiya holatlariga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Inson shaxsi tarkibidagi eng muhim ikkinchi komponent Egodir. F.ning tushuntirishicha, Ego va Idni birgalikda qo‘shilib, rivojlanib borishi natijasida odam bolasi asta-sekin o‘zini taniy boshlaydi. Ego Iddagi ba’zi xususiyatlar va xossalarning takrorlanib turishi uchun ko‘mak beradi, uni turli-tuman xavf-xatarlardan himoya qiladi va buning uchun zarur bo‘lgan kuch-quvvatni Iddan oladi. F.ning fikriga ko‘ra, Ego — shaxsdagi hissiy tuyg‘ular b-n fikriy xatti-harakatlarni o‘zaro bog‘laydi. Shaxsning beixtiyor, ongsiz qiladigan xatti-harakatlarini ham jilovlab turadi. Chunki bu komponent beixtiyorlik, ongsizlik sharoitida ham shaxs o‘zligini saqlab qolishi uchun xizmat qiladi. Ego dastlabki paytda Id tomonidan bunyod etiladi. Id Ego yordamida o‘zida mavjud bo‘lgan turli noxushliklarni kamaytiradi, qoniqish tuyg‘usini kuchaytiradi. o‘z navbatida Ego faoliyatini nazorat qilib turishi, uning rivojiga yangi turki berishi darkor. Shaxs tarkibidagi uchinchi muhim komponent — Superegodir. Superego Ego zaminida vujudga keladi. Ushbu komponent shaxs faoliyati va fikr-mulohazasining hakami yoxud nazoratchisi vazifasini bajaradi. Shaxsdagi barcha axloqiy me’yorlar, konstruksiyalar, xulq-atvor talablari ushbu komponentda mujassamlashadi va ma’naviy — axloqiy ta’qiqlar qatlamini hosil qiladi. Superego uchta muhim funksiyalarni bajaradi: vijdon, o‘zini-o‘zi kuzatish va turli ideallarni shakllantirish. Superegodagi vijdon shaxs faoliyatini jilovlab, uning kundalik ehtiyojlari qanday qondirilayotganligini nazorat qilib boradi. Insondagi turli ideallar va orzu-umidlarning qaror topishi ham Superegoning rivojlanish darajasi b-n bog‘liq. Shuningdek, Superego shaxs xulq-atvorini uning otasi yoki onasining xulq-atvori b-n bog‘laydi. Shaxsning xulq-atvorini yangicha mazmun b-n boyitadi. qadriyatlarni ajdoddlardan avlodlarga etkazadi. F. shaxsning psichoanalitik konsepsiyasini yaratishda ulkan hissa qo‘shdi.

**Fromm Erix(1900-1980)** — germaniyalik — amerikalik faylasuf, sotsiolog va psixolog. *Neofreydizmning* asoschilaridan biri. Ijtimoiy taraqqiyot g‘oyalarining targ‘ibotchisi. Geydelberg un-tining tugatgach, fal. d-ri ilmiy darajasini olgan (1929). 1923-1924 y.da Berlindagi psichoanalitik i-t.da psichoanaliz kursini o‘tagan. 1929-1932 y.larda Frankfurt-Maynedagi ijtimoiy tadqiqotlar i-t.ida ishlagan. 1933 y.da AqSHga muhojir bo‘lgan, o‘qituvchilik va ilmiy-tadqiqot ishlari b-n shug‘ullangan. 1951-1967 y.larda Meksikada yashagan. Mexiko milliy un-ti qoshidagi psichoanaliz i-t.ga rahbarlik qilgan. 1974 y.dan SHvetsariyada yashagan. Uning “Erkinlikdan qochish” (1941), “o‘zi uchun yashayotgan inson” (1947), “Sevmoq san’ati” (1956), “Dzen-buddizm va psichoanaliz” (1960), “Marksning inson

konsepsiysi” (1961), “Illyuziyalar qurshovida” (1962), “Inson qalbi” (1964), “Umidlar revolyusiyasi” (1968), “Inson destruktivligining anatomiyasi” (1973) “Ega bo‘lmoq yoki bor bo‘lmoq” (1976) kabi asarlarida gumanistik, psixoanalistik qarashlari aks etgan. F. fikriga ko‘ra, inson evolyusion o‘zgarishlar natijasida vujudga kelgan mavjudot bo‘lib, xuddi o‘sha o‘zgarishlar, instinctlar, ya’ni tug‘ma his-tuyg‘ulari tufayli avvaldan moslashgan, o‘zini o‘rab turgan atrof-muhit doirasidan tashqariga chiqadi, fahm-farosat, ong hosil qiladi. Yangi moslashuv mexanizmi insonni biologik kemiklarini bekitish uchun qulayliklar yaratadi. Maxsus xususiyatlari: o‘zini, alohida o‘ziga xos mavjudot ekanligini fahmlash, o‘tmishni eslash va kelajakni oldindan ko‘ra bilish, hodisalar va voqealarni birini-ikkinchisidan ajratib turadigan belgilarni aniqlay olish, olamni tushunish va uni aql-farosat yordamida bilish kabilar insoniy sifatlarni shakllantirish uchun asos vazifasini bajaradi. Inson borlig‘ining turli xususiyatlari hoz. zamon sivilizatsiyasi va madaniyati ta’sirida chuqur tahlil qilgan F. ning tushuntirishicha, inson deb nomlanuvchi mavjudotning ontologik asoslarini bir tomondan inson borlig‘ining biri-birini doimo to‘ldirib turuvchi umumiylit va noyoblik tashkil etsa, ikkinchi tomondan, o‘sha umumiylit va noyoblik biri-ikkinchisi b-n hech qachon murosaga kela olmasligi tashkil etadi. Umumiylit b-n noyoblik o‘rtasidagi ziddiyat insonni mavjud bo‘lib turishi uchun muhim shart vazifasini bajaradi. o‘z navbatida, inson borlig‘idagi o‘sha noyoblik, uni tabiatdan, jamiyatdan, odamlardan, hatto o‘zidan-o‘zining begonalashuviga olib keladi. Inson o‘zining individual xususiyatlari yordamida butun qalbini egallab olgan: bezovtalik, vahimaga tushish, qo‘rquv kabi illatlar uchun, o‘zini aybdor, gunohkor deb, his qila boshlaydi, uni doimo bartaraf etish yo‘llarini izlaydi. F. ta’limotining yadrosini, inson borlig‘idagi murakkab ziddiyatlar — dixotomiya o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik mexanizmini har tomonlama tahlil qilish tashkil etadi. Uning fikriga muvofiq, inson borlig‘i to‘g‘risida aniq ma’lumotga ega bo‘lish uchun kishi faoliyatidagi biri-ikkinchisiga qarama-qarshi tomonlarni ajrata bilish zarur. F.ning fikriga muvofiq, inson degan mavjudotni erkinlikdan ajratib bo‘lmaydi. Chunki, inson va erkinlik o‘zining boshlang‘ich asosiga ko‘ra biri-ikkinchisidan ajralmasdir. Ushbu asos, tabiatga moslashish mexanizmi vujudga keltirgan majburiylikdan qochishga borib taqaladi. Insonning o‘sha “boshlang‘ich tomir” b-n aloqani uzishi, kishi tabiatida qarama-qarshiliklar va muammolar, ekzistensial dixotomiyani vujudga keltiradi. F.ni tushuntirishicha, inson tabiatidagi eng asosiy dixotomiya — bu hayot b-n o‘lim orasidagi kurashdir. o‘lim insonni yana boshqa dixotomiyaga — hali foydalanilmagan imkoniyatlar b-n, kishilarni qisqa hayoti jarayonida o‘sha imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish mumkin emasligi orasidagi kurashga undaydi. F. inson tabiatini tanishtirishda Freyd biopsixologizmidan

yiroqlashdi. Evolyusion sotsiobiologik pozitsiyada turdi. Tarixiylik prinsipiga asoslandi. Insondagи turli ehtiroslar kishining instinktlari b-n emas, balki uning ijtimoiy tabiatи b-n bog‘liq ekanligini isbotlashga urindi. Instinktlar insonni fiziologik ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qiladi. Ehtiroslarni vujudga kelishida, nafaqat instinktlar, balki biosotsial motivlarning kuchi yirik ahamiyatga ega bo‘ladi. Insonning ehtiroslari (mas.: muhabbatga, erkinlikka, sadizmga, mazoxizmga moyilligi) uning o‘ziga xos maxsus ekzistensial ehtiyojlariga bo‘lgan javobidir. Ushbu holatlar, shubhasiz uning xarakterida o‘z ifodasini topadi. Bunday almashish holatlarni F. insondagи zaif rivojlangan instinktlarning almashinuvadir, deb tushuntiradi. F. fal-iy ta’limotidagi eng muhim g‘oyalardan yana biri— inson erkinligi muammosidir. Uning e’tirof etishicha, insondagи erkinlik unga bunyodkorlik b-n shug‘ullanish uchun qulay shart-sharoit yaratib beradi. Favqulodda tashkilotchilik va uyushqoqlikka da’vat etadi. Agar inson shunday sharoitda b. kishilar b-n hamkorlik qila olmasa, unda erkinlikdan qochish holatlari sodir bo‘ladi. Xuddi shunday holatlar, F. asos solgan “Erkinlikdan qochish” konsepsiyasida har tomonlama tahlil qilindi. Ushbu konsepsiya yordamida Germaniyada fashistlarni hokimiyat tepasiga kelish jarayoni tushuntirib berildi. “qochish”ning asosida tashqi muhitdan ajratib qo‘yilgan individning ishonchszligi va uning besamar mehnati, yuzaki hamkorlikka intilishi yotadi. “qochish”ni avtoritar yo‘li sadizm va mazoxizm kabi ijtimoiy mexanizmlar yordamida amalga oshiriladi. YAngi hukmronlikka (sadizm) yoki tobeklikka (mazoxizm) intilish ruyobga chiqariladi. F.ni e’tirof etishicha, sadizm va mazoxizm biri-ikkinchisidan ajralgan holda alohida yashamaydi va yagona avtoritar xarakterni turli tomonlari shaklida namoyon bo‘ladi. Xuddi shuning uchun ham avtoritarizmda – yo tobeklikka, yo xukmronlikka ya’ni “hokimiyatga intilish”ga moyillik kuchli bo‘ladi. “qochish”ning boshqacha uslubi destruktivizm bo‘lib, inson ongi va faoliyatdagi najotsizlikni bartaraf etishda, jamiyatning shaxs ma’naviyatini emiruvchi omillarga qarshilik ko‘rsatishga bo‘lgan intilishlarida yaqqol ko‘rinadi. Destruktivizm insonni ruhiy energiyasi b-n dialektik aloqador. Destruktiv psixika insonni favqulodda hamkorlikka intilishga imkon bermaydi. Chunki, o’sha destruktivizm insonni tashqi muhitdan ajratib qo‘yishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham, destruktivizm va sadomazoxizmning maqsadlari turlicha bo‘lishiga qaramasdan, ular o‘z mohiyatiga o‘xshashdirlar. Va g‘oyat “avtomatlashgan konformizm” vositasida “qochish” shakli, F.ning fikriga ko‘ra, rivojlangan industrial jamiyatlarda eng ko‘p tarqalgan bo‘lib, insonni o‘z “men”idan yiroqlashishida, shaxs mustaqilligini emirilishida, bir qolipda fikr-mulohaza yurituvchi kishilar soni qo‘yilishida, standartlashgan xulq-atvor, xatti-harakatni vujudga kelishida o‘z ifodasini topadi. F. yaratgan fal-iy ta’limot-psixoanalistik, ekzistensialistik, antropologik va marksistik

g‘oyalarning sintezidir. U o‘z ta’limotida inson borlig‘ida mavjud bo‘lgan, biri-ikkinchisiga hamisha zid turgan murakkab ziddiyatlarni bartaraf etish yo‘llarini qidirdi. Ayniqsa, inson faoliyatidagi begonalashuvning turli ko‘rinishlarini yo‘qotishga urindi. G‘arbiy Evropa sivilizatsiyasini sog‘lomlashtirmoqchi, insonparvarlashtirmoqchi bo‘ladi. SHaxsning erkin va ijodiy rivojlanishi yo‘llarini aniqlab berishga harakat qildi. Insonshunoslik to‘g‘risidagi fanga, individ psixikasi b-n jamiyat sotsial strukturasi o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni ifodalovchi “ijtimoiy xarakater” tushunchasini kiritdi. Xuddi shu tushuncha yordamida G‘arbiy Evropa madaniyati taraqqiyotining asosiy xususiyatlarini aniqlab berdi. Ushbu metodologik tayanchga asoslanib, jamiyatning ijtimoiy hayotida vujudga kelgan depersonalizatsiya, degumanizatsiya, begonalashuv kabi illatlarning sabablarini tushuntirishga harakat qildi. Ana shunday illatlar ta’sirida shakllangan ijtimoiy xarakterni barcha turlarni (mazoxistik, sadistik, destruktiv, konformistik va b.) aniqlab berdi. Ijtimoiy xarakterni uzlucksiz o‘zgarib turishini alohida qayd etdi. F.ning fikricha, ijtimoiy xarakter qudrati inson shaxsini shakllanish jarayoniga, uning ijtimoiy yoki madaniy modellariga ko‘rsatayotgan ta’siri b-n belgilanadi. Ijtimoiy xarakter o‘ziga turli ijtimoiy xususiyatlar yig‘indisini mujassamlashtiradi. F. o‘zi yaratgan ta’limotni “Gumanistik psichoanaliz”, deb atadi. Uningcha, inson borlig‘ida mavjud bo‘lgan turli illyuziyalar, chunonchi, totalitar, begonalashuv sharoitida inson o‘zining ijtimoiy ahvolini anglab etishi, o‘zining ijtimoiy mohiyatini va “kichkina men”i o‘rniga haqiqiy “o‘zligini” namoyon qilishi, chinakam hayotiy dunyoqarashning shakllanishi va ichki axloqiy poklanish, individ b-n tabiat, shaxs b-n jamiyat o‘rtasidagi uyg‘unlashuvning tiklanishi “gumanistik psichoanaliz”dagi taklif etilgan ijtimoiy vositalardan foydalanish tufayli amalga oshadi.

**Fundamentalizm** — qadimgi diniy matnlarning aynan mazmuniga e’tiqod qilishni rag‘batlantiruvchi g‘oya, yo‘nalish.

**Funksiya** (lot. *Functia* — amalga oshirish, bajarish)—faoliyat, ba’zi sistemalar doirasidagi ob’ektning unga mansubligi va roli; ob’ektlar o‘rtasidagi aloqalar ko‘rinishi bo‘lib birining o‘zgarishi ikkinchisining ham o‘zgarishiga olib keladi, bunda ikkinchi ob’ekt dastlabkisining F.si deyiladi. F.ning tushunchasini ilk bor muomalaga nemis faylasufi Gotfrid Vilgelm Leybnits (1646-1716) kiritdi. Bilishning turli yo‘nalishlarida har doim ikkala ko‘rinishdagi F. tushunchasi qo‘llaniladi. F. tushunchasi ga ijobjiy-qulay imkoniyat, salbiy noqulay imkoniyat nuqtai nazaridan ham qarash mumkin. F. bu bizning borlig‘imiz, tafakkurimizni harakatga keltiradi (Gyote). Hozirda F.ga fal.ning fundamental kategoriyalardan biri sifatida fanning turli sohalarida funksional tadqiqot metodini joriy etish b-n qiziqish tobora ortib bormoqda. F. keng ko‘lamda Kassirer tomonidan bilish naz-yasiga tatbiq

etildi. Uning fikricha olamni bilishga bo‘lgan intilish ob’ektdan ajralgan substansiyani o‘rganishgagina yo‘naltirilmagan, balki ob’ektlar o‘rtasidagi munosabatllarni, ularning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish (funksiyalari) qator ob’ektlarning biridan ikkinchisiga o‘zaro o‘tish qonuniyatlarini amalda qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganishga qaratilgandir. Funksional (struktural, genetik, h.k...) munosabatlarni o‘rganish klassik fanda sababiy bog‘lanishlar ko‘lami kengligini qayd etish b-n bog‘liq. Bunday yondoshish asosida biologiya va ijtimoiy fanlarda, ayniqsa ma’lum maqsadlarga yo‘naltirilgan sistemalarni o‘rganishda asoslilik, muvofiqlik, ishonchlilik, funksional tarzda o‘z fikr-mulohazasini bildirish va tushuntirish kabi muammolar tadqiq etiladi.

**Funksionalizm** — ijtimoiy hodisalarini ularning funksiyalari, ya’ni ijtimoiy jarayonlarga ta’siri nuqtai nazaridan tushuntirish eng yaxshi yondoshuv ekani haqidagi tasavvurga asoslanadigan nazariy yo‘nalish.

**Fure Fransua Mari Sharl** (1772,7.4. Bezanson — 1837,10.10. Parij) fransuz sotsial-utopisti. Savdogar oilasida dunyoga kelgan. F. “Umumjahon uyg‘unligi” (1803) maqolasida, “Savdo lo‘ttibozliklari haqida” (1807), “To‘rt harakat hamda umumiylar taqdirlar naz-yasi” kitoblarida o‘zining tarixiy va ijtimoiy qarashlarini bayon qilgan. 2-jildli “Uy va yer ishlari uyushmasi haqidagi risola” (1822)sida kelajakdagagi jamiyatning bat afsil rejasini ishlab chiqqan. F. ma’rifatning iqtisodiy ta’limotini va ijtimoiy fal.ni amaliyotga zid hisoblab, nomaqbul ijtimoiy tuzumni oqlaydi, deb rad etadi. F. “butun dunyo yagonaligi naz-yasi”ning tarkibiy qismi sifatida “ijtimoiy fan” yaratishni hayotining maqsadi deb bilgan. Uning fikricha, jamiyat izchil ravishda edemizm (ibtidoiy “jannat”), yovvoyilik, varvarlik va sivilizatsiyadan iborat bosqichlardan o‘tadi. o‘zining chuqur inqirozini boshidan kechirayotgan sivilizatsiyalashgan jamiyat o‘rniga esa, uyg‘unlikka asoslangan oliy ijtimoiy tuzum keladi va u nafaqat Xudo — tabiatning irodasiga mos keladi, balki tarixiy zarurat sifatida ham maydonga chiqadi. Yangi jamiyatning muvaffaqiyati uchun mehnat unum dorligini oshirish zarur hisoblangan. Assotsiatsiyalarni tashkil qilish esa, yirik jamoalashgan va mexanizatsiyalashgan, sanoat ishlab chiqarishi b-n bog‘liq bo‘lgan qishloq xo‘jaligini bunyod qilishga imkon yaratadi. Bu bog‘lanish jamiyatning birlamchi yacheykalari bo‘lgan “Falanga”larda amalga oshadi. Shahar b-n qishloq o‘rtasidagi tafovutlarni bartaraf etib, inson faoliyatining barcha ko‘rinishlari birlashgan yangi aholi punktlarini vujudga keltiradi. F. fikricha, ongli ravishda tashkil etilgan qudratli hududiy, milliy va xalqaro mehnat armiyalari Yer shari ko‘rinishini o‘zgartirib yuboradi. Ijtimoiy hayotning yangicha sharoitlarida har tomonlama barkamol bo‘lgan yangi inson shakllanadi.

**Fuqaro** — siyosiy hamjamiyatning fuqarolik bilan bog‘liq muayyan

huquq va majburiyatlarga ega bo‘lgan a’zosi.

**Fuqaroviylar** — bir joyda va bir paytda turgan individlarning bir-birlarining borligini shunchaki anglashi, lekin do’stlik ham, dushmanlik ham namoyish qilmasligi jarayonlari.

**Fuqarolik huquqlari** — muayyan davlatning barcha fuqarolari ega bo‘lgan yuridik huquqlar.

**Fuqarolik jamiyat** — mazkur mamlakatning har bir fuqarosiga iqtisodiy va siyosiy turmushini o‘z ixtiyori asosida qurishga to‘la erkinlikni kafolatlovchi ma’lum ijtimoiy tizim. F.j.da davlat faoliyati yuzasidan fuqarolarning to‘la nazorati o‘tkaziladi, davlatning ko‘pgina vazifalari mahalliy joylarda fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlariga, jamoat birlashmalariga, nodavlat tashkilotlariga o‘tadi. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari esa umummilliy manfaatlarga daxldor eng muhim vazifalar: mudofaa, davlat xavfsizligi, tashqi siyosat, pul-moliya va soliq tizimini shakllantirish, qonunchilikni rivojlantirish kabilarni amalga oshiradi. F.j. to‘g‘risida ko‘pgina faylasuflar, politologlar, huquqshunoslar qiziqqanlar. Aristotelning “Siyosat” asarida F.j. muammosiga e’tibor berilib, unda “Polis”ga insoniyat jamiyatining baxtli hayotini ta’minlashning eng oliv shakli sifatida qaraladi. Asarda davlat tuzumlari haqida fikr yuritilib, bu xususdagi Platon loyihasi tahlil etiladi, jamiyatni boshqarishda qonunlarning to‘g‘ri vaadolatli bo‘lishi, davlat farovonligi hamda umum manfaatiga xizmat qilishi ta’kidlanadi. o‘z davrida Forobiy ham “Fozil odamlar shahri” asarida F.j. sharoitida boshqaruvning jamiyatichilik asoslari to‘g‘risida dastlabki g‘oyalarni ilgari suradi. F.j. muammosiga oid bo‘lgan davlat va jamiyat to‘g‘risidagi qarashlar I.Kant, Gegel, Russo, Temur, Ulug‘bek, Bobur, Navoiy va b. Sharq va Yevropa mutafakkirlari tomonidan davom ettirilgan. “Davlat, — deb ta’kidlaydi I.Kant, — alohida shaxslardan iborat, ularning birligini, garchi u shunchaki umumiyligidan iborat bo‘lsada, uni fuqarolar jamiyat deb tushunadilar” Gegelning huquq folsida ham F.j.ga doir qarashlar ilgari surilgan. Hozirgi kunda o‘zbekistonda F.j. qurish bo‘yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda. “Biz fuqarolik jamiyatini qurishga intilmoqdamiz, - deydi Prezident I.A. Karimov, - buning ma’nosini shuki, davlatchiligidan rivojiana borgan sari boshqaruvning turli xil vazifalarini bevosita xalqqa topshirish, ya’ni o‘zini-o‘zi boshqarish organlarini yanada rivojlantirish demakdir” (I.A. Karimov. O‘zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T., 1995, 14-bet). F.j. qurilishida qonun ustuvorligi, ijtimoiyadolat, dunyoviy ne’matlar orasida eng ulug‘i – inson degan g‘oya asosida “fuqaro – jamiyat va davlatning” oqilonona huquqiy yechimi topiladi. F.j.ni qurish vazifalari jamiyatda siyosiy, millatlararo ijtimoiy va moddiy tenglikni ta’minlovchi samarali tizimga asoslangan qonunlarga tayangan holda amalga oshiriladi.

**Futurologiya** (lot. kelajak to'g'risida ta'limot) — Ijtimoiy jarayonlar, insoniyat tahlil qiluvchi ilmiy nazariyalar. Sinonimi-prognoz.

# G

**Garmoniya** – bir butun narsa qismlarining o‘zaro muvofiqligi.

**Gender** (ing. gender–urug‘) – inson jinsining ijtimoiy-madaniy jihatini ifoda etuvchi tushuncha. G. jamiyatni sotsial-jinsiy jihatdan vertikal stratifikatsiya qilishdan farqli ravishda gorizontal stratifikatsiya qilishga yordam beradi. G. xulq-atvorning sotsial o‘ziga xosligini ifoda etadi. Shahvoniy mayl va G. inson hayotining turli qutblarida joylashgandir. Shahvoniy mayl biologik omillar b-n sababiy bog‘liq. G. esa insonning jinsiy mansubligiga muvofiq ravishda o‘ziga xos tarzda sotsiallashuvidir. Insoniyat o‘z evolyusiyasida Shahvoniy mayldan G. tomon intilib keldi. Hoz. zamon meditsinasi chaqaloq tug‘ilmasdan ancha ilgariroq uning qanday jinsga mansubligini bilish imkoniga ega. Ota-onalar o‘g‘il yoki qizning tug‘ilishiga turlicha munosabat bildirishlari mumkin. SHuningdek, turli xalqlar va madaniyatlarda o‘g‘il yoki qizga turlicha munosabat bildiradilar. Mas., Yaponiyada to 20-a. boshlariga qadar yangi tug‘ilgan o‘g‘il bolalarni chaqaloqligidanoq yo‘q qilish an’anasi mavjud bo‘lgan, ularni bozorda sotish, foyda ko‘rish qiyin deb hisoblaganlar. Boshqa xalqlarda, xususan, kanadalik eskimoslar qiz bolalarni chaqaloqligidan yo‘q qilishga harakat qilganlar. Islomgacha arablarda ham shunday holatlar bo‘lgan. Bolalar yoshligidanoq erkak yoki ayol rolini o‘ynay boshlaydilar. qiz bolalarning ona rolini, o‘qituvchi, doktor, rollarini o‘ynashi, o‘g‘il bolalarning esa mashinalar, konstruksiyalar b-n qiziqishi bejiz emas. Bolalarning o‘z jinsiga muvofiq sotsiallashuvida madaniy muhit katta rol o‘ynaydi. Madaniy muhitgina erkak va ayolning qanday bo‘lishi zarurligini belgilaydi. SHuningdek, G. munosabatlarning boshqa mezonlari ham mavjuddir. Odadta erkaklar tashabbuskorligi, aggressivligi, hukmronlik qilishga moyilligi, avtoritarizmi, liderlikka intilishi, o‘z mulohazalari va xatti-harakatlarida ratsionalligi, monologga intilishi, o‘z “Men”ligini qaror toptirish uchun zo‘r berishi, xudbinligi b-n xarakterlanadi. Biroq ayollardagi bunday sifatlar jamoatchilik tomonidan qoralanadi. Ayollar o‘z xulq-atvoridagi yumshoqlik, ko‘ngilchanlik, mehribonlik, sabr-toqatlilik, g‘amxo‘rlik, altruizm, emotzionallik, jozibadorlik, muloqotga intilishi, murosasozligi, tenglik, odillik va erkinlikni qadrlashi b-n xarakterlanadilar. Erkaklik va ayollik to‘g‘risidagi tasavvurlar turli xalqlar madaniyatida keskin farqlanadi. Bu esa erkak va ayol o‘rtasidagi Mas., iqtisodiyoti rivojlangan va protestantizmga mansub bo‘lgan mamlakatlarda xotin-qizlar yuqori ma’lumotga ega bo‘lib,

jamiyat hayotida faol ishtirok etadilar. Taraqqiy etgan mamlakatlarning G. ideologiyasi erkaklar va xotin-qizlar o‘rtasida tenglik o‘rnatishga qaratilgan.

**Gender (jinsiy) tengsizligi** — iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy sohalarda erkaklar va ayollar o‘rtasidagi tengsizlik. Bu bir xil ishga turlacha ish haqi to‘lanishi, ta’lim olishda kam imkoniyatlarga ega bo‘lish, yuqori mansablarga ko’tarilish hamda siyosiy hayotga ishtirok etishdagi cheklolvar va boshqalarda namoyon bo‘ladi.

**Geotsentrik transmilliy korporatsiyalar** — transmilliy kompaniyalar bo‘lib, ularning ma’muriy tuzilmalari alohida mamlakatlarda emas, balki global holda tuzilgan bo‘ladi.

**Geteroseksuallik** — individning seksual xulqi va tuyg‘ularining qarama-qarshi jins vakillariga yo‘naltirgan bo‘lishi.

**Germenevtika** – falsafada – tarix, madaniyatni, o‘zga individuallikni tushunish san’ati.

**Ginekokratiya** (yun. *qune* - ayol va *kratos* - hokimiyat) — ayollar hokimiyati. Jamiyat taraqqiyotining xo‘jalikda, ijtimoiy va siyosiy hayotda ayollar hukmronligidan iborat bosqichi. Fanda ko‘pincha matriarxat termini ishlataladi.

**Gipoteza** - (yun. *hypothesis* - asos, taxmin) – hodisalarning qonuniy (sababli) bog‘lanishi to‘g’risidagi taxm. mulohaza, faraz. G. ilmiy bilishni rivojlantirish uchun asos bo‘ladi. G.ning mantiqiy jihatdan tahlil qilish (taqqoslash, analiz va sintez, mavhumlashtirish va umumiylashtirish) asosida bevosita bilimga o‘tish, sababiy bog‘lanish asosida qonuniyatlarni ochish kabi bosqichlari bor. Umumiy G. bir guruh hodisalar, jarayonlar xususiyati va sababi to‘g’risidagi, xususiy G. alohida, yakka hodisalar, jarayonlar sababi to‘g’risidagi taxmindir. Har qanday G. tekshirishni talab qiladi. Natijada uning ehtimolligi ortadi yoki kamayadi, haqiqatligi isbotlanadi yoki rad etiladi. Yangi faktlarni eski nazariyalar bilan izohlash mumkin bo‘limganda, cheklangan miqdordagi faktlar va kuzatishlarni izohlashda G.ga ehtiyoj tug‘iladi. U keyingi bilimlarga, tekshirishlarga yo‘l ochadi, yangi nazariyalar esa yana boshqa G.ni tug‘diradi. G. bilish jarayonining ajralmas qismi sifatida muhim ahamiyatga egadir.

**Gipotetik** – ehtimol tutilgan, faraz qilingan, taxmin (gipoteza)ga asoslangan.

**Global** (fr. *global* - umumiy, lot. *globus* - shar) — 1) butun yer sharini qamrab oluvchi; 2) har tomonlama, to‘liq, yalpi, universal.

**Global inqiroz** — globallashuvning salbiy jarayonlari sistemasi. Globallashuv jarayoni o‘ziga xos xususiyati shundaki, dunyoning qaysi chekkasida qanday bir voqeа-hodisa yuz bersa, bu ob‘ekiv jarayon jahonning boshqa chekkasida ham tezda aks sado beradi .

**Global muammolar** — umumbashariy hayot va taraqqiyot bilan

bog'liq hoz. zamon muammolari. Ular jumlasiga jahon termoyadro urushining oldini olish, xalqaro terrorchilikka qarshi kurash va barcha xalqlar uchun tinchlikni ta'minlash; rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasidagi tafovutni bartaraf etish, ochlik, qashshoqlik va savodsizlikni tugatish, rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining tez sur'atlar bilan ko'payayotganligini tartibga solish, atrof muhit halokatli tarzda ifloslanib borayotganligining oldini olish; insoniyatni kerakli resurslar - oziq-ovqat, sanoat xom ashyosi, energiya manbalari bilan ta'minlash, fan va texnika taraqqiyoti salbiy oqibatlarga olib kelishiga yo'l qo'ymaslik kabilar kiradi. G.m. avvalo jahonda kechayotgan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, harbiy, ilmiy-texnologik, ijtimoiy-madaniy jarayonlarning umumbashariy ahamiyat kasb etishi natijasida yuzaga keldi. G.m.larni 4 guruhga ajratish mumkin: 1) xalqaro siyosiy munosabatlarda vujudga kelgan G.m. - jahonda rivojlangan, rivojlanib kelayotgan va qoloq mamlakatlarning mavjudligi. Hozirgi kunda jahon siyosiy tartibotini belgilashda dunyodagi 7 rivojlangan mamlakatning mavqeい katta. Bu mamlakatlar bilan qoloq mamlakatlar orasidagi tafovut g'oyat kuchaydi. Taraqqiy qilgan mamlakatlarda demokratik qadriyatlar rivojlangan bo'lsa, qoloq mamlakatlarda avtoritarizm, demokratiyaga zid bo'lgan ijtimoiy munosabatlар avj oldi, xalqaro xavfsizlikka qarshi tahdidlar paydo bo'ldi. Buni terrorchilik, ekstremizm ko'rinishlari vujudga kelganligi tasdiqlaydi; 2) xalqaro iqtisodiy munosabatlarda paydo bulgan G.m. - jahon xo'jalik tizimi vujudga kelib, unda asosan iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar ustunligi qaror topdi. Iqtisodiyoti haddan tashqari rivojlangan mamlakatlar, transnasional korporasiyalar jahon iqtisodiyotini boshqarayotgan bir paytda, ikkinchi tomonda ularga qaram, iqtisodiyoti juda ham past darajadagi mamlakatlar mavjuddir. Jahonda iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy taraqqiyot yutuqlariga qaramasdan boy va kambag'al mamlakatlar o'rtasidagi farq o'sib bormoqda. 20-asr oxirida rivojlangan mamlakatlar jahon yalpi milliy mahsulotining 86%ini ishlab chiqargan bo'lsa, kambag'al davlatlar atigi 1% ni ishlab chiqardi. Ayrim mamlakatlar rivojlangan davlatlardan juda katta miqdorda qarzga botdi. Natijada ular siyosiy jihatdan mustaqil bo'lsada, iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarga qaramdir. Jahon iqtisodiy munosabatlaridagi globallashuvning salbiy oqibatlari ham mavjud. Masalan, milliy bozorni siqib qo'yadi, ishsizlikni, fermerlarning sinishini kuchaytiradi. Bu globallashuvga qarshi harakatni keltirib chiqardi Yevropaning bir necha shaharlarida norozilik namoyishlari bo'lib o'tdi. Global iqtisodiy jarayonlar jahon miqyosida harakat qiluvchi moliyaviy-iqtisodiy jinoyat guruhlarini vujudga keltirdi; 3) ijtimoiy sohada vujudga kelgan G.m. - jahon aholisi muttasil ko'payib borishi natijasida Osiyo va Afrika mamlakatlarida oziq-ovqat, ichimlik suv tanqisligi kuchayib, bu hol boshqa mamlakatlarda ham

kuzatilayotgani, jahon aholisining muayyan qismi ocharchilikni boshdan kechirayotgani, savodsiz ekanligi, axborot-texnologiya va umuman fan-teknika inqilobi samaralaridan bahramand emasligi, butun insoniyatga xavf tug'diruvchi kasalliklar (masalan, OITS) tez tarqalayotganligi shunday muammolar sirasiga kiradi; 4) inson va tabiat o'rtasidagi munosabatarning buzilishi natijasida vujudga kelgan G.m. - ular katoriga dengiz va suv havzalarining bulg'anishi, o'rmon maydonlarining tobora qisqarishi, atmosfera ozon qatlaming yo'qolib borishi kabilar kiradi. Xatarli kimyoviy moddalarning haddan tashqari ko'p ishlatalishi natijasida q.x.da ekin ekiladigan erlarning katta qismi yaroqsiz holatga kelish xavfi kuchaydi. Sobiq SSSRda qishloq xo'jaligi sohasida texnokratik siyosat yuritilishi oqibatida Orol dengizi suvi kamayib, g'oyat mushkul ekologik muammolarni keltirib chiqardi. G.m.ga qarshi kurashda jahon hamjamiyatini birlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov o'z asarlarida, turli xalqaro anjumanlarda so'zlagan nutqlarida Markaziy Osiyoda G.m.ning kelib chiqish sabablari va ularni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatib berdi, bu muammolarni hal qilish xalqaro xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashning muhim sharti ekanligiga jahon jamoatchiligi e'tiborini karatdi.

**Globallahuv** – ijtimoiy hayotning turli jabhalarida yaxlit tuzilmalarning dunyo miqqosida shakllanish jarayoni.

**Globalistika** – globallahuv va uning oqibatlari mohiyatini anglab etishga qaratilgan ilmiy va falsafiy tadqiqotlar fanlararo sohasi.

**Gnoseologiya** – bilish nazariysi.

**Gomoseksuallik** — individning seksual xulqi va tuyg'ulari o'z jins vakillariga yo'naltirilgan bo'lishi.

**Gorizontal mobillik** — individlarning mamlakat ichkarisidagi bir mintaqadan ikkinchisiga yoki bir mamlakatdan boshqa mamlakatga o'tishi.

**Gumanizm** (lot. *humanus* – insoniylik) – 1) Yevropa madaniyati taraqqiyotidagi muayyan tarixiy bosqich (Uyg'onish davri)ga xos falsafiy-amaliy tafakkur tarzi; 2) borliqqa munosabat va uni idrok etish tizimi. 14-16-a.lardagi Yevropa Renessansi cherkov aqidalarining inson ruhi ustidan mutlaq hukmronligiga qarshi vujudga kelgan harakat bo'lib, tafakkurda G. shaklida namoyon bo'ldi. G. Avgustin rad etgan "insoniy o'lchamlarga binoan yashash"ni himoya qildi, uni Tangri irodasiga zid emas, balki muvofiq deb baholadi. Aksariyat Yevropa olimlari G.ning "antropotsentrizm" (borliq mohiyatining asosiga inson irodasini qo'yish) g'oyasiga tayanishini e'tirof etadilar. G. rivojini tadqiqotchilar turli bosqichlarga ajratadilar:

1) ilk G. – 14-a.ning 30-90 y.lari; 2) G.ning yuksalishi – 14 a.ning 1 yarmi; 3) bevosita gumanistik talqindagi neoplatonizmning tarkib topishi – 15-a.ning II yarmidan 16-a. boshlarigacha; 4) G. g'oyalari mazmunidan chekinishlar va G. harakatining so'nishi – 16-a.ning 2-yarmi. Ilk gumanistlar

insonning hayotiy ehtiyojlariga e'tiborni qaratib, insonni borliq markaziga qo'ydilar. Bu davrda inson haqidagi ilmlarga, ayniqsa, she'riyat va axloq ilmiga qiziqish kuchaydi. qad. yunon va Rim allomalari yaratgan merosni jiddiy o'rganish keng tus oldi. Bu davr mutafakkirlari erdag'i moddiy hayot inson uchun berilgan, uni ezgulik va adolatning tabiiy qonunlariga muvofiq ravishda tartibga solish ham insonning o'z qo'lidadir, degan g'oyani ilgari surdilar. 15-a. 2-yarmidan boshlab gumanistlar bevosita neoplatonizm g'oyalarining yangicha talqinini ishlab chiqishga kirishdilar. Neoplatoniklar insonning tangriga bo'lgan munosabatini talqin etishda ibtidoiy tasavvurlarni yengib o'tib, borliqni yaxlit tizim sifatida tushundilar. Tabiat va ilohiy mohiyatning o'zaro ichki bog'liqligiga e'tibor berdilar. Ular o'rta asrlarga xos tarkidunyochilik kayfiyatidan yuz o'girib, yorug' dunyo go'zalligini ilohiylashtirdilar. G. davri ijodkorlari yagona halloqi olamning yaratuvchilik mahoratiga havas qildilar va o'z faoliyatlarida butun mahorat va salohiyatlarini safarbar etib, ana shu mukammallikka intildilar. G. mohiyatidagi evrilishlarga ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'zgarishlar ham ta'sir ko'rsatdi, oxir oqibatda G. o'z o'rnini yangi qarashlarga bo'shatib bera boshladi. Keng ma'noda G. inson shaxsini borliqning asosiga qo'yib, uni ulug'lashga yo'naltirilgan qarashlar majmuidir. SHu ma'noda G. tushunchasi turli tarixiy davrlar va turli hududlarda tarqalgan turlicha ta'limotlar va dunyoqarash tizimlariga tatbiqan ishlatiladi va sobiq sovet davrida o'zbek tiliga ushbu keng ma'nodagi G. tushunchasi "insonparvarlik" deb o'girilgan edi. Shu ma'noda "antik davr gumanizmi", "xristian gumanizmi", "sotsialistik gumanizm" kabi tushunchalar fanga ancha keyin kirib keldi.

**Guruhiy birdamlik** - shaxslararo aloqalarning guruh hayotiy faoliyatining vorisiyligini va barqarorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi mustahkamligi.

**Guruhiy ishlab chiqarishi** — yakka shaxs emas, kichik guruhrular qatnashadigan ishlab chiqarish.

**Guruhiy mutanosiblik** - guruh hamjihatligining ijtimoiy-ruhiy ko'rsatgichi bo'lib, unda guruh a'zolarining o'zaro nizolarsiz muomala qilishi va muvofiqlik imkoniyatlari aks etadi.

**Guruhiy me'yorlari** - har bir guruh joriy etgan amaldagi tartib-qoida va talablar majmui bo'lib, u guruh a'zolari xatti-harakatlarini tashkil etishda, ularning o'zaro munosabatlari, harakatlari va muomalasida muhim axamiyat kasb etadi.

**Guruhiy tuzilmasi** - o'zaro faoliyat qatnashchilarining mustahkam ravishda qaytadan vujudga kelishining tartiblangan tizimi.

**Gurvich Georgiy Davidovich(1894-1965)** – fransuz va rus sotsiolog, faylasuf. Rossiya va G'arbiy Yevropa oliv o'quv yurtlarida tahsil ko'rdi. Petrograd, Tomsk, Praga un-tlarida dars berdi. Germaniyada ishladi, so'ng

Fransiyaning Bordo, Strastburg un-tlarida kafedrani boshqardi, N.Gartman, Sheler, Gusserl va boshqa fay.lar b-n hamkorlik qildi. Ikkinchi jahon urushi yillari AQSHning Garvard va Kolumbiya un-tlarida dars berdi, Nyu-Yorkda Fransuz sotsiologiya in-tining direktori bo‘ldi. Moreno, Sorokin, R.Patsid b-n ilmiy muloqotda bo‘ldi. G. 1949 yildan umrining oxirigacha Sarbonnada E.Dyurkgeym asos solgan sotsiologiya kafedrasini boshqardi, “Sotsiologik tadqiqotlar” markaziga, “Bilish va axloq sotsiologiyasi” laboratoriyasiga, “Sotsiologiya bo‘yicha xalqaro daftарlar” jurnaliga asos soldi. G.ning mashhur asarlari: “Hozirgi nemis fal.sining an’analari: Gusserl, Sheler, E.Losk, N.Gartman, Xaydegger” (1930), “Fransiyada va AQSHda sotsiometriya” (1950), “Sotsiologiya bo‘yicha risola” (1-2 t. 1962), “Sotsiologiya to‘g‘risida esse” (1938), “Huquq sotsiologiyasi” (1942), “Sotsial huquqlar deklaratasiysi” (1944), “Bilish sotsiologiyasini tadqiq etishga kirish” (1948), “Sotsial determinizm va inson erkinligi” (1955), “K.Marks sotsiologiyasi” (1959), “Prudon. Uning hayoti, uning ishi” (1965) “Dialektika va sotsiologiya” (1962), “Sotsial sinflar to‘g‘risida tadqiqot. K.Marksning sotsial sinflar g‘oyasi va hozirgi davr” (1966) va b. G. fal. va sotsiologiya tarixi, sotsiologik bilish nazariyasi va metodologiyasi, huquq, axloq, bilish sotsiologiyasi muammolari b-n shug‘ullandi. Sotsiologiyadagi turli nazariya va oqimlarni bir-biri b-n uyg‘unlashtirishga harakat qildi. Shu boisdan ham zamondoshlari uning nazariyasini “Sotsiologiyadagi permanent revolyusiya doktrinasi”deb atagan edilar. Uning fikricha, sotsiologiya makroguruh ichidagi kishilarning ijtimoiy mikromunosabatlarini o‘rganish b-n shug‘ullanishi kerak. Bunday ikkiyoqlama yo‘nalish materializm b-n idealizm o‘rtasidagi qarama-qarshilikni bartaraf etadi, deb hisobladi. G.ning ta’kidlashicha, dialektika bilish vositasidir. U empirik ma’lumotlar b-n bog‘lanishi, empirik-real dialektika bo‘lishi lozim. Dialektika bilish vositasi sifatida avvalo regulyativ funksiyani bajaradi, inson oldiga vazifalar qo‘yadi, kelajakka xavf-xatar soladigan qiyinchiliklardan ogohlantiradi, biroq tayyor javoblar bermaydi. Inson faolligini tushunishda “fatalizm”, “determinizm”, “erkinlik” tushunchalari muhim o‘rin tutadi. G. erkinlikni hech bir cheklashlarsiz ixtiyoriy va spontan harakat sifatida tushundi, fatalizmning har qanday ko‘rinishini keskin tanqid qildi. Biroq, inson erkinligi real sotsiumda cheksiz emas, u hamisha shartlangandir. G. marksizmni deterministik konsepsiyaning bir ko‘rinishi sifatida tahlil qildi, o‘zini marksizmning bilimdoni va tanqidchisi deb hisobladi. Uning fikricha, Marks Gegelning spekulyativ idealizmiga zid ravishda o‘zining “real gumanistik dialektikasini yaratdi”. Biroq, Marks o‘z ijodining oxirlarida materialistik monizm tamoyilini kuchaytirdi, bu esa yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan fatalizmga olib keldi. G. odamlar xulq-atvorini universal determinlashtiradigan sabablar yo‘q, real harakatdagi determinizm to‘g‘risida fikr yuritish kerak, deb

ta'kidladi. G.ning ijtimoiy-fal-iy va axloqiy qarashlari hozirgi zamon fal.si rivojida alohida o'rinni tutadi.

# H

**Hayotiy sikllar** — individ hayotidagi turli bosqichlar: tug‘ilish, yoshlik, yetuklik va keksalik mavsumlari.

**Hayot tarzi** – falsafiy sotsiologik kategoriya sifatida jamiyat, millat, sinf, ijtimoiy guruhrar, shaxsning yashash uslubini ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar bilan bir butunlikda olib qaraydi. Bu ma'noda hayot tarzi falsafa, sotsiologiya, kulturologiya, iqtisodiy va b. ijtimoiy fanlarning alohida tadqiqot predmeti hisoblanadi. Hozirgi sharoitda amaliyotida «hayot tarzi» kategoriyasi kishilarning asosiy hayot sohalari – mehnat, oila va turmush, ta’lim va madaniyat, ijtimoiy hayotga bir butun yondashuviga imkon yaratadi. H.t. birinchidan, ma'lum bir sivilizatsiyaga xos tipik jihat va normalarni ifodalaydi. Bu nuqtai nazardan hayot tarzini fermachilik, dehqonchilik, sanoat va ilmiy-texnologik sivilizatsiyasi kabi turlari farqlanadi. Ikkinchidan, h.t. ma'lum bir rivojlanish bosqichida turgan jamiyatdagi millat, sinf, ijtimoiy guruh, shaxsning konkret hayot tarzini ifodalaydi.

Hayot darajasi ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish me'yorni, iste'mol boyliklari (mehnatga haq to'lash hajmi, real kirimlar, iste'mol boylik va xizmatlari hajmi, oziq-ovqat va b. tovarlarni iste'mol me'yori, bo'sh vaqt va ish vaqtining davomiyligi, yashash sharoitlari, ta’lim darajasi sog'liqni saqlash, madaniyat va sh.k.lar) bilan ta'minlanganligini ifodalaydi. Bu kategoriyaning mohiyati, u yashash shart-sharoitini muhim tomoni hisoblangan ishlab chiqarish kuchlarini rivojlanganligi darajasi bilan bog'liq bo'lgan kishilarni farovonligi (ularni moddiy va ma'naviy boyliklar bilan ta'minlanganligi) tushunchasiga bir butun yondashishga imkon yaratadi. Yashash sifati – sotsiologik kategoriya sifatida kishilarni moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish (oziqlanish sifati, kiyimlarni sifati va ularni modaga muvofiq kelishi, turar joyining qulayligi, sog'liqni saqlash sohasini sifatiy xususiyatlari, ta’lim, aholiga xizmat ko'rsatish, atrof-muhit, bo'sh vaqtning sifati, axloqiy muhit, kishilarning kayfiyati, sermazmun muloqotda ehtiyojlarni qondirish darajasi, bilimlar, ijodiy mehnatda, turar joylarni strukturasi va b.) sifatini ifodalaydi. H.t.ni izohlashda birinchi o'rinda, shubhasiz, sifatiy aniqlik turadi.

Yashash uslubi – kundalik hayotning hatti-harakatlar jihatini, xususan ritmika, intensivlik, hayot tempi, shuningdek, turmushning ijtimoiy-

psixologik jihatlari va kishilar o'rtasidagi munosabatlari bo'lib, bular ko'pincha ijtimoiy munosabatlarni milliy-etnik va ijtimoiy-professional jihatlarini ifodalaydi.

Ijtimoiy guruhlarda turli xil hayot uslubini shakllantishining asosiy sababi – ularning kundalik faoliyati kechadigan hayotiy shart-sharoitlardagi farq, aniqrog'i faoliyatining asosiy turlarida zo'riqish, ritmiklik, keng jamoatchilik bilan muloqotning davomiyligi yoki nodavomiyligi, shuningdek, aholining turli qatlam va guruhlariga taalluqli (ijtimoiy-professional, o'rta yoshlilik, hududiy).

**Harakat maydoni** — ijtimoiy harakatlar mavjud tashkilotlar bilan o'zaro ta'sirga kirishadigan maydon; bunday o'zaro ta'sir natijasida ishtirokchilarning qarashlari va g'oyalari ko'pincha o'zgarishlarga uchraydi.

**Harbiy qudrat** — qurolli kuchlar va qurol-yarog' ustidan nazorat o'rnatish hisobiga qo'lga kiritiladigan kuch.

**Harbiylashgan tafakkur** — Samuel Xantington tomonidan askarlarning tipik dunyoqarashiga nisbatan ishlatilgan tushuncha.

**Harbiy-sanoat majmui** — qurol-yarog' ishlab chiqarish manfaatlari bilan bog'liq bo'lgan firmalar va qurolli kuchlar o'rtasidagi institutsionallashgan aloqalar.

**Hujjatli tadqiqot** — arxiv materiallari yoki rasmiy statistika ma'lumotlari singari hujjatlarni o'rganishga asoslangan tadqiqot.

**Hukmron elita** — Mill talqiniga ko'ra, hozirgi jamiyatlarda hokimiyatni bo'lishib olgan odamlarning tanlangan kichik guruhi.

**Huquq sotsiologiyasi** - ilmiy bilimning fanlararo sohasi bo'lib, huquq vaadolat to'g'risidagi fanlar tizimi bo'lgan yurisprudensianing hamda jamiyatning shakllanishi, rivojlanishi va amal qilishi qonuniyatlarini to'g'risidagi fan bo'lgan umumi sotsiologiyaning bilish, salohiyatlarini o'zida birlashtiradi. Huquq sotsiologiyasining bunday fanlararo xususiyati u huquqshunoslik bilan sotsiologiya o'rtasida bilimning alohida tarmog'i sifatida mavjud ekan, degan ma'noni bermaydi, aslo. "Fanlararo fan" terminini bunday aynan so'zma-so'z tushunish noto'g'ri. Huquq sotsiologiyasi bilimlar tutashgan joyda yuzaga kelganiga qaramay, tutash fanlardan biri - huquqshunoslik yoki umumi sotsiologiya fani sohasi doirasida alohida mustaqil ilmiy fan sifatida shakllanadi va karor topadi. Huquq sotsiologiyasi shu ma'noda yuridik fan (yuridik fanning alohida tarmog'i) sifatida ham, sotsiologik fan (umumi sotsiologiyaning alohida tarmogi) sifatida ham aks etishi mumkin. Bu ilmiy bilimning o'z predmeti hamda metodi bo'yicha bir-biridan xuddi huquqshunoslik sotsiologiyadan farq qilganidan farqlanuvchi ikkita har xil tarmog'idir.

# I

**Ideal** – mutlaq barkamollik, bunday barkamollik haqidagi tasavvur.

**Ideallashtirilgan ob'ekt** – fan uslubiyati tushunchasi bo'lib, empirik va nazariy bilimning shakllanishi va amalga oshishining o'ziga xosligini ifodalaydi. I.o. – fikriy tuzilma bo'lib, ideallashtirish jarayoni orsali, amalga oshadi, reallikda narsa va hodisalarga xos bo'lmanan xususiyatlarni tushunchalarda aks ettiradi. (Mas., moddiy nusta– I.o.da jismning kattaligi hisobga olinmaydi va h.k.). I.o.lar tushunchalarning rivojlanishi, so'llanishi u yoki bu fanning nazariy darajasi, empirik bilish uslublarining anislik darajasi to'g'risida taassurot soldiradi. Geometriya, fizika kabi fanlarda I.o. azaldan so'llanib kelinadi, ijtimoiy fanlarda esa ushbu tushuncha, 19-20-a.larda so'llanila boshlandi. Ushbu yondashuvning rivojlanishiga M.Veber katta hissa so'shdi. Fan tarasqiyoti uchun ideal nusxaning mavjudligi, muayyan so'llash vazifasini bajaradi, ushbu nazariy konstruksiya b-n borlisni solishtirishga imkon yaratadi. Turli darajada, I.o., bilish jarayonida, keng so'llaniladi, u zamonaviy fanning yo'llanmasi, uning uslubiyatidan biri hisoblanadi.

**Ideallashtirish** (frans. idealisation, ideal — ideal) — jarayon bo'lib voqelikni va tajribada prinsipial amalda oshirib bo'lmaydigan, lekin real olamda ularning timsoli bo'lgan ob'ektlarning tushunchalarini fikran shakllantirishni ifodalaydigan tushuncha. Ideallashtirilgan ob'ektlar pirovard natijada ob'ektiv ashylar, real jarayonlar va hodisalarning in'ikosi sifatida maydonga keladi. Mas., I. natijasida hosil bo'lgan matematikadagi "nuqta" tushunchasini real olamda nuqta sifatida, ya'ni o'lchovga ega bo'lmanan, biron bir ob'ektni topish mumkin emas, chunki o'lchovsiz narsani o'zi bo'lmaydi. Xuddi shu kabi ushbu fanni "to'g'ri chiziq", "aylana" tushunchalari, fizikani esa ideal gaz, "mutlaq (absolyut) jism", "inersiya" singari tushunchalari I.natijasida hosil bo'lgan. I. yordamida shakllangan tushunchalardan keyinchalik bu real ob'ektning in'ikosi sifatida izlanishlar olib borishda, mulohazalar yuritishda, real jarayonlar mavhum sxemalarini tuzishda keng foydalanish mumkin. Bu borada I. modellashtirish usuli b-n uzviy bog'liqdir. I.ning natijasi bo'lgan tasavvurlarni hosil silgan kishilar ularni xuddi hasisatan ham mavjud ob'ektiv fenomen deb hisoblaydilar. Bular esa u ob'ekt fenomenlarini yanada teranros tushunish uchun xizmat siladi. Shu ma'noda I. modellashtirish uslubi b-n uzviy bog'liqdir. I. ilmiy yoki g'ayri ilmiy, real yoki mavhum bo'ladi. Ilmiy, real I.ni mavhumdan farslaydigan belgi shundan iboratki, unda hosil etilgan ideallashtirish ob'ektlari, shaxslar muayyan sharoitlarda I. tirilgan, ya'ni real ob'ektlar atamalarini ishlatib, talsin etish mumkin. Mas., kommunizm xasidagi ta'limot xuddi xasisiy idealdek

tushunilgan bo'lsa ham aslida u xom hayol bo'lib chisdi. I.ga yo'l so'ymaslik uchun barcha ob'ekt va ijtimoiy fenomenlarga, atosli shaxslarga me'yorida, ya'ni oshirmay –toshirmay, ko'pirtirmay tavsif, baholar berish lozim. Xulosa shuki, I.ning ilmiy fal.da o'rinsiz, asossiz hisoblanadigan, ayrim narsa, hodisa, shaxslarga me'yordan orttirib baho berib, ob'ektiv hasisatga putur etkazadigan, misdor va sifatning sintezi bo'lish me'yor nisbatlarini buzib tavsiflaydigan zararli urinishdir.

**Ierarxiya** – bir narsaning funksional ahamiyati yoki xizmat mavqeiga ko'ra ikkinchi narsaga, uchinchi narsaga va hokazolarga bo'ysunishi.

**Ibn Sino (980-1037)** - Uygonish davri madaniyatining yirik arboblaridan biri. U 400 dan ortiq asar muallifi edi. Uning yozgan asarlari ilm-fanning barcha sohalariga taalluqlidir. Shundan 242 tasi bizga etib kelgan. Alloma asarlaridan 80 tasi falsafa, iloxiyot, tasavvuf, 43 tasi tabobat, 19 tasi mantiq, 26 tasi esa ruxshunoslikka bag'ishlangan. U Sharqda «Shayxur-rais» - «Olimlar boshlig'i» deb nom olgan. «Kitob ash shifo» («Davolash kitobi»), «Donishnoma», «Najoat», «Kitob ul insof» («Adolat kitobi»), «Kitob al-qonun fit tib» («Tib qonunlari kitobi») va boshqa asarlari bor.

**Ibn Xoldun (Ibn Xoldun Abduraxmon Abu Zayd: 1332-1406)** - arab tarixchisi va mutafakkiri. U o'zining "Sotsiologiya" (arab.ilm al-ijtimo') faniga oid dadil fikrlarni o'rtaga tashlagan va Sharqda xaqli ravishda shu fan asoschilaridan biri xisoblanadi. Uning «Kitob ul-Ibar» (1370)ning muqaddima qismida uning tarixiy sotsiologik nazariyasi bayon etilgan. Ibn Xoldun bashariyat tarixida ilk bor asotir tafakkuri bilan emas, balki ilmiy, ob'ektiv nazar bilan qaragan eng zabardast tarixchidir. Insoniyat ijtimoiy fikri tarixida birinchi bulib, jamiyat, uning ichki rivojlanish qonuniyatları va taraqqiyot an'anaları haqidagi fanni yaratdi. Sharqning etuk sotsiologi bo'lgan Ibn Xoldun «Muqaddima» (1381) asarning kirish qismidagi dastlabki bulimni «Kishilarning umumiy ijtimoiy hayoti to'g'risida» deb nomlangan.

**Ierarxiya** - (yunon. hieros - muqaddas va arche - hokimiyat) ma'lum bir yaxliitlik qismlari yoki elementlarining yuqoridan quyiga qarab joylashish tartibi. Sotsiologiyada bu tushuncha jamiyatning ijtimoiy tuzilmasini, ayniqsa byurokratiyani belgilashda qo'llaniladi.

**Ideal tip** — voqeliqda real mavjudligi shart bo'limgan ijtimoiy ob'ektning asosiy belgilarini ta'kidlovchi konstruksiya. Maks Veber tomonidan yaratilgan byurokratik tashkilotning ideal tipi bunga misol bo'la oladi.

**Ijtimoiyadolat** — jamiyatning demokratik rivojlanish darajasini, inson huquq va erkinliklariga riosa qilish normalarini, millat hayot tarzining axloqiy timsolini belgilovchi davlat siyosati, aholining ijtimoiy jihatdan kam

ta'minlangan tabaqalari manfaatini ko'zlab, milliy boyliklarni taqsimlash tartibidir. I.a.

**Ijtimoiy evolyusionizm** (social evolutionism) — ijtimoiy o'zgarishlarni biologiyadagi evolyusiya nazariyasini doirasida o'rganadigan ilmiy yondoshuvlardan biri. Evolyusion yondoshuv XIX asr sotsiologiyasida juda keng tarqalgan bo'lishiga qaramay, evolyusionizm goyalari hozirgi zamon sotsiologiyasiga muayyan ta'sir utkaziwsa davom etmoq-da. Ijtimoiy evolyusionizmning ko'plab oqimlari mavjud. Bunday nazariyalarning ko'pchiligi jamiyatdagi taraqqiyot sodda shakllardan murakkab shakllarga qarab boradi, degan asosiy fikrga tayanadi.

**«Ijtimoiy fikr» jamoatchlik fikrini o'rganish markazi** — O'zbekiston Respublikasidagi xukumatga qarashli bo'Imagan (nodavlat) i.t. muassasasi. 1997 y. 25 iyunda tuzilgan. Asosiy vazifalari: inson huquqlariva erkinliklariga rioya qilinishi, siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish muammolari, shuningdek, ijtimoiy munosabatlar rivojining boshqa dolzarb masalalari bo'yicha jamoatchilik fikrini o'rganish; shu borada so'rovlar o'tkazish, so'rov yakunlarini umumlashtirish va taxlil etish. Markaz o'zbek, rus, ingliz

tillarida «Ijtimoiy fikr. Insonhuquqlari» jur.ini nashr etadi. Jamoatchilik fikri monitoringini, turli marketing va b. amaliy tadqiqotlarni o'tkazish; hukumat va nohukumat tashkilotlari, xalqaro tashkilotlar, o'quv markazlari, ilmfan vakillari ishtirokida munozara, davra suhbatlari, anjumanlar o'tkazish va sh.k. markaz faoliyatining asosiy yunalishi hisoblanadi. Markazda sotsiologik tadqiqotlarni rejallashtirish, ekspertiza va taxlil, konkret sotsiologik tadqiqotlarning sotsiologik monitoringi, i.ch.-texnika, axborot va marketing bulimlari bor. Markazni axborot-tahliliy ma'lumot b-n ta'minlash, ijtimoiy fikr va demokratik taraqqiyot muammolarini ommaviy axborot vositalari orqali yoritish, viloyatlardagi markaz bulimlariga ilmiy-metodik maslahat b-n yordam ko'rsatish guruhlaridan iborat maxsus ijodiy jamoalar tuzilgan.

**Ijtimoiy qayta ishlab chiqarish** — ijtimoiy tuzilmaning xususiyatlarini vaqt o'tishi bilan qo'llab turadigan yoki qayta ishlab chiqaradigan jarayonlar.

**Ijtimoiy hamkorlik** — Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalaridan biri. U turli millat, irq va denga mansub kishilar va guruhlarning umumiyligi yo'lidagi hamjihatligini ifodalaydi. Milliy istiqlol mafkurasi tizimida I.h. g'oyasining mustahkam o'rinnegi egallashi dunyoda, mamlakatimizda oashkilot va ijtimoiy qatlamlar, turli in-lar o'rtasida o'zaro hamkorlik aloqalarini oa'minlash zarurati b-n izohlanadi. Jamiyatdagi totuvlik va barqaror taraqqiyot turli shaxslar hamda ijtimoiy toifalar o'rtasidagi hamkorlik va hamjihatlikka bog'liq. Shaxsning ianfaatlari millat va jamiyat

manfaatlariga uyg‘unlashtiriladigan holdagina yuksak taraqqiyotga erishish mumkin.

Davlatning bosh islohotchilik roli, eng avvalo, jamiyatdagi I.h.ni oa’minlaydigan iqtisodiy asoslarni, siyosiy vaziyatni, madaniy muhitni, huquqiy-qonuniy munosabatlarni tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilish faoliyatida namoyon bo‘ladi. SHuning uchun ham jamiyat hayotining barcha sohalarini erkinlashtirish I.h.ning zaruriy sharti sifatida qaralishi kerak. Zero, mohiyatan erkinlik g‘oyasi asosiga qurilgan I.h. ana shunday sharoitdagina ?amiyat taraqqiyotining kafolatiga aylanadi.

**Ijtimoiy harakat** - harakatning o‘ziga xos shaklini, ijtimoiy borliqdagi har qanday o‘zgarishlar va o‘zaro aloqalarni ifodalovchi tushuncha. I.q. ijtimoiy borliqning atributiv va universal xarakteristikasidir. I.q. jamiyatdagi moddiy va ma’naviy jarayonlarni qamrab oladi. Tarixiy taraqqiyotni materializm nuqtai nazaridan tahlil etuvchi fay.lar moddiy jarayonlarni ifodalovchi I.q.ning ustuvorligini qayd etsalar, ularning muxoliflari bo‘lmish idealistlar ma’naviy jarayonlarni ifodalovchi I.q.ning hal qiluvchi rolini isbotlashga urinadilar. Biroh moddiy va ma’naviy jarayonni abstraksiyadagina bir-biridan ajratish mumkin. Real voqelikda ular hamisha, qar handay qolatda o‘zaro alohadorlikda bo‘ladilar. Jamiyatning borlih shakli sifatida mavjud bo‘lishining asosiy sharti qam shundan iborat. Binobarin, I.q. qahida gapirganda nafahat moddiy elementlar orasidagi o‘zaro alohadorlikni, nafahat ideal reallikdagi o‘zgarishlarni, balki ular orasidagi turli munosabatlarni qam nazarda tutmoh zarur.

**Ijtimoiy huquqlar** — davlat tomonidan o‘zining barcha fuqarolari uchun kafolatlangan ijtimoiy ta’midot huquqi (masalan, ishsizlik yoki qashshoqlik tufayli nafaqa olish huquqi).

**Ijtimoiy muhit** — insonning yashashi va ishlashi uchun uni o‘rab turgan ijtimoiy, moddiy va ma’naviy shartsharoitlar. Muhit keng ma’noda (makromuhit) ijtimoiy-iqtisodiy tizimni - ishlab chiqaruvchi kuchlar, ijtimoiy munosabatlar va tartib-qoidalar majmuini, jamiyatning ijtimoiy ong va madaniyatini o‘z ichiga oladi. Tor ma’nodagi I.m. (mikromuhit) bevosita insonni qurshab olgan oila, mehnat, o‘quv va b. guruhlardan iborat.

**Ijtimoiy qatlam** — ijtimoiy jihatdan bir xil bo‘lmagan, jamiyatda alohida ijtimoiy guruhlar, ularning belgilanishi, sinfiy bo‘linish ifodasi. I.q. ijtimoiy sinflarga nisbatan ikkilamchi ijtimoiy voqeа hisoblanadi. Sho‘rolar hokimiyati davrida sinflar orasida bo‘lgani singari, I.q.lar orasidagi tafovutlarni yo‘qotish g‘oyasi ilgari surilgan. Lekin ular saqlanib qolaverган. Mustaqillik sharoitida I.q.lar ham paydo bo‘lmoqda. Davlat ularga nisbatan mulkchilik shakllaridan qat’iy nazar, teng munosabatda bo‘lmoqda.

**Ijtimoiy qonuniyat**— ob’ektiv mavjud, takrorlanib turuvchi jamiyat hayotidagi voqealar yoki tarixiy jarayon bosqichlari orasidagi izchil

taraqqiyotni aks ettiruvchi barqaror aloqadorlik. 18-a.da I.q. fransuz tarixchilari asarlarida ishlab chiqildi (Terri, Mene, Gizo). I.q.ning taraqqiyotida Gegel qarashlari ham katta ahamiyatga ega. Marks va Engels ijtimoiy taraqqiyotning barcha bosqichlarida qaytarilib turuvchi jarayonlarni hisobga olib, ijtimoiy - iqtisodiy formatsiya naz-yasini yaratganlar. Ularning naz-yalari, tabiiyki, kapitalizmning halokatini isbot qilishga qaratildi. Bu, albatta, I.q.ga ishchilar sinfi manfaatlari nuqtai nazaridan yondashilganligi sababli sodir bo'ldi. Hoz. u qonuniyatlar eskirdi, haqiqiy, yangi ijtimoiy taraqqiyot qonunlarini kashf etish vaqtি keldi.

**Ijtimoiy me'yorlar** - jamiyat boshqaruving ajralmas qismi bo'lib, shaxs yoki ijtimoiy guruh xulq-atvorini muayyan sotsial muhitga moslashtiruvchi qoidalar majmuidir. Ijtimoiy me'yorning bir necha turlari mavjud bo'lib, huquqiy, axloqiy, diniy hamda urf-odatlarga oid me'yorlar shular jumlasidandir.

Ijtimoiy me'yorning afzalligi shundaki, yoshligidanoq muayyan me'yorlarga moslashtirib borilgan shaxslar umum tomonidan qabul qilingan tamoyillar doirasidan chetga chiqmaydi va boshqalardan ham shuni kutadi. Jamiyat taraqqiy etib borgan sari o'rnatilgan me'yorlar ham eskirib boradi va yangi me'yorlar o'rnatiladi. Yangi me'yorlarni o'rnatish jarayoni jamiyatda o'rnatilgan mavjud me'yorlar doirasini kengaytirish va o'zgartishdan iboratdir.

**Lev Iosifovich Petrajitskiy** (1867 - 1931) - dvorya oilasidan kelib chiqqan. Kiev universitetining yur fakultetini tugatgan, so'ng ta'lim olishni Germaniyada dav ettirgan. Rossiyaga qaytgach, Kiev universitetida dare bergen, so' N.M.Korkunov o'mniga Peterburg universitetining huq} ensiklopediyasi kafedrasini boshqargan. Uning kator shogirdlar (P.Sorokin N.Timashev, J.Gurvich, N.Kondratev va b.) keyinchal sotsiologiya va huquq sotsiologiyasi sohasida yirik olim bo'l etishganlar. Huquq nazariyasidagi sotsiologik yo'nalişning bosh vakillari singari, konstitutsiyaviy monarxiya tarafdori bo'lg Petrajitskiy mamlakatning siyosiy hayotida juda faol ishtiro etgan. U o'z siyosiy qarashlariga ko'ra mo'tadil kadet bo'lgan-> Petrajitskiy kadetlar partiyasining Markaziy komitetiga kirgan v shu partiyadan birinchi Davlat dumasiga deputat etib saylangan Duma tarqatib yuborilgach, Petrajitskiy "Vibor. murojaatnomasi"ni imzolagan boshqa deputatlar qatori uch oyga qamoq jazosiga hukm qilingan va siyosiy xukuqlardan mahrum etilgan. 1921 yilda u Polshaga ko'chib o'tib, Varshava universitetining sotsiologiya kafedrasiga boshchilik qilgan.

**Niklas Luman** (1927 - 1999) - nemis yuristi va sotsiolog, sotsiologiya va huquqshunoslikda tizimli hamda funksional yondashuvning etakchi vakillaridan biri, Yuridik ta'lim olgach, u huquqiy amaliyat v ma'muriy faoliyat bilan shug'ullangan. XX asrning 60-yillar boshida AQSHda

sotsiologiyani o'rgangan. 60-yillar oxiridan boshlab Bilefeld shahrida (FRG) umumiy sotsiologiya va huquq sotsiologiyasi professori bo'lib ishlagan.

Luman - ko'p sonli ilmiy asarlar muallifi. Ular orasida "Huquq tizimi va huquq dogmatikasi", "Sotsiologik maorif" "Siyosiy rejalashtirish", "Ishonch va hokimiyat", "Samoreferensiya to'grisida badia", "Huquqni differensiallashdan chiqarish", "Jamiyat iqtisodiyoti", "Ijtimoiy fan", "Tavakkalchilik sotsiologiyasi", "Jamiyat huquqi" va boshqalar.

**Ijtimoiy pozitsiya** (social position) — individning mazkur guruh yoki jamiyat doirasida ijtimoiy identligi. O'z tabiatiga kura ijtimoiy pozitsiyalar juda umumiy (masalan, tender rollar bilan bog'liq pozitsiyalar) yoki ko'proq o'ziga xos (masalan, kasb pozitsiyalari).

**Ijtimoiy qayta ishlab chiqarish** — ijtimoiy tuzilmaning xususiyatlarini vaqt o'tishi bilan qo'llab turadigan yoki qayta ishlab chiqaradigan jarayonlar.

**Ijtimoiy rol** (social role) — muayyan ijtimoiy pozitsiyani egallab turgan individdan kutiladigan xulq-atvor. Ijtimoiy rol g'oyasi azalda teatr sahnasida o'ynaladigan aktyor roli bilan bog'lanadi. Har qanday jamiyatda individ o'z faoliyatining turli sohalari bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy rollarni ijro etadi.

**Ijtimoiy stratifikatsiya** (social stratification) — moddiy va boshqa ne'matlarga erishish imkoniyati bilan bog'liq bo'lgan jamiyatdagi guruhlar o'rtasidagi tuzilmalashgan tengsizlikning mavjudligi. Hamma jamiyatlarda ham stratifikatsiya shakllari mavjud bo'lishiga qaramay davlat tizimining rivojlanishi oqibatida boylik va hokimiyatga egalik qilishdagi tafovutlar kuchayib boradi. Hozirgi jamiyatlarda stratifikatsiyaning eng xarakterli shakllaridan biri sinfiy bo'linish xisoblanadi.

**Ijtimoiy toifa** — individlarning umumiy xususiyatlarga ega bo'lgan statistik guruhi, masalan, muayyan daromad darajasiga qarab belgilangan guruhlar. Ijtimoiy masofa — o'zaro yaxshi tanish bo'lmagan individlar bir-birlari bilan muloqotga kirishganda ularni ajratib turadigan makon darjasи.

**Ijtimoiy transformatsiya** — jamiyatlar yoki ijtimoiy tizimlardagi o'zgarishlar jarayoni.

**Ijtimoiy tuzum** — jamiyatning muayyan taraqqiyot bosqichiga xos bo'lgan ijtimoiy munosabatlar tizimi. I.t. jamiyatda qanday ijtimoiy munosabatlar amal kilishini aks ettiradi. Jamiyat odamlar va ular o'rtasidagi munosabatlardan tashkil topadi. Har qanday I.t. asosida iqtisodiy munosabatlar yetakchi rol o'ynaydi. Ijtimoiy munosabatlar va uning boshqa shakllari bir-birini to'ldirib, yaxlit tizimni tashkil etadi. I.t. tushunchasi jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar qanday rivojlanganligini ko'rsatuvchi tushunchadir. Ijtimoiy munosabatlar qanchalik rivojlangan bo'lsa, ishlab chiqarish, texnika va texnologiya ham shunchalik rivojlangan bo'ladi, bu esa,

o‘z navbatida, ijtimoiy taraqqiyotning yuksalish darajasini belgilaydi. I.t.ning ravnaqi ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishiga bog‘liq bo‘lsa, jamiyatning holati undagi ijtimoiy munosabatlar tizimiga bog‘liqdir. Ijtimoiy munosabatlarning ravnaqi, o‘z navbatida, ishlab chiqaruvchi kuchlarning, texnika va texnologiyaning rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Demak, jamiyat taraqqiyoti I.t. taraqqiyoti b-n chambarchas boglangandir. Hozirgi paytda O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi I.t. qaror topmoqda.

**Ijtimoiy to‘sıqlar** — odat va marosimlar bo‘lib ular yordamida bir guruh o‘zini boshqa guruhlardan ajratib oladi.

**Ijtimoiy cheklovlar** — bizning xulq-atvorimizga o‘zimiz mansub bo‘lgan guruh va hamjamiyatlar tomonidan yaratilgan sharoitlarning ta’sir o‘tkazishi ko‘zda tutiladi. Dyurkgeym ijtimoiy cheklovlarni «ijtimoiy faktlarning» o‘ziga xos xususiyatlaridan biri deb hisoblagan edi.

**Ijtimoiy o‘zgarishlar** (social change) — ijtimoiy guruh yoki jamiyatning tayanch tuzilmalaridagi o‘zgarishlar. Ijtimoiy o‘zgarishlar — jamiyat hayotida doimiy hodisa bo‘lib, hozirgi davrda unga aloxida intensivlik xos. Sotsiologiya vujudga kela boshlagan davrdan boshlab dramatik kolliziyalarni, an’anaviy ahkomlarning o‘zgarishlarini va ijtimoiy tartibning yangi shakllari vujudga kelishini tushuntirishga xarakat qiladi.

**Ijtimoiylashuv** (socialization) — bolalarning ijtimoiy me’yorlar va qadriyatlarni o‘zlashtirish jarayoni bo‘lib, bu jarayonda ular shaxs sifatida shakllanadilar. Ijtimoiylashuv jarayoni individ uchun bolalikda ayniqsa zarur bo‘lsa ham, bu jarayon uning butun umri bo‘yi davom etadi. Birorta ham inson o‘ziga boshqa insonlarning o‘tkazadigan ta’sirisiz mavjud bo‘la olmaydi va bu uning xulq-atvorida turli hayotiy davrlarda ifodalanadi.

**Ijtimoiylashuv agentlari** — ijtimoiylashuvning eng muhim jarayonlari yuz beradigan guruhlar yoki ijtimoiy kontekstlar.

**Ihotalangan patriarxal oila** — Yevropada XVII asr oxiridan to XIX asr o‘rtalarigacha mavjud bo‘lgan oilaning o‘tish tipi; unda jamoaning tashqi olami keskin ihotalanadi va oilada ota hukmronligi asosiy o‘rin tutadi.

**Ikkinchı dunyo** — sanoatlashgan jamiyatlar, ularga avvalo Sharqiy Evropadagi kommunistik jamiyatlar va Sovet Ittifoqi kiradi.

**Ikkilamchi guruh** — bir-birlari bilan shaxsan tanish bo‘limgan individlar guruhi.

**Ikkilamchi mehnat bozori** — ishonchsiz ish o‘rinlarini va yomon mehnat sharoitlariga ega bo‘lgan individlarning iqtisodiy ahvolini tavsiflaydi.

**Ikkilamchi sektor** — iqtisodiyotning tovar ishlab chiqarish bilan bog‘liq sektori.

**Ikkilanish davri** — aholi miqdori ikki baravar o‘sishi uchun zarur bo‘lgan davr.

**Ilmiy bashorat** — tabiat, jamiyat, ijtimoiy hayotda yuz berish ehtimoli mavjud bo‘lgan hodisa, vosealar, jarayonlarni ro‘yobga chiqishini, sodir bo‘lishini, uning oqibatlarini ilmiy bilimlar asosida oldindan aytish yoki ko‘rish. I.b. O‘rta Osiyoda X-XII-a.larda tabiiy-ilmiy bilimlar, ijtimoiy – fal.iy fikrlar tarkib topgan davrlardan boshlaboq vujudga kela boshlagan. g‘arbiy Yevropada bu jarayon kechroq- XV-XVI-a.da sodir bo‘lgan. Qad. zamonlar va o‘rta asrlarda keng tarqalgan, diniy karomat o‘rniga kundalik hayotiy tajriba hamda empirik (tajribaviy) bilimlarga suyangan bashoratlar ham bo‘lgan. Biroq ularga asoslanib, faqat ilgarilari ham yuz bergen va unchalik murakkab bo‘lмаган turmush yoki xo‘jalikkagina oid bo‘lgan hodisalarni bashorat qilish, ya’ni oldindan ko‘rish mumkin bo‘lgan. Ilmiy bashorat esa, avvaldan donishmandlarga ma’lum bo‘lgan hodisalarni emas, balki sifat jihatidan batamom yangi hodisalarni ham oldindan aytib bera oladigan darajaga yetgan. Mas., astronomiya, matematika, mexanika, geodeziya fanida to‘plangan ma’lumotlarga asoslanib. Beruniy o‘z davrida odamlarga va o‘ziga ma’lum bo‘lgan Osiyo, Afrika, Evropa qit’alaridan tashqari yana bir katta qit’a borligini oldindan aytgan. Bir necha asr o‘tgach, yevropalik sayyoh Xristofor Kolumb Amerika qit’asini ochgach, Beruniy bashorati tasdislangan. Ibn Sino kasallikni yustiruvchi, qo‘zg‘atuvchi qandaydir ko‘z ilg‘amas tirik organizmlar bo‘lsa kerak, degan farazni olg‘a surgan. 1509-1510 y.da Galiley mikroskopni ixtiro qilgach, undan foydalangan A.Paster va b. biolog olimlar mikroblarni kashf silganlar. Natijada Ibn Sinoning ilmiy farazi haqiqatga aylangan. Astronom Quyosh sistemasida bori-yo‘g‘i to‘qqizta emas, balki yangi sayyoralar bo‘lsa ehtimol, deb faraz qilganlar. Astronom-matematik olimlardan U. Averoyesning matematik hisoblashlari asosida italyan olimi Galiley 1846 y. Neptunni kashf etgach, bu faraz ilmiy bashoratga aylangan. Mendeleev o‘zining kimyoviy elementlarga doir davriy sistemasida atom og‘irligi ma’lum bo‘lмаган hali o‘zi topilmagan elementlarga oldindan “katak”lar qoldirgan. Keyinchalik ko‘plab kimyogar olimlar bularni kashf silib, ular sonini 108 taga etkazgan. I. b.ning xozirgi davridagi shakllaridan biri ijtimoiy prognoz deb ataladi. Bu ta’limot mustaqilligimizni mustahkamlashda ham xizmat qilmoqda. I.b. fal.iy kategoriyalardan biri bo‘lib, ilm-fanga, jumladan fal.ga asoslangan, pirovard oqibatda ijtimoiy prognozga eltadigan, nazariy va amaliy jihatlardan muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ma’naviy omildir.

**Industrial (sanoat) jamiyati.** - an’anaviy jamiyat kategoriyasidan ajratib turuvchi, g‘arb sotsiologiyasida rivojlangan jamiyatning kelib chiqishi va tabiat to‘g‘risidagi ikki asosiy kategoriyaning biri. Ushbu terminni birinchi bo‘lib Sen-Simon ishlatgan, uni O. Kont, T. Spenser, Dyurkgeym va boshqalar rivojlantirganlar, qaysi jamiyatda sanoat ishlab chiqarish iqtisodiy tashkilotni boshqaruvchi shakli bo‘lsa, bu tashkilot xususiy shaxslar qo‘lida

bo‘lsa, bu tadbirkor xususiy boshqaruvchi bo‘ladi, u mehnat jarayoni va ishchilarni boshqarib boradi. Sanoat ishlab chiqarish korxonalarini, menedjer-administratorlar nazorat qiladilar.

**Indeterminizm** -(lot. in inkorni ifodolovchi sifatdosh va determinizm) - tabiiy va ijtimoiy hodisalarning sababli aloqadorligini inkor etuvchi falsafiy ta’limot.

**Individ** - (lot. individuum - takrorlanmas) - odamzodning vakili, o‘ziga xos takrorlanmas xususiyatlar egasi hisoblanmish odam.

**Individualizm (lot. individuum—bo‘linmas)** — inson shaxsiy hayotining alohidaliligi, shaxs huquqlarining mutlaqligini va avtonomiyasini ifodalovchi fal.iy-axloqiy tamoyil. I.ning ma’naviy, nazariy jihatlarini o‘z ichiga oladigan konseptual va real hayotiy pozitsiyani aks ettiruvchi amaliy jihatlari mavjud. I.ning nazariy talqini asosida shaxsning jamiyatdagi avtonomiyasi va uning huquqlarini mutlaqlashtirish yotadi. Aksariyat hollarda I. inson tabiatining o‘zida yashiringan deb hisoblanadi. I.ning mohiyatini asoslashga qaratilgan qarashlar shaxsni jamoaga qarama-qarshi qo‘yish, shaxsiy manfaatlarni jamiyat manfaatlaridan ustun qo‘yishni ifodalovchi tamoyil sifatida xususiy mulkning paydo bo‘lishi b-n bir paytda shakllangan. I.ning eng qadimiy nazariy ifodasi kiniklar ta’limotidir. Ushbu mакtabning Antisfen, Diogen Sinopskiy, Kratet kabi vakillarining fikricha, mohiyatan soxta bo‘lgan ijtimoiy aloqalar, madaniy ko‘nikmalarning barchasiga barham berish zarur. Individ ma’nан faqat o‘zigagina tayanishi mumkin. An’anaviy vatanparvarlik axloqiga zid ravishda o‘zlarini “dunyo fuqarolari”-kosmopolitlar deb e’lon qilgan kiniklar har qanday jamiyatda o‘z bilganlaricha, o‘z qonunlari b-n yashamoq g‘oyasini ilgari surdilar, har qanday axloqiy chegaralarni inkor etdilar . Bunda shaxs avtonomiyasini asoslashga intilish o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Kiniklar faoliyatida I.ning amaliyotda ham namoyon bo‘lgan. Mas., o‘ziga nisbatan “jamoasi, uyi, vatani yo‘q” degan formulani qo‘llashni yaxshi ko‘rgan, bochkada kishilar bergen sadaqa hisobiga kun kechirgan Diogen tashqi ta’sirlardan bunday mustaqil holda yashashni oliy baxt, deb hisoblagan edi. Uyg‘onish davrida I. konsepsiya sifatida shakllandı. Ma’rifatparvarlar (Gobbs, Gelvetsiy, Golbax) esa, I.ni inson faolligi, ayniqsa tadbirkorlik faoliyatining universal o‘lchovi sifatida e’tirof etdilar. Ularning fikricha, hatto yaxshilik qilish zamirida ham o‘z manfaatlarini to‘g‘ri anglash yoki “oqilona xudbinlik” (Golbax) yotadi. Kant inson tabiatiga xos bo‘lgan xudbinlikni “o‘ta ketgan badbaxtlıq” deb hisoblab, o‘z foydasi, manfaati, maqsadlarini ko‘zlaydiganlarni “axloqiy egoist” deb atagan edi. Shopengauer har bir insonning o‘ziga xos yashashi uchun iroda uning I.ning asosi deb hisoblagan bo‘lsa, Chernishevskiy umumiy ish muvaffaqiyatidan oxir oqibatda individning shaxsiy manfaatlari ham yutishidan kelib chiqqan holda, shaxsiy

foydan umumiy ishga o‘z xohishi b-n bo‘ysindirish g‘oyasini ilgari surgan va buni “oqilona egoizm” deb nomlagan edi. Shuningdek, I. Shtirner va Nitsshe, Sartr, Bergson va Yaspers qarashlarida ham o‘zining yorqin ifodasini topgan. Hoz. davrda ommaviy bir xillik hukmron bo‘lib borayotgan, kishilar dunyoqarashini boshqarish, ularning xulqiga muayyan standart qoliplarni singdirish yo‘lidagi urinishlar tobora avj olayotgan va keng miqyos kasb etayotgan bir paytda I. o‘zining ham nazariy, ham amaliy ko‘rinishida ana shu hodisalarga o‘ziga xos javob reaksiyasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shuningdek, dunyoning turli mintaqalarida totalitar rejimlar hukmronligi davom etayotgan, ssientistik, texnitsistik yondashuvlar inson shaxsi rivojiga qarshi qaratilgan deb talqin qilinayotgan bir paytda I.ni o‘ziga xos isyon sifatida ham baholash mumkin. Bu isyon nigelizm, skeptitsizm, sinizm ko‘rinishlarida namoyon bo‘lmoqda. Ayni paytda I. tarixda bo‘lgani kabi, hozir ham volyuntarizm, anarxizm, egoizm, avtoritarizm kabi keskin ko‘rinishlarda ham namoyon bo‘lmoqda.

**Indikator** - (lot. indicator - ko‘rsatkich) - ob’ektning o‘rgansa va o‘lchasa bo‘ladigan xususiyati.

**Indeterminizm** – determinizmga qarama-qarshi ta’limot.

**Induksiya** (lot. inductio—yo‘qlamoq) —bir necha yakka yoki ayrim hukmlardan umumiy hukmga o‘tish yoki ayrim voqeя va hodisalarni o‘rganish asosida umumiy qonun va qoidalar yaratish jarayonini qamrab oluvchi ilmiy-fal-iy metod. Mas., temir elektr tokini o‘tkazadi, mis elektr tokini o‘tkazish imkoniyatiga ega, kumushning ham xuddi shunday xususiyati mavjud va h.k. Yuqoridagi hukmlardan: “Metallarning hammasi elektr tokini o‘tkazadi”, – degan yangi umumiy hukm xulosa chiqadi. Yoxud, O‘zbekiston Milliy un-ti talabalari yozgi sessiyaga hozirlilik ko‘rmoqdalar. Toshkent shahridagi boshqa oliy o‘quv yurti talabalari ham yozgi sessiyaga tayyorgarlik ko‘rmoqdalar. Demak, Toshkent shahrining barcha oliy o‘quv yurti talabalari yozgi sessiyaga qunt b-n tayyorlanmoqdalar, degan xulosa chiqariladi.

**Industrial (sanoat) jamiyat**. - an‘anaviy jamiyat kategoriyasidan ajratib turuvchi, g‘arb sotsiologiyasida rivojlangan jamiyatning kelib chiqishi va tabiatni to‘g‘risidagi ikki asosiy kategoriyaning biri. Ushbu terminni birinchi bo‘lib Sen-Simon ishlatgan, uni O. Kont, T. Spenser, Dyurkgeym va boshqalar rivojlantirganlar, qaysi jamiyatda sanoat ishlab chiqarish iqtisodiy tashkilotni boshqaruvchi shakli bo‘lsa, bu tashkilot xususiy shaxslar qo‘lida bo‘lsa, bu tadbirdor xususiy boshqaruvchi bo‘ladi, u mehnat jarayoni va ishchilarni boshqarib boradi. Sanoat ishlab chiqarish korxonalarini, menedjer-administratorlar nazorat qiladilar.

**Inguruqlar**- bu guruh yoki sotsial kategoriya bo`lib, bunday guruhda individ guruhga a`zoligini xis etadi.Bunday guruhlar uyushgan guruhlar bo`lib, individ guruhda “biz” tushunchasini xis etadi.

**Informatsiya** (lot. informatio – tanishtirish, tushuntirish, tasavvur etish, xabardorlik) – 1) biron xil ishning holati to‘g‘risida, u yoki bu narsa-hodisa haqidagi ma’lumotlarni kishilar tomonidan uzatib turish, xabardor qilish; 2) axborot olish natijasida kamaytirilgan, bartaraf etilgan noaniqlik; 3) boshqarish b-n birgalikdagi xabarlar; 4) har qanday ob’ekt va jarayondagi (jonsiz va jonli tabiatni) turli-tumanlikning aks etish, eshittirish yoki ko‘rsatish. I.ni bo‘lmish xabar, axborot sifatida tushunish XX-a.ning o‘rtalarigacha saqlanib qolgan. Ommaviy va b. aloqalar, texnik vositalarining rivojlanib borishi sababli (telefon, telegraf, radio, televiedenie va sh.k.) va ayniqsa, uzatiladigan ma’lumotlarning ortib borishi b-n xabar qilish, axborotlarni uzatish uchun kerakli sharoitlarni yaxshilash zaruriyati yuzaga keladi. I.ning miqdor tushunchasi ana shu tariqa joriy etiladi va bu tushuncha axborot ustida so‘z borgan voqeanning ehtimolli darajasiga teskari proporsional miqdor sifatida belgilanadi. I. ilmiy tushunchasining ishlab chiqilishi olamning moddiy birligining yangi jihatini olib beradi. Ilgarilari butunlay turlicha bo‘lib ko‘ringan jarayonlar: aloqaning texnik kanallari bo‘yicha axborotlar berishga, asab tizimining ishlashi, hisoblash mashinalarining ishi, boshqaruvning xilma-xil jarayonlari va h.k. I.ni uzatish, saqlash va qayta ishslash jarayonlari b-n bog‘liqdir. I. tushunchasi bunda fizikadagi energiya tushunchasiga o‘xhash rolni o‘ynaydi, chunki fizikadagi energiya tushunchasi ham umumiyligi nuqtai nazardan turli fizik jarayonlarni tasvirlashga imkon beradi. I. tushunchasidagi ikki nuqtai nazarni farq qilib qaramoq kerak. Birinchidan, I. tizimini uyushtirish me’yoridan iboratdir. I. uchun bo‘lgan matematik ifoda teskari belgi b-n olingan entropiya uchun bo‘lgan ifodaga aynan tengdir. Tizim entropiyasi uning tartibga solinmagan darajasini ifodasi. I. uni uyushtirish me’yorini beradi. Shu tariqa tushunilgan I. tizimning o‘z-o‘zicha jarayonning ichki holatini tashkil etadi. Binobarin, uni strukturali I. deb atash mumkin bo‘ladi. Strukturali I.dan hamisha ikki jarayonning munosabati b-n bog‘langan nisbiy I.ni farqlash zarur.

**Informatsion jamiyat** — jamiyatda informatsiya, (axborot), bilim hal qiluvchi ahamiyatga ega, degan sotsiologik-fal.iy va futurologik konsepsiya. I.j. postindustrial jamiyat nazariyasining boshqacha talqindir. I.j. konsepsiyasining asoschisi B.Toffler jamiyatni turli bosqichlarga bo‘lib o‘rganishni taklif etadi. Birinchi bosqich industrial jamiyatgacha bo‘lgan davr. Bunda asosiy boylik yer va bevosita tabiatdan olingan zaxiralar hisoblanadi. Bu qishloq xo‘jalik sivilizatsiyasi deb ham ataladi. Ikkinci bosqich sanoat yoki industrial sivilizatsiya deb yuritiladi. Bunda asosiy boylik ishlab chiqarish vositalari hisoblanadi. Postindustrial jamiyatda kapital, mehnat o‘z-o‘rnini informatsiya va bilimga bo‘shatib beradi, natijada texnologiya, boshqarish, siyosat, turmush va iqtisodda tub o‘zgarishlar yuz beradi. Jamiyatda sotsial informatsion birlashma va uyushmalar vujudga keladi.

An'anaviy gigant korporatsiya o'rniga kichik iqtisodiy birlashmalar, uydagi shaxsiy faoliyat "elektron kottejlar" kelajak inson yashashining modelini tashkil etadi. Ular I.j.ning umumiyligini strukturasini tashkil etadi. "Infra – sfera", "texno — sfera" va b. inson borligining "sferalari" bo'lib qoladi (Toffler). "Telekompyuter" energetikaga asoslangan "global elektron svilizatsiya" paydo bo'ladi (Dj. Pelton). "Kompyuter inqilobi asta-sekin an'anaviy kitob chop etish elektron kitob b-n almashadi. Ishsizlik mafkurasi ishdan xoli, xursandchilik qilish mafkurasi b-n almashadi (X.Evans). Ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bevosita mikroelektron inqilobga bog'liq deb ko'rsatdilar. Toffler va Dj. Martin fikricha, demokratiyaning kelajagi elektron texnologiyasining keng tarqalishi b-n bog'liq. Telekommunikativ "kabel tarmog'i" fuqarolarning hokimiyat b-n ikki tomonlama aloqada bo'lishini ta'minlaydi. Natijada, siyosiy masalalarni hal qilishda bevosita fuqarolar fikrini hisobga olishga imkon beradi. Jamiyatni texnologik talqin qilish I.j. ziddiyatlarni bartaraf etib, odamlarni begonalashuv va g'ayriinsoniylikdan xoli qiladi, deb ko'rsatdilar. Fal-dagi gumanistik konsepsiya tarafдорлари bu qarashlarning biryoqlamachiligin ko'rsatib bermoqdalar, texnologik determinizm inson mohiyatini va uning murakkab munosabatlarini ochib berishga qodir emas degan fikrni maydonga tashlamoqdalar.

**Innovatsiya** - ijtimoiy amaliyotda sezilarli o'zgarishlar tug'diradigan turli xil yangiliklar yaratish va tadbiq etish.

**Innovatsion markaz** — texnologik innovatsiyalar markazi bo'lgani uchun gullab-yashnayotgan shahar.

**Inqilob** (revolution) — mavjud rejimni ag'darib tashlash va keyinchalik yangi hukumat shakllantirish bilan bog'liq zo'ravonlik bo'lib, unda ommaviy-ijtimoiy harakatlar ishtirok etadi va siyosiy o'zgarishlar jarayoni yuz beradi. Inqilob fitnadan shunisi bilan ajralib turadiki, u ommaviy xususiyatga ega va butun siyosiy tizimda jiddiy o'zgarishlar keltirib chiqaradi. Fitna — hokimiyatning siyosiy yetakchisini almashtirish maqsadida qurolni qo'lga olish bo'lib, u boshqaruva tizimida radikal o'zgarishlar keltirib chiqarmaydi. Inqilob isyondan ham farq qiladi, garchi isyon ham mavjud siyosiy rejimga qarshi kurashga chaqiriq bo'lsa ham, biroq uning maqsadi siyosiy tuzilmani o'zgartirish emas, balki yetakchini almashtirishdir.

**Inqiroz** — ma'lum bir voqelikning tabiat va jamiyat taraqqiyoti ob'ektiv qonuniyatlariga zid kelib qolishi, o'z davrida progressiv hisoblangan jarayonlarning vaqt o'tishi b-n yangicha talablarga javob bera olmasligi tufayli yuz beradigan hodisa. U jamiyat hayoti, turmush tarzining barcha sohalarini qamrab olishi mumkin. I.ni keltirib chiqaruvchi sabablar turlichida bo'ladi. Aytaylik, ma'lum bir tuzumlar, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar avval boshdanoq taraqqiyotning ob'ektiv qonuniyatlarini inkor qilgan holda amal

qiladilar. Bu holat esa, o‘z navbatida mazkur tuzum va munosabatlar rivojida tanazzul holatining ro‘y berishiga sabab bo‘ladi. Shu b-n birga, o‘z vaqtida progressiv rol o‘ynagan tuzumlar, amal qilgan munosabatlar vaqt o‘tishi b-n taraqqiyotga g‘ov bo‘lib qolishi, taraqqiyotning yangicha talablariga javob bera olmasligi mumkin bo‘ladi. Bu hol ham tabiiy tarzda I. holatlarini keltirib chiqaradi. Iqtisodiy I. jamiyat ob‘ektiv qonuniyatlariga zid bo‘lgan iqtisodiy faoliyat zamirida yuz beradigan bo‘lsa, ma’naviy va ruhiy I. inson kamolotining ma’naviy va ruhiy jihatlariga nomutanosib bo‘lgan jarayonlarga, voqeа va hodisalarga bog‘liq bo‘ladi. Jamiyatda kechayotgan ayrim sohalardagi I.li holatlarning oldi olinmasa, jamiyat hayotining boshqa sohalariga ham o‘z ta’sirini o‘tkazishi tabiiy. I. miqyos jihatidan jamiyatni yoki ayrim bir shaxsni ham qamrab olishi va ayni vaqtida qat’iy iqtisodiy, siyosiy ma’naviy-mafkuraviy choralar ishlab chiqilishi b-n I.li holatlarning oldi olinishi mumkin bo‘ladi. Iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy I.ning oldini olishda jamiyat taraqqiyotiga xos bo‘lgan ob‘ektiv qonuniyatlardan chetlashmaslik muhim shart bo‘lsa, ma’naviy-ruhiy tanazzulning oldini olish uchun esa, har bir jamiyat a’zosida ma’naviy poklanish mezonlarini yaratish, ruhiy-axloqiy kamolot tamoyillarini ishlab chiqish zarur hisoblanadi.

**Inson** – qar handay falsafiy ta’limotning asosini tashkil etuvchi fundamental falsafiy kategoriya. I. tushunchasiga aniq ta’rif berish uchun uni olamda mavjud bo‘lgan boshqa biologik mavjudotlardan ajratib turuvchi eng muhim xususiyatlarni aniqlash zarur. Ta’kidlash zarurki, eng avvalo I. b. mavjudotlardan o‘zining xotirasi, tafakkuri, tili borligi b-n ajralib turadi. Ayniqsa, til uning ajdodlari va avlodlari orasidagi vorisiylik, aloqadorlik vazifasini bajaradi. I. nasliga xos barcha genetik xususiyatlar, axloqiy normalar, uning faoliyatini boshqaruvchi dasturlar xuddi shu til orhalı ajdodlardan avlodlarga uzatiladi. Boshqa tirik mavjudotlardan I.ning tub sifatiy farqini ifodalovchi xususiyatlardan yana biri uning o‘z amaliy faoliyatini tartibga sola bilishidir. Bu qolat I.ning insoniyligini belgilovchi eng muhim xususiyat, madaniyat ekanligini ifodalaydi. Shuningdek, I.ning o‘z turmushi uchun zarur bo‘lgan moddiy va ma’naviy boyliklarni ishlab chiqarish malakasiga egaligi qam ana shunday xususiyatlardan biri hisoblanadi. Inson hayotida mehnat asosiy rol o‘ynaydi. Mehnat tufayli I. o‘zi yashayotgan tabiiy muhitni o‘zgartiradi, moddiy va ma’naviy boyliklar yaratadi, o‘z-o‘zini o‘zgartiradi. I. organizmining sof fiziologik funksiyalari, qo‘l va oyoqlarning, bosh va barmoqlarning, tog‘aylar, paylar, suyak va muskullarning taraqqiy etishi ham bevosita mehnat b-n bog‘liqidir. Bundan tashqari, mehnat I.ning nafaqat jismoniy, balki ma’naviy, madaniy taraqqiyoti uchun ham asosiy shart-sharoit vazifasini bajardi. Mehnat tufayli, I. tabiatga ta’sir etdi. Buning uchun esa mehnat qurollari yasab, ushbu qurollarni uzlucksiz takomillashtirib bordi. I., amerikalik olim B.Franklin

aytganidek, mehnat quollarini yaratuvchi jonzotdir.

Oilaviy munosabatlar va axloqiy normalar. I. hayvondan farq qiluvchi eng muhim xususiyatlardan biridir. Mas., qadim zamonlardan buyon hayvonlarga xos quyidagi qiliqlar, odatlar mutlaqo ta'qiqlandi:

1. o‘zining yaqin qavm-qarindoshi b-n jinsiy aloqada bo‘lish;
2. eng yaqin kishisiga qo‘l ko‘tarish, taniga jaroqat etkazish;
3. o‘zining yaqin kishilariga suiqasd qilish.

Bunday nomaqbul qiliqlar hayvonlarga xos bo‘lgani uchun qam qattiq qoralangan. Qad. axloqiy normalar, turgan gapki, hali takomillashmagan, o‘ta oddiy edi. Shunga qaramasdan, bunday normalar insoniylikning eng oddiy ko‘rinishlari paydo bo‘layotganidan dalolat berardi. Ular asta-sekin rivojlanib, umum-insoniylar qadriyatlarining vujudga kelishi uchun zamin yaratdi. Ko‘rinib turibdiki, antroposotsiogenez tufayli I. axloqiy mavjudot sifatida ham shakllandi, biologik mavjudotning ijtimoiy mavjudotga aylanishi jarayoni sodir bo‘ldi. Oddiy axloqiy normalar yordamida ibtidoiy jamoa o‘z a’zolarini barchaga maqbul bo‘lgan tartib va intizomlarni bajarishga majbur qildi. Xuddi shu holat I.ning hayvondan uzil-kesil ajralib chiqqanligidan dalolat berardi. o‘z navbatida, ushbu voqeа ijtimoiy holatning biologik holat ustidan qilgan buyuk g‘alabasi edi. Odamning mehqnat qilishni, mehnat quollari yasashni o‘rgangani, axloqiy normalarga rioya eta boshlagani ulkan neolitik inqilob edi. Bunday neolitik inqilob tufayli odam asta-sekin ijtimoiylashib bordi. Odamning dastlabki ajdodi ov qilib, terib-tergilab yashashga asoslangan faoliyatdan ishlab chiqaruvchanlikka, yaratuvchanlikka asoslangan turmush tarziga (dehqonchilik, chorvachilik, kosibchilik va b.) o‘ta boshladi. Xuddi shu holat odam ijtimoiy-tarixiy mavjudot bo‘lib shakllanayotganidan, mujassamlanayotganidan dalolat berardi. Bugungi kunda fay.lar inson uchta buyuk qudrat – tana, ruhiyat va ma’naviyatning yig‘indisi ekanligini uqdirmoqdalar. Insonning biologik holati deganda uning tanasida sodir bo‘ladigan morfofiziologik, genetik, miyasida ro‘y beradigan elektro-ximik o‘zgarishlar, uning yoshi, irqi va jinsini ifodalovchi alomatlar tushuniladi. Insonning ruhiy holati ha qida fikr yuritganda uning histuyg‘ulari, kayfiyati, kechinmalari, irodasi, temperamenti anglanadi. Insonning ma’naviyati jamiyatda mavjud bo‘lgan ob‘ektiv shart-sharoitlar va sub‘ektiv omillar natijasida shakllangan fazilatlar, xislatlar, qobiliyatlar, malakalar yig‘indisidir. Yuhoridagi fikr-muloqazalar insonning murakkab, bir butun biosotsial jonzod ekanligidan dalolat beradi.

**Insonparvarlik**, g u m a n i z m – odamlarga mehr-muhabbat b-n qarash, ularni hurmat qilish, insonning moddiy farovonligini yuksaltirish va kishilarda yuksak ma’naviy fazilatlarni rivojlantirishga g‘amho‘rlik qilish g‘oyalari b-n sug‘orilgan dunyoqarash. Insonning, insonni sevishning sababi, boislari, inson baxti, baxtiyor yashash uchun zarur bo‘lgan adolat haqidagi

orzular qad. xalqlarning og‘zaki ijodida, mifologik, diniy, fal-iy qarashlarida yuzaga chiqa boshlagan. Inson haqidagi hoz. rang-barang va fundamental qarashlarning shakllanishida bularning xizmati katta. Qad. kishilar nazdida olivjanob, jasur, qahramonlik ko‘rsatishga tayyor kishilarning ma’naviyati I. b-n yo‘g‘rilgan. Er-Xubbi Turonda, Germes yunonlarda, Agni rigveda (dini) da bunga misol bo‘la oladi. Islom ta’limotiga ko‘ra, inson Olloh yaratgan maxluqlar orasida eng karamlisidir. Inson Yaratuvchining yerdagi xalifasi, ya’ni, Alloh buyurgan yaxshi amallarni amalga oshiruvchisi. Inson hatto farishtalardan ham yuqori martabali zot. Sharqda futuvvat harakati I.ning yorqin namunasidir. Futuvvat Hotami Toyni insonparvar kishining umumlashgan obraziga aylantirdi. G‘arb gumanistlari I. insonning ichki va tashqi go‘zalligidan deb biladilar. Ularning fikricha, odamda jismoniy va ma’naviy ibtidolar uyg‘unlashganda insonning topgan lazzati, baxti axloqiy qimmatga ega bo‘ladi. I. Kant ta’limotiga ko‘ra, inson vosita emas, balki maqsad bo‘lishi lozim. I.ning maqsadi inson hayoti davomida o‘z salohiyatini to‘la namoyon qilib, jamiyatda o‘ziga munosib o‘ringa ega bo‘lish uchun maksimal sharoit yaratish, hamda bunga to‘sinqilik qiluvchi g‘oyalarning puch ekanligini fosh qilish, g‘ov bo‘luvchi omillarni bartaraf etishdir. I. inson qadr-qimmatini himoya etish va erkin huquqini talab qilishdir. Inson nafaqat tabiiy ofat, ijtimoiy in-tlar tazyiqidan, hatto o‘z havoi nafsi, tanazzulga olib boruvchi mayllardan himoya etilishi uchun I. taqozo etiladi. U inson ma’naviyatida muhitning tarbiyaviy ta’siri va ilm-ma’rifat orqali joy oladi. Ta’limning insonparvarlashuvi inson qobiliyatining ochilishi va uning ta’limga nisbatan bo‘lgan turli-tuman ehtiyojlarining qondirilishi, milliy va umubashariy qadriyatlar ustuvorligining ta’milanishi, inson, jamiyat va atrof-muhit o‘zaro munosabatlarining uyg‘unlashuviga qaratilgan.

**Insoniy munosabatlar nazariyası** — G‘arbiy Yevropa va AQSH sotsiologiyasida 20-a.ning 20-y.larida ishlab chiqilgan sotsiologik naz-yalardan biri. I.m.n. yirik korxonalarda kishilar faoliyatini boshqarishning umumiyl tamoyillari va vazifalarini o‘ziga xos tarzda talqin etdi. Bu naz-ya sanoat sotsiologiyasi, mehnat sotsiologiyasi singari sohalarning rivojlanishi b-n bir vaqtda ro‘y berdi. I.m.n. shakllanishiga hoz. zamon korxonalaridagi texnik taraqqiyotning talablari kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Sanoat mehnatining murakkablashuvi, qator sohalarda aqliy va jismoniy mehnatning uyg‘unlashuvi mehnatga ongli munosabatda bo‘ladigan, o‘z mahorati va malakasini muttasil ravishda takomillashtirib boradigan xodimni tarbiyalash vazifasini qo‘ydi. Insoniy munosabatlar dasturi xodimlarning kundalik ehtiyojlarini qondirishdan iborat bo‘lgan qator tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Bular orasida xodimlarning ish sharoitini, dam olish va bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishni ta’minalashga qaratilgan tadbirlar alohida o‘rin tutadi. Korxona rahbarlari, tadbirkorlar tomonidan bunday tadbirlarning amalga

oshirilishi mehnat va mehnatga munosabat muammolari bo‘yicha empirik tadqiqotlarning keng rivojlanishiga olib keldi. Hoz. zamon sanoat ishlab chiqarishining hayotiy ehtiyojlari, sanoat korxonalari xodimlarining mehnatga ijobiy va salbiy munosabatini belgilaydigan omillar, mehnat jamoalari shakllanishining qonuniyatları va jamoaning shaxsga ta’siri, xodimlar tashabbuskorligini rivojlantirishda, boshqarishni demokratiyalashtirish jarayonlarining roli, samarali rahbarlik qilishning shakllari va usullari singari muammolarni hal etish ishlab chiqarish jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

**Insest** — yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi jinsiy aloqa, masalan, ota bilan qiz yoki aka bilan singil o‘rtasidagi aloqalar. Insest barcha jamiyatlarda ta’qilangan.

**Instinkt** — irsiyat darajasida asoslanadigan xulq-atvorning alohida usuli bo‘lib, har qanday turning hamma vakillarida mavjud bo‘ladi.

**Institutsional kapitalizm** — institutsional aksiyalash negiziga qurilgan kapitalistik korxona.

**Integratsiya** (lot. integer – butun) — 1) ayrim qism va elementlarni bir butunga birlashtirish; 2) turli mamlakatlarning birlashmalari, tor doiradagi iqtisodiy-siyosiy guruhlar qo‘silishi. I.ning shakllari turlichadir: ilmiy, siyosiy, madaniy, xalqaro va h.k. Mas., I. iqtisodda xo‘jalik hayotini yaqinlashtirishning oliy shakli bo‘lib, bunga xalqaro mehnat taqsimotini chuqurlashtirish ob’ektiv ravishda sabab bo‘ladi. I. turli mamlakatlarning o‘zaro yaqinlashuvida va ularning korxonalari, tarmoqlari va hatto milliy iqtisodiyotning yagona xo‘jalik organizmiga birlashuvida namoyon bo‘ladi. I. jarayonlarning rivojlanishi natijasida Yevropa Ittifoqi, Markaziy Osiyoda I.A.Karimov tashabbusi b-n “Turkiston — umumiy uyimiz” g‘oyalari va amaliyotining vujudga kelishi bunga yorqin misol bo‘la oldi.

**Intelegensiya** (lot. Intellegere — bilimli bo‘lish) — ijtimoiy tizimda muayyan o‘ringa ega bo‘lgan, asosan aqliy mehnat faoliyati b-n shug‘ullanadigan ziyorolar ijtimoiy tabaqasi. Aqliy, ijodiy mehnat sohasini asosiy kasb tarzida tanlangan odamlar guruhi qadimdan ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida alohida ijtimoiy tabaqa sifatida shakllana boshlagan va bu jarayon o‘rtalardan yangi davrga o‘tish davrida asosan tugallangan. I.ga mansub odamlar avval erkin bilim olish orqali aqliy mehnat faoliyatlarini boshlagan bo‘lsalar, keyinchalik o‘quv yurtlarda bilim olish b-n birga mehnat kasb-korlarini muayyan tizimga tushirishga ham erishganlar. I.ga mansub bo‘lganlar odatda barcha ijtimoiy guruhlardan kelib chiqqan bo‘lishi mumkin. Lekin I. ijtimoiy tabaqasining o‘zini o‘zi takroriy vujudga keltirish (qayta ishlab chiqarish) hoz. davrda o‘ziga xos jarayon sifatida amal qilmoqda. “Kompyuter asri”, “yangi texnologiyalar asri”, “axborot asri” atamalari b-n nisbat berilayotgan hoz davrda amal qilinayotgan ilmiy-texnik inqilob jarayonlari I. ijtimoiy tabaqasining jamiyat hayoti barcha jabhalarida egallab

borayotgan o‘ta muhim o‘rni va ahamiyatini yanada oshirmoqda. Shu ma’noda rivojlangan mamlakatlar ijtimoiy tizimining tobora I.lashib (ziyolilashib) borayotganligini, uning miqdor va sifat darajalari tobora oshib borayotganligini hoz. davr jahon sivilizatsiyasining mushtarak qonuniyati deb e’tirof etilmoqda.

**Integrativ** (uyg‘unlashtiruvchi) sotsial institutlar - bu institutlar bir butun tuzumga jamiyat manfaatlarini qondirishga mas’ul bo‘lgan sotsial rollarni ifodalaydi.

**Integratsiya** – birlashish, birikish, yaxlit bir butunning shakllanishi.

**Intellekt** — testlar, jumladan 10 yordamida o‘lchanadigan aqliy rivojlanish darajasi.

**Intergeneratsion mobillik** — ijtimoiy stratifikatsiya tizimida avloddan-avlodga qarab yuqoriga yoki pastga siljish.

**Interpretatsiya** (lot. interpretatio – tushuntirish, izohlab berish) – 1. Biror narsaning ma’nosini, tub mohiyatini ochib berish, tushuntirish. Termin sifatida adliya ishlarida (mas., advokat yoki sudya tomonidan qonunni I. qilish), san’atda va b. ba’zi sohalarda qo’llaniladi; 2. Matematika, logika, fanlar metodologiyasi, bilish naz-yasida—muayyan tabiiy-ilmiy yoki abstrakt deduktiv naz-yaning elementi (ifoda, formula, simvol va b)ga biror usul b-n beriladigan ma’nolar majmui. I. tushunchasi ilmiy naz-yalarni ular tatbiq qilinadigan sohalari b-n qiyoslashda, naz-yalar qurilishining turli usullarini ta’riflashda, naz-yalar o‘rtasidagi nisbatning bilish jarayonidagi o‘zgarishlarni ifodalashda muhim rol o‘ynaydi.

**Intervyu** - (ingl. interview) - sotsiologik tadqiqotda qo’llaniladigan uslub - maqsadli suhbat.

**Introvertiv** – o‘ziga, o‘z ichki dunyosiga qarab mo‘ljal oluvchi.

**Irratsionalizm** – borliqni oqilona mantiqiy bilish imkoniyatini rad etuvchi nuqtai nazar.

**Irq** — o‘xshash jismoniy belgilarga qarab birikkan odamlarning katta guruhi.

**Irqchilik** (rasism) — muayyan jismoniy xususiyatlarga ega bo‘lgan odamlarga afzallik yoki kamsitilish tavsiflarini tirkash. Odamlar-ning jismoniy tafovutlariga urg‘u beradigan xurofot shakllaridan biri. G‘arb mustamlakachilik ekspansiyasi davrida irkchilik qarashla-ri va ustanovkalari mustahkam o‘rnashib qoldi, ular hozirgi kunda ham ko‘p mamlakatlarda tarqalgan. Bunday ustanovkalar shakllanishi negizada diskriminatsiya va xurofotlar yotadi.

**Istemol qilish jamiyati** - unchalik nazariy, empirik va amaliy ahamiyatga ega bo‘limgan tushuncha. Amerika sotsiologlari tomonidan XX asr 40-50 yillarida jamiyatning har bir a’zosining hayot darajasini yaxshilash maqsadida paydo bo‘layotgan tasavvurlarning keng yoyilishi natijasida

vujudga kelgan nazariya.

**Ish tashlash** — ishchi va xodimlar guruhi tomonidan o‘zining noroziligini ifodalash yoki talablarini qondirish maqsadida ishni vaqtincha to‘xtatish.

**Ishlab chiqarish vositalari** — jamiyatdagi moddiy ne’matlarni ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan vositalar. Ularga faqat texnologiyalar emas, ishlab chiqaruvchilar orasidagi ijtimoiy munosabatlar ham kiradi.

**Ishlab chiqarish demokratiyasi** — ish o‘rinlarida demokratik ishtirok etish yoki vakillik usullari.

**Ishlab chiqarish kuchlari** — Marks tomonidan jamiyatning iqtisodiy o‘sishiga ko‘maklashuvchi omillarni ifodalash uchun qo‘llangan atama.

**Ishsizlik** — bir qism iqtisodiy faol aholining o‘ziga loyiq ish topa olmasdan qolishi va mehnat zaxirasiga aylanishi. I. inson manfaatlariga to‘g‘ridanto‘g‘ri ta’sir qiladigan yirik ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biri hisoblanadi. Mamlakat miqyosida 3-5% darajasidagi I. iqtisodiyot uchun normal holat (I. ning tabiiy chegarasi) hisoblanadi.

**Ishchilar** — industrial jamiyatda mehnatga layoqatli aholining yollanib ishlovchi va jismoniy mehnat b-n shug‘ullanuvchi toifasi, ijtimoiy guruh. XIX asr o‘rtalarida Evropada sanoat rivojlanishi b-n dehqonlar va hunarmandlar hisobidan sanoat proletariati paydo bo‘ldi, I. ning kasaba

**Ishchilar sinfi** — jismoniy mehnat bilan band bo‘lgan xodimlar yoki «ko‘k yoqaliklarning» ijtimoiy sinfi.

**Ichkaridan kuzatish** — sotsiologiya va antropologiyada keng qo‘llaniladigan tadqiqot usuli bo‘lib, guruh yoki hamjamiyatlar faoliyatida sotsiologning o‘zi ishtirok etishini nazarda tutadi.

## J

**Jabborov Iso** (1929.30.12, Toshhovuz) – faylasuf, tarixchi olim. M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat un-tini “tarix” ixtisosligi bo‘yicha tamomlagan (1951), 1954 y. nomzodlik, 1973 y. doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan. Fal. fanlari d-ri, prof. O‘zRFA Tarix in-tida ilmiy xodim (1954-72), ToshDU tarix f-ti qad. va o‘rta asrlar tarixi kafedra mudiri (1972-95), Amir Temur nomidagi Davlat muzeyining arxeologiya bo‘limi mudiri (1995 y.dan) lavozimida ishlagan. Etnografiya, sotsiologiya, din va hurfikrlilik yo‘nalishlarida “Ijtimoiy ravnaq, turmush va din” (1973), “Ruhlar, o‘rta Osiyo muqaddas xudolari” (1993), “Sotsiologiya-hozirgi jamiyatni o‘rganuvchi fan” (1964), “Jahon xalqlari etnografiyasi” (1985), “Xudolar, avliyolar va odamlar” (1985), “Ruhiy olam: jaholat va kamolot” (1988), “o‘zbek xalqi etnografiyasi” kabi 220 dan ortiq kitob, risola, monografiya va

maqolalar muallifi. J.ning Xorazm hunarmandchiligi tarixiga bag‘ishlangan tadqiqoti 1975 y. AQSHda ingliz tilida chop etilgan.

**Jahon tizimi** (world system) — global miqyosdagi ijtimoiy tizim bo‘lib, barcha jamiyatlarni yagona ijtimoiy tartibga birlashti-rib turadi. Jahon tizimini "yagona global jamiyat" sifatida olib qarash mumkin. Jaxrn tizimi XVII asrda, G‘arb ekspansiyasi davrida shakllana boshladi. Bugungi kunda yuqori darajada integratsiyalashgan tizimning mavjudligi juda kup mikdordagi odamlarning hayotiga se-zilarli ta’sir o‘tkazadigan omillardan biri xisoblanadi.

**Jahon tizimi nazariyasi** — alohida jamiyatlarni ularning global ijtimoiy tizimdagи mavqeи nuqtai nazaridan o‘rgangan Emmanuel Vallerstaynning asarlarida ishlab chiqilgan nazariy yondoshuv.

**Jamiyat** — insonlarning barcha o‘zaro harakatlari uslublari va bir-biridan har tomonlama bog‘likligi ifodalanadigan birlashmalarning yig‘indisi. Jamiyat (society) — bu sotsiologiyadagi eng muhim tushunchalardan biri. Jamiyat — muayyan xududda istiqomat qiluvchi, yagona siyosiy hokimiyatga itoat qiladigan va o‘zlarini boshqa ko‘shni guruxlardan farkdaydigan odamlar guruxi. Ba’zi jamiyatlar, masalan, ovchilar va termachilar jamiyatlari miqdor jihatdan juda kichik va bir necha o‘n kishidan iborat. Boshqalari esa, ko‘plab million kishilardan iborat bo‘ladi; masalan, hozirgi Xitoy jamiyati bir milliarddan ortiq kishidan iborat.

**Jamoа** — umumiy doimiy yashash joyiga ega bo‘lgan kundalik hayotlarida bir-biriga bog‘liq bo‘lgan va umumiy iqtisodiy hamda ijtimoiy extiyojlarni qondirish uchun faoliyat ko‘rsatuvchi insonlar majmuasi.

**Jamoaviy iste’mol** — Manuel Kastels tomonidan iste’molga kiritilgan tushuncha bo‘lib, shaharlardagi iste’mol jarayonlari (aytaylik, mulkni xarid qilish yoki sotish)ni bildiradi.

**Jamoatchilik fikri** — ommaning, aholi ko‘pchilik qatlaming voqeahodisalarga, ijtimoiy jarayonlarga nisbatan munosabatini ifodalovchi fikrlari, g‘oya, qarash va tasavvurlari. J.f. ijtimoiy hayot ta’sirida stixiyali shakllanib borishi yoki siyosiy tashkilotlar va mafkuraviy muassasalarning omma ongiga ta’sir ko‘rsatishi natijasida maqsadga muvofiq o‘zgarib borishi mumkin. U ijtimoiy ongning o‘ziga xos umumlashgan ifodasi sifatida, alohida fikrlarning o‘zaro almashinuvi, boyishi va uyg‘unlashib borishi natijasida yuzaga keladi. J.f. aqliy, hissiy va irodaviy jihatlarni uzviy birlikda ifodalaydi va turli tarzda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, voqealarga ma’naviy munosabat sifatida. Bunda voqealarni baholovchi fikrlar keng jamoatchilik tomonidan biror-bir tarzda e’tirof etiladi. Ikkinchidan, g‘oyaviy-amaliy munosabat sifatida. Unda hissiy va irodaviy istaklar, intilish va niyatlar ommalashadi, jamoatchilikni amaliy faoliyatga undaydi. Uchinchidan, amaliy munosabat sifatida. Bunda kishilar voqeа va jarayonlarga bo‘lgan

munosabatlarini o‘zlarining ommaviy harakatlari b-n namoyon etadi. J. f.ning ko‘pchilikka tayanishi uning ta’sir kuchini belgilab beradi. Muayyan haqiqatni turlicha izohlash va talqin etishga asoslanuvchi plyuralizmning mavjudligi jamiyatda J.f.lari rang-barangligini belgilab beradi. Bunda ma’lum ijtimoiy guruh orasida keng tarqalgan va muayyan ahamiyatga ega bo‘lgan fikrlar boshqa guruh uchun e’tiborga ega bo‘lmasligi ham mumkin. Jamiyat a’zolarining barcha tabaqa va qatlamlarini birlashtiruvchi J.f.ni shakllantirish va muttasil saqlab qolish muhim ahamiyat kasb etadi. Keng xalq ommasining ijjobiy munosabatini maqsadga muvofiq ravishda shakllantirish, doimiy o‘rganish va hisobga olish taraqqiyotni ta’minalash va oqilona qadam qo‘yishda kuchli omil hisoblanadi.

**Jamoaviy harakat** (collective action) — muayyan joyda to‘plangan ko‘p mikdordagi odamlar tomonidan o‘z-o‘zidan kelib chiqib bajarila-digan harakatlar. To‘daning xulq-atvori jamoaviy harakatning eng muhim shakllaridan biri. Individ tuda ichida odatiy sharoitlarda erisha olmaydigan maqsadlarga erishishi mumkin.

**Jinoyat** – axloqiylik tamoyillari asosida tarkib topgan huquqiy talablar, qonun-qoidalar ustuvor bo‘lgan fuqarolik jamiyatida ushbu me’yorlarga mensimasdan munosabatda bo‘lish oqibatida shaxsiy manfaatlar ustunligi hamda o‘zgalar haq-huquqlarini buzish natijasida sodir etilgan qodisa. Axloqiy kategoriya sifatida J. tushunchasi kishilarning muayyan noplak maqsadlarini amalga oshirish yo‘lidagi amaliy xatti-harakatlari majmuasini aks ettiradi. Bashariyat taraqqiyoti davomida jamiyat rivoji va ravnaqi uchun xizmat qiluvchi ezgu muddaolarni maqsad qilib olgan hodisalar qatori unga zid ravishda, ba’zan J. turkumiga kiruvchi hodisalar ham sodir etilib keladi. Bu hodisalar jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilmaydi, balki uni tanazzulga etaklaydi. Shu bois jamiyat a’zolari hamda turli ijtimoiy tashkilotlar, sotsial in-tlar tomonidan J. hodisasi qoralanib keladi va unga qarshi kurash olib boriladi. Bu yo‘lda dastavval J.ni keltirib chiqaruvchi sabablar va motivlarni aniqlash muhim. Zero, har qanday J., avvalo, ijtimoiy hodisa sifatida tasodifan ro‘y bermaydi. Hattoki, ba’zan ehtiyyotsizlik oqibatida tasodifan ro‘y bergen J. deya talqin etiladigan hodisa ham, aslida muayyan ijtimoiy ildizlarga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun bu hodisaning shart-sharoitlarga bog‘liq sabablarini aniqlamasdan, unga qarshi kurash ko‘zlangan samarani bermaydi. Faqat shundan so‘nggina turli usul va vositalar yordamida unga qarshi kurashish lozim bo‘ladi. Agar J.ga qarshi kurash olib borilmasa, bir J.ning ikkinchi J. ni keltirib chiqarishi xavfi ortib boradi. Bu esa, jamiyat hayotida jinoyatchilik deb atalmish hodisaning ildiz otishiga olib keladi. Bu holda jamiyatning ma’naviy hayotiga katta putur etadi. J.chilik tufayli davlat va jamiyatga katta moddiy va ma’naviy zarar etishi, kishilarning tinch-osoyshta turmushi izdan chiqishi, davlat boshqaruvidagi barqarorlik o‘rniga

beqaror tartibsizliklar ro'y berishi mumkin. Binobarin, J. amaldagi axlohiy, ma'naviy, huquqiy tamoyillar hukmron bo'lgan jamiyat hayotiga yot hodisadir

**Jinoyatchilik** - franko-belgiyalik olim matematik statistik L.A.Ketle o'zining «sotsial-fizika» (1835 yil) kitobida shunday xulosaga keladiki, har qanday sotsial tuzum o'zining tashkil topishiga ko'ra kelib chiquvchi jinoyatlarning ma'lum bir miqdori va tartibini belgilaydi. Jinoyatchilikni ahvoliga nosog'lom konkurensiya, ishga joylashishga qiyinchiliklari, infliyatsiya katta ta'sir ko'rstaadi. Jinoyat bu insoniyatni barcha nuqsonlarini aks ettirishidir.

## K

**Kant Immanuel(1724–1804)** - dialektika g'oyalarini qayta tiklagan mutafakkir. Kant o'zining tabiiy-ilmiy qarashlari bilan tabiatni metofizik tarzda tushinishga chek quydi. Falsafaning borliq, axloq va din kabi muammolari bilan shug'ulanishdan avval insonning bilish imkoniyatlarini aniqlab olish lozim, deydi. Kant kishini urab turgan tashqi dunyodagi narsalarni 2 ga bo'ladi: a) o'z-o'zida mavjud bo'lgan narsalar dunyosi; b) sezgilarimiz aks ettirgan narsalar, xodisalardir. Inson bilish jarayonida xodisalar dunyosiga tartib kiritadi, uni ma'lum vaqt makon bilan bog'lab o'rganadi. Kapitalistlar — kompaniyalar, er, aksiyalar, kapitalga ega bo'lgan va ularni foyda olish maqsadida qo'llaydigan odamlar.

**Karser tashkilot** — odamlar uzoq vaqtga tashqi dunyodan ajratib qo'yilgan tashkilot, masalan qamoqxona, ruhiy shifoxona, kazarma, maktab-pansion.

**KARIMOV Islom Abdug'anievich** (1938 yil, Samarqand) – o'zbekiston Respublikasi Prezidenti, o'ZFA akademigi, mustaqillik falsafasi va milliy istiqlol g'oyasining asoschisi. o'zbekistonning suveren davlat sifatida istiqlolga erishishi va o'z mustaqilligini mustahkamlab borishi bevosita Islom Karimov nomi b-n bog'liq. Uning tashabbusi b-n sobiq Ittifoqdosh respublikalar orasida birinchi bo'lib o'zbekistonda prezidentlik boshqaruvi joriy etildi. Oliy Kengashning II sessiyasi 1990 y. 20 iyunda "Mustaqillik Deklaratsiyasi"ni qabul qildi va, nihoyat, 1991 yil 31 avgust kuni o'zbekiston parlamentining tarixiy VI sessiyasida I.Karimov o'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qildi. Islom Karimov rahbarligida o'zbekistonning o'ziga xos rivojlanish yo'li tanlandi, "Taraqqiyotning o'zbek modeli" konsepsiysi, bozor munosabatlariga o'tishning besh tamoyili ishlab chiqildi, yosh mustaqil davlat hayotida tub islohotlar davri boshlandi. Tarixan qisqa muddatda yangi demokratik tuzum

asoslari yaratildi, milliy davlatchilik qayta tiklandi, ko‘ppartiyaviylik tizimi shakllandi, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o‘tish jarayoni davom etmoqda, yurdoshlarimiz ongi va shuurida istiqlol ma’naviyati takomillashib bormoqda. Bu davrda o‘zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo bo‘lib kirdi (1992 yil 2 mart), deyarli barcha nufuzli xalqaro tashkilotlar va mintaqaviy uyushmalarga qabul qilindi, jahondagi ko‘plab davlatlar b-n diplomatik aloqalar o‘rnatdi, dunyo mamlakatlari b-n o‘zaro manfaatli hamkorlikni yo‘lga qo‘ydi. Mamlakatimiz o‘zining tinchliksevar tashqi siyosati, Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni ta’minalash, xalqaro terrorizmga qarshi kurash, mintaqa mamlakatlari o‘rtasida yagona iqtisodiy makonni vujudga keltirish, Orol dengizi muammolarini kompleks hal etishga qaratilgan bir qator tashabbuslari b-n xalqaro maydonda yuksak nufuzga ega bo‘ldi. Islom Karimovning “o‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li, (1992), “o‘zbekiston bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li” (1993), “o‘zbekiston: iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida” (1995), “o‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” (1997), “o‘zbekiston XXI asrga intilmoqda” (2001) kabi o‘nlab asarlarida muallifning fal-iy qarashlari bayon qilingan, ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotning ko‘plab dolzarb masalalari tadqiq qilingan, ularni amalga oshirish yo‘llari ko‘rsatib berilgan. Ular jahonning bir necha tillariga tarjima qilingan bo‘lib, ularda bozor munosabatlari, demokratik jamiyatga o‘tish tamoyillari nazariy jihatdan asoslab berilgan. Ular o‘zbekistonda muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

**KARIMOV Sohibnazar** (1956.17.6, Samarqand viloyati, Ishtihon tumani, Baxrim qishlog‘i) – faylasuf. SamDUning tarix f-tini tuguatgan (1978). 1988 y. nomzodlik, 1998 y. “14-15-a.larda Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy fikrlar taraqqiyoti” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan (1998). Fal. fanlari d-ri, prof. Sam DUda assistent (1978-83), Moskva davlat un-ti aspiranti (1983-87). SamDU katta o‘qituvchisi (1987-1992), o‘zFA doktiranti (1992-94), SamDU sotsiologiya kafedrasi mudiri (1994-96), Samarqand viloyati “Ma’naviyat va ma’rifat” markazi rahbari ((1996-2000) lavozimlarida ishlagan. Ayni paytda Samarqand shahar hokimining ijtimoiy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari (2000 y.dan). Falsafa tarixi, ijtimoiy-siyosiy fikr va tasavvuf ta’limoti o‘rtasidagi munosabat yo‘nalishlarida “14-15-a.larda Markaziy Osiyoda ijtimoiy-siyosiy fikr” (1995), “o‘rta Osiyo mutafakkirlarining ijtimoiy-siyosiy qarashlari” (1991), “Amir Temur: din va tasavvuf” (1996), “Ma’naviyat asoslari” (1997), “Milliy mafkura: qarashlar, fikrlar, mulohazalar” (2000), “SHarq sotsiologik fikrlar tarixidan” (2001) kabi monografiya, darslik va o‘quv qo‘llanmalar muallifi.

**Karyera** – kishilarning ishlab chiqarish, mulk, ijtimoiy, siyosiy yoki

boshqa sohalarda mansab lavozimga ko‘tarilishidir. K.ning xarakteri, tipi, sur’ati mavjud ijtimoiy munosabatlarga, unga erishish uchun jamiyat yaratib beradigan imkoniyalarga, shuningdek, konkret individning hayotiy vaziyatiga, shaxsiy qobiliyatiga, sobitqadamligi, sabot-matonatiga, oilaviy ahvoliga, salomatligiga bog‘liqdir. K. ta’lim, kasbga tayyorlash, kishilarning mehnat malakalarini oshirish, ijtimoiy-siyosiy, harbiy, ilmiy va boshqa faoliyat sohalarida eng qobiliyatli kishilarni sotsial tanlash (seleksiya) mexanizmi mavjud bo‘lishini taqozo etadi. Shunga muvofiq ravishda konkret individlar K.ning ta’lim, mehnat, siyosiy, ilmiy va boshqa tiplarini ro‘yobga chiqaradilar. Ko‘pincha shaxsiy K. raqiblarni shafqatsiz ravishda bostirish va uloqtirib tashlash hisobiga erishiladi. Shu boisdan ham axloqiy ongda K. deganda kishilarning ko‘z o‘ngida axloqsizlik, karerizm namoyon bo‘ladi; bu yo‘lda eng yaxshi insoniy fazilatlar qurban qilinadi. Ijtimoiy amaliyot, ilmiy-texnik taraqqiyot K.ga ibtidoiy tenglik va salbiy munosabatda bo‘lishdan voz kechishni talab etadi. Ochiq va halol musobaqa asosida kishilarning o‘qish va mehnat sohasidagi eng iste’dodlilarini tanlash va ularning ijtimoiy ierarxiyaning eng yuqori bosqichlariga ko‘tarilishlari uchun sharoit yaratish zarurdir.

**Kasb tizimi** — jamiyatda ixtisoslar o‘rtasidagi mehnat taqsimoti.

**Kasb faoliyati** — individ doimiy ishga ega bo‘lgan va haq to‘lanadigan bandlikning har qanday turi.

**Kasta** — stratifikatsiyaning bir shakli bo‘lib, unda individ tug‘ilish bilan uning ijtimoiy mavqeい qat’iy belgilab qo‘yiladi, bu mavqe butun umr davomida o‘zgarmaydi. Turli kastalarga mansub bo‘lgan individlar o‘rtasida nikohlar deyarli uchramaydi.

**Kasta** (portug. sasta – irq, qavm, tabaqa) – muayyan kasb b-n shug‘ullanadigan, o‘ziga xos turmush tarzi, urf-odatlari, an’analari tartib-qoidalari b-n o‘zgalardan ajralib turadigan va alohida yashaydigan ijtimoiy guruh. K.ga mansublik nasl-nasabga qarab belgilangan. Nikohda ham kuyov yoki kelin faqat shu guruh ichidan tanlangan. Kasb, huquq va majburiyatlar meros qoldirilgan. K. tizimi pog‘ona – ierarxiya tartibida, kishilarning muqarrar tengsizligi, oliv va past tabaqalarga bo‘linishi asosida qurilgan bo‘lib, shu nuqtai nazardan quyi K.ga mansub odamlar “xor” va “xazar qilinadiganlar” hisoblangan. K.larga bo‘linish din (braxmanizm, hinduizm) tomonidan muqqaddaslashtirilgan. Hinduizm kishilarning ijtimoiy tengsizligini oqlaydi va abadiylashtiradi, ruhning o‘lmasligi va ko‘chib aylanib yurishi (sansara ta’limoti) qayta tug‘ilishi (karma ta’limoti), gunoh ishlar uchun javob berilishi, jannat va do‘zax kabi aqidalarni o‘z ichiga oladi. Hinduizm ta’limoti jamiyatning tabaqalarga bo‘linishini aks ettiruvchi savob va jazo (karma) qonuniyatiga asosan, inson hayotida to‘rtta asosiy maqsad bor, deb tushuntiradi: dxarma-oila va jamiyatda diniy talablarni bajarish,

artxa-foydar ishlar qilish, zarur ne'matlarga ega bo'lish; kama-muhabbat tuyg'ulariga erishish; moksha-o'zgarish zanjiridan butunlay ozod bo'lishi. Hinduizmda odamlarning tabaqalanishi to'rt xil bo'lgan: braxmanlar (ruhoniylar); kshatriylar (harbiylar); vayshiyalar (savdogarlar, hunarmandlar); shudriylar (past tabaqa). Mustaqil Hindiston Respublikasi tuzilganidan keyin yangi hukumat kishilarning qaysi tabaqa yoki guruhga mansubligidan qat'iy nazar, ularning hammasini qonun oldida teng huquqli hisobladi. K.ning paydo bo'lishi etnik guruhlarning o'zaro aloqa jarayonlari taraqqiyoti, ijtimoiy mehnat taqsimotining kelib chiqishi, ijtimoiy guruhlarning tarkib topishi jarayonlari b-n bog'liq.

**Katta guru** - katta miqdordagi a'zolarga ega bo'lgan, turli aloqalar xillariga ega bo'lgan ijtimoiy guruh.

**Kauzallik** – sababiyat, sabab va oqibatning qonuniy aloqasi.

**Kengaytirilgan oila** — qarindoshlarning ikkidan ortiq avlodini biriktirgan, birgalikda xo'jalik yuritadigan va birga yashaydigan oilaviy guruh.

**Kibbutszm** — Isroil kommunalari. Ularda ishlab chiqarish shirkat usulida tashkil qilinadi, moddiy farovonlik va daromadlar o'rtasidagi tafovut minimal darajada bo'ladi.

**Kiber makon** — bir-biridan uzoqsa joylashgan kompyuter terminallaridagi individlarning o'zaro ta'sirga kirishishi uchun imkon beradigan elektron tarmoqlar.

**Klan** — bir oila doirasidan chetga chiqmaydigan qarindoshlar guruhi; sanoatlashgan jamiyatlardan avvalgi tizimlar uchun xos.

**Klassifikatsiya** (lot. *classis-tasnif*)— insonning bilim faoliyatida muhim rol o'ynovchi fikr yuritish operatsiyalaridan biri K. hisoblanadi. Bir turkum ichidagi narsalarning biriga o'xshashligiga va boshqa turkumdagi narsalardan farq qilishiga qarab, narsalarni turkumlarga ajratish tizimi K. (*tasnif*) deb ataladi. Fan olamiga buyuk hissa bo'lib qo'shilgan D.I.Mendeleevning "Elementlarning davriy sistemasi" K. uchun yorqin misoldir. Bunda olim elementlarni atom og'irligi ortib borishiga, kimyoviy sifatlarining bir tipligiga va boshqa belgi hamda alomatlariga qarab tartib b-n joylashtirib chiqqan. Fanda narsa va hodisalarining tabiatini ifodalovchi muayyan belgi, alomat asosida qilingan tizimini K. deb atash qabul qilingan. Tabiiy K.ga zoologiya fanidagi hayvonlar K.si (sudralib yuruvchilar, sut emizuvchilar, suvda va quruqlikda yashovchilar, parrandalar, qushlar va h.k.), botanikadagi o'simliklar K.si (bir yillik, ko'p yillik, butalar, daraxtlar, o'tlar, ildizdan ko'payuvchilar, igna barglilar, tikanli o'simliklar, dukkaklilar, madaniy o'simliklar, don o'simliklari, sabzavotlar, poliz o'simliklari va b. ) kabi qator misollarni keltirib o'tish mumkin. Mabodo K.ga asos qilib olingan belgi, narsa va hodisalar tabiatni ifodalamas, bunday K. sun'iy K. deb

ataladi. Ijtimoiy hayotimizda K.ning mazkur turi doimo qo'llanib turadi. Mas., kutubxonadagi kitoblar mazmuniga, formatiga, noyobligi va shunga o'xshash belgilarga qarab tokchalar va peshtoqchalarga teriladi. O'quvchilarning va talabalarning alifbe tartibi b-n tuzilgan ro'yxati yoki ularning yosh xususiyatlari (tabaqalari), jinsiy belgilari, ulgurishlari, qiziqishlari, iqtidorlari, salohiyatlari, o'quv motivlari va kasbiy tayyorgarlik darajalarini nazarda tutib turkumlarga ajratish ham sun'iy K.ga misol bo'la oladi. Lekin ijtimoiy turkum va fan olamida oddiy K.lash holatidan tez-tez foydalaniladi. Jumladan, adabiyot, tarix, geografiya, filologiya, psixologiya-gumanitar fanlari; fal., iqtisod, politologiya, ma'naviyat asoslari, madaniyatshunoslik- ijtimoiy fanlar; matematika, fizika, biologiya, ximiya, tabiiy-matematika kabi fanlar. Xuddi shunday asosga suyanib psixologik sohalari ham K. qilinadi. Injenerlik (muhandislik), aviatsiya, kosmos psixologiyasi, mehnat psixologiyasi, patopsixologiya, oligofrenopsixologiya, surdo psixologiya, tiflopsixologiya maxsus psixologiya, bolalar, o'smirlar, katta yoshdagilar psixologiyasi gerantopsixologiya (keksalik psixologiyasi) – yosh davrlar psixologiyasi; neyropsixologiya, psixoformokologiya, psixoterapiya, psixogigiena, psixoprofilaktika, meditsina (tibbiyot) psixologiyasi, sud ishi psixologiyasi, kriminal psixologiya, penitensiar (sudlanganlar) psixologiyasi-yuridik psixologiya va b. psixologiya fanida psixik holatlar, bilish jarayonlari, shaxsning individual tipologik xususiyatlari, ichki regulyasasi ham K. qilinadi. Aks ettirish xarakteriga va retseptorlarning o'rniga qarab, sezgilar uch guruhga bo'linadi; eksterotseptiv, interotseptiv, propriotseptiv sezgilar. Klassik bo'linishga binoan sezgilar quydagicha K. qilinadi: ko'rish, eshitish, taktil, maza, hid, organik, harakat va h.k. Ta'lif tizimida murakkab bilishlar qulayroq yo'l b-n o'zlashtirish uchun K.dan keng ko'lamda foydalaniladi.

**Kollektiv** (lot. *collektivus*) – turkiyzabon xalqlarda, jumladan, o'zbeklarda azaldan ijtimoiy birlik – jamoani anglatib kelgan. Odamlarning jamoa bo'lib yashash zaruriyatini Suqrot, Platon, Aristotel, Markaziy Osiyo mutafakkirlari Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Alisher Navoiy va sh.k. allomalar ilmiy asoslab bergenlar. Ayniqsa, buyuk fay. olim Abu Nasr Forobiy o'zining asarlarida jamoa bo'lib yashashga tabiiy moyillik inson turmush tarzining mazmunini tashkil etishini ukdiradi. Forobiy bu haqda quyidagi fikr-mulohazalarni bayon qilgan: “ Har bir inson o'z tabiatini b-n shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi etuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muxtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kiritolmaydi, ularga ega bo'lish uchun odamlar jamoasiga extiyoj tug'iladi... SHu sababli yashash uchun zarur bo'lgan, kishilarni bir-biriga etkazib beruvchi va o'zaro yordamlashuvchi ko'p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o'z tabiatini bo'yicha intilgan etuklikka erishuvi mumkin. Bunday jamoa

a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va etuklikka erishuv uchun ziyorat bo'lgan narsalarni etkazib beradi. SHuning uchun inson shaxslari ko'paydilar va arning aholi yashaydigan qismiga o'rnatildilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi". Jamoa odamlar maqsad-manfaatlarining umumiyligi, o'zaro hamkorlik qilishlari zarurligi, mehnat va maishiy hayotiy faoliyatlari yo'nalganligi zaminida o'zaro birgalikda harakat qilishlarini taqozo etishidan vujudga keladi. Odamlarning faoliyat turlariga mutanosib tarzda mehnat, ta'lim-tarbiya, maishiy hayot, badiiy ijod, harbiy, jismoniy tarbiya, sport, oila kabi doiralarda jamoalar vujudga kelishi va samarali amal qilishi mumkin. Jamoalar mo'tadil yoki muvaqqat uyushmalar tarzida faoliyat ko'rsatib, mo'ljal qilingan maqsad-manfaatlar va kutilgan ma'naviy-axloqiy qadriyatlar yaratish orqali samaralar keltiradi, inson farovonligi, iqtisodiy va siyosiy barqarorligi, istiqbol baxt-saodati yo'lida omilkor xizmat qiladi.

**Kllassokratiya** (lot. *classis* – daraja, turkum) — jamiyatda muayyan yirik ijtimoiy guruhlar (sinflar) va ularning avangardining, bir butun sifatida fuqarolarning boshqa guruhlarga nisbatan yetakchi, hukmronlik roli va amaliy harakatlarni ta'minlovchi hokimiyat turidir. Bu marksistik mafkuraga hamda burjuaziya va proletariat diktaturasi ta'limotiga yondosh xarakterga ega.

**Kollumbiya maktabi** - Bu maktab R. Mak-Ayver (1882 - 1970), Y. Moreno (1892 -1974) va P. Lazarsfeld (1901 - 1976) kabi vakillari timsolida sotsial bilimni kommunal hamda sotsial darajadagi boshqaruv jarayonini sotsial-inteneflik ta'limoti bilan bog'lashga harakat qildilar. Ular yirik sotsial guruhlarning o'zaro munosabatidagi amaliy masalalarga ko'proq e'tibomi qaratishdi (R.Mak-Ayver). D. Moreno otsiometriya metodini keng rivojlantirdi. Uning psixodrama va sotsiodrama metodlari ham keng tarqaldi. P.Lazarefela ijtimoiy fikrlarda matematik metodni qoiladi.

**Konformlik (conformity)** — jamiyat yoki guruhda o'rnatilgan me'yordagi rioya qilishga asoslangan xulq. Odamlar ko'pincha qadriyatlarga ular negizida yotgan me'yordalar uchungina amal qilmaydilar. Ba'zilar ularga maqsadga muvofiqlik nuqtai nazaridan yoki negativ sanksiya-lardan qo'rqlik tufayli amal qiladilar.

**Konformizm (lot. conformis – o'xshashlik, mos kelishlik, moslashuvchanlik)** – shaxsning hulq-atvorini va fikr-mulohazasini boshqa odamlarning talablariga, xulqiga mos tushishi uchun ularga moslashtirishga qaratilgan moyilligi. Ushbu tushuncha psixologiya fanida 2 xil mazmunda: 1) shaxs xulq-atvorining guruh yoki jamoa b-n ham ichki, ham tashqi jihatdan mos kelishi; 2) shaxs xulq-atvorining guruh yoki jamoa b-n tashqi tomonidan mos bo'lib, ichki tomonidan esa uning tutgan yo'liga qarama-qarshi fikrda qolishi qo'llaniladi. K.ning birinchi ko'rinishi guruh yoki

jamoaning qat'iy fikriga, shaxs tomonidan xayrxohlikka erishish, hamda jazodan yoki sanksiyadan qochish maqsadida namoyishkorona tobelsingining aks etishidir. Uning ikkinchi ko‘rinishi individning atrof-muhitdagi baholash tizimiga nisbatan o‘z ichki munosabatining o‘zgarishi tufayli individual ustanovkasini qaytadan tahlil qilishda bevosita namoyon bo‘lishidir. Lekin ichki (shaxsiy) K. hamisha ham guruh qonun-qoidalarga, ijtimoiy me’yorlarga ixtiyorsiz ravishda rioya qilishni bildirmaydi, chunki u tashqi (ommaviy) ko‘rinish b-n uzviy aloqaga ega. Ko‘pincha K.ning har ikkala shakli funksional jihatdan bir-biriga juda yaqin bo‘lib, guruh (jamoaviy) fikri (qaror) b-n shaxsiy (individual) fikr o‘rtasidagi nizoli vaziyatni ongi ravishda hal etishning o‘ziga xos uslubi (usuli) sifatida xizmat qiladi. Bu o‘rinda yakka shaxsning guruhga yoki jamoa b-n bevosita bog‘liqligi uning a’zolari fikriy ustuvorligi haqchil yoki kelishuv yo‘lini qidirishni taqozo etadi, natijada o‘z xulq-atvorini begona, odatlanmagan mezonzalarga asoslangan holda qayta tashkil etadi. Jhon psixologiyasining (S.Ash, R.Kratchfild) amaliy tadqiqotlariga ko‘ra, K.ning darajasi (ko‘rsatkichi) bir qator omillar majmuasi b-n aniqlanadi: 1) guruh ta’sir o‘tkaziluvchi shaxsning muayyan tavsiflari (jinsi, yoshi, millati, ijtimoiy kelib chiqishi, intellekti, ta’sirlanuvchanligi va b.); 2) ta’sir o‘tkazishning manbai hisoblanmish guruhning xususiyatlari (ta’sir ko‘لامи, ko‘pchilikning yakdilligi, umumiy fikrdan farqlanuvchi guruh a’zolarining miqdori va b.); 3) shaxs b-n guruh o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning xususiyatlari (individning guruhdagi statusi, rag‘bat, mukofot olishda guruh b-n yakka shaxsning o‘zaro bog‘liqligi darajasi, liderlik ko‘rinishi, moyillik); 4) qo‘yilgan muammo (topshiriq)ning mazmuni, unga nisbatan insonning qiziqishi, uni echishga layoqatliligi, individning bilim saviyasi ko‘lamni va b. Odatdagi turmush sharoitida K. “moslashuvchanlik” ma’nosida qo‘llaniladi. Bunda K.ning mezoni atrof-muhit talablariga individning moslashuvchanligi b-n aynan bir xil ekanligi tushuniladi. Natijada, shaxs guruh tazyiqi ostida o‘zaro munosabatlarini amalga oshiruvchi, tashqi kuchlarga hamisha tobe inson sifatida tasavvur qilinadi. SHaxslararo munosabatlarda uning mustaqil fikrashi, qaror qabul qilishi, ongi xatti-harakati, dunyoqarashi, maslagi inobatga olinmaydi. Xuddi shu boisdan hoz. zamon olimlari guruh tazyiqiga individ tomonidan 3 xil munosabat bildirilishi g‘oyasini ilgari surmoqdalar. Bular qatoriga, birinchidan, individning ta’sirlanuvchanligi, ya’ni hech qanday mojarasiz (nizolarsiz), ongsiz ravishda guruh fikrini qabul qilishi.Ikkinchidan, ichdan norozi bo‘lgan holda ongi ravishda tashqi ko‘rinishdagi yakdillik alomati, ifodasi. Uchinchidan, jamoaviy o‘zini o‘zi aniqlash (shaxsning jamoa b-n ongi birdamligi, uning qadriyatları, me’yorları, maslakları va ideallarını individ tomonidan qabul qilish) hamda faol himoya qilish va b.

**Konformist** - obro‘ ta’siriga yengil beriluvchi, tez moslashuvchi va guruh normalari va qadriyatlarini o‘zlashtirib oluvchi.

**Konfutsiy (Kun-szi, mil.av. 551-479)** – qadimgi Xitoy mutafakkiri, siyosiy arbob, konfutsiychilikning asoschisi. Lu knyazligida amaldor bo‘lib xizmat qilgan. Xitoyda bиринчи мarta xususiy mактаб ochgan. K.ning asosiy qarashlari “Suhbatlar va mulohazalar” (“Lun yuy”) kitobida bayon etilgan. Bu kitobda uning shogirdlari va izdoshlari yozib olgan hikmat va suhbatlardan iborat. Osmon – kuch, Oliy haqiqat, adolat, erdagи odamlarning ham sababchisidir. K. taqdir – sabab, deb ta’lim beradi. U. o‘zining axloqiy qarashida hamma narsa me’yorida bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi. Jamiat osmon qonuni b-n yashashi kerak, chunki osmon o‘z tabiatи b-n yaxshilikdir, u hamma vaqt yaxshilikka intiladi. “Odam hayvonmi yoki farishta?” – degan savolga K. har ikkisi ham – degan javobni beradi, hamda bu nuqtai nazarni isbotlashga harakat qiladi. Odamlar tabiatan bir, faqat tarbiya tufayli ular bir-birlaridan farq qiladilar. K.ning oliy inson, ayol, mard kishi to‘g‘risidagi konsepsiyasiga muvofiq, odamlar ijtimoiy kelib chiqishi yoki jamiatdagi mavqeい orqali emas, balki odamiylik, adolatgo‘y, haqgo‘ylik, samimiyat, farzandlik, izzat – hurmat kabi fazilatlar b-n yuksak kamolotga etishuvi mumkin. Uning bu fikrlari “oliy” va “past” tabaqa to‘g‘risidagi nuqtai nazarga zid bo‘lib, umuminsoniyligi b-n ajralib turadi. SHu ma’noda K.ning bunday qarashlari nafaqat Xitoy fal.si, balki umuman jahon fal-iy fikrlar xazinasiga qo‘silgan beba ho boylik, deyish mumkin. K.ning fal-iy-axloqiy ta’limoti muayyan jamiatdagi mavjud tartib-qoidalarni hurmat qilishga qaratilgan, ya’ni jamiatda osmondan yuborilgan jen (insonparvarlik) qonuni amal qilishi, o‘zining jamiatdagi darajasiga qarab ish tutishi lozim. Ushbu g‘oyalari Xitoyda konfutsiychilikni shakllanishiga sabab bo‘ladi. K.ning fal-iy va axloqiy g‘oyalari markazida inson, uning aqliy va ma’naviy qiyofasi, olamdagи hamda jamiatdagi o‘rni, vazifasi muammolari turadi. K. fikricha, olamdagи hamma mavjudot singari insonning taqdiri ham samoviy qudratga bog‘liq. SHuning uchun odamlarning “olijanobligi” yoki “turbanligi”, “oliy” yoki “past” tabaqaga mansubligini o‘zgartirib bo‘lmaydi. Bunday g‘oya, shubhasiz, mavjud tuzumni saqlashga qaratilgan edi. K.ning qarashlari keyinchalik jahon fal.sida axloqiy tamoyillar rivojida, adolat, birodarlik, erkinlik g‘oyalari takomilida muhim o‘rin tutgan. K. g‘oyalari Xitoy tarixiga juda katta ta’sir ko‘rsatdi va mamlakat hayotining barcha sohalarida iz qoldirdi.

**Konfutsiylik - (551–479)** - millodan av. V-III asrlarda vujudga kelgan. U qadimgi Xitoydagi ijtimoiy-falsafiy fikr rivojiga katta xissa qo‘sghan. Bu ta’limot Xitoy, Bobil, Misr mamlakatlarida keng tarqalgan. Konfutsiyning falsafiy va sotsiologik qarashlarida axloqiy masalalar markaziy o‘rinda turadi. “Hamma odamlar o‘z bir-birlaridan farqlanadilar”, “yangini bilish

uchun - eskini o‘rganish kerak”, “mulohazasiz ta’limot foydasizdir, ta’limotsiz mulohoza bo‘lmaydi” - degan fikrlar shular jumlasidandir.

**Kont Ogyust (1798-1857)** - fransuz faylasufi, yangi fanga “sotsiologiya” deb nom berdi. Kont nuqtai nazariga ko‘ra, sotsiologiya pozitiv mohiyatga ega fandir. “Pozitiv usul” ilmiy kuzatishlar, eksperiment va taqqoslash usuli yordamida to’plangan empirik ma’lymotlapni nazariy taxlil qilishni ifodalaydi. O. Kont tomonidan 1839 yilda “Pozitiv falsafa kursi” asarining uchinchi tomi nashr etilganligi natijasida birinchi marotaba u jamiyatni ilmiy asosda o‘rganish sifatida sotsiologiya terminini qulladi va bu sotsiologyaning shakllanishi va rivojlanishiga olib keldi. Keyinchalik sotsiologiya ijtimoiy munosabatlarni nazariy analiz qilishni sotsial faktlarni empirik tadqiq qilish bilan qo’shib olib boruvchi mustaqil fanga aylandi. O.Kont sotsiologiyani 2 qismga ajratadi: a) sotsial statika va b) sotsial dinamika. Sotsial statikada ijtimoiy tizimlarning shart-sharoiti va funksional qonuniyatlari o‘rganilishini ko‘rsatadi. Unda ijtimoiy institutlar: oila, davlat, din kabilar tadkik etiladi. Sotsial dinamikada esa O.Kont ijtimoiy progress rivojlanishini nazarda tutib, u jamiyatning ma’naviy va aqliy rivoji insoniyat taraqqiyotining hal qiluvchi omili deb qaraydi.

**Konsensus** (consensus) — muayyan guruh, hamjamiyat yoki jamiyat a’zolari orasida asosiy ijtimoiy qadriyatlarga nisbatan kelishuv. Ba’zi sotsiologlar konsensusga ijtimoiy barqarorlikning asosi sifatida aloxdsa ahamiyat beradilar. Ular fikricha, muayyan davr davomida barqaror bo‘lib kelayotgan jamiyatlarga aholining ko‘pchiligi uchun xizmat qilgan "qadriyatlarning umumiyligi tizimi" xosdir.

**Kontent taxlil** - sotsiologik axborot mazmunini xujjalalar asosida miqdoriy va sifat jihatida o‘rganish uslubi.

**Korrelyasiya** (correlation) — ikki kattalik yoki o‘zgaruvchanlik orasidagi statistik shaklda ifodalanadigan barqaror munosabat. Korrelyasiya ijobiy bo‘lishi ham, salbiy bo‘lishi ham mumkin.

**Korrelyasiyalı taxlil** - o‘rganilayotgan ob’ektlar belgilari orasidagi statistik aloqalarni o‘rganishda qo‘llaniladitan matematik tartib-qoidalar.

**Kreatsionizm** – butun borliqni Xudo yaratgan deb hisoblaydigan diniy ta’limot.

**Kommunizm** — Marks tomonidan olg‘a surilgan, Lenin tomonidan rivojlantirilgan, mafkura darajasiga ko‘tarilgan, Sovet Ittifoqi, Sharqiy Evropa va uchinchi dunyodagi ba’zi mamlakatlarda amalga oshirish uchun harakat qilingan siyosiy g‘oyalar tizimi.

**Kommunikatsiya (keng ma’noda)** – muloqot. Ekzistensializmda – muloqot turi bo‘lib, uning yordamida “men” o‘zini boshqa odamda topadi.

**Konstitutsiyalash** – yaratish, belgilash, muayyan tashkiliy tus berish.

**Konsyumerizm** – iste’mol qilishga bo‘lgan kuchli ehtiyoj.

**Koevolyusiya** – birgalikda tadrijiy rivojlanish.

**Konglomeratlar** — turli xil tovarlar ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish bilan shug‘ullanuvchi kompaniyalarni birlashtiruvchi korporatsiyalar.

**Konkubinat** – nikohsiz ayol va erkakning birgalikda yashashi.

**Konstitutsiyaviy monarx** — davlat hukmdori, davlatni rasman idora qiluvchi qiroq yoki qirolichcha; amalda real hokimiyat boshqa siyosiy etakchilar qo‘lida bo‘ladi.

**Konurbanizatsiya** — yagona tugal muhitga birikkan katta va kichik shaharlar aglomeratsiyasi.

**Konsessiya kompaniyalari** — mustamlaka hududlarida faoliyat yuritgan Evropa kompaniyalari, ular mazkur hudud yoki sanoat sohasida alohida huquqlarga ega.

**Kommunikatsiya (keng ma’noda)** – muloqot. Ekzistensializmda – muloqot turi bo‘lib, uning yordamida “men” o‘zini boshqa odamda topadi.

**Korporativlik** — a’zolari umumiylar qarash va e’tiqodga ega bo‘lgan yagona guruhgaga mansublik tuyg‘usi.

**Korporatsiya** — firma yoki kompaniya.

**Korelyasiya koeffitsienti** — ikki o‘zgaruvchanlik orasidagi aloqa darajasining ko‘rsatkichi.

**Kreatsionizm** – butun borliqni Xudo yaratgan deb hisoblaydigan diniy ta’limot.

**Kritik (tang) vaziyatlar** — individlarni mavjud ustanovkalar va xulq-atvor sterotiplariga mutloqa zid bo‘lgan yangi talablarga ko‘nikish uchun majbur qiluvchi ijtimoiy holatlar.

**Ksenofan kolofonlik (Xenophanes, mil.av. 565-473)** – qadimgi Yunon faylasufi, shoir. Eley maktabining asoschisi. “Tabiat haqida” asarida ko‘pxudolikka qarshi chiqadi. U antropomorfizmga qarshi chiqib, mifologiyani rad etishga harakat qildi. K. birinchi bo‘lib, Xudolar insonlarning ijodi, degan fikrni aytgan. Lekin yagona Xudo mavjud bo‘lib, u na qiyofaga ega, na fikrlaydi, uning o‘zi nigoh, tafakkur va eshitishdir. U aql quvvati ila dunyodagi hodisalarni umumiylar tarzda idrok etadi va boshqaradi K.ning fikricha, Xudo hamma narsalarning dastlabki asosidir. Xudo paydo bo‘limgan va ko‘chma sifatga ega emas. K.ning Xudo haqidagi qarashlari panteizmning sodda ko‘rinishidir. Uning fikricha, borliq yaxlit, cheksiz va sokin. K. fal.si keyinchalik Parmenid va Zenonlar tomonidan rivojlantirildi.

**Kubraviya, Kubraviylik** – tasavvuf falsafasining eng muhim yo‘nalishlaridan biri. K. tasavvuf fal.sining boshqa yo‘nalishlardan nafaqat insonni ruhiy-ma’naviy kamolotga olib boruvchi yo‘nalish ekanligi b-n, balki inson ruhiy-ma’naviy olaming shakllanishi jarayonini bilishga e’tiborni qaratgani b-n tubdan farq qiladi. Unda inson faqat ilohiyot sirlarini bilishga intiluvchi, o‘zini butunlay unutib qo‘ygan mavjudot emas, balki o‘zini qayta

qurish uchun real imkoniyatlarga ega bo‘lgan bunyodkor sifatida talqin qilinadi. K. tufayli tasavvuf chinakam nazariy assosi bo‘lgan fal-iy dunyoqarashga aylandi, amaliy-axloqiy urf-odatlari, turmush tarzi, xususan tarkidunyochilik, zohidlik doirasidan chiqib, haqiqiy inson fal.si tomon burib yuborildi. Boshqacharoq qilib aytganimizda, tasavvufga K. inson muammosini olib kirdi. o‘z navbatida K.da tasavvuf vahdati vujud ta’limoti va futuvvat g‘oyalari b-n chambarchas bog‘landi. Uning diniy-fal-iy, xususan, inson to‘g‘risidagi qarashlarining shakllanishida musulmon madaniy va ma’naviy hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan sunniylik g‘oyalarining ta’siri sezilarli SHuningdek, K. da shialik g‘oyalariga ham hurmat b-n qaraladi. Sunniylik va shialik orasida vujudga kelgan turli mojarolarni bartaraf etishga harakat qilinadi. 12-13-a. K. tariqati nafaqat Movarounnahr va Xuroson, balki Hindiston, Iroq, Kashmir mintaqalarida ham keng tarqaldi. Keyinchalik K. tariqatidan firdavsiya (asoschisi Badriddin Firdavsiy), nuriya (asoschisi Abdurahmon al-Isfaroiniy), rukniya (asoschisi Rukniddin ibn Sharafiddin), hamadoniya (asoschisi Mir Sayid Ali Hamadoniy), ig‘tishoshiya (asoschisi Ishoq al-Xuttaloniy), nurbaxshiya (asoschisi Abdullo Nurbaxsh) kabi turli shoxobchalar ajralib chiqdi va alohida tariqat darajasiga ko‘tarildi. K. birinchilardan bo‘lib, so‘fiylar dunyoqarashida uzoq vaqtlar hukmronlik qilgan ilohiy haqiqatni inson faqat foniylik, ya’ni butkul o‘zligini yo‘qotgan bexudlik holatida, behush, devona bo‘lgan paytidagina bilishga qodir, degan g‘oyaga qarshi chiqdi. Kubro ilohiy qadriyatni bilishda Junayd Bag‘dodiy (vafoti 910 y.) asos solgan “sahv”, ya’ni “hushyorlik” yo‘lini yanada rivojlantirdi. Xuddi shuning uchun ham butun olam, jumladan inson olami sirlarini bilish uchun ham axloqiy-zohiriy, ham botiniy – vajdiy bilimlarni egallash zarur ekanligini ta’kidladi. K.dailk marta “ofoq va anfus” naz-yasini tasavvuf fal.siga tatbiq etdi. Ushbu naz-yaga ko‘ra, olam bir butun (“olami Kabir”) bo‘lib, ilohiy olam (olami Kubro) va inson olami (“Olami sag‘ir”) birligidan iborat. Ilohiy olam b-n inson olami o‘zaro dialektik aloqador. Shuning uchun ham inson ongi va faoliyatida bo‘ladigan o‘zgarishlar, shubhasiz, butun olam (olami Kubro) b-n chambarchas bog‘liq. K. ta’limotiga ko‘ra, har bir inson o‘ziga xos kichik olam (“olami sug‘ro”) bo‘lib, unda butun olamning (olami Kubro) barcha xususiyatlari o‘z aksini topadi. Olamni yaxlit, to‘la tasavvur qilmoq uchun, ya’ni “olami Kubro”ning turli-tuman xususiyatlari haqida aniq ma’lumotlarga ega bo‘lmoq uchun nafaqat ilohiy olam, balki inson olamining ham siri sifatlarini bilmoq darkor. Inson agar u tinimsiz izlansa, ilohiy olamning ham, inson olamining ham siru-sifatlarini bilib oladi. Olamning birligini bilishga, eng avvalo, olami kabir, ya’ni ilohiy olamning siru-asrorlarini bilib olish lozim. Ilohiy sifatlarni inson kamolot pillapoyalaridan ko‘tarilib, asta-sekin egallaydi. Lekin bunday murakkab yo‘lni bosib o‘tish

uchun har qanday shogirdga piru-komil, haqiqiy ustoz rahnamolik qilishi zarur. Chunki Alloh vasli tomon intilayotgan shogird bosib o‘tishi zarur bo‘lgan murakkab yo‘lda, ya’ni zikru, xilvat, muroqaba va mushohada chog‘ida uning boshida turli xayollar charx urib, qalbini har xil his-tuyg‘ular qamrab olishi mumkin. Ana shunday paytda unga murshid rahnamolik qilmasa, murid shayton yo‘liga kirishi hech gap emas. Inson ilohiy olam sirlarini ko‘zi b-n ko‘ra olmaydi, qulog‘i b-n eshita olmaydi, balki ruhiyatida, ma’naviyatida bo‘ladigan o‘zgarishlarni o‘ta hushyorlik b-n aql-farosat yordamida tahlil qilish orqali erishadi. K.da ilohiy olamni bilishda intuitiv tafakkur muhim ahamiyatga ega ekanligini har tomonlama isbotlashga harakat qilinadi. K.dagi “latoif” naz-yasida insonni ruhiy holatida bo‘ladigan o‘zgarishlar, turli his-tuyg‘ular, kechinmalar, hayajonlarning vujudga kelishi va ularni o‘zaro almashinib turishi turli shakllar va ranglarda namoyon bo‘ladi. Bu naz-yaga ko‘ra, inson ruhiy holatida bo‘ladigan o‘zgarishlar turli shakllar (nuqta, dog‘, doira) hamda turli ranglarda namoyon bo‘ladi. Har bir shakl, har bir rangda ma’lum ma’no yashiringan bo‘ladi. Xususan, doira-falakni aylanib turishni ifodalasa, dog‘-dunyo timsolidir, nuqta esa, vahdatdir. Doira o‘z o‘qi atrofida aylanib turgani uchun, nuqta tomon uzuksiz intiladi. Shuning uchun ham nuqta mohiyatini anglash orqali inson ilohiy olam mohiyatini idrok etadi. Doira, dog‘ va nuqta holatlarining o‘zgarib turishi turli ranglarning almashinib turishida ham namoyon bo‘ladi. o‘z navbatida, ranglarning almashinib turishi inson ruhiy holatini xarakterlaydi. K.ning ta’limotiga muvofiq, oq, sariq, zangori, yashil, ko‘k, qizil, qora ranglar inson ruhiy kamoloti darajalarini ifodelaydi. Oq rang – islomni, sariq rang – iymonni, zangori rang- ehsonni, yashil rang – ishonchni, ko‘k rang – to‘liq ishonchni, qizil rang – irfonni, qora rang - hayajonni (hayratni) anglatadi. K.ning ta’limoticha, inson Xudo vasliga yetmog‘i uchun nafaqat ruhan pok, balki ma’naviy yetuk ham bo‘lmog‘i zarur. Buning uchun esa har bir murid, har bir solik quyidagi o‘n axloqiy talabni bajarmog‘i darkor. 1) tavba – har bir qilingan kichik xato yoki gunoh uchun darhol Xudodan kechirim so‘rash, pushaymon qilish; 2) zuhd – taqvo, parhez demak. Tavba qilgan kishining haromdan hazar qilishi, Ollohdan qo‘rqib, ma’n etilgan ishlarni qilmasligi; 3) tavakkul-kundalik amaliy faoliyatida yolg‘iz Ollohgaga suyanish, o‘z ixtiyorini Xudoga topshirish. 4) qanoat-ozga rozi bo‘lib, ko‘pdan voz kechish; 5) uzlat-boshqalardan ajralib, yakka o‘tirish; 6) tavajjuh - butun vujud b-n Xudoga sig‘inmoq; YAratganga yuzlanib, undan madad so‘rash, Allohga qalbdan intilish; 7) sabr – boshga tushgan og‘ir ahvoldan nolimasdan, turli azob-iztiroblarga chidash; 8) muroqaba – Tangri borlig‘ining dengiziga sho‘ng‘ib, ilohiy olamni kuzatmoq, ilohiy olamga – xayolan sayr qilmoq; 9) zikr – dilda ham, tilda ham Xudoni yod aylamoq; 10) rizo – Tangri irodasiga qarshilik

ko‘rsatmasdan, taqdir hukmiga bo‘ysunish. K. ta’limotiga muvofiq, inson ruhiy-ma’naviy kamolotga erishuvining eng muhim shartlaridan biri – umrni zoe ketkazmaslik, behuda ishlarga sarf qilmaslikdir. Inson umri juda tez o‘tib ketadigan, tarix uchun arzimas bir fursatdir. SHuning uchun ham, o‘lim va oxiratdan ko‘ra yaqinroq, orzudan ko‘ra uzoqroq, xotirjamlikdan ko‘ra go‘zalroq narsa yo‘q. Inson ma’naviy qiyofasini bezab turadigan eng muhim bezak tavoze, eng xunugi baxillikdir. YAxshi xulq yaxshilik ustiga yaxshilik olib kelsa, hasadgo‘ylik yomonlik ustiga yomonlik qo‘shadi. Doimiy sa‘y-harakatda bo‘lgan kishi hamisha zafarlarga erishaversa, loqayd, dangasa esa, muvaffaqiyatsizliklarga giriftor bo‘laveradi. K.ning ta’kidlashicha, insonning ma’naviy etukligi o‘z nafsi tiya bilish b-n ham o‘lchanadi. o‘zini-o‘zi tarbiyalay olgan va turli shahvatlardan o‘zini tiya olgan kishi eng qudratli insondir. K.ta’limoti musulmon fal.si, olam va odam to‘g‘risidagi fal-iy fikrlar taraqqiyotiga sezilarli ta’sir o‘tkazdi.

**Kuzatish** – ilmiy bilishning amaliy metodlari turkumidan biri. U eng qad. tadqiqot vositasi hisoblanib, uzoq o‘tmishdan to hozirgi davrgacha ilmiy izlanuvchilarning asosiy tekshiruv qurollaridan biri sifatida xizmat qilib kelmoqda. Mazkur metodning ob’ektiv (tashqi) va sub’ektiv (ichki, o‘zini-o‘zi, ya’ni introspeksiya yo‘nalish) K. turlari mavjud. K. orqali tabiat hodisalari, odamlarning diqqati, his-tuyg‘ulari, asab tizimining tashqi ifodalari, temperament xususiyatlari, imo-ishoralari, sezgirligi, xulq-atvori, nutq faoliyati va h.k. o‘rganiladi. Hatto tashqi K.da: ish ustidagi kayfiyatini, fikrning muayyan ob’ektga yo‘naltirilganini, tashqi qo‘zg‘atuvchilar ta’siriga berilmaslikni, qiyofadagi o‘zgarishlarni, ko‘zdagi g‘ayritabiylilikni, shuningdek sinchkovlik, teranlik, termulish kabi ruhiy holatlarni kuzatib, tafakkur jarayonidagi o‘zgarishni aniqlash mumkin. Bundan tashqari, qo‘lning titrashi, asabiy lashish, nutqning buzilishi, hissiyotning beqarorlashuvi ham inson ruhiyatidagi o‘zgarishlardan ma’lumot beradi. Psixologiya fanida o‘zini o‘zi K.dan (introspeksiyadan) ham foydalaniлади. CHet el psixologiyasida o‘zini o‘zi K.ning inson ruhiyatini o‘rganishdagi rolini ifodalovchi ilmiy-amaliy materiallar to‘plangan. Lekin inson turli vaziyatlarda o‘zini o‘zi bir xil boshqara olmaganligi tufayli bu metodning ilmiy ahamiyati ma’lum darajada pasayadi. K. metodining texnologiyasi: 1) voqelik sodir bo‘lishini, atrof-muhitni, inson shaxsini K. muayyan qismlarga, yo‘nalishlarga ajratish; 2) K.ning ko‘lami, xususiyati va o‘ziga xosligini aniqlash, ya’ni uning nimalarga qaratilishini belgilab olish; 3) K. jarayonida barcha holat, alomat va tashqi qiyofa, ko‘rinishining o‘ziga xosligini qayd qilish; 4) K. davomida to‘plangan omillar, ma’lumotlarni matematik statistika metodlari yordami b-n hisoblab chiqish. K.ning maqsadi (kuzatiluvchi vaziyatga ishonch hosil qilish), ob’ekti (guruh, tabiat, hayvonot olami, muomala jarayoni, shaxsning faoliyati), predmeti (ruhiy holat, hodisa,

jarayon, sifat, fazilat, xislat), nutq aktlari, noverbal nutq ifodasi, vegetativ reaksiyaning ko‘rinishi o‘rganishning asosiy tarkiblaridir. K.ning turlari (sistemali, epizodli, dala sharoitli, laboratoriyaviy, tabiiy, xronologiyali, davriy, bir martali) vositalari (F.Gilbertning “Ish kuni fotografiyasi”, A.K.Gostev xronokartasi), shakllari (aralashib yashirish K., kuzatiluvchining psixologik qiyofasini yaratish, aralashib oshkora K., xulq-atvor portretini tahlil qilish va h.k.) mavjud. K. jarayonida R.Beylzaning intreaksiya metodikasini (bahs, munozara kezida o‘zaro ta’sir o‘tkakzish imkoniyatini aniqlash uchun) qo‘llash ijobiy natijalar beradi. K. tabiiy jarayonlarni o‘rganishda narsalar mohiyati, K. maqsadiga ko‘ra oddiy, vizual va ilmiy, muayyan texnik vositalar ko‘magida amalga oshiriladi.

**Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari** – O‘zbekistonda erkin fuqarolik jamiyati barpo etishning Prezident Islom Karimov tomonidan asoslاب berilgan konsepsiysi. U davlatchilik borasidagi taraqqiyot yo‘limizni ham aks ettiradi. o‘zbekiston o‘z mustaqil davlatchiligin qo‘lga kiritganidan so‘ng jahon sivilizatsiyasining tarixiy tajribalariga asoslangan va respublikamizning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, odil, demokratik davlat va erkin ouqarolik jamiyati barpo etishni strategik vazifa qilib belgiladi. Ushbu vazifani amalga oshirishda kuchli davlatdan - kuchli jamiyat sari borish konsepsiysi amaliy harakat dasturi bo‘lib xizmat qilmoqda. Oaamlarning siyosiy ongi, siyosiy madaniyati va faolligi yuksalib borgan sari davlat vazifalarining nodavlat tuzilmalar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o‘tishi, mahallalarning nufuzi va mavqeining ortishi, ularga ko‘proq huquqlar berilishi kuchli jamiyat asoslarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Siyosiy hayotni erkinlashtirish jarayonida jamiyatni boshqarish borasidagi vazifa (funksiya)lar ekki yo‘nalishda qayta taqsimlab boriladi. Birinchisi – davlat markaziy idoralarining ayrim huquq va vazifalari mahalliy hokimiyatlarga o‘tkaziladi. Mahalliy hokimiyat idoralari huquq va vazifalarining bir qismi fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari zimmasiga o‘tkaziladi. Ikkinchisi – jamoat tashkilotlarining huquq va mas’uliyatini oshirib, davlat vakolatlarining air qismini ular zimmasiga o‘tkaziladi. Mamlakatimizda boshqaruv, jamoatchilik b-n aloqador vazifalarni o‘z zimmasiga oladigan bir qator nodavlat-notijorat tashkilotlar, turli fondlar vujudga keldi hamda ular jamiyat hayotida muhim o‘rin tutmoqda. Ayniqsa, mahalliy o‘z-o‘zini boshqarishning milliy modeli bo‘lgan mahallaning fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishdagi ahamiyati beqiyosdir. Respublikamizda jamoat tashkilotlarining ko‘payishi, ularning kundalik hayotimizdagi ahamiyati ortayotgani fuqarolik jamiyati asoslari tobora mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi.

**Kvaziguruuhlar**- bu tasodifiy, stixiyali paydo bo‘ladigan va qisqa vaqt

mavjud bo‘ladigan guruhlar. Bularga olamon, xaloyiq (publika), auditoriya va boshqalarni kiritish mumkin.Olomon ham o‘z navbatida quyidagi turlarga bo‘linadi: favqulodda olomon, shartli olomon, ekspressiv olomon.

**Kult** — fragmentar diniy uyushmalar bo‘lib, ularning a’zolari muayyan dinlarga e’tiqod qiladilar, lekin barqaror tuzilmaga ega emas.

**Kutilayotgan umr davomiyligi** — muayyan yoshdagi odamlar yana yasha-shi mumkin bo‘lgan yillarning kutilayotgan o‘rtacha miqdori.

## L

**Latent funksiyalar** — ijtimoiy tizim a’zolari uchun kutilmagan yoki maqbul bo‘lmagan funksional oqibatlar.

**Latentlik** - (lot. lateens yashirin, ko‘zga tashlanmaydigan, yashirin jarayon (masalan, sud statistikasida va amaliyotida qayd qilinmagan yashirin jinoyatchilik)

**Lebon (Le Bon) Gyustav** (1841-1931) – fransuz psixolog, antropologi, arxeologi. Sotsiologiyada psixologik yo‘nalish asoschilaridan biri. Asosiy asarlari: “Materiya evolyusiyasi” (1886), “Omma psixologiyasi” (1895), “Revolyusiya psixologiyasi”, “Olomon psixologiyasi”, “Kuch evolyusiyasi” (1907), “Sotsializm psixologiyasi” (1908) va b. L. asarlarida ommaviy psixika va xalqlar psixologiyasi muammolarini hal etishga ko‘proq e’tibor berdi. Ijtimoiy tarixiy jarayonga qonuniyatli aniq bir maqsadga qaratilgan jarayon va hodisalar sifatida qaradi. Bu qonuniyatli jarayon u yoki bu xalq vakillarida umumiy, o‘xhash belgilarni shakllantiradi. Ana shunday belgilardan biri “xalq ruhi”, uning his-tuyg‘usi, e’tiqodi, tafakkuri, muassasalari, san’ati vujudga keladi. Xalq ruhi ancha barqaror bo‘lib, muayyan ijtimoiy-tarixiy tajriba b-n uzviy bog‘liqidir. L. “Olomon psixikasi” muammosini tahlil qilar ekan, uning quyidagi xususiyatlarini ta’kidladi. Ular asosan emotsiyonalligi, umumiy g‘oya b-n bog‘langanligi, mas’uliyat hissining yo‘qolganligi, toqatsizlik, aqidaparastlik, impulsivlik, liderlar orqasidan ergashishga tayyorlik b-n tavsiflanadi. Olomon ichidagi individ individual ibtidoni yo‘qotganligi va uning xulq-atvorida ongsiz motivlarning ustunlik qilishi b-n xarakterlanadi. Olomon ichida “olomon ruhining yaxlit birligi qonuni” amal qiladi, individual ratsial ibtido bostiriladi. L. sivilizatsiya tarixini elitarizm pozitsiyasidan baholadi va uning istiqbollarini oldindan aytishga harakat qildi. Uning fikricha, madaniyat yutuqlari aristokratlarning faoliyatiga bog‘liqidir. Aristokratlar ommaga g‘oyalarni singdirish, ta’kidlash, takrorlash va yuqtirish orqali madaniyat yaratadilar. L. demokratiya va tenglik g‘oyalariqa qarshi chiqdi. L.ning fikricha, sanoat, ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi va shaharlarning o‘sishi ijtimoiy hayotning tobora ko‘proq ommaga bog‘liq

bo‘lishiga olib keladi. Jamiyat omma asriga qadam qo‘yadi, unda “ommaning ongsiz faoliyati” etakchilik qiladi. L.ning nazariy va metodologik pozitsiyasi sotsializm va sotsialistik g‘oyalarni keskin tanqid qilishida yaqqol namoyon bo‘ldi. U sotsializmni hayotga noqobil kishilar jamiyat, deb ta’rifladi. L.sotsialistlarning hokimiyatga kelishini tinch yoki qurolli to‘ntarish b-n bog‘ladi. Sotsialistik tuzumning qaror topishi iqtisodiyot ustidan davlatning tanho hukmronlik qilishi, iqtisodiy qoloqlik va tanazzul b-n bog‘ladi. L.sotsializm anarxiyaga va diktaturaga olib keladi, deb hisobladi. L.ning ijodiy faoliyati publitsistik xarakterga ega bo‘lishiga qaramay, ommaviy jamiyat va ommaviy madaniyat konsepsiyasini yaratishga turtki berdi. Z.Freyd dunyoqarashining shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

**Legitimlashtirish** - (lot. legitimus –qonuniy) biror bir qonun, vakolatning qonuniyligini tan olish yoki tasdiqlash. Legitimlashtirish biror bir ijtimoiy muassasaning qonuniy kuchga ega bo‘lishida ifodalanadi.

**Legitimlik** — qabul qilingan siesiy tartib adolatli va qonuniy ekaniga bo‘lgan ishonch.

**Legitimlik inqirozi** — siyosiy tizimning hokimiyatni saqlab qolish uchun fuqarolar siyosiy ishtiroki darajasini ta’minalashga layoqatsizligi.

**Lesbiyanlik** — ayollar o‘rtasidagi gomoseksual aloqalar.

**Levi-Bruyl (Levy-Bruhl) Lyusen** (10.4.1857, Parij—13.3.1939, Parij) fransuz faylasufi, E.Dyurkgeymning sotsiologiya maktabiga yaqin bo‘lgan ruhshunos-pozitivist. O‘zining ibtidoiy “mantiqiylikka qadar” bo‘lgan tafakkur naz-yasi b-n ancha mashhur bo‘lgan. Ibtidoiy davrdagi odamlar ham xuddi hozirgi davr odamlari kabi mantiqiy fikrlash qobiliyatiga ega ekanligi to‘g‘risidagi Taylor va boshqa evolyusionistlarning fikriga qarama-qarshi o‘larоq, L.B. “quyi jamiyatlarda jamoa tasavvuri” ustuvor bo‘ladi va u rivojlangan jamiyatlardagi tafakkur tarzidan tubdan farq qiladi, degan fikrni ilgari suradi. “Mantiqiylikka qadar bo‘lgan tafakkur”, L.B.ning fikricha, ayniylikning, qarama-qarshilikning mantiqiy qonunlari b-n emas, dahldorlik qonunlari b-n boshqariladi. L.B. turli ijtimoiy tizimlarga turlicha tafakkur tarzi xosligini ta’kidlab, ayni vaqtda “mantiqiylikka qadar” tafakkur tarzi faqat qoloq xalqlargagina xos emasligini e’tirof etadi. SHu b-n birga “ibtidoiy davrdagi” inson ham shaxsiy hayoti va tajribasi doirasida hozirgi davr odamidek fikrlashi va faoliyat ko‘rsatishini va o‘z navbatida rivojlangan xalqlardagi mavjud din, axloq kabi ijtimoiy ong shakllarida “mantiqiylikka qadar” bo‘lgan tafakkur tarzi ta’siri sezilib turishini ta’kidlab o‘tadi. L.B.ning “mantiqiylikka qadar” tafakkur tarzi naz-yasi E.Dyurkgeym maktabi tomonidan tanqid qilingan. Ammo L.B.ning qarashlari ayrim nuqsonlari, jumladan, bir yoqlamaligiga qaramasdan tafakkur psixologiyasida tarixiy o‘zgarishlarni tadqiq etishga intilish sifatida e’tiborga molikdir.

**Levkipp (mil.av. 500-440)** – qadimgi yunon faylasufi. Taxminlarga

ko‘ra, L. Milet shahrida tug‘ilgan. quldorlik demokratiyasi tarafdarlari qatorida aristokratlarning muvaffaqiyatli qo‘zg‘olonidan keyin u Milet shahrini tark qilishga majbur bo‘lgan. U Eleya shahriga kelib, Parmenid va Ksenofanning shogirdi bo‘lgan. L. ilmiy merosidan deyarli hech nima qolmagan. Biroq, G. Dilsning ma’lumotiga ko‘ra, uning taxm. ikki asari mavjud. Ulardan biri “Buyuk diakosmos va aql haqida”dir. Uzoq davr Eleya shahrida yashagach, Abderga ketib, u erda Demokritning va ehtimol Protagorning shogirdi bo‘lgan. L. atomistik fal.ning asosiy tamoyillarini ilgari suradi. U narsalarning doimiy o‘zgarishi va paydo bo‘lishini ko‘rib, cheksiz shaklga ega bo‘lgan doimiy harakatdagi element – atomlarning mavjudligini tan olgan. L. “mavjudlik nomavjudlik demakdir, zero ularning har ikkisi narsalar paydo bo‘lishining sababidir” – degan fikrni bayon etadi. Atomlarning mohiyatini jipslikda bilib, ular bo‘shliqda harakat qiluvchi mavjudlikdir, bo‘shliq esa nomavjudlik bo‘lib, u mavjudlikdan hech ham farq qilmaydi, deb e’tirof qiladi. Bunda borliq haqidagi atomistik ta’limotning tamoyillari ifodalangan. L. va Demokrit ta’limoti o‘zaro chambarchas bog‘liq ekanligi fay.lar tomonidan e’tirof qilingan.

**Liberal demokratiya** — iqtisodiy sohada bozor tizimi bilan parlamentarizm institutini biriktirishga asoslangan demokratiya tizimi.

**Liberalizm** (lot. liberalis-erkinlik) – ijtimoiy hayotning barcha sohalarida erkinlik ustuvor bo‘lishini, jamiyatning evolyusion rivojlanish yo‘lini e’tirof etuvchi va asoslovchi naz-ya, amaliyot, ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy oqim. Liberalizm g‘oyasi, o‘zining ma’no-mohiyatiga ko‘ra, murosa fal.si bo‘lib, volyuntarizm, sub’ektivizm, dogmatizm, radikalizm va absolyutizmning har qanday ko‘rinishlarini rad qiladi. Shaxs manfaatlari, huquq va erkinliklarining ustuvorligi, umuminsoniy axloqiy qadriyatlar va milliy ma’naviy asoslarga tayanish, g‘oyalar erkinligi tamoyillarining tarixiy taraqqiyotga mos o‘zgarishi, ijtimoiy-siyosiy tizimda keskin ziddiyatga bormaslik L.ga xos xususiyatlardir. Liberalizm uchun bir xil andozadagi, qat’iy belgilab qo‘yilgan axloqiy me’yor va qonun-qoidalar mavjud emas. Shuning uchun L. g‘oyasi jamiyat siyosiy tizimini dinamik o‘zgartirishni zo‘ravoniksiz amalga oshiradigan kuch va imkoniyatlarni topishga intilish b-n xarakterlanadi. Liberalizmning asosiy tamoyili-huquqlar, imtiyozlar, imkoniyatlar tengligi sharoitida hayotning barcha sohalaridagi erkinlikni ta’minalashdir. Liberalizmdagi erkinlik raqobatlashayotgan g‘oyalarning barchasiga rivojlanish uchun imkoniyat yaratadi. Demak, liberalizm, bir tomonidan, insonning huquq va erkinliklari ustuvorligiga, ikkinchi tomonidan, jamiyatning ma’naviy-axloqiy me’yor va qadriyatlariga asoslanishi b-n o‘zining umuminsoniy mohiyatini namoyon qiladi. Jamiyat rivojlanishi b-n L. g‘oyalari ham o‘zgarib bormoqda, ularning maqsad va vazifalarida ichki birlik vujudga kelayotir. Ular hoz. davrda neoliberalizm shaklida namoyon

bo'lmoqda. 20-a.ning so'nggi o'n yilligida dunyoning qarama-qarshi tizimlarga bo'linish jarayonining barham topishi b-n L. g'oyalarida ham o'ziga xos yo'nalishlar paydo bo'ldi. Jumladan, o'zbekistonda erkin demokratik huquqiy davlatning shakllanishi L. g'oyalarining yangi tamoyillar b-n boyiganini ko'rsatmoqda. Prezident Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan mashhur besh tamoyilning hayotga joriy etilishi o'zbekistondagi L. g'oyalarining milliy xususiyatlarini namoyon qiladi. Zamonaviy L. o'zgarishlardan, siyosiy qarashlardagi radikalizmdan voz kechish, muqobil g'oyalarning mavqeini e'tirof etish va hurmat qilish, xalqaro munosabatlarda siyosiy plyuralizm tamoyillariga amal qilish, saylov tizimini demokratik tamoyillar asosida tashkil etish, turli shakldagi hokimiyat tarmoqlari faoliyati mustaqilligini ta'minlash, huquqni muhofaza qilish organlari ishining fuqarolar tomonidan nazorat qilinishiga erishish kabi maqsad va vazifalarni o'z ichiga oladi. o'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tish davrida bu vazifalarning izchil amalga oshirilishida liberalizm o'zining ijobiy, hayotiy mazmunini namoyon qilmoqda, chunki, g'oyalar erkinligi ijtimoiy-siyosiy hayot erkinligining asosidir.

**Lokal bilimlar** — alohida hamjamiyat ichidagi bilimlar, shuningdek mas'ul hamjamiyatda uzoq vaqt yashagan individlar faoliyatining jihatlari.

**Longitiyed tadqiqot** (ingl. uzoqlik) — bir xil shaxslar, guruh yoki ob'ektlarni uzoq vaqt kuzatish va ma'lum bir davr o'tgach ular orasidagi so'rovni qayta o'tkazish, natijalarni avvalgilari bilan qiyoslashga asoslangan tadqiqod usuli.

## M

**Madaniyat-** (lot.kultura - qayta ishslash) - inson jamiyatni yaratgan va jamiyat rivojining ma'lum darajasini ifodalovchi moddiy va ma'naviy mahsulotlar, qadriyatlar majmui.

**Madaniyat** (arab. — madinalik, shaharlik, ta'lim-tarbiya ko'rgan) — tabiat va o'zaro munosabatlarda aks etadigan inson faoliyatining o'ziga xos usuli. M. alohida individning hayot faoliyati (shaxsiy madaniyat), ijtimoiy guruhning yoki jamiyatning hayot faoliyati usulini aks ettiradi. Dastlab M. tushunchasi insonning tabiatga maqsadga muvofiq ta'siri (erni ishslash va h.k), hamda insonning o'zini tarbiyalash va o'qitish ma'nolarini ifodalagan. Keyinchalik M. tushunchasi orqali sivilizatsiya b-n bog'liq mazmun tushunila boshlandi. Uyg'onish davrida M. etukligi deganda insonning gumanistik g'oyalari, keyinroq, ma'rifatchilik g'oyalariga muvofiqlikni tushuna boshladilar. Jamiyatdan tashqarida M. mavjud emas. Ijtimoiy munosabatlardagi har qanday o'zgarish M.ga ta'sir etadi va M. bu

munosabatlarning qanday natijalarga olib kelishidan xabar beradi. SHu boisdan M. nafaqat o't mishga yoki bugunga, shu b-n birga kelajakka munosabatdir. M. inson faoliyatining ham mahsuli, ham sifat ko'rsatkichi. Insoniyat o'zi ham pirovard natijada M. mahsulidir. Madaniy muhit qanday bo'lsa, inson ham shunday shakllanadi. M.ning ijodkori, eng avvalo, xalq. Xalq M.ida avlodlar yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklar jamlangan. Ularni o'zlashtirmay, bilmay turib, madaniyatli kishi bo'lib etishish qiyin. Xuddi shuningdek, M. rivojida professional ijodkorlar va san'atkorlar ham katta o'rin tutadilar. Ular tufayli M.da yangi oqimlar, ijod turlari, badiiy estetik qarashlar yuzaga keladi. M. o'z mohiyatiga ko'ra, moddiy va ma'naviyga bo'linadi.

**Madaniy islohot** — jamiyatning bir sifat holatidan yuksakroq yangi sifat holatiga o'tish jarayonlarida iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy hayot sohalari bilan bir qatorda madaniy hayot sohasida ham tub o'zgarishlar va qayta qurishlar sodir etilishi jarayoni. Bunda jamiyat hayotining barcha jabhalarida amalga oshiriladigan tub islohotlar madaniy hayot mohiyat-mazmuniga singdirilib, u b-n mutanosiblik kasb etishi ob'ektiv taraqqiyot qonuniyati sifatida o'z ifodasini topadi. Asosan, iqtisodiy-ijtimoiy zaminning mohiyatan tub o'zgarishi ob'ektiv ravishda madaniy hayot asoslarini ham tubdan o'zgartirish va qayta qurishni taqozo etadi. Tarixiy taraqqiyot jarayoni, sivilizatsiyaning muayyan bosqichida ma'rifatparvarlik harakatlari (Fransiya, Angliya, AQSH, Gollandiya, Belgiya, Germaniya va b.), madaniy inqilob, madaniy muxtoriyat, ilmiy-madaniy muxtoriyat g'oyalari, milliy ozodlik harakatlari bag'rida shakllangan madaniy taraqqiyot vositasida milliy ozodlikka erishish uchun bo'lган sa'y-harakatlarni (gandizm, jadidchilik) m.i. tamoyilini shakllantirish bosqichlari sifatida baholash mumkin. M.i. ta'limoti, asosan, sotsial-demokratik, sotsialistik va kommunistik partiyalar dasturlari asosida amalga oshirilishi (sobiq SSSR va uning ittifoqchilari) muayyan natijalar b-n birgalikda katta fojiali oqibatlarga olib keldi: madaniy hayot tizimining asosiy yaratuvchi ijtimoiy kuchi bo'lган ziyorilar tabaqasi qirg'in qilindi, yoki majburiy muhojirlikka maxkum etildi, madaniy meros "sinfiy kurash" niqobi ostida barbod qilindi. Bugun bashariyatning umumsivilizatsiya taraqqiyot qonuniyatlari amal qilayotgan sharoitda madaniy hayot jabhalaridagi tub o'zgarishlar inqilobiy emas, balki tadrijiy tarzda ro'y bermoqda.

**Madaniy meros** – avlodlar tomonidan yaratilgan amaliy tajriba, axloqiy, ilmiy, tafakkuriy, diniy va ruhiy qarashlarda xalq madaniyati va ijodi kabi moddiy hamda ma'naviy boyliklar majmui. Har bir davr o'ziga xos bo'lган M.m.ni yaratadi va kelajak avlodga qoldiradi. Mas., qad.yunon madaniyatini oladigan bo'lsak, o'sha davrning fani adabiyoti va san'ati sohasidagi nodir asarlari insoniyatni hozirgacha hayratga solib kelmoqda.

Yaqin va o‘rta Sharq mamlakatlari, xususan, Markaziy Osiyoda o‘rta asrlarda Uyg‘onish davri boshlanadi, dunyoviy va ilohiy ilmlar rivoj topdi. Fanning turli sohalarida ulkan ishlar qilindi. Jahonga dong‘ti ketgan allomalar Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon beruniy. Hakim at-Termizi, imom Buxoriy, Zamaxshariy, Marg‘inoniy, Motrudiy, Ulug‘bek, Navoiy, Behzodlar tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-fal-iy va diniy qarashlari, badiiy ijodlari b-n tarixda chuqr iz qoldirdilar. Markaziy Osiyo, xususan, o‘zbekiston hududidan moddiy boylik bo‘lmish osori-atiqalar, yodgorliklar, madaniy obidalar ko‘plab topiladi. Samarqand, Buxoro, qo‘qon, Termiz, Xiva, Shahrisabz shaharlarida saqlanayotgan yodgorliklar, masjidumadrasalar, maqbaralar jahonning ko‘p mamlakatlaridan kelgan sayohatchilarni lol qoldirmoqda. Har bir davrning ma’naviy va moddiy madaniyati o‘sha tuzumdagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy ahvolini belgilaydi. Madaniyat sohasida qo‘lga kiritilgan yutuqlar keyingi davrda yangi jamiyat tomonidan o‘zlashtiriladi qayta ishlanadi va yangi mazmun b-n to‘ldiriladi, sharoitga to‘g‘ri kelmaydigani inkor qilinadi. Madaniy merosni to‘g‘ri tushunishda tadrijiylik, vorischilik qonuni muhim ahamiyatga ega. Zeroki, tadrijiyiksiz turli bosqichlardagi taraqqiyotni, ular orasidagi aloqadorlikni tushunish qiyin. Muayyan davrdagi madaniyat va uning yutuqlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashtirilmaydi, balki uni o‘rganib keraklisi saqlanib qolinadi va uni rivojlantiriladi, keyingi avlod uchun avaylab saqlanadi. Lekin, ikkinchi tomondan har bir ijtimoiy tuzumdan keyingisiga faqat madaniy merosning ijobiylari o‘tadi, deyish ham bir yoqlamalikka olib keladi. Uning keyingi davrlarga to‘g‘ri kelmaydigan, ijtimoiy taraqqiyotga to‘sinqinlik qiluvchi tomonlari ham o‘tishi mumkin. Bunda eskilik b-n yangilik, turg‘unlik b-n taraqqiyot o‘rtasidagi ziddiyat paydo bo‘ladi. shunday qilib, har bir tarixiy davrning madaniyati o‘tgan davrlar madaniy merosini o‘zlashtiradi, ya’ni vorislik aloqasida bo‘ladi. lekin ana shu M.m.ning hamma sohalari ham yangi ijtimoiy tuzumga hamma vaqt to‘g‘ri kelavermaydi. Bu holda o‘tmish madaniy boyliklari tanqidiy o‘rganilib, yangi jamiyatda yanada rivojlantiriladi. Sho‘rolar istibdodi davrida madaniy merosga, ayniqsa, milliy respublikalar M.m.siga, umuman olganda, salbiy munosabatda bo‘lindi. Madaniyat va M.m.ga faqat sinfiy va partiyaviy tamoyillar nuqtai nazaridan qaraldi. o‘tmishda yashab ijod etgan mutafakkirlarning ijodi va dunyoqarashi ateizm mezonlari b-n o‘lchandi va diniylikda ayblandi, Ahmad Yassaviy, buyuk davlat arbobi va madaniyat homiysi Amir Temur, jadidchilarning tarix oldidagi xizmatlari qoralandi va ularning madaniyat, ilm-fan sohasidagi ulkan ishlari tan olinmadni. Asrimizning 30-40 y.larida milliy madaniyatmiz va merosimizni tiklashga uringan buyuk vatandoshlarimz ta’qibga uchradi, qatag‘on qilinib, surgun qilindi, ularning talaygina qismi shohid bo‘ldilar. Respublikamiz mustaqillika erishgach,

bunday nohaqsizliklarga chek qo'yildi. Hoz. vaqtida Sho'rolar davrida taqiqlab qo'yilgan urf-odat, marosim va an'analar, milliy bayramlar qayta tiklandi, o'zbek tili davlat tili maqomini oldi, islom dini madaniyatimizning tarkibiy qismiga aylandi, tariximiz qayta o'rganilib chiqilmoqda. o'tmishda milliy madaniyatimiz ravnaqiga qayta katta hissa qo'shgan buyuk siymolarning nomlari tiklanib, abadiylashtirilmoqda, yubileylar o'tkazilmoqda. Xullas, milliy madaniy merosimizni xalq mulkiga aylantirish borasida xalq ko'p xayrli ishlar qilinmoqda. Bularning hammasi mustaqillik sharofati tufaylidir.

**Madaniy plyuralizm** — mazkur jamiyat doirasida bir nechta sub-madaniyatlarning teng asosda tinch-totuv yashashi.

**Madaniyat sotsiologiyasi** - jamiyat madaniy taraqqiyotining aniq jarayonlarini o'rganish bilan shug'ullanadi. U turli sotsiologik axborotlarni to'plash, qayta ishslash va tahlil qilish bilan bog'liq bo'lgan madaniy jarayonini empirik (tajriba) tadqiq qilishda namoyon bo'ladi.

**Madaniy takror ishlab chiqarish** (cultural reproduction) — madaniy qadriyatlarning avloddan avlodga o'tishi. Madaniy takror ishlab chiqarish madaniy sohadagi tajribani zamonda uzlusiz saqlanishini ta'minlovchi murvatlarni taqozo qiladi. Ana shunday madaniy takror ishlab chiqarishning asosiy murvatlaridan biri — hozirgi jamiyatdagi ta'lim jarayoni bo'lib, u faqat rasmiy darajadagina amalga oshirilmaydi. Madaniy takror ishlab chiqarishga "yashirin dastur-lar" — individning norasmiy tarzda o'rganadigan xulq-atvor aspektlari ayniqsa katta ta'sir o'tkazadi.

**Madaniy universaliyalari** — barcha insoniy madaniyatlar uchun xos bo'lgan xulq-atvor usullari va qadriyatlar.

**Magiya ( "shomon" so'zining tungus tilidagi ma'nosi — sehrgarlik)**—real natijalar olish uchun ilohiy kuchlarga ta'sir etish maqsadida bajariladigan ritual – urf-odatlar majmuasi. M. totemizm va animizm b-n bir vaqtida paydo bo'lib, u orqali kishilar o'z totemlari — ota-bobolarining ruhlar b-n xayolan bog'lanishini amalga oshirib kelganlar. M. o'tmishda paydo bo'lib, a.lar davomida rivojlanishda davom etib kelgan. Odatda afsungarlik urf-odatlari b-n maxsus odamlar — shamanlar shug'ullanganlar. Ular orasida, ayniqsa, uzoq o'tmishda ayollar ko'p bo'lgan.Odamlar shamanlar va afsungarlarning ruhlar b-n muloqotda bo'lishi, ularga jamoaning umid va niyatlarini etkazishi, marhumlar irodasini bo'ysundirish qobiliyatiga ega ekanliklariga chuqur ishonganlar. SHamanlar, odatda, ma'lum ritual harakatlar orqali ovoz chiqarish, ashula aytish, raqsga tushish, sakrash yo'li b-n nog'oralar va qo'ng'iroqlar ovozlari ostida jazavani avj nuqtasiga etkazish b-n afsungarlik qilishgan. Tomoshabinlar ham ba'zan o'zlarini yo'qotish darajasiga etib, marosim ishtirokchilari bo'lib qolishardi. Odatda shaman marosim oxirida o'zdan ketib, hech narsani sezmay qolardi. Ilohiy

kuchlar dunyosi b-n bunday bog‘lanish yo‘li hayotda noma’lum, oldindan bilib bo‘lmaydigan sharoitlardan kelib chiqqan. Shuningdek, afsungarlik odamlar ongini mustahkamlashda katta rol o‘ynadi. Bu esa diniy ongning shakllanish jarayonida muhim o‘rin tutdi. Sehrgarlik marosimlari yakka holda yoki jamoa bo‘lib amalga oshirilishi mumkin. Afsungarlik quyidagilarga bo‘linadi: 1) zarar keltiruvchi yovuz afsungarlik. Maqsadi kimgadir zarar etkazishdan iborat; 2) harbiy afsungarlik. Dushmanga qarshi, mas., qurol-aslahalarni sehrlash; 3) sevgi afsungarligi; 4) tibbiy afsungarlik. Undan davolash maqsadida foydalanish; 5) ob-havo afsungarligi. Bu sehrgarlik turidan yomg‘ir yog‘dirish yoki ob-havoni o‘zgartirish maqsadida foydalanilgan. Sehrgarlik hozirda ham turli xalqlarda saqlanib qolgan.

**Majburiy tashkilotlar** - kishilar ba’zan o‘zлari istamagan holda, yoxud burch tufayli yoki majburiy ravishda ba’zi tashkilotlarning a’zolari bo‘lib qoladilar. Bunday tashkilotlar majburiy tashkilotlar deb ataladi. Bunga axloq tuzatish koloniyalari, ruxiy xastaliklar shifoxonasi (psixodispanserlar), qamoqxona, turma, armiya va boshqalar misol bo‘ladi.

**Makevalizm** — N.Makiavelli (1469-1527) ismidan kelib chiqqan; o‘z maqsadlariga erishish uchun har qanday makkor vositalardan qaytmaydigan siyosat.

**Makiavelli maktabi oqimi** — XIX asr oxiriga kelib elitalarning kelib chiqishi, jamiyatdagi o‘rni, vazifalari haqidagi qarashlarning vujudga kelishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, unga italiyalik ikki olim - G.Moska va V.Pareto va nemis olimi R.Mixelslar elitalarga hos bir qator hususiyatlar asosida ularni boshqa ijtimoiy guruhlardan farqini ko’rsatib beradi. M.m.o. vakillari xalqning irodaviy bo’shlig‘i, mas’uliyatni o‘z ko’liga olishni istamasligi bois jamiyatdagi ushbu parchalanishni engib bo‘lmaydi, degan xulosani asoslaganlar.

**Mak-Lyuen(Mc Luhans) Xerber Marilall** (1911.21.7, Edmonton, Kanada – 1980.31.12, Toronto) – kanadalik faylasuf va sotsiolog, publitsist. U fal. tarixi, ijtimoiy kommunikal naz-yasi, psixofiziologiya, pedagogika, madaniyatshunoslik va adabiyot bo‘yicha ilmiy ishlari (tadqiqotlari) b-n mashhur. M., shuningdek, o‘zining fal. tarixi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlari b-n tanish bo‘lib, texnologik determinizm konsepsiyasini tariflab bergen. M. madaniyat fanining predmeti, kommunikativ funksiyalarini rivojlantirdi, (aloqa vositalari) til, yo‘l, pul, muhr, ilm, kompyuter, televidenie kabi hodisalarini izohlab bu fan tarkibiga kiritdi. M. bo‘yicha tarixiy davrning o‘zlashtirilishi aloqa va aloqa qilish vositalarining rivojlanishi b-n belgilanadi. Axborot va aloqa vositalari kelajakda insonning sezgi a’zolarining “texnologik davomchisi” sifatida hayot tarzini radikal ravishda o‘zgartirdi. Shunday qilib, og‘zaki nutq ta’sirining ustuvorligi asosida inson va jamiyat birligining bo‘linmasligi ta’minlanadi, mifologik yaxlit tafakkur

shakllantiriladi. Zamonaviy “elektronika” M. fikricha, insonning markaziy nerv sistemasini har tomonlama global darajaga etkazish va yangilanishini ta’minlaydi.

**Makrosotsiologiya** - (yunon. makros - uzun, katta sotsiologaya) - katta ijtimoiy guruhlar va tizimlarni (masalan, jamiyat, sivilizatsiya va h.k.) jarayonlarni harakatlarni va hodisalarni, shuningdek guruhlarni o‘rganishga qaratilgan tadqiqot yo‘nalishi.

**Makon-vaqt konversiyasi** — transport vositalari tezligining oshishi natijasida masofaning “vaqtdagi qisqarishi” jarayonlari.

**Makrosegregatsiya** — turli irqiy guruhlarga mansub bo‘lgan ko‘p miqdordagi odamlarning hududiy segregatsiya qilinishi.

**Malakali mutaxassislar** — yuqori darajadagi ma’lumot va malaka talab qiluvchi kasb egasi bo‘lgan odamlar. Bunday malakaga ega bo‘lgan odamlarning xulq-atvori ko‘pincha kasaba uyushmalari talablari bilan belgilanadi.

**Maltuschilik** — Tomas Maltus tomonidan rivojlantirilgan aholi dinamikasi haqidagi doktrina, unga ko‘ra aholining o‘sishi ochlik, urush singari «tabiiy cheklovlar» yordamida tartibga solinadi.

**Manfaat** – individ yoki ijtimoiy guruh faoliyatini, xulqini belgilaydigan asosiy omil. Individ yoki ijtimoiy guruh M.i, avvalo, ularning ijtimoiy hayotdagi, ishlab chiqarishdagi o‘rni va mavqeい b-n belgilanadi. Aslida, M. juda murakkab tarkib va tizimga ega bo‘lib, turli davr va vaziyatlarda uning turli ko‘rinishlari muhim o‘rin tutadi. M. turlari bir necha belgilar asosida tasnif silinadi. M., sub’ektiga ko‘ra, shaxs, guruh va jamiyat M.lariga bo‘linadi. M., qaysi ehtiyojlarni qondirish b-n bog‘liqligini hisobga olib, moddiy va ma’naviy M.larga bo‘linadi. Ma’naviy M.lar esa o‘z navbatida, siyosiy, ruhiy, axloqiy va boshqa turlarga bo‘linadi. M.lar shakllanishi ularni, muayyan ehtiyojlarni qondirish b-n bog‘liq tarzda, vujudga kelishini ko‘rsatadi. Sub’ekt o‘z M.larini qanchalik chuqur anglasa, ularni ro‘yobga chisarish uchun shunchalik qulay imkoniyat tug‘iladi. M.larni chuqur anglab etmaslik shaxs yoki guruhning o‘z M.lariga zid faoliyat yuritishlariga sabab bo‘lishi mumkin. M.larni anglash darjasini esa shaxs va ijtimoiy guruhning ma’naviy taraqqiyoti darajasiga bog‘liqdir. M. b-n yaqin va turdosh hodisa ehtiyojdir. Ehtiyojsiz m. bo‘lishi mumkin emas. Ular o‘rtasida ko‘p o‘xshashlik va umumiylit b-n bir qatorda tafovutlar ham mavjud. Ehtiyojlar bevosita ob’ektga yo‘naltirilgan bo‘lsa, m.lar shu ehtiyojlarni qondirish vositalari, jamiyatda amal qilayotgan taqsimot tamoy.larini ham o‘z ichiga oladi. Ehtiyoj va M. o‘rtasida tafovutdan tashqari ziddiyat ham bo‘lishi mumkin. Mas., giyohvand kishining ehtiyojini narkotik modda qondiradi, ammo u o‘sha giyohvand M.lariga zid. Individ va ijtimoiy guruh faoliyatining negizida M. yotgani uchun shu faoliyatni o‘rganuvchi

axloqshunoslik, ijtimoiy fal., siyosatshunoslik, iqtisodiy naz-ya kabi fanlar M. kategoriyasiga murojaat qiladilar. M.ning umumiy jihatlari, shakllanish, rivojlanish va qondirilish qonuniyatları ijtimoiy fal. fanida o'rganiladi. Fal. tarixida M. mohiyatini talqin qilishda turlicha yondashuvlar bo'lган. XX - a.ning ikkinchi yarmida M.ning ontologik jihatlarini tushuntirishda ikki xil nuqtai nazar paydo bo'ldi. Ulardan biriga ko'ra, M. ob'ektiv hodisadir, ikkinchisiga ko'ra esa u sub'ektiv hodisa. Birinchi qarash vakillari ikkinchi qarash tarafdarlarini sub'ektivizmda ayblasna, ikkinchi qarash tarafdarlari ularni vulgarlik va metafizikada ayplashadi. Uzoq davom etgan bu tortishuv aytarli samara bermadi. 90-y.larning boshlarida bir qator olimlar M.ni ob'ektiv voqelik b-n bog'liq bo'lган sub'ektiv, ya'ni ob'ektiv-sub'ektiv voqelik b-n bog'liq bo'lган ob'ektiv-sub'ektiv hodisa, deb talqin qilishni taklif qildilar. Bu yondashuv ko'pchilik olimlar tomonidan e'tirof etildi. Jahon fal.sida mayjud bo'lган individ va guruhlar faoliyati negizida ularning M.lari yotadi, degan qoidani individ va guruhlar faoliyati negizida ularning anglangan M.lari yotadi, deb aniqlashtirish va M.ning faoliyatga o'tkazadigan ta'sir kuchi uning anglanish darajasiga bog'liq, deb to'ldirish maqsadga muvofiq. Shu b-n birga sub'ektlar o'z M.lariga zid harakat qilishlari ham mumkinligini e'tirof etish lozim. Bunday hol M. mutlaqo cheklanmaganda yoki bevosita M.dan ko'ra oliyroq maqsad bo'lganda yuz beradi. Mas., o'zi och yurgan ona zo'rg'a topgan ovqatini o'zi emay bolasiga berishi uning M.lariga zid, ammo turning oliv manfaatlariga muvofiqli. Bu yondashuv ko'pchilik olimlar tomonidan e'tirof etildi.

**Manfaat guruhlari** — siyosiy maydonda alohida manfaatlarni himoya qilish maqsadida tuzilgan guruhlar bo'lib, ular ko'pincha qonun chiqaruvchi organlardagi vakillar — lobillar orqali harakat qilishadi.

**Manfaatli (utilitar) tashkilotlar** - ba'zan kishilar ma'lum amaliy sabablar, foyda yoki manfaat tufayli tashkilotlarga qo'shiladilar. Bunday tashkilotlar utilitar (manfaatli) tashkilotlar deb ataladi. Universitetlar, korporatsiyalar, birlashmalar, firmalar, davlat muassasalari kishilarning ma'lum manfaatlarini qondirish uchun tuzilgan tashkilotlarga kiradi. Utilitar (manfaatli) tashkilot erkin va majburiy tashkilotlar o'rtaida yotadi.

**Mangeym Karl** (1893 - 1947) - nemis sotsiolog. Uning asosiy e'tibori sotsial bilimlarga qaratildi. Olimning asarlarida tafakkur rivojlanishi bilan jamiyatning o'zaro bog'liqligi masalasr katta o'rin egallaydi. «Tuzilish», «o'zaro aloqa» tushunchalari uning asarlarida muhim ahamiyatga ega. Tafakkur - bu faoliyat bo'lib, sotsial hayot va uni tashkil etuvchi struktura tizimi bilan chambarchas bog'liqdir. Barcha g'oyalari, hatto «haqiqat» g'oyalari sotsial yoki tarixiy vaziyat ta'sirida vujudga keladi va rivojlanadi. Har bir mutafakkir ma'lum guruh vakili bo'lib, muayyan mavqe, hatto aniq mavqega ega va ma'lum vazifani bajaradi. Xuddi ana shu uning intellektual salohiyatini belgilaydi. Odamlar voqealarga bo'lган

munosabatda abstrakt emas, birgalikda yoki bir-biriga qarama-qarshi yo‘lda turib harakat qiladilar.G‘oyalarning ildizi turli tarixiy vaqtarda va sotsial strukturaga borib taqaladi. Shuning uchun ham, tafakkur istiqboli xarakterga ega bo‘lib, shubhasrz, kuzatuvchi pozitsiyasrga ham bog‘liqdir. Ikki odarn rasman bir xil mantiqiy qoidaga asoslanib ish ko‘rsa ham bir voqeani turlicha baholaydilar. Bu tabiiy hoi, albatta. Uning ildizi odamning tafakkur darajasrga borib taqaladi.

Mangeym tafakkur mafkuraviy xarakterga ham egadir, deydi. Birovni bir guruhning tafakkur tizimi barcha haqiqatni qamrab ololmaydi. Balki uning bir qisminigina aks ettirishi mumkin. To‘la haqiqatni faqat mustaqil ziyolidan topish mumkin; biron bir pozitsiyaga bog‘lanmagan o‘zi xohlagan pozitsiyada turish imkoniyatiga ega bo‘lsagina undan to‘la haqiqatni bilib olish mumkin. Xuddi shu fazilati tufayli ziyozi turli xil mafkuralarni yaxshi bilgani holda, to‘la haqiqatni aytishi yoki o‘z pozitsiyasrni ochiq bildirishi mumkin. «Ijtimoiy o‘zaro munosabatlarning tafakkurga» (empirik) va «bu munosabatlarning voqeilikka ta’siri» (nazariy) tomonlari haqida ham Mangeym qimmatli fikrlarni bildirgan.

**Manqurtlik** — o‘zligini anglashdan mahrum bo‘lgan inson, jamiyatning xususiyati; kundalik turmushda o‘z tarixini bilmaydigan odamlarga nisbatan qo‘llaniladigan tushuncha. Odatda bu so‘z kishilar tomonidan ota-onasiga, qarindoshlariga bemehr, “onasini ham sog‘inmaydigan” (A.Oripov) millatga bemehr odamlarga qarata aytildi. Manqurt so‘zi haddan tashqari g‘ayriinsoniylik darajasini ko‘rsatuvchi tushuncha sifatida namoyon bo‘ladi. Hoz. davrimizdagi dolzarb muammolardan biri – o‘zligini yaxshi anglaydigan ma’naviy barkamol avlodni, milliy manqurtlikdan xoli bo‘lgan zamonaviy insonlarni tarbiyalashdir.

**Mardlik** — muayyan madaniyat doirasida erkaklardan kutiladigan xulq-atvor shakllari.

**Marginal** (lot. chet, chekka) — shaxs, ijtimoiy qatlama yoki guruh muayyan jamiyat uchun xos tuzilmalar, ijtimoiy-madaniy me'yorlar, siyosiy an'analar, xususiyatlarining ayrimlarini yoki barchasini yo‘qotish. U aholi va individlarning jamiyat tarkibida gorizontal va vertikal ko‘chishi imkonyatlari kengayishi bilan bog‘liq.

**Marginal guruh** — barqaror yashash muhtiga ega bo‘lmagan, madaniy va ijtimoiy-etnik birhilligini yo‘qotgan oraliq qatlamlar.

**Marginal guruh** — bir-birini istisno qiluvchi qadriyatlar, me'yorlar ta'siridagi, turli ijtimoiy guruhlar, tizimlar, madaniyatlar chegarasidagi odamlar guruhi.

**Marginal shaxs** - (fr. marginal - chekka, chegara) -ijtimoiy jihatdan normal holatda bo‘lmagan shaxs. Bunday shaxs ikki va undan ko‘p madaniy

tizimlar o‘rtasidagi chegarada oraliq holatini egallaydi, qisman har biriga singgan bo‘ladi, ammo xech biriga to‘liq mansub bo‘lmaydi.

**Marksizm** – **XIX**-a.ning 40-y.larida Germaniyada shakllangan va nemis iqtisodchisi va faylasufi K Marks (1818-1883 y.) nomi b-n atalgan falsafiy, ijtimoiy-iqtisodiy qarashlar tizimi. Uning shakllanishida XIX-a.ning Evropada, ayniqsa Angliya, Fransiya va Germaniyada tobora avj olib borayotgan inqilobiy harakatlar va ularni fal-iy, siyosiy va iqtisodiy naz-yalar asosida tahlil qilish muhim rol o‘ynaydi. M. o‘sha davr jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlariga xos ziddiyat,adolatsizlik va boshqa muammolarni faqat, ushbu jamiyatni sotsialistik jamiyat b-n almashtirish, uning kamchiliklarini, bиринчи navbatda sinfiy kurash tufayligina hal qilish mumkin degan utopik g‘oyaga asoslanar edi. M. fal-iy va ijtimoiy iqtisodiy naz-yalar tarixida “kapitalizm”, “sinfiy kurash”, “proletariat diktaturasi”, “kommunizm” kabi qator yangi kategoriyalarni sun’iy ravishda ishlab chiqdilar va ularning assosida proletariatning (ya’ni ishchilar sinfi) tarixiy vazifasi burjuaziya, ya’ni kapitalistik jamiyatdan sotsializm jamiyatiga proletariat diktaturasiga o‘tishni yagona sinfiy kurash yo‘li b-n amalga oshirishdan iborat degan noto‘g‘ri xulosaga keldilar. M. mohiyatida asosiy o‘rinni egallagan g‘oya-bu tabiatda qarama-qarshiliklar kurashi, jamiyatda esa sinfiy kurash taraqqiyot mohiyatini va yo‘nalishini belgilaydi degan qarashdan iborat. Uning ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar to‘g‘risidagi xulosasi ham ushbu soxta g‘oya assosida yaratilgan edi. Hoz. davrda M.ga nisbatan xilma – xil qarash ayniqsa, tanqidiy yondashish nihoyatda kuchaygan. Shu b-n birga hali ham bunday qarashlar ortidan boradigan, ularni targ‘ib qiladigan oqim – neomarksizm ham saqlanib qolmoqda.

**Marks (Marx) Karl** (1818-1883) — advokat oilasida tug‘ilgan, 1835 yilda gimnaziyanı tamomlab, Bonn va Berlin universitetlarida o‘qigan. 1837 yilda Berlinda yosh gezelchilar to‘garagi a’zolari b-n uchrashadi. 1844 yilda “Demokrit naturfalsafasi b-n Epikur naturfalsafasi o‘rtasidagi farq” mavzusida yozgan asari uchun unga fal. fanlari d-ri ilmiy darajasi berildi. 1841-1843 yillarda M. dunyoqarashida keskin burilishlar davri bo‘ldi: Gegel fal.siga doir tanqidiy fikrlar shakllana bordi va Feyerbax fal.sining ta’siri kuchaya boshladi. U o‘zining “Gegel huquq falsafasining tanqidiga doir” asarida Gegelning fikriga qarama-qarshi o‘laroq, davlat jamiyat taqdirini belgilay olmaydi, balki jamiyat taqdirini iqtisodiy munosabatlar belgilaydi, bunda proletariat jahonshumul-tarixiy missiyani o‘taydi degan g‘ayriilmiy xulosaga keldi. Bu g‘oya M.ning kelgusi ilmiy va siyosiy faoliyatida asosiy rol o‘ynadi. 1844 yildan boshlab M. bu g‘oyani o‘z safdoshi F. Engels 40 yil davomida, hamkorlikda tadqiq va targ‘ibqildi. M.ning 1852 yil 5 martda Veydemeyerga yozgan xati M. ta’limotining tub mohiyatini ochib beradi. Unda sinflar, sinfiy kurashning, proletariat dikturasasi va siflsiz jamiyatga

o‘tish to‘g‘risidagi g‘ayriilmiy qarashlari ta’riflangan. Ular keyinchalik jahon kommunistik harakati uchun dasturul-amal bo‘lib xizmat qilgan edi. bu masalalar keyinchalik M.ning “Siyosiy iqtisod tanqidiga doir”, “Kapital”, “Gota programmasini tanqid” kabi asarlarida yoritib berilgan. XX -a.da sobiq SSSR va unga ittifoqdosh bo‘lgan davlatlarda M. ta’limotiga o‘zgarmas qarashlar tizimi sifatida baho berilib, hatto u tomonidan aytilgan fikrlar oxirgi haqiqat mezoni sifatida qaralib, qator mamlakatlar o‘zlarining ichki va tashqi siyosatlarining tub asoslariga aylantirdilar. M. tomonidan ilgari surilgan tarixni materialistik tushunish qoidalari insoniyatning umumiy manfaatlariga zid kelayotganligi, tarixiy jarayonlarni tushunishda bir tomonlama talqin qilinishga yo‘l ochib berayotganligi ayon bo‘lib bormoqda. Tarixiy jarayonlarni tushunishda M. tomonidan ilgari surilgan farmatsion qoidalarni barcha xalqlar tarixini o‘rganishda birday qo‘llab bo‘lmasligi yaqqol ko‘rindi. M. dunyoqarashi, sobiq “sotsialistik lager” deb atalmish butun bir sistemaning mafkurasiga aylantirilgan edi. Hoz. butun dunyoda bu qarashlar, g‘oyalar eskirib qoldi.

**Markuze (Marcuse) Gerbert** – (19.07.1898 - 29.07.1979) — asli germaniyalik bo‘lgan Amerika faylasufi va sotsiologi. Adorno va Xorkxaymer b-n birgalikda Frankfurt ijtimoiy tadqiqotlar i-n.ini va “jamiyatning tanqidiy naz-yasi”ga asos solgan. M. dunyoqarashining shakllanishiga Gegel va Freyd, shuningdek, Xaydegger fal.si kuchli ta’sir o‘tkazgan. M. ayni paytda Marks fal.si b-n muntazam qiziqib borgan va bu fal-iy tizimning qator kategoriya va tushunchalarini Frankfurt maktabi ruhida tahlil qilishga uringan. M.ning fikriga ko‘ra fan va texnika taraqqiyoti hozirgi kapitalistik jamiyatdagi hukmron sinflarga ehtiyojlar murvati orqali ijtimoiy-tanqidiy munosabatlari so‘ndirilgan “bir o‘lchamli odam”larni yaratish imkonini beradi. o‘z ongiga singdirilgan soxta ehtiyojlar ta’sirida ishchilar sinfi iste’molchilar poygasiga qo‘shiladi va o‘zining inqlobchilik rolini yo‘qotadi. Bunday sharoitda inqlobiy tashabbus jamiyatdagi “autsayder”lar, ya’ni, lyumpenlar, mayda millatlar, ishsizlar va boshqalar qo‘liga o‘tib ketadi, shuningdek, radikal yoshlar, talabalar va gumanitar ziylolar ham bu tashabbusni o‘z qo‘llariga olishi mumkin. M. fikricha, jahon miqyosida inqlobiy tashabbusni kambag‘al mamlakatlarning qashshoq aholisi ham qo‘lga olishi va rivojlangan mamlakatlarga qarshi kurash boshlashi mumkin. Rivojlangan mamlakatlar safiga M. sotsialistik davlatlarni ham kiritgan edi. M.ga munosabat turli tizimga oid mamlakatlarda turlicha bo‘lgan. Sanoati rivojlangan G‘arb mamlakatlarida uni so‘l inqilobchilikda ayblashsa, sotsialistik davlatlar va kommunistik yo‘nalishdagi partiyalarning vakillari uni opportunizm va revizionizmda ayblangan edilar. M.ning eng mashhur asarlari: “Gegel ontologiyasi” (1931), “Aql va inqlob” (1940), “Eros va tamaddun” (1955).

**Marosim** — shaxs, guruh va jamiyat hayotidagi muhim hodisalarini nishonlash shakli. Tarixan M. diniy tizimlarda vujudga kelgan. Ularda individning ijtimoiy tizim b-n aloqalari ifodalangan. Hozirgi jamiyatda M. asosan, maishiy turmush, siyosiy, ijtimoiy tizimlar hayotida namoyon bo‘ladi. M. tarkibi odatda timsoliy harakatlarning qat’iy belgilangan paydar payligidan iborat bo‘lib, raqslar, qo‘shiqlar, rasmlar, predmetlar, matnlardan tashkil topadi. M.ning quyidagi asosiy turlari farqlanadi: diniy M. fuqarolik M.lari, etnik M., siyosiy M., diplomatik M., M. turlari ko‘pincha bir-biri b-n qo‘silib, aralashib ketadi. Ular orasida diniy marosimlar eng avval shakllangan bo‘lib, marosimning boshqa turlari asta-sekin ular orasidan ajralib chiqqan va o‘zining dastlabki xususiyatlarini yo‘qota boshlagan. M. o‘zining dastlabki funksiyalaridan tashqari, qo‘srimcha funksiyalarni ham bajara boshlagan. M.ni o‘tkazish individ va guruh hayotidagi muhim voqealarni nishonlashdan tashqari uning miqyosi, unga sarf qilingan xarajatlar hajmi M. sub’ektining ijtimoiy mavqeい, boyligi, daromadi to‘g‘risida ham guvohlik bera boshladi. Natijada odamlar qadim zamonlardan boshlab m.ni faqat e’tiqod yoki zarurat tufayli emas, o‘z mavqelari, boyliklarini ko‘z-ko‘z qilish, soxta obro‘ orttirish maqsadida ham bajara boshladilar. Bu hol, ayniqsa o‘rtta a.larda avj olib ketdi. Mas., “Boburnoma”da Sulton Mahmud Mirzoning qizi Oqbegimning nikoh to‘yi marosimida oltindan pistalar va kumushdan bodomlar yasalib, mehmonlarga tortiq qilingani bayon qilinadi. Xullas, M.larni o‘tkazishda haddan ortiq dabdababozlik, rasmiyat chilik va shu kabilar ularning qadr-qimmatini tushiradi.

**Mas’uliyat** — ijtimoiy ahamiyatli burch va vazifalarning bajarilishiga, oqibatiga xatti-harakat negizida yotgan axloqiy tamoyillarga amal qilinishiga muayyan kimsa yoki sotsial guruhning javobgarligini bildiradigan fal-iy-axloqiy kategoriya. M. burchning muayyan kishilar tomonidan amalga oshirilishi jamiyatning to‘laqonli a’zosi qilib etkazishga burchli. Oilada va mакtabda tarbiya va ta’limni tegishli darajada tashkil etishga, ta’lim va tarbiyaning samarali bo‘lishini ta’minlashga ota-onam belgilangan o‘qituvchilar mas’ul. Burchdan farqli o‘laroq M. quyidagi jihatlarga ega bo‘ladi: yosh avlodni jamiyatga tayyorlash jamiyat a’zolarining burchi, ammo tarbiya va ta’limga ota-onam muallimlar javobgar; vazifani bajarishga faqat salohiyatli mutaxassislar mas’ul; kishilar hamma narsaga emas, o‘ziga topshirilgan ishga mas’ul. M.sizlik odob ilmida me’yoridan og‘ish tarzida baholanadi va buning uchun ma’naviy va moddiy javob beriladi. Axloqda og‘ishlar, xususan, devident xulq tabiat ko‘p hollarda mas’uliyat nuqtai nazaridan baholanadi. Chunonchi, o‘z xulqining nizomiga mos kelish-kelmasligini baholash bu xulqning oqibati jamiyatga qanchalik moddiy yoki ma’naviy zarar keltirishni aniqlash b-n bog‘liq. Demak, m.ning

tub boisi ijtimoiy manfaatlar b-n belgilanadi.

**Matriarxat** (lot. mater-on'a va yun. arche-hokimiyat) – onalar huquqi, ginekokratiya. Urug'chilik tuzumining ikkinchi bosqichida ayol hukmron mavqega ega bo'lib, mulk va mansablar ona urug'i tamoyili asosida meros bo'lib o'tgan. Nikohdan so'ng er xotin jamoasiga o'tib yashagan (matrilokal nikoh) yoxud er-xotin o'z jamoalarida yashab turishgan. Mas., jamoa ishlab chiqarishda ayol ustuvor mavqega egaligi (avlod tarbiyasi, jamoa xo'jaligi va oilani yuritish singari muhim hayotiy vazifalar) va jamoaning ijtimoiy hayoti (uning ishlarini boshqarish, jamoa a'zolari munosabatlarining tartiboti, diniy marosimlarni o'tkazish va sh. k.). Ilmiy tadqiqotlarning shohidlik berishicha, M. davri ayrim xalqlarda bo'lмаган. "M." atamasi birinchi marta Baxofen tomonidan qad. klassik afsonalarni tahlil qilish orqali fanga kiritilgan. Janubi-Sharqiy Osiyodagi minangkabau va mikronezlarning ayrim guruhlarida hozir ham M. qoldiqlarini kuzatish mumkin.

**Matritsa** - (lot. matrix - bachadon) - sotsiologiyada: jadval (matritsa) ko'rinishidagi modellar yordamida ijtimoiy tuzilmalarni qayd etish.

**Matriarxal oila** — ernen xotin qarindoshlari bilan birga yashashini taqozo qiladigan oilaviy tizim.

**Materializm** – dunyoning moddiyligidan va ongdan qat'iy nazar mavjudligidan kelib chiqadigan falsafiy yo'nalish.

**Mazdakiylik** — diniy falsafiy ta'limot. Asoschisi Mazdak (470-529). Mazdak xalq ommasining zardushtiylik kohinlari va zodagonlariga qarshi kurashini boshqargan. Bu harakat ta'sirini susaytirish maqsadida Eron shohi Qubod I(488-531) Mazdakni qo'llab –quvvatlagan. Mazdak Qubod I hukmronligi davrida avval otashgohlarning birida kohin, keyinchalik butun Eron bo'yicha bosh kohin bo'lgan. Kohin va amaldorlarning iqtisodiy, siyosiy hukmronligi barbod bo'lgandan so'ng, qubod I Mazdak b-n aloqani uzgan. Mazdak ta'limotiga binoan, olamda bo'ladigan jarayonlar ongli va biror maqsadni ko'zlab harakat qiluvchi ezgulik, yorug'lik manbai b-n ko'r-ko'rona va tasodifiy harakatlanuvchi qorong'ilik (johillik) manbai o'rtasidagi kurashdan iborat. Bu kurash "yaxshilik"ning "yomonlik" ustidan muqarrar g'alabasi b-n tugallanadi. M. mohiyatan zardushtiylik dini evolyusiyasi jarayonidagi bosqichlaridan biri. Shuning uchun zardushtiylikning muqaddas kitobi Avesto, ayniqsa, uning keyingi qismi kichik Avesto M.da ham ilohiy hisoblangan. Unda yaxshilik, yaratuvchilik, ezgulik timsoli, shohsulolasining homysi. Ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurashda "yaxshilik" timsoli-Axuramazda yovuzlik timsoli-Ahriaman ustidan pirovard natijada g'alaba qozonishi, shundan keyin o'liklar tirilib, dunyo barcha nopok va g'arazli narsalardan xoli, yerda bitta podsholik, bitta xalq bo'ladigan umumiyo rohat-farog'at zamoni kelishiga umid bog'lanadi. Bunday g'oyalar zardushtiylikning uzoq vaqt xalq orasida e'tibor qozonishiga sabab bo'lgan.

Arablar Eron va Turonni bosib olishgach, M. ko‘rinishidagi zardushtiylikka e’tiqod qiluvchilarni zo‘rlik b-n islomga kiritganlar. o‘z e’tiqodidan voz kechmaganlarni o‘ldirganlar, quvg‘in ostiga olganlar. Shu bois mazdakiylarning bir qismi o‘z e’tiqodiga sodiq qolish maqsadida Hindistonga qochib ketishga majbur bo‘lishgan. Bu ta’limot mazdakiylar harakatining mafkurasi sifatida xizmat qilgan. Mazdak va uning maslakdoshlari o‘z kurashlarida xalq ommasiga suyangan. Xalqning ozodlik, erkinlik, hurlik yo‘lida olib borgan harakatlariga rahnamolik qilgani uchun ularning maslakdoshlari ko‘payib borgan . M.da yovuzlik-boylilikka hirs qo‘yish va o‘ta kambag‘allik qoralanadi. M. harakati 529 y. bostiriladi va Mazdak qatl etiladi. Mazdakiylar harakati bostirilgan bo‘lsa ham (XI a.), M. ta’limoti keyingi asrlar davomida Markaziy Osiyoda, Eron va Ozarboyjonda ijtimoiy zulmga qarshi, keyinroq esa, o‘rta Osiyoga islom tarqalgach, arablar istilosiga qarshi (Muqanna, Bobak qo‘zg‘olnlari) kurashda xalq ommasini birlashtiruvchi asosiy g‘oyalardan biri bo‘lib xizmat qilgan.

**Ma’naviyat** — insonlarning o‘zaro munosabatlari, ularning hayotiy tajribalari davomida shakllangan va rivojlangan qadriyatlar tizimi. Inson m.ini o‘zini shaxs sifatida anglagandan boshlab, umrining oxirigacha shakllantiradi va rivojlanirib boradi. Insonning o‘z m.ini rivojlanirishga bo‘lgan ehtiyoji cheksizdir. U insonning butun ongli faoliyati davomida shakllanadi, rivojlanadi. Shu ma’noda m. insonning onglilagini, qobiliyatini va intilishlarini ham o‘z ichiga oladi. M. insonning botiniy dunyosini o‘zida ifoda etuvchi tushuncha. Inson botiniy dunyosini, gavhar to‘la tubsiz dengizga qiyoslash mumkin. M. insonning ruhiyati, o‘zi-o‘zining anglashi, did-farosati, adolatni razillikdan, yaxshilikdan, yomonlikni, go‘zallikni xunuklikdan, oqillikni johillikdan ajrata bilish qobiliyati, aql-zakovati, ularni amalga oshirish yo‘lida ongli faoliyat ko‘rsatish va intilishi. M.ning moddiy kuchga aylanishi har bir insonning hatti-harakatlarida, o‘zligini qaysi darajada anglashida, o‘zining oila va jamiyatdagi o‘rnini tushunishida Vatan va millatga munosabatida namoyon bo‘ladi.

**Mediana** — tartibga solingan diapazonning aniq o‘rtasida joylashgan raqam, “markaziy tamoyillarni” hisoblashning bu usuli ko‘pincha o‘rtacha arifmetik miqsorni hisoblab chiqarishdan foydaliroq bo‘ladi.

**Megapolis** — qadimgi Yunonistondagi “barcha shaharlarning shahari”, bugungi kunda konurbatsiyaning yuqori darajasini ifodalash uchun qo‘llaniladi.

**Mehnat taqsimoti** – meqnat faoliyatining ixtisoslashuvi. Shu tufayli mehnat faoliyati turli-tuman va o‘zaro bog‘liq. Bozor ihtiqtod sharoitida makroiqtisodiyotga taalluqli bo‘lgan ijtimoiy, shaxsiy sektorlardagi korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga erishni taqozo etadi. Bu asosan, mayjud ishchi kuchidan oqilona foydalanish evaziga erishiladi.

Bu, o‘z navbatida, ko‘pincha qar xil bajarilishi zarur bo‘lgan ishlarning ayrim ijrochilar o‘rtasida to‘g‘ri taqsimlanishiga, ya’ni ularning malakasiga, tajribasiga va zukkoligiga yarasha ish b-n teng ta’min etilishiga bog‘lih. Bu masalani maqsadli hal qilish uchun, birinchi navbatda mehnatni ishlab chiqarishda puxta o‘ylab, oqilona taqsimlashi lozim bo‘ladi. Bu tashkiliy masala M. t. deb ataladi. M.t.ning ustun jihatlaridan biri shundaki, bunda ishchi ishning ma’lum bir turida chuqur ixtisos topadi, shu ish bajarilish texnikasini va tartibni puxta egallab oladi, zarur ko‘nikmalarni kasb etadi, ish usuli va uslublarini yanada takomillashtiradi. Bunda maxsus asbob va uskunalar ishlatiladi. Bundan tashhari, M.t.da xodimlarni ish jarayoniga tayyorlash ham osonroq bo‘ladi. Ishlab chiqarishda M.t.tining 3 turi mavjud: umumiyl M. t., xususiy M.t., hisman (ayrim) M.t. Korxonalarda M.t.tining shakllari: 1) kasbiy M.t.; 2) operatsion M.t; 3) mahsulot ishlab chiqarishning turli bosqichlarida band bo‘lgan ishchilar o‘rtasidagi bosqichli M.t.; 4) funksional M.t.

**Mehnat estetikasi** - estetik kategoriya sifatida insonning ijtimoiy va individual ishlab chiqarish jarayonida go‘zallikka nisbatan munosabatlarini ifodalaydi. Inson mehnatining estetik xususiyatlari ilk bor Suqrot suhbatlarida, Aristotelning “Poetika”si, Vitruvining “Me’morchilik haqida o‘n kitob” asarlarida tadqiq etilgan. Evropaning industrial taraqqiyot davriga xos M. e. muammolari I.Kant tomonidan fal-iy tahlil etilgan. Shu b-n birga klassik estetikada ishlab chiqarish estetikasi amaliy estetika sifatida qaror topgan. M. e. jamiyat moddiy ne’matlarini ishlab chiqarish sharoitlari va uning natijalarini estetik o‘zlashtirish jarayonini anglatadi. Ilmiy-texnika taraqqiyoti ishlab chiqarish jarayonlarini estetik ta’minalash zaruriyatini tug‘dirdi. Natijada m. e.da yangi tarmoq — dizayn ajralib chiqdi. M.e. moddiy-badiiy madaniyatning konkret shakli, mehnatni nafosat qonunlari asosida tashkil etishdir. M.e. ishlab chiqarish jarayonlarida xodimlarning ish muhitini estetik bezash, mehnat mahsulotlarini badiiy jihozlash, go‘zallik tamoy.lari asosida mehnat unumdorligini oshirishga qaratilgan faoliyatni o‘z ichiga oladi. M.e. san’at naz-yasi b-n dialektik bog‘liq holda ishlab chiqarishning barcha sohalarida go‘zallik qonuniyatlarini qaror topishiga, estetik did va tuyg‘uni shakllantirishga xizmat qiladi. M.e. jamiyat ma’naviyatining ajralmas qismi sifatida insonni har tomonlama barkamol o‘sishida zaruriy tarbiya vositasi hamdir.

**Mentalitet** - (lot. mens - aql, tafakkur) - individ yoki ijtimoiy guruhning, millatning o‘ziga xos tafakkur tarzi, voqelikni ma’lum bir tarzda tushunishi va birgaliqda harakat qilishga tayyorligi va moyilligi. **M.jamiyat**, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darjasи, ma’naviy salohiyati, ularning hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muayyan, ijtimoiy sharoitlarda shakllangan aqliy qobiliyati, ruqiy quvvat. Jamiyat,

millat yoki shaxsning M.i ularning o‘ziga xos milliy an’analari, rasm-rusumlari, urf-odatlari, diniy e’tiqod va irimlarini ham qamrab oladi. Istibdod davrida M. masalalari ilmiy nuqtai nazardan talqin qilinmas edi, chunki ma’lum millatni o‘rta, ilg‘or va salohiyatli, boshqa millat va elatlarning esa qoloq va noraso qilib ko‘rsatish siyosatiga M. naz-yasi mohiyatan zid edi. Jamiatning, millatning, ma’lum bir jamiyatning yoki shaxsning M.ini o‘rganish, unga jiddiy yondoshishni talab qiladi. Uni o‘rganish uchun juda ko‘p omillar e’tiborga olinishi va b. millatlar b-n qiyoslanishi, ushbu millat yashab turgan shart-sharoit, tarixiy davr, uning o‘tmishi, millatning ruhiyati va b. bir qator jihatlar inobatga olinishi lozim. Milliy M. tahliliga, rasmiy ko‘rsatkichlar asosida yondoshib bo‘lmaydi. o‘zbek millati M.tining shakllanish jarayoni deyarli uch yarim ming y.lik tarixga ega. o‘zbek xalqi insoniyat moddiy va ma’naviy madaniyatini bebaho durdonalar b-n boyitdi. Har bir millatning M.i aqli, idroki, fahm-farosati, uning yashab turgan shart-sharoitlari, tarixi, qanday xalqlar qurshovida istiqomat qilishi, ijtimoiy faolligi va qator b. omillar b-n bog‘liq. A.lar davomida o‘zbek xalqi muhim savdo-sotiq, ilm-fan, me’morchilik, hunarmandchilik markazlari, xalqlar va mamlakatlarni bir-biri b-n bog‘lab turgan yo‘llar chorrahasida yashagani sababli, uning M.i taraqqiy etib borgan.

**Merton (Merton) Robert King** (05.07.1910 y.) — amerikalik sotsiolog tuzilmaviy-funksional tahlil maktabining vakili. Bu naz-yaga u “disfunksiya” tushunchasini olib kirdi, “ochiq” va “latent” (yashirin) funksiyalarini farqlash lozimligini taklif qildi. M. “o‘rta daraja naz-ya”sini ishlab chiqadi. M. fikricha, “o‘rta daraja naz-ya”si empirik tadqiqotlarni umumiyl sotsiologik naz-ya b-n bog‘lash kerak. Anomiya naz-yasi ham M. tomonidan ishlab chiqilgan sotsiologik tahlil yo‘nalishini ko‘rsatuvchi misol sifatida qaralishi mumkin. Bu Dyurkgeym naz-yasidan olingan bo‘lib, axloqiy qadriyatlar emirilishi va ideallar vakumi b-n xarakterlanadigan o‘ziga xos axloqiy-ruhiy holatni ifodalaydi. Anomiya sabablarini M. AQSH da hukmron bo‘lgan individualistik “me’yor-maqсадлар” (boylikka, hokimiyatga, muvaffaqiyatga intilish) va bu maqsadlarga erishish yo‘lida foydalanish mumkin bo‘lgan vositalar o‘rtasidagi ziddiyatdan axtaradi. Bu vositalar M. xulosasiga ko‘ra, amerikaliklarning aksariyatini o‘z maqsadlariga qonuniy yo‘l b-n erishish imkoniyatidan mahrum qiladi. Mana shu ziddiyat jinoyatchilik va isyonkorlikning o‘sishiga, befarqlik, hayotdan ko‘ngil qolishi kabi holatlarga olib keladi. Bu ziddiyatni M. butun industrial jamiyat uchun xos bo‘lgan hodisa sifatida talqin qiladi. M. AQSH da ommaviy axborot vositalari, shuningdek, bilish va fan sotsiologiyasi bo‘yicha empirik tadqiqotlar o‘tkazgan.

**Metafizika** – Gegeldan oldingi va hozirgi G‘arb falsafasida borliqning o‘ta hissiy tamoyillari va asoslari haqidagi fan. Falsafaning sinonimi sifatida

ishlatiladigan atama.

**Metod** (yun. tadqiqod, yo'l) — bilim olish, borliqni tadkik etish tadbirlari, usullari va jarayonlari birligi.

**Metodika** (yun.) — 1) qandaydir ishni maqsadga muvofiq o'tkazish usullari, yo'llari birligi; 2) pedagogikani o'qitish usullarini o'rganuvchi bo'limi.

**Metodologiya** —1) biron fanda tadbiq etiladigan tadqiqot usullarining majmui; 2) ilmiy bilim va dunyoni o'zgartirish metodi haqidagi ta'limot. Ilmiy bilim metodlarining nazariy asosi rivojlanib borayotgan fanning extiyojlari taqazosi b-n yuzaga kelgan bo'lib, u tabiat, jamiyat va inson onging murakkab hodisalarini to'g'ri ob'ektiv talqin etishga, fanning tabiiy aloqalarini ochishga imkon beradi. Ilmiy bilim masalasida usul muammosi b-n eng qadimgi fal.da Aristotel shug'ullangan. Birinchi marta fanni usul tizimi asosida o'rganish masalasining. Fay.i F. Bekan ilgari surgan. R. Dekart va I.Kantlar ham bu masalaga alohida e'tibor qaratganlar. Gegel metodologiyaga muhim hissa qo'shdi. U birinchi bo'lib fal-iy metodning o'ziga xos xarakteriga, uning aniq fanlar metodlaridan farq qilishiga va bu metodlardan iborat emas ekanligiga e'tibor bergen edi. Ilmiy bilish jarayonida har bir fan konkret tadqiqot ob'ektga ega ekan, o'zining maxsus usullarini ishlab chiqishi zarur. Lekin ba'zi bir fanlar bir-biriga yaqin bo'lgani uchun ularning tushuncha va qonunlari ham bir-biriga yaqindir. Demak, bilimda xususiylik va umumiylilik vazifasini bajaruvchi usullar ham mavjuddir. Ko'pchilik fanlarda qo'llanadigan usullar umumiy usul dey.adi. Umumiy usul qo'llanishi doirasiga ko'ra umumiy, lekin o'z maxsus vazifasiga ega. Bunga analiz va sintez umumlashtirish va mavhumlashtirish, induksiya va deduksiya, qiyoslash va modellashtirishni ko'rsatish mumkin. Shunday qilib, bilim jarayonida ilmiy tadqiqotning xususiy, umumiy va eng umumiy usullari mavjud bo'lib, ular o'zaro bir-biri bog'liq. Dialektik usul real olamni ilmiy bilishning eng umumiy usuli bo'lib, u barcha fanlar uchun metodologiyadir. Dialektik usul xususiy fanlar erishgan yutuqlardan foydalanib, ularning usullari b-n birgalikda rivojlanadi, ular bir-birini to'ldiradi va boytiadi. Hoz. zamon jihatidan salmog'ining oshib borishi b-n tavsiflanadi. Ilmiy taraqqiyoti sharoitida ilmiy bilim faoliyatining shakllari va usullari, tartib-qoidalari, mantiqi va tuzilmasi fanda yangidan-yangi yutuqlarni qo'lga kiritish imkoniyatini yaratmoqda.

**Mezosegregatsiya** — bir-biriga qo'shni hududlar doirasida bo'linishni ko'zda tutadigan irqiy segregatsiya.

**Me'yor** — ob'ektning sifat va miqdoriy jihatlari o'zaro bog'liqligini anglatadigan, mazmun va shakl, imkoniyat va voqelik o'rtasidagi zaruriy uyg'unlik ta'minlanishini ifodalaydigan falsafiy tushuncha; me'yoriy qoida – amalga oshirilishi zarur bo'lgan yoki istisno qilinadigan xatti-harakatlar. M.

tushunchasi qad. Hindiston, Xitoy va Yunonistondagi fal-iy qarashlarda shakllana boshlagan Markaziy Osiyo mutafakkirlari (Ibn Sino, Beruniy va sh.k) ham ushbu atamadan tabiiy-fal-iy asarlarida foydalanganlar. Ular o’z asarlarida tabiiy va ma’naviy ruhiy M.ga oid fikr-mulohazalarni bildirganlar. M.ni, fal-iy kategoriya sifatida asosan Gegel o’z fal.sida qayd etgan. har qanday ob’ektning sifati muayyan miqdor (moddiy tizimlarning xususiyatlari, unsurlari, soni va h.k.) b-n uzviy bog‘lisligi b-n belgilanadi. Ularning talablariga rioya qilish kundalik turmushimizda hamda bilish jarayonida ko‘zlangan maqsadga erishishimizga imkon beradi. Mas., “Ta’rif teng hajmli bo‘lishi kerak”, degan qoidaga rioya etilish tushunchaga beriladigan ta’rifning mantiqan to‘g‘ri bo‘lishini ta’minlaydigan shartlardan biridir. Agar bu qoida talabi buzilsa, tushunchaga beriladigan ta’rif haddan tashqari keng (mas., “Fan - bilimlar sistemasi”) yoki haddan tashqari tor (mas., “Fan - g‘oyalarda ifoda etilgan bilimlar sistemasi”) bo‘lib qoladi. Gapda ifodalangan M.lar hukmni (mulohazani) ifoda qilishi ham, qilmasligi ham mumkin. Mas., “Urushni targ‘ib qilish qat’iyan man qilinadi”, degan gap – normativ fikr, hukmni (mulohazani) ifoda etmaydi. “Saidov O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi sifatida mehnat qilish huquqiga ega”, degan fikr esa M. (me’yoriy qoida) haqidagi hukm (mulohaza) hisoblanadi; bunda M. “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari mehnat qilish huquqiga ega”, degan fikrdan iborat”); shuning uchun ham u mantiqiy qiymatga ega, ya’ni chin fikrni ifoda etadi. Demak, M. haqidagi hukmlar (normativ hukmlar) boshqa hukmlar singari mantiqiy qiymatga ega, ya’ni chin yoki xato fikrni ifoda etadilar. M.lar ilmiy bilishda qoidalarni metodlarni, huquqiy sohada – huquqiy normativ hujjatlarni (mas., qonunlarni, kodekslarni, buyruqlarni va sh. k.ni), axloqodob M.larini va b. sohalardagi normativ fikrlarni ifoda qiladilar. Ularning bilishdagi va amaliyotdagi ahamiyati ana shu b-n belgilanadi. M. doirasida miqdor o’zgarishlarining chegarasi mavjud. Ushbu chegara (misdor o’zgarishlari, unsurlarining katta-kichikligi, diskretligi, davriyiligi, bog‘lanish tartibi, tuzilishi, harakati va h.k) dan hatlab o’tilganda, ob’ekt boshsa shaklni olishi mumkin. M. ob’ektning sifat o’zgarishlari, o’z navbatida, miqdoriy o’zgarishlarga olib keladi. M. musiqada ritm, garmoniya, arxitekturada ansambl va h.k. asosini tashkil etadi. Jamiyatda M. kategoriyasi muhim ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

**Me’yorlar (norms)** — muayyan ijtimoiy birlik doirasida qabul qilingan xulq-atvor qoidalari. Me’yorlar xulq-atvorning muayyan ti-pini tavsiya kiladi yoki man etadi. Barcha ijtimoiy guruxdar noras-miy qo‘llamasliqsan to jismoniy jazo va o‘limgacha bo‘lgan turli sanksiyalar yordamida mustahkamlanib turiladigan o’z me’yorlariga ega bo‘ladilar.

**Mid (Mead) Jorj Gerbert** (1893–1931) – amerikalik faylasuf, sotsiolog va ruhshunos. Jeyms va Dyui pragmatizmi hamda naturalizmning

ko‘zga ko‘rinarli vakili. M. ongni individning tashqi muhitga moslashish quroli, deb izohlagan. Odamlarning guruhlardagi o‘zaro harakati sun’iy ob’ektlar dunyosi – ramzlarning vujudga kelishiga olib keladi. Ijtimoiylashuv jarayonida individlar ramzlarning ahamiyatini egallaydilar va ular yordamida o‘z harakatlarini ongli ravishda yo‘naltirishga o‘rganadilar. Shu tariqa ular o‘z harakatlarini yanada kengroq “ijtimoiy-harakatga” olib kelib qo‘sadilar. Shaxsning rivojlanishi – bu o‘z xulqi, xatti-harakatini hamkor harakatlariga moslashtirish, guruh hayotida unga ajratilgan “rolni” qabul qilishidir. Jamiyat esa, individda o‘zi to‘g‘risida ma’lum bir tasavvur shakllantira borib va uning xatti-harakatlarini zarur tomonga yo‘naltira borib, go‘yoki unga ichdan kirib boradi. Individda rivojlangan “Men” vujudga kelishi b-n tashqi ijtimoiy nazorat ichki tomonga yo‘naladi, o‘z-o‘zini harakati tuzilmasida o‘z rolini bajara oladigan mas’ul shaxsga aylanadi. M.ning ijtimoiy konsepsiysi ijtimoiy psixologiya, sotsiologiyaning (shaxs, ijtimoiylashuv, ijtimoiy nazorat muammolari) keyingi rivojiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Bu konsepsiya ramziy interaksionizm (G.Blumer, T.Kun, I.Gofman, A.Stross, T.Shabutani va b.) nomi b-n tanilgan yo‘nalishga asos bo‘ladi. Ijtimoiy fenomenologiya vakillari, xususan, Shyus g‘oyalarini yanada rivojlantirgan edi, shu sababdan, bir qator tadqiqotchilar M.ning ijtimoiy hayot to‘g‘risidagi tasavvurlarini bir tomonidan ijtimoiy fenomenologiyaga yaqin deb hisoblaydilar.

**Migratsiya** - (lat. migratio - **ko‘chib o‘tish**) - individlar yoki ijtimoiy guruhlarning doimiy yashash joylarini o‘zgartirish jarayoni bo‘lib, u boshqa jo‘g‘rofiy hudud yoki mamlakatga ko‘chib o‘tishda ifodalanadi.

**Mikrosegregatsiya** — kundalik turmush tafsilotlarida, masalan avtobus yoki temir yo‘l stansiyalaridagi kutish zallarini ajratib qo‘yishda namoyon bo‘ladigan irqiy segregatsiya.

**Mikrosotsiologiya** - (yunon. **micros** - kichkina va sotsiologiya) - sotsiologiyada nisbatan katta bo‘lmagan ijtimoiy tizimlardagi ijtimoiy xodisalar va jarayonlarni taxlil qilishga qaratilgan, alohida olingan hodisalarning mikrodarajadagi jarayonlar bilan aloqasini empirik tasvirlash bilan chegaralanadigan yo‘nalish, inson xulq-atvorini yuzma-yuz o‘zaro ta’sir kontekstida o‘rganish.

**Millat** — til, ma’naviyat, milliy o‘zlikning angash ruhiyati, urf-odatlar, an’analar va qadriyatlar yagonaligi asosida muayyan hududda yashovchi iqtisodiy aloqalar b-n bog‘langan mustaqil sub’ekt sifatida o‘ziga xos moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratuvchi kishilarning etnik birligi. M. ma’lum hududda barqaror yashab, tarixiy taraqqiyot davomida rivojlanib, kishilarning ma’naviy-ruhiy salohiyat yagonaligi asosida shakllanadi. U faqatgina “kapitalistik jamiyatning muqarrar mahsuli” emas, balki insoniyat dunyoga kelishi va taraqqiyotning mahsulidir. M.ning shakllanishi va rivojlanishida moddiy omillar muhim ahamiyatga ega bo‘ladi, ammo ular M. abadiyligini

ta'minlashning oxirgi imkoniyati emas. Ular M. taraqqiyoti uchun zaruriy shart hisoblanadi. M.ning abadiyligi, uning barqarorligini ta'minlashning asosiy omili uning ichki ma'naviy-ruhiy salohiyatidir. M.larning ichki-ruhiy salohiyati, yaratuvchilik qobiliyati, matonati, tinimsiz mehnati, tadbirkorligi va o'ziga xosligini rivojlantirish asosida hoz.gi zamon sivilizatsiyasi yuzaga kelgan. Mutaxassislarning fikricha, Er yuzida uch minga yaqin millat bo'lib insoniyatning o'rta hisob b-n 96 %ini birlashtiradi. qolgan 4 % elat va qabilalardir. Har bir M. nufuzi bir necha o'n mingdan bir necha yuz milliongacha boradi. M.lar besh yirik guruhga bo'linadilar: A (Buyuk M.lar) xitoyliklar, aholi soni 1 milliard ikki yuz ellik milliondan ortiq, hindlar, amerikaliklar, ruslar, yaponlar — har biri yuz milliondan ikki yuz, uch yuz milliongacha aholiga ega. B. Katta millatlar — 50 milliondan 100 milliongacha — ing.lar, fransuzlar, ispanlar, olmonlar, turklar va boshqalar. V. Yirik millatlar — 10 milliondan 50 milliongacha - o'zbeklar, portugallar, polyaklar, efioplar va b. G. o'rta millatlar — bir milliondan o'n milliongacha; D. Kichik M. bir necha o'n mingdan bir milliongacha. Jahondagi 27 M. Er yuzi aholisining qariyb 75 %ini tashkil qiladi.

**Millatchilik** — e'tiqod va timsollar tizimi bo'lib, muayyan milliy hamjamiyat bilan aynanlikni ifodalaydi.

**Milliy davlat** — hozirgi dunyo uchun xarakterli bo'lgan davlatning alohida tipi. Bunday davlatning hukumati muayyan hududda suveren hokimiyatga ega bo'ladi, aholi esa o'zini yagona millatning tarkibiy qismlari, deb his qiladigan fuqarolardan iborat bo'ladi. Milliy davlatlar, garchi millatchilik tuyg'ulari muayyan davlat chegaralari bilan har doim ham mos kelmasada, millatchilikning o'sishi bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Milliy davlatlar Evropada vujudga kelgan yagona tizimning tarkibiy qismlari sifatida rivojlandilar, bugun esa ular butun dunyo bo'ylab tarqalgan.

**Mill Jon Styuart (1806.2.05. London.-1873.8.05. Avinon)** – ingliz faylasufi, psixolog, sotsiolog va iqtissodchi. o'zining induktiv va deduktiv mantiq tizimi b-n mashhur. Asosiy asari “Sillogistik va induktiv mantiq tizimi”. Ingliz falsidagi mumtoz emprizm an'analarini davom ettirgan, uni pozitivizm darajasigacha rivojlantirgan. M. Kont singari, 19-a.ning eng taniqli pozitivistlaridan hisoblanadi. M. ta'limotiga ko'ra, falsafaning asosini ruhiyatshunoslik (psixologiya) tashkil etadi. Unga ko'ra, real tarzda faqat sezgilar va bo'lajak sezgilar to'g'risidagi tasavvurlar mavjuddir. Tushunchalar – shunchalik so'z atamalari, xolos. M. Aristotel sillogizmini inkor etgan. Uningcha, tashqi olam – o'xshash sezgilarning doimiy imkoniyatidir. Bilishning asosiy manbai tajriba, bilishning mumkin bo'lgan yagona usuli–induksiyadir; aynan u mantiqiy xulosani va matematika aksiomalarining asosini tashkil etadi. M. tabiat (darvoqe, u tarix fanini ham “tabiat to'g'risidagi fanlar” qatoriga qo'shgan) va ruh to'g'risidagi fanlar

(moral sciences) – psixologiya, jamiyat to‘g‘risidagi fan “etologiya”ni farqlagan va birinchi martda tabiat to‘g‘risidagi eksperimental fanning bat afsil naz-yasini va tavsiflash uslubini ishlab chiqqan. M.ga ko‘ra, etikaning vazifasi individ va jamiyat munosabatlarini qoniqarli murosaga keltirish yo‘lidagi ijtimoiy o‘zgartirishlarni amalga oshirishdir. Axloqiy qadriyatlar tug‘ma, intuitiv (g‘ayriaqliy) yoki aprior (tajribaga daxlsiz), abadiy va o‘zgarmas emas, balki tajriba mahsuli va o‘zgaruvchandir. M.ning fikricha, axloqiy faoliyatning oliy maqsadi hammaning baxtli bo‘lishiga yordam berishdir. (Evdemonizm, Utilitarizm).

**Mills (Mills) Charlz Rayt** (1916-1962) – amerikalik sotsiolog va publitsist. 1939 y. Texas un-tini falsafa va sotsiologiya ixtisosligi bo‘yicha bitirgan, pragmatizm sotsiologiyasidan doktorlik dissertatsiyasi yoqlagan. Uning ilk asarlari bilishning sotsiologik konsepsiyalari, madaniyat mantii va tilini o‘rganishga bag‘ishlangan. M. keyinchalik empirik taddiqotlar olib borib, kichik biznes va shahar hayoti muammolari bilan shug‘ullanadi. o‘z faoliyatining navbatdagi bosqichida M. empirik sotsiologiyaning amerikacha an‘analariga qarshi chiqadi. M. konsepsiyalariga Veblen hamda Veberning g‘oyalari kuchli ta’sir ko‘rsatgan. M. amerikacha neomarksizmning yirik vakili, “yangi sotsiologiya” (“Radikal sotsiologiyasining ko‘rinishi”)ning ijodkori. M. pozitsiyasiga ko‘ra marksizm bilan liberalizm o‘rtasida turadi. M. ijodida asosiy muammolar: 1) hukmron elita va jamiyatda intelekktuallarning roli; 2) madaniyat va sotsial struktura. M. sotsial tanqid nuqtai nazaridan fikr yuritganda Amerika jamiyatini ichki imkoniyatlaridan mahrum, kelajagi yo‘q, tanazzul holatida deb baholaydi. M. nazarida hozirgi davrda tarkib topgan sotsial struktura insoniy qadriyatlar (erkinlik, ijod, fikrlash qobiliyati)ning asosini buzadi. M.ning asosiy asarlari: “Kichik biznes va fuqaro farovonligi” (1946); “Xarakter va sotsial struktura” (1953); “Ikkinchi jahon urushining sabablari” (1958); “Sotsiologik xayol” (1959).

**Mintaqalashuv** — ijtimoiy hayotning mintaqaviy tuzilmalar yoki zonalar bo‘yicha taqsimlanishi.

**Mistika** – sirli, g‘ayritabiyy, tushunarsiz narsa yoki hodisa.

**Mitra - (Mehr)** tarixiy-adabiy “Avesto” yodgorligidagi eng qadimgi ilohiy obraz. Er.old. II ming y.likkacha shakllangan. M. obrazi dastlab Ural-Irtish hududlarida istiqomat qilgan arya (oriy) qabilalarining umumiy e’tiqod ob’ekti sifatida vujudga kelgan. Bunga Arkaim quyosh ibodatxonasi (er.old. a.) ham fikrimizga dalil bo‘la oladi. qabilalar o‘rtasida suv havzalari yoki o‘tloqlarni talashish oqibatida vujudga kelgan kelishmovchiliklarni bartaraf etuvga ma’bud qiyofasida gavdalangan. quyosh timsolidagi M.ga qasamyod qilish orqali o‘zaro kelishuvga erishilgan. Bu shartnomaliga shartlariga rioya qilish har bir urug‘ yoki qabila uchun majburiy hisoblangan. Qasamyodni buzgan tomon iloh Mitra (Mehrjon) tomonidan qiyomatda, albatta, qattiq

jazolanishiga shubha qilmaganlar. M. timsoli keyinchalik Zardusht tomonidan yaratilgan gotlar (gohlar yoki gatalar) da (madhiyalar) oliv iloh Ahura Mazdaga ibodat qilish buyurilganda Mitra Mazdaning nurini olamga yoyuvchi quyoshni oq ot mingan holda har kuni Sharqdan – G‘arbgan tomon eltuvchi ma’bud qiyofasida namoyon bo‘ladi. Ahura Mazdaning eng yaqin ma’budlaridan biriga va hatto Axura Mazdaning eng sevikli qizi ma’buda Ardvi Sura Anaxitaning qaylig‘iga aylantiriladi. Mitra 25 dakabrdan ulug‘vor tog‘ qoyasidan tug‘ilgan. M. sajdaga qilish keyinchalik juda ko‘p xalqlarga keng tarqalgan. Jumladan, Rim legionerlarining yashirin ibodat qilish ob’ektlariga ham aylangan edi. Bu esa ilk masihiylikning Evropada tarqalishida kuchli raqobatchi ham hisoblangan (Iso Masihning tug‘ilgan kuni ham 25 dekabr ekanligi tasodifiy bo‘lmasa kerak). Mitraizm, mitropolit, mir tushunchalarining ilk ildizi aynan Mitra (Mehr) obraziga borib taqalishi fikrimizni tasdiqlaydi.

**Mitraizm** - xudo Mitraga sajda qilish bilan bog‘liq bo‘lgan din. Eramizdan oldingi so‘nggi asrlarda Eronda paydo bo‘lib Rim imperiyasi va old Osiyoda tarqalgan.

**Moddiylashtirish** – ma’no strukturalari, sxemalar, loyihalarining inson faoliyatida gavdalaniishi.

**Modus** – predmetning unga ayrim holatlardagina xos bo‘lgan muvaqqat xossasi.

**Monarxiya** (yun. monarchia-yakkahokimlik) — davlatni boshqarish shakllaridan biri. Hokimiyat bir kishining qo‘lida (odatda hokimiyat unga meros shaklida o‘tadi) bo‘lgan davlat tuzumi va shunday davlatning o‘zi. Uning cheklanmagan, absolyut (hokimi mutlaq) va cheklangan, konstitutsion (monarx hokimiysi parlament tomonidan qonun yo‘li b-n cheklangan) kabi turlari mavjud. (Mas., Buyuk Britaniya, Ispaniya, Shvetsiya.) Ba’zi mamlakatlarda teokratik M. shakli ham mavjud (monarx ayni paytda diniy boshliq ham hisoblanadi).

**Moniy Ibn Fatak (216 – Ktesifon – 277)** – monizm ta’limotining asoschisi; naqqosh va rassom. Markaziy Osiyo, Eron Hindiston bo‘ylab safar qilib, zardushtiylik, buddaviylik, braxmanlik kabi turli diniy ta’limotlar b-n tanishadi. 240 y.dan boshlab M. o‘zining mustaqil ta’limotini Eronda targ‘ib qila boshlaydi. Biroq zardushtiy qohinlari bu ta’limotga keskin qarshi chiqadilar. Shundan so‘ng, M. asosan Markaziy Osiyo erlarida, shu jumladan, o‘zbekiston hududida faoliyat ko‘rsatadi. M. 273 y.da Eronga qaytadi va Shoh Bahrom 1ning topshirig‘i b-n 275 y. hibsga olinib, zindonband qilinadi va 277 y.da qatl etiladi. Dunyo – ziyo va zulmatning abadiy kurash maydoni, insonning vazifasi esa, yovuzlikni uzil-kesil yo‘q qilish uchun ezgulikka ko‘maklashishdir. Bu g‘oya M. axloqiy ta’limotininng asosini tashkil etadi. M. o‘z zamondagi bilimlarning hamma sohalarini qamrab olishga uringan va

ularni o‘z naturfal.si nuqtai nazardan talqin etib, inosonlarni axloqiy va insonsevarlik vositasi b-n hayotga yaqinlashtirishga harakat qilgan. M.ning ta’limotiga ko‘ra, jamiyat kishilarning ikki kategoriyasidan iborat. Birinchi kategoriya – mumtoz zodagonlar (qashshoqlikda yashovchi aslzodalar). Ular mehnatkashlar qanoatlanadigan miqdorda moddiy ne’matlar olib, zohidlarcha hayot kechirishlari lozim. Ikkinci kategoriya – mehnatkashlar jamoasi va savdogarlar bo‘lib, ular yuksak axloqiy hayot kechirishlari, hech kimni (insonni ham, hayvonlarni ham) o‘ldirmasliklari, go‘shtli taomlar eyishdan o‘zlarini tiyishlari b-n ziyo hamda ezgulik kuchlarining g‘alaba qilishiga ko‘maklashishlari lozim. M. turli dunyoni e’tirof etadi: biri kishilar real tarzda yashaydigan dunyo bo‘lib, undaadolatsizlik, zulm, zo‘ravonlik hukm suradi, inson kamolatga erisha olmaydi; ikkinchi dunyo – “ehyo dunyosi” deb ataladi. Bu dunyo “abadiy mo‘jizakor” bo‘lib, go‘yo uning ilohiy qobig‘i olmosdan yasalgan, u hech qachon emirilmaydi va yovuz niyatli biror dushman unda mavjud bo‘lmaydi. “Shoburaqon”, “Kanz ul-ehyo” (“Tirilganlar xazinasi”), “Jabborlar haqida”, “Silar kitobi”, “Avangelion”, “Kefalak”, “Bungoxik”, (“Bungohang”) kitoblari uning qalamiga mansubdir. M. ta’limoti o‘limidan keyin keng tarqaladi. U 8-a.da Uyg‘ur xonligida hukmron dinga aylanadi. Ammo keyinchalik moniylik islom dini ta’qibiga uchradi va asta-sekin Evropa va Osiyo mamlakatlari barham topdi. 14-a.ga kelib bu diniy ta’limot Xitoyda ham taqiqlandi. M. o‘rta asr Sharq she’riyatida mashhur naqqosh va rassom sifatida doimo tilga olingan.

**Monizm** – plyuralizmga zid o‘laroq, muayyan bir asosdan kelib chiqadigan falsafiy yondashuv.

**Monogamiya** — nikoh shakli bo‘lib, unda nikohdagi har bir individga ayni bir paytning o‘zida bitta er yoki bitta xotin bilan nikohlanishga ruxsat etiladi.

**Monopoliya** — sanoatning muayyan sohasida bir firma ustunlik qiladigan vaziyat.

**Monoteizm** — yakkaxudolik.

**Moreno (Moreno) Jekob (1892 y. tug‘ilgan)** — amerikalik psixiatr va sotsiolog, sotsiometriyaning asoschisi. Muhim asarlari: “Kim tirik qoladi?” (1934), “Sotsiometriya asoslari” (1954). Sotsiolog sifatida m. kichik ijtimoiy guruuhlar maktab yoshidagi bolalar, qo‘sishlar, muassasa xizmatchilari, samolyot ekipaji va b.larning xatti-harakatidagi psixologik jihatlarni o‘rganadi (mikrosotsiologiya). M. asosiy e’tiborni odamlar o‘rtasida vujudga keladigan emotsional munosabatlarga, mas., bir-biriga nisbatan simpatiya va antipatiya yoki befarqlik his-tuyg‘ulariga qaratarkan, kishilarning bu emotsiyalarini, qiziqishlarini ijtimoiy taraqqiyotning birlamchi va hal qiluvchi omili sifatida tasvirlashga urinadi. AQSH da kapitalizm krisisini anglab etgan M. barcha sotsial problemalarni hal etishning asosiy vositasi –

odamlar orasidagi munosabatlarni, gruppalarning uyushuvini ularning qiziqishlariga va simpatiyalariga muvofiq tartibga solishdan iborat, deb hisoblaydi. Amerika jamiyatini “jipslashtirish” yuzasidan M. taklif etgan tadbirlar uning xususiy mulkka, monopoliyalar hukmronligiga, daxl qilmaydi.

**MOR (More) Tomas (1478 7 fevral — 1535 7 iyul)** — ingliz gumanisti, davlat arbobi va yozuvchisi, xayoliy (utopizm) fal.si vakillaridan biri. 1478 y.ning 7 fevralida Londonda sud amaldori oilasida tug‘ildi. M. dunyoqarashining shakllanishi va ijodiy faoliyati Angliyada yangi dvoryanlar tabaqasi — jentrilarning tarix sahnasisiga kelishi, davlat absolyutizmining o‘rnatalishi davriga to‘g‘ri keldi. M. 1492-1494 y.larda Oksford un-tida tahsil oldi. Oksforddan so‘ng M.ning dunyoqarashiga Erazm Rotterdamskiy ham katta ta’sir ko‘rsatdi. Bibliya matnlarini chuqur o‘rgangan M. o‘z mulohazalarini 1516 y.da “Davlatning eng yaxshi tuzumi to‘g‘risida va yangi Utopiya oroli haqida bag‘oyat foydali, ham maroqli, ham oltin kitob” nomli asarida bayon etadi. Kitob ikki qismidan iborat. Uning hajman kattaroq bo‘lgan va dastlab yozilgan ikkinchi qismida xayoliy (utopik) turmush tarzi xususida hikoya qilinsa, keyinroq bitilgan qismida Angliya hayoti tanqidiy ko‘z b-n yoritildi. Kitob muallifning mavjud ijtimoiy va ma’naviy voqelikka naqadar salbiy munosabatda bo‘lganini namoyon etadi.

Asarning o‘sha davrda katta obro‘ga ega bo‘lgan Erazm Rotterdamskiy tomonidan nashr etilishi, muallif mulohazalarining sayohatchi Rafail Gotlodey tilidan ifodalanishi M.ga muvaffaqiyat keltirdi. M. 1525 y.da Lancaster gersogligining kansleri lavozimiga tayinlandi. Ushbu lavozimda ishlab yurgan kezlari u Angliya qiroli Genrix VIII e’tiborini qozondi va 1529 y.da eng yuqori davlat lavozimi — Angliya lord-kansleri kursisini egalladi. Lekin 1532 y.da uning taqdirini tubdan o‘zgartirgan voqealar sodir bo‘la boshlaydi. o‘sha y.i katolik cherkovining mislsiz boyliklari va obro‘-e’tiborini egallahni niyat qilgan Angliya qiroli Genrix VIII cherkov islohotlarini boshlab yubordi. Xristian-katolik dunyosining ma’naviy yaxlitligi timsoli bo‘lgan M. lyuternlik islohotlarga keskin qarshi chiqdi. o‘z axloqiy tamoyillaridan va e’tiqodidan voz kecha olmagan mutafakkirni 1532 y.da lord-kansler lavozimidan chetlashtiradilar. qirol Genrix VIII uni xiyonat qilganlikda ayblaydi va 1534 y.da Tauerdagi kamoqxonaga zindonband etadi. Bir y. o‘tgach, M.ning boshi tanasidan judo qilindi. Oradan uch a. o‘tganidan keyin 1886 y.da nohaq zulm ko‘rgan mutafakkir katolik cherkovi tomonidan avliyolar safiga kiritildi va 1935 y.da bu hol qonuniylashtirildi. M.ning ijodiyoti gumanistik axloqiy idealning, inson qadr-qimmati va uning erkinligi haqidagi ta’limotning yorqin ifodasi edi. Uning fojeali o‘limi Florensiyadagi Platon akademiyasi tomonidan e’lon qilingan oltin a. haqidagi orzu-umidlar barbos etilganidan, Erazm Rotterdamskiyning “xristiancha gumanizim”ining

chilparchin bo‘lganidan dalolat beradi.

**Motiv** (lot. moteo – harakatlantiraman, fransuz. motiv – undovchi sabab) shaxsni aqliy, amaliy harakatga va xulq-atvorni amalga oshirishga undovchi, muayyan ehtiyojlarni qondirish b-n uzviy bog‘liq mayl yoki sababiyat. M.larning asosiy funksiyasi insonni harakatga undovchi sabablar ichki turkilar vazifasidan iborat. Odamni faoliyatga undovchi asosiy sabab uning ehtiyojlaridir. Binobarin, xatti-harakatga va faoliyatga undovchi shaxsning anglashilgan xususiyati hisoblanuvchi, ehtiyojni aks ettirishning yuksak shakli sifatida paydo bo‘luvchi ichki turtki motiv. Xatti-harakat va faoliyat M.larining majmuasi motivatsiya dey.adi. M.lar ehtiyoj negizida vujudga keladi, rivojlanadi va shakllanadi. M. mazkur negizda o‘sib, barqarorlashib borib, ehtiyojning mustahkamlanishiga yordam beradi. Ehtiyojlarning barqarorlashuvi motivatsiyaning samarali shakllanishini ta’minlashga xizmat qiladi. Odatda inson faoliyati va harakatiga ta’sir o‘tkazuvchi jarayonda o‘zaro bog‘liq ravishda ehtiyoj tomonidan M. va maqsad aniqlanadi. Harakat faoliyatning tarkibi bo‘lganligi tufayli faoliyatning maqsadi va M.i orqali boshqariladi. Lekin “motiv-faoliyat”, “maqsad-harakat”, “sharoit-operatsiya” holatlari o‘rtasida qat’iy aloqa hukm surmaydi. Ba’zan m. tushunchasini “ustanovka”, “emotsiya”, “maqsad” kabi atamalar b-n almashtirish hollari uchrab turadi. Goho m. turtki, qo‘zg‘ovchi, undovchi singari istilohlar b-n aynanlashtiriladi. M.lar ehtiyojning ifodachisi, harakat va faoliyatning boshqaruvchisi bo‘lganligi sababli ularni shaxsning dinamik xususiyati tarkibiga kiritish mumkin. Xuddi shu boisdan m.lar shaxsning yo‘nalganligi, maqsadga intilganligi b-n uzviy aloqadadir. Yo‘nalganlik m.ga nisbatan kengroq ko‘lamga ega bo‘lgan tushuncha hisoblanadi va o‘z navbatida m.ning shakllanishiga yordam beradi.

**Moturudiy Abu Mansur as-Samarqandiy (taxm. 944-945 y.da vafot etgan)** islom dunyosida “Hidoyat yo‘lining imomi”, “Mutakallimlar imomi” martabasiga muyassar bo‘lgan, kalom ilmining Samarqand makkabini yaratgan mashhur diniy alloma. U o‘z ustozlari Abu Bakr Ahmad al-Juzjoniy, Abu Nasr Ahmad al-Iyodiy, Nasr ibn Yaxo al-Balxiy va Muhammad ibn al-Fadl kabi zukko allomalardan islom ilohiyoti sira.orlarini o‘rgandi, mustaqil ijod yo‘liga kirib bordi. Abu Tohirxo‘ja (vafoti 1874 y.)ning fikricha, imom M. Ali ar Rustug‘faniy, Ishoq ibn Muhammad as-Samarqandiy, Abd al-Karim ibn Muso al-Pazdaviy kabi iqtidorli shogirdlarni voyaga etkazdi. M. asarlarida Alloh, inson va ilm masalalari etakchi o‘ringa ega. M. Ilohiyot sohasini sharhlashda keng tabiatli, gina-kuduratlardan yiroq, kek saqlamaydigan, diniy betaqotlikka o‘rin qoldirmaydigan, shu b-n birga o‘ta ehtiyojkor mutafakkirdir. M. o‘z mulohazalarida o‘zgalar g‘oyalari, nuqtai nazarlarini xolisona tekshirib ko‘rishga erinmaydigan va o‘z qarashlariga maqbul keladigan diniy va dunyoviy qarashlarni qabul qilishni maqsadga

muvofig biladigan inson edi. M.ning ta'limotiga ko'ra, me'yor va e'tiqodni Alloh yaratadi. Insonning mas'uliyati ularni ixtiyor etishda. Kishilar ezgulikni o'zlariga ravo ko'rsalar, tavfiq ne'matiga musharraf bo'ladilar. M. ilmni ibodatdan ustun, deb biladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bilim ikki xil ko'rinishda namoyon bo'ladi. Birinchisi — Allohnning bilimi ("al-ilm billoh"). Uning ilmi mutlaq haqiqatdir. Ikkinchi ko'rinishi esa Alloh to'g'risidagi bilimlarimizga taalluqli. U "ilm olloh" deb yuritiladi. Alloh, olam va insonni bilish bir-biriga tutash nuqtalarga ega. Ular aql, hissiy mushohada va xabarlar orqali bilinadi. Xabarlar oddiy, birinchi shaxslardan bevosita etib kelgan xabar ("mutavotir xabar") va payg'ambar tomonidan etkazilgan xabar ko'rinishlariga egadir. Bunda ilohiy-vahiy, payg'ambardan etib kelgan xabarlarning mavqeiyi yuksakdir. Xabar b-n birgalikda jonli mushohadaning ahamiyati muhim. Alloh bu dunyoni behuda yaratmagan. U yaratganni bilish va anglashning muhim vositasi. Olamni yaratishga qodir Alloh inson zotiga sezgi a'zolari, aql-farosat, mushohada qilish quvvatini ham ato etgan. Inson ular orqali Yaratganni taniydi. Lekin hech narsa, M.ga ko'ra, aql ne'matining o'rnini bosa olmaydi. Ayniqsa, nazariy bilim ("ilmi-n-nazar")ning maqomi qudratlidir. Aqlning sezgilar b-n o'zaro munosabati tasodify emas. Beshta sezgi a'zolari va ichki tuyg'u aql uchun go'yoki xizmatkor, oddiy tushuncha (idrok) bo'la oladigan darajada yaratilganligi M. nazdida kuchli dalildir. Aql ham o'z navbatida ular ustidan nazoratchi-kuzatuvchidir. U jonli mushohada va xabarning muayyan vaziyatda to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlashda eng yuqori martabali hakam vazifasini bajaradi. U buyuk ne'mat, unga hech qanday narsa teng kela olmaydi. Uning hukmiga barcha narsalar bo'ysunadi, uning oldida o'tmish, hoz zamon va kelajak baravardir. Aql tufayli olam va Allohnin tanish naqadar muhim bo'lmasin, u o'ziga xos kamchilikka ham ega M.ning ta'kidlashicha, uning biz kutmagan tirqishidan imon-e'tiqod uchun noxush hisoblangan shubha kirib kelishga urinadi. SHunday vaziyatda inson ixtiyorida yagona yo'l qoladi. Bu yo'l — Allohnning ilmi. U inson uchun behad ahamiyatli, chunki, uni son-sanoqsiz shubhalardan a.ab qoladi, deb ta'kidlaydi M. M.ga nisbatan ba'zan ishlatilayotgan ratsionalizm va sensualizm kabi iboralarni qo'llash o'rinsiz. Alloma bilimnnig paydo bo'lishi va shakllanishida aql va sezgilarning bir-biri b-n uzviy aloqada bo'lishini bilishning muhim tamoyili sifatida qabul qiladi. Mashhur ilohiyotchi alloma M. bu sohaga yangi usul va g'oyalarni olib kirdi. Diniy betoqatlik, mutaassiblik an'analariga diniy donishmandlikni qarama-qarshi qo'ydi, ahli mo'minlarni bir-biridan uzoqlashtiradigan fisqu fasodlarga javoban aqliy etuklikni taklif qildi. Diniy takabburlik, barcha muammolarni hal etishga yagona da'vogarlik, imon-e'tiqodga hakamlik, undan muayyan siyosiy maqsadlarni ko'zlash M.ning diniy va dunyoviy qarashlariga tubdan ziddir. Allomaning bunday yo'sinda

fikrlash uslubi uni butun jahonga tanitdi. M.ning asosiy asarlari: “Kitob at-tavhid”, “Kitob ta’vilot al-qur’on”, “Kitob bayon va umm al-mu’tazila”; “Kitob al-maqomat”; “Kitob al-jadal” va boshqalar.

**MUHAMMAD Ibn Muso al-Xorazmiy** (783, Xorazm — 850, Bag’dod)—matematik, astronom, faylasuf. Ilk bilimlarini Xorazmda oldi. Otasi saroy a’yonlaridan bo’lganligi va arab xalifasi abbosiylar sulolasidan Horun ar-Rashid (hukmronlik davri 786-809 y.)ning o‘g‘li Ma’munning Xorazmga noyib (802-805 y.) etib taynlanganligi va o‘ziga tengdosh Muso al-Xorazmiyni yaqin safdoshlari qatoriga qo’shganligi yosh, bo’lajak olimning taqdirida muhim rol o‘ynadi. 809 y.da Horun ar-Rashid vafotidan keyin katta o‘g‘li Amin taxtni egallaydi. 813 y.da Xalifa Amin o‘ldirilgandan so‘ng Ma’mun (813-833 y.) Bag’dodda xalifa bo’ladi. Ma’mun “Bayt ul-Hikma” (Ilmlar uyi) ga asos solib, o‘z davrining fozil-fuzalolariga homiylik qiladi. o‘zi tashkil etgan “Bayt ul-Hikma”ga do’sti X.ni boshliq qilib tayinladi. X. bu lavozimda umrining oxirigacha faoliyat yurgizdi. X.ga “Hisob al-hind” (“Hind hisobi”) nomli risolasi katta shuhrat olib keldi. Risolada fan tarixida birinchi marta o‘nlik pozitsion sistema va uning amaliy ahamiyati haqida so‘z boradi. X.ning o‘nlik pozitsion sistemasi insoniyatga cheksiz qulay imkoniyatlar yaratib berdi. Agar mazkur sanoq tizimi bo‘lmaganida ilmiy tafakkur bu darajada takomil topishi amrimahol bo‘lardi. Mas.: 1180703051492863 raqami o‘rta asr islom olami va Evropa adabiyotlarida “Ming ming ming ming ming besh marta va yuz ming ming ming ming to‘rt marta va sakson ming ming ming ming to‘rt va keyin etti yuz ming ming ming uch marta va uch ming ming ming uch marta va ellik bir ming ming ikki marta va to‘rt yuz ming va to‘qson ikki ming va sakkiz yuz oltmis uch” deb o‘qilgan va yozilgan. Sonlarni bu taxlitda o‘qish va yozish matematika fanining, qolaversa, matematika b-n bog‘liq barcha fanlarning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan bir paytda X. to‘qqiz belgidan iborat hind raqami yordamida cheksiz miqdorlarni qayd etuvchi va uni osonlik b-n ifodalovchi sanoq tizimini kashf etdi. Hindlarning to‘qqiz belgidan iborat raqamlar tizimi yaroqsiz holatda edi. Chunki bu raqamlar mukammal sanoq tizimi bo‘lishi uchun “sifr” (“nul”) kashf etilib o‘z o‘rniga qo‘yilishi kerak edi. X. tomonidan “O” (nul-sifr)ning kashf etilishi insoniyat ilmiy tafakkurining beqiyos yutuqlaridan biridir. X. tomonidan yozilgan “Hisob al-hind” (“Hind hisobi”) nomli risolada olti amal — qo’shish, ayirish, ko‘paytirish, bo‘lish, darajaga ko‘tarish va kvadrat ildiz chiqarish kabilar mavjud. X.ning yana bir buyuk xizmati insoniyatga algebra fanini tortiq qilganidir. “Algebra” atamasi X.ning “Al-kitob al muxtasar fi hisob al-jabr va-l-muqobala”ning (“Al-jabr val-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob”) nomli risolasidagi “al-jabr” so‘zining lotincha ifodasidir. Bu asar lotin va boshqa Evropa tillariga tarjima qilingan. Algoritmlar naz-yasi ham X. nomi

b-n bog‘liq. “Algoritm” atamasi lotinchada talaffuzda “DIXSI Algoritmus” ekanligi ma’lum. Xalifa Ma’mun olimlar oldiga osmon va Erning to‘liq xaritasini tuzishni vazifa qilib belgiladi. X. bu ishlarga rahbarlik qildi. Xaritalar “Majmui al-Ma’mun” – “Dunyo xaritasi” nomi b-n yuritildi va 840 y.lar atrofida nihoyasiga etkazildi. Shu munosabat b-n X. jug‘rofiyaga oid “Kitobi surat al-arz” nomli asarini yaratdi. Bu asarning yagona qo‘lyozma nusxasi qohiradan topilgan, ancha varaqlari yo‘qolgan. 22 ta xaritadan faqat 4 tasigina saqlanib qolgan. X. Er yuzini Avesto ta’limotidagi kabi 7 iqlimga bo‘lib o‘rganishni tavsiya qiladi. X.ning tarixga oid asarlari, xususan, “Xorazmning mashhur kishilari” asari va Abu Rayhon Beruniy bu asardan to‘rtta ko‘chirma olganligi bizga ma’lum. Boshqa bir asarida payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning tug‘ilgan yili, oy va kuni shamsiy yil hisobi b-n 570 y. 23 aprel ekanligini aniqladi. Bu ilmiy dalil barcha muslimonlar tomonidan e’tirof etilgan. “X. o‘z asarlari b-n SHarq va keyinroq Evropa riyozat ilmiga asos soldi” (S.Tolstov). Jahon fani tarixinining IX a. birinchi yarmini hech mubolag‘asiz X. davri deb atashimiz lozim.

Xorazmiy asarlari xalqimiz dahosini olamga asrlarga osha ko‘z-ko‘z qilayotgan va hozir ham o‘z qimmatini yo‘qotmagan beba ho meros sifatida qadrlidir.

**Muloqot** (communication) — bir individ yoki guruxdan boshqa individ yoki guruxdarga axborot uzatish. Muloqot ijtimoiy o‘zaro ta’sirning barcha turlari uchun zaruriy asos xisoblanadi. "Yuzma-yuz" o‘zaro ta’sir jarayonida muloqot til, tana harakatlari, imo-ishora yordamida amalga oshiriladi, shuning asosida odamlar gapirayotgan narsa yoki bajarayotgan harakatlar boshqalar tomonidan tushuniladi. Yozuvning rivojlanishi, keyinchalik, ommaviy muloqotning elektron vositalari, jumladan, televidenie, radio, kompyuter tarmoq-lari paydo bo‘lishi bilan muloqot muayyan darajada bevosita ijtimoiy o‘zaro ta’sir xususiyatlarini yo‘qotdi.

**Multi chiziqli evolyusiya** — ijtimoiy evolyusianing talqini bo‘lib, turli jamiyatlar uchun evolyusion rivojlanishning ko‘plab yo‘llari mavjudligini e’tirof etadi.

**Muntazam armiya** — u yoki bu darajada uzlusiz faoliyat olib boradigan professional armiya.

**Murakkab kod** — nutqning alohida shakli bo‘lib, so‘zlarni aniq ma’no ifodalash uchun juda tanlab ishlatishni taqozo etadi.

**Mustaqil o‘zgaruvchi** — bog‘liq o‘zgaruvchi sifatidagi omillarga ta’sir ko‘rsatuvchi o‘zgaruvchanlik yoki omil.

**Mustamlakachilik** — davlatlarning o‘z hududlaridan tashqarida hukmronlik o‘rnatishi.

**Mutatsiya** — tasodifiy irsiy siljishlar jarayoni bo‘lib, hayvonlar yoki o‘simgiliklar jismoniy belgilariga o‘zgarishlar kiritadi. Mutatsiyalarning

ko‘pchiligi organizm evolyusiyasini boshi berk ko‘chaga olib kiradi — mutatsiyaga uchragan organizmlar yashab qolishga layoqatsiz bo‘ladilar. Biroq ba’zan mutatsiyalar yangi turlarning gullab-yashnashi uchun imkon beradigan yangi belgilarni vujudga keltiradi.

**Mutlaq kambag‘allik** — yashash uchun zarur bo‘lgan minimal sharoitlarni hisobga olib belgilangan kambag‘allik darajasi.

## N

**Najmiddin Kubro**, Ahmad ibn Umar Abul-Jannob Najm-ad-din al-Kubro al-Xorazmiy (1145–Xorazm–1221) — tasavvuf olamining zabardast allomalaridan biri. Abdurahmon Jomiy o‘zining “Nafahot ul uns” asarida yozishicha, N.K. bolalik chog‘laridanoq ilm istab, Misrga boradi va u erda Ruzbehon Vazzon al-Misriy ismli taniqli so‘fiydan ilohiyot sirlarini o‘rganadi. Ruzbehon Vazzon o‘z o‘g‘lidek sevib, unga mehr-muruvvat ko‘rsatadi, hatto o‘z qiziga uylantiradi. Keyinchalik N.K. tasavvuf borasida o‘z ilmini oshirish maqsadida Tabrezga borib, tasavvufga oid ko‘pgina zohiriya va botiniy ilmlarni o‘rganadi. So‘ng esa N.K. Xorazmga qaytib, tasavvuf ilmini targ‘ib qilish va shogirdlar tayyorlash b-n mashg‘ul bo‘ladi. Tasavvufda Kubraviya tariqatiga asos soladi. Kubraviya tariqati Xuroson, Hindistonda ham keng tarqalgan. Mutasavvif olim katta obro‘ga ega bo‘lsa ham, faqirona, kamtarona hayot kechirgan. o‘z ona Vatanining fidoyi, jasur, mard o‘g‘loni bo‘lgan. Mo‘g‘ul bosqinchilari Xorazmni zabit etishga kirishganda u o‘zining minglab shogirdlari b-n so‘nggi nafasi qolguncha dushmanga qarshi kurashib, mardlarcha halok bo‘ladi. N. K. asarlari: “Favoyih al-jamol va favotih al-jalol”, “Al-usul al-ashara” va b.

**Narkomaniya** - (yunon. narke-karaxtlik, mania-extiros) narkotik moddalarning iste’mol qilish natijasida shaxsning ruhiy va ijtimoiy voyaga etishning sekinlashuvi va undan kelib chiqadigan muammolar.

**Nazariya** — amaliyot sinovlaridan muvaffaqiyatli o‘tgan, ma’lum bir tizimga kiritilgan ilmiy-qarashlar majmui; tushunchalar va hukmlar kabi voqelikning inson ongidagi in’ikosi. Tushuncha va hukmdan farqli o‘laroq, N. alohida fikr yoki g‘oya emas, balki voqelikni biron sohasi haqidagi g‘oyalar tizimidir. Shuningdek, N. o‘zida faqat g‘oyalar tizimini mujassamlashtirish b-n chegaralanib qolmaydi, balki o‘sha tizim ichidagi va ostidagi tizimlarni ham birlashtiradi. Boshqacha aytganda, N. faqat g‘oyalar tizimi emas, balki g‘oyalar tizimining yig‘indisi hamdir. Bilimlar g‘oyaga, g‘oyalar naz-yaga aylanishi uchun qo‘yidagi uch bosqichni bosib o‘tadi: 1. Bilihsning turli usullari (kuzatish, o‘lchash, taqqoslash, eksperiment, modellashtirish) yordamida yangi bilimlar hosil qilinadi. Turli axborotlar

bilim darajasiga ko‘tariladi. 2.Hosil qilingan bilimlar asosida (analiz va sintez, induksiya va deduksiya, gipoteza) yangi g‘oyalar vujudga keladi. 3.Yangi g‘oyalar ma’lum bir tizimga solingach (ideallashtirish, formallashtirish, reduksiya va aksiomalashtirish), yangi naz-yaga aylanadi. Neopozitivizmning vakili B. Rassel biluvchi sub’ektni ikkiga ajratadi: 1) tabiiy hodisalar tadqiqot etilganda tadqiqotchi-sub’ekt bilish jarayonida butun insoniyat nomidan va uning vakili sifatida qatnashadi. Bunday sharoitda sub’ekt tomonidan qilingan kashfiyotlar yoki chiqarilgan xulosalar butun insoniyatning manfaatlariga mos kelganligi uchun haqiqat deb e’lon qilinadi. 2) ijtimoiy hodisalar o‘rganilayotgan jarayonda esa, sub’ekt butun insoniyat nomidan qatnasha olmaydi, balki u birinchi navbatda o‘z sinfi, millati, dini, mintaqasi, mamlakati, irqi va h.k.larning manfaatlarini himoya qilib, haqiqatning ob’ektivligiga putur etkazadi, deb hisobladi. B. Rassel ijtimoiy voqelikni bilishning yagona mezoni umuminsoniy manfaatlarga mos tushishlik darajasi deb ko‘rsatdi. U sub’ekt ijtimoiy hodisalarni o‘rganayotganda birinchi navbatda umuminsoniyat manfaatlarini himoya qilish va umuminsoniyatning vakili sifatida bu jarayonda qatnashishi zarurligini ta’kidladi. Sub’ekt ijtimoiy jarayonlarni bilishda insoniyatning mushtarak manfaatlariga zid kelmagan taqdirdagina u o‘z sinfi, millati, jamiyati va h.k.lar manfaatlarini himoya qilishga haqlidir, deydi. B. Rasselning bunday qarashlari 1955 y. Jeneva shahrida mashhur “Paguosh manifesti”da e’lon qilinib, keyinchalik bu chaqiriq “Yangicha siyosiy tafakkur”, – deb e’tirof etildi.

**Nazariy dilemma** — munozara markazida uzoq vaqt turgan nazariy muammo.

**Nazariy masalalar** — kuzatilayotgan hodisalarning qonuniyatlarini tushuntirishga harakat qilayotgan sotsiolog oldida paydo bo‘ladigan savollar. Nazariy savollarni hal qilish bizga ijtimoiy hayotning mohiyatini umumlashtirish imkonini beradi.

**Nazariy yondoshuv** (theoretical approach) — ijtimoiy hayotning muayyan nazariy an’analaridan kelib chiqadigan jihat. Sotsiologyaning asosiy nazariy an’analaridan ba’zilari: funksionalizm, strukturalizm, timsoliy interaksionizm va marksizm. Nazariy yondoshuvlar sotsiologlar ish olib boradigan tadkiqotlarga, shuningdek, muammo-larni anikdash va hal kilishga ta’sir o‘tkazish usullarini belgilay-digan umumiyl “istiqbollarni” anikdaydi.

**Nazokat** — mazkur jamiyatda ayollardan kutiladigan o‘ziga xos xulqatvor shakllari.

**Neformal munosabatlar** (informal relations) — guruxdar va tashkilotlarda mavjud munosabatlar bo‘lib, ular shaxsiy mayllar asosida shakllanadi; rasman e’tirof etilgan usullar yoki protseduradan farq qiluvchi harakat usullari.

**Negativ** – (lot. *negativus* - manfiy, salbiy) — 1) ob'ektning asliga qarama-qarshi bo'lgan salbiy fikrlar va qarashlar.

**Neoimperializm** — noteng iqtisodiy ayriboshlash natijasida ba'zi davlatlarning boshqa davlatlardan ustunlik qilishi. Eski imperiyalardan farqli ravishda, neoimperializmda bir jamiyat ikkinchisi ustidan bevosita siyosiy hukmronlik qila olmaydi.

**Neolokal hayot kechirish** — oilaviy juftlik er yoki xotinning ota-onalaridan alohida joyda turmush kechirishiga asoslangan oila modeli.

**Neopozitivizm** (lot. *positivus* – ijobiy, neos—yangi) – G‘arbda keng tarqalgan falsafiy yo‘nalish. N. fal-iy tafakkurga tajribaning “pozitiv” – ijobiy natijalarini qarshi qo‘yadi. Uning diqqat markazida turgan muammo – bu fal. va fanning o‘zaro munosabati masalasi. Uningcha, voqelik to‘g‘risidagi bilim ayrim fanlar yoki ularning “sintetik” birligining real natijasi sifatida qo‘lga kiritiladi. Bunda voqelikning muayyan jabhasini tadqiq etishga da’vo qiluvchi fal. mustaqil fan bo‘la olmaydi. Uning o‘sha tadqiqot ob’ekti yo‘qligi tufayli yashash huquqidan mahrumdir. Lekin shu b-n bir qatorda N. fal-iy tafakkur ishlab chiqqan barcha vosita va uslublardan foydalanadi. N.da so‘nggi vaqtda mantiqiy va lingvistik pozitivizm ko‘rinishlari yuzaga keldi. Mantiqiy pozitivizm, (M.Shlik, R.Karnap, G.Rayxenbax va b.) mantiqiy empirizm fal.sida mavjud bo‘lgan psixologizm va biologizmni uloqtirib tashlaydi, matematika va mantiq asoslarining aprior-analitik xarakterini e’tirof etadi. uni ilmiy fikrlarni empirik tarzda anglab olish yaqindan qiziqtiradi. Mantiqiy pozitivizmga ko‘ra, hatto bilish naz-yasi fal.ning mavzui bo‘la olmaydi, chunki u dunyoqarash xarakteriga ega. Fal. fan emas, balki sun’iy va tabiiy tillarni tahlil etuvchi faoliyat turidir, xolos. Uning vazifasi fanni mafkuraviy ehtiyojlar, tildan noto‘g‘ri foydalanish oqibatida kirib kelgan fikr-mulohazalar, muammolar, tushuncha va iboralardan tozalash va ularni ideal tarzda uqtirib bera oladigan mantiqiy modellarni yaratishdir. N.ning ligvistik tahlil nomini olgan ko‘rinishi (L. Vitgenshteyn, J. Uizdom, J. Rayl, J. Ostin va b.) G‘arb mamlakatlarida e’tiborli maqomga ega. Lingvistik tahlilga ko‘ra, har qanday fal-iy muammo tabiiy til mantig‘ini tushunmaslik natijasida vujudga keladi. Bunday muammolarni hal etish tilni tahlil etish orqali amalga oshadi. Lekin bunday sa’y-harakatlar fal-iy muammolarning echimini izlashda asqotmaydi, chunki u til kontekstlarining xilma-xillagini va ularni bir xil me’yorga keltirish mumkin emasligini tushunmaslikdan kelib chiqadi. Fal-iy muammolar borasidagi har qanday bahs-munozaralar ayrim sz va iboralar tufayli paydo bo‘ladi (mas., “bilish”, “mavjud”, “haqiqiy”, “tuyulish” va b.). Shunga o‘xshash so‘zlar yozuv va nutqda ifoda etilgan mazmunni soxalashtirishga olib keladi. N. fal.ning maqomi, fal. va fan, til va olam, bilish va uni tekshirish (verifikatsiya) masalalarida ba’zi ziddiyatlarga duch kelgan

bo'lsada, o'z navbatida qator ijobjiy yutuqlarga ham erishdi. maS., tilsimvolik vositalar va ijtimoiy jarayonlarning o'zaro munosabatlarini tadqiq etish, axloq-odob, estetika, inson fal.si muammolariga keng va teran kirib borish kabilar shular jumlasidandir. Ayniqsa, B.Rasselning jahonda tinchlik, millatlararo hamkorlik, demokratiya tantanasi uchun kurashib kelganligi bunga dalildir.

**Nevrotik** — ruhiy o'zgarishlarning kuchsiz shakllaridan, masalan, havotirli holatga tushib, azoblanayotgan individ.

**Nisbiy deprivatsiya** — individda o'zini qiyoslayotgan guruhga nisbatan paydo bo'ladigan deprivatsiya tuyg'usi.

**Nisbiy kambag'allik** — mazkur jamiyatdagi ko'pchilikning hayot andozasiga nisbatan belgilangan kambag'allik.

**Nikoh** (marriage) — individlar orasidagi jamiyat tomonidan ma'qullanadigan seksual munosabatlari. Deyarli har doim nikoh qaramaqarshi jins vakillari o'rtasida tuziladi, biroq ba'zi madaniyatlarda gomoseksual nikohlarga ham yo'l beriladi. Odatda, nikoh reproduktiv oilaning asosi xisoblanadi, ya'ni er-xotin juftligi bola tug'ib tarbiyalashni ko'zda tutadi. Ko'pchilik jamiyatlarda poligam ni-kohga ruxsat berilgan bo'lib, unda individ bir nechta xotinga yoki erga nikohdanishi mumkin.

**Nizo** (conflict) — jamiyatdagi guruhdar yoki individlar o'rtasidagi antagonizm. Nizo ikki xil shaklda bo'lishi mumkin. Birinchisi, ikki yoki undan ortiq individ yoki guruh o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi yuz berishi; ikkinchisi, odamlarning o'zaro kurashga faol jalb etilishi. Manfaatlar ziddigi har doim ham ochiq kurashga olib kelavermaydi. Ayni paytda, kuchli nizolar o'zlarining manfaatlarini bir-biriga mutlaqo zid deb xato fikr yurituvchi partiyalar o'rtasida kelib chiqishi ham mumkin.

**Nolegal** — qonunsiz, qonun taqiqlab qo'ygan, qonunni cheklab qilingan, yashirin.

**Noosfera** — aql-idrok sohasi yoki biosferaning shunday bir holatiki, bunda odamlarning oqilona faoliyati biosfera rivojlanishining muhim omiliga aylanadi.

**Noumen** — mushohada yo'li bilan anglash mumkin bo'lgan mohiyat.

**Noverbal muloqot** — individlar o'rtasida nutq va tildan umuman foydalanmay, yuz mimikasi, tana a'zolari harakati va holati vositasida muloqotga kirishish.

**Nodavlat tuzilmalar** — dunyo tizimida muhim rol o'ynayotgan xalqaro (nodavlat) agentliklar.

**Noformal iqtisodiyot** — pul muomalasining rasmiy doirasidan chetda bajariladigan iqtisodiy operatsiya.

**Nufus** (aholi) — muayyan hudud, mintaqa, mamlakat yoki sayyoramizda yashayotgan odamlarning yig'indisi (insoniyat). N. alohida fan

sohasi bo‘lgan demografiyaning tadqiqot ob’ekti, predmetidir. (qar. Demografiya). Demografiya tushunchasi aholining joylashishi, miqdoriy o‘sishi, tarkibiy o‘zgarishlarining qonuniyatlarini tadqiq qilish uchun 1855 y.da Fransuz olimi A.Giyar tomonidan muomalaga kiritildi. Shuningdek, bu fan aholining miqdoriy va sifat jihatidan o‘zgarishlarni muayyan siyosiy maqsadlar b-n muvofiqlashtiruvchi demografik siyosatning nazariy asoslarini, aholining miqdoriy o‘sishi va o‘zgarishlari to‘g‘risidagi ilmiy bashorat qilish usullari va h.k.larni ham o‘z ichiga oladi. Demografiya tug‘ilish va o‘lim, nikoh va ajralishni, savodxonlik darajasi, ijtimoiy-sinfiy struktura, aholining milliy, irqiy tarkibi, tili, aholi migratsiyasi, urbanizatsiya va deurbanizatsiya jarayonlarining tub sabablarini o‘rganishni ham o‘z oldiga vazifa qilib qo‘yadi. G‘arbda aholishunoslik fani N. o‘zgarishlarini asosan biologik yoki geografik omillar b-n bog‘lab tushuntirishga urinadilar. Eng ko‘p tarqalgan qarashlardan biri maltuschilik bo‘lib, unda aholi turmush darajasi pastligining tub sababi sifatida aholining tug‘ilishi hisobiga stixiyali tarzdagi ko‘payishi ko‘rsatiladi. Shuningdek, geografik muhit (Sh.Monteskyo), ya’ni aholi ko‘payishiga hal etuvchi ta’sir o‘tkazadigan mo‘‘tadil tabiiy shart-sharoit deb hisoblaydigan qarashlar ham keng tarqalgan.Keyingi paytlarda er shari N.ining o‘zgarishida ijtimoiy omilning hal qiluvchi roli to‘g‘risidagi qarashlar keng yoyilmoqda. Xususan, Rim klubi a’zolari (J.Forrester, D. Medous, Mesorovich-Pestel, Yan Tinbergen, A.King va b.lar) ilgari tabiiy omillar deb tushunilgan faktorlarning ham tub asosida ijtimoiy omillar yotishini ko‘rsatib berdilar. Mas.: kishilar tomonidan ishlab chiqarish sohasi doirasiga kiritilgan jo‘g‘rofiy maydon kengayishining asosida, birinchi navbatda, miqdoriy jihatdan tobora ko‘payib borayotgan aholi ehtiyojlarini to‘laroq qondirishga bo‘lgan intilish yotadi. o‘z navbatida, aholining ko‘payishi esa sun’iy (ijtimoiy) muhitning yanada mo‘‘tadillashuvi, qulayligi asosida ham yuz beradi. Yer yuzi aholisining ko‘payishi har doim ham bir xil suratda kechmagan. Agar yer yuzida ilk sivilizatsiyalar davrida mil.av. oldingi 5-4 ming y.liklarda 25 mln. kishi yashagan bo‘lsa, mil. I-a.i boshlarida bu ko‘rsatkich 230 mln.ga etgan. Mil. 2-ming y.ligi boshlarida 305 mln. kishini tashkil etgan bo‘lsa, (1800 y.) da esa bu miqdor 911 mln. kishini tashkil etdi. XX-a.ning eng muhim belgilaridan biri, shubhasiz, “demografik portlash” hodisasisidir. XX-a. o‘zidan oldingi asrlardan aholi miqdorining o‘ta tez sur’atlar b-n ko‘payishi b-n ajralib turadi. Agar 1900 y.da yer yuzi aholisi 1652 mln. bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 1999 y. (13 oktyabr) 6 mlrd. kishidan oshib ketdi. XXI-a.ga kelib barcha mamlakatlarda aholining o‘sish darajalarini o‘rganishni o‘zida mujassamlashtiruvchi demografik siyosat olib borilmoqda. Chunki, mamlakatlarning taraqqiyotiga ta’sir etayotgan asosiy omillardan biri aynan, aholining tabiiy ko‘payishining yuqori sur’ati hisoblanadi. SHuning uchun aholining tabiiy o‘sishini mo‘‘tadillashtirishga

qaratilgan BMT qoshidagi maxsus oilani rejalashtirish qo‘mitasi bir necha o‘n yillardan buyon faoliyat ko‘rsatmoqda. 1992 y.dan boshlab BMTning teng huquqli a’zosi sifatida e’tirof etilgan mamlakatimiz ham oilani rejalashtirish qo‘mitasiga a’zo bo‘ldi. o‘zbekistonda o‘tkazilayotgan demografik siyosatning tub maqsadi aholining ma’naviy va jismoniy barkamol bo‘lishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan.

**Nuklear oila** — ota, ona (ulardan biri) hamda balog‘atga yetmagan bolalardan tashkil topgan oila.

## O

**Obraz** – amaliy faoliyat va bilish jarayonida shakllangan hissiy yoki oqilona tasavvur.

**Ob’ekt** (lot. object - narsa) – sub’ektning bilish va amaliy faoliyatida unga qarama-qarshi turadigan narsa. O. faqat ob’ektiv reallik b-n emas, balki uning bir qismi bo‘lgan sub’ekt b-n o‘zaro ta’sirda bo‘ladi. O.ning ajratilishi jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan va ob’ektiv reallik xossalalarini aks ettiradigan amaliy va bilish faoliyati jarayonida ro‘y beradi. O. bilish sub’ektning sezgilariga ta’sir qilib qolmay, balki yashirin, tahlil qilinmagan shakllarda maydonga chiqadi. O.ni ideal tarzda yaratish sub’ekt tomonidan bilish faoliyatining natijasi sifatida ro‘y beradi. O.ni yaratish vaqtida mantiqiy operatsiyalarning qo‘llanilishi O.ning “yaratilishi”ni bildirmaydi, bilish operatsiyalarining mazmuni sub’ekt ichidan olinmaydi, balki O. tomonidan belgilanadi. Sub’ekt tomonidan ishlab chiqilgan bilim doimo O. b-n muvofiqlashtiriladi, moddiy amaliy faoliyat orqali tekshiriladi (tajriba, eksperiment). Bilishning empirik darajasidan nazariy darajasiga harakati O.dan chetlashishni bildirmaydi, balki O.ning yuza qatlamanidan chuqurroq qatlamiga tomon harakatlanishi sifatida maydonga chiqadi.

**OILA** — er-xotinlik ittifoqiga, qarindoshlik aloqalariga, umumiy xo‘jalik yuritadigan er va xotin, ota-oni va bolalar, aka-uka va opa-singillar va b. qarindoshlar o‘rtasidagi munosabatlarga asoslanadigan kichik ijtimoiy guruh; jamiyatning asosi, davlat qudratining manbai. O.ning hayoti moddiy (biologik, xo‘jalik) va ma’naviy (axloqiy, huquqiy, psixologik) jarayonlar b-n xarakterlanadi. O.—tarixiy kategoriya. Uning shakllari va funksiyalari mavjud ijtimoiy munosabatlar xarakteriga, shuningdek, jamiyatning madaniy taraqqiyoti darajasiga bog‘liq. Ayni vaqtida O. jamiyat hayotiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatadi, qator funksiyalar (bola tug‘ish, uy-ro‘zg‘orda mehnat qilish, xo‘jalik yuritish, o‘z a’zolarining jismoniy, ehtiyojlarini qondirish, yosh avlodni tarbiyalash ma’naviy va axloqiy-estetik kamolotiga ta’sir ko‘rsatish)ni bajaradi. Tadqiqotchilar eng qad. davrda tartibsiz jinsiy aloqalar

hukm surgan va u vaqtida O. hali bo‘lmagan, bu aloqalar o‘rnini gruppaviy nikoh egallagan, juft O. paydo bo‘lgan, deb hisoblaydilar. Monogomiya (bir nikohli oila)ning qaror topishi b-n ayollar erkaklar tomonidan asoratga solingan. Ayol asta-sekin o‘z eri-xo‘jayinining mulkiga, quliga aylana borgan. Boylik orttirish va uni qonuniy vorislarga berish O.ning asosiy maqsadi bo‘lib qolgan. Markaziy Osiyoda keng tarqalgan qad. zardushtiylikda O. va nikoh masalasiga muhim ahamiyat berilgan. O. va nikoh yaratuvchining talabiga mos kelganligi bois uni buzish taqiqlangan. Agarda oilada er yoki xotin axloqsizlik, ya’ni buzuqchilik sodir etilsa, unday kishilar tayoq b-n jazolangan. Shu orqali O. mustahkamligi uchun kurashganlar. Sharqda qadimdan O. muqaddas Vatan hisoblangan. Uning mustahkamligining darz ketishiga yo‘l qo‘ymaganlar. Shuningdek, “Avesto”da naslning pokligi, tozaligiga ham alohida e’tibor berilgan. qarindosh-urug‘, aka-ukaning quda-anda bo‘lishi qoralangan. O‘zbekiston respublikasi mustaqillikka erishgach, O.ga bo‘lgan e’tibor yanada oshdi. O. fuqarolik jamiyatining, davlatning eng muhim hujayrasi, zarrasi, bo‘g‘ini. O. uch jihatni: o‘zining bevosita ko‘rinishi bo‘lmish nikohni; oilaviy mulk va anjomlar hamda ular haqidagi g‘amxo‘rlikni, bolalar tarbiyasini o‘z ichiga oladi. qonunga binoan nikoh tuzish shartlarida eng muhimlari — nikohga kiruvchilarning o‘zaro roziligi va ularning nikoh yoshiga etganliklari hisoblanadi. O. poklik va soflikka, ikki tomonlama muhabbatga, sadoqat va vafodorlikka asoslanishi kerak, O. mustahkam, tinch, farovon, sog‘lom bo‘lsagina jamiyatda barqarorlik vujudga keladi.

**Oilaviy kapitalizm** — tadbirkorlar oilasi korxonaga egalik qilishi va uni boshqarishi bilan bog‘liq vaziyat.

**Okkultizm** — maxsus ruhiy mashqlar, alohida marosimlar orqali ayrim insonlargina bila oladigan koinotda sirli kuchlar mavjudligini e’tirof etuvchi ta’limot.

**Oppozitsiya** - qarshi harakat, muayyan narsaga ochiqdan-ochiq yoki zimdan qarshilik ko‘rsatish.

**Optimizm** (lot. eng yaxshi) — hayotga, rivojlanish, kelajakka ishonch bilan sug‘orilgan dunyoqarash.

**OITS** — orttirilgan immun tanqisligi sindromi, insonning immun tizimi kuchsizlanishi bilan bog‘liq kasallik.

**Old asno** — ijtimoiy xatti-harakatlar yig‘indisi bo‘lib, unda individlar boshqalar uchun muayyan “tomosha ko‘rsatishadi”.

**Oligarxiya** — tashkilot yoki jamiyatda juda ozchilikning idora qilishi.

**Oligopolya** — sanoatning muayyan sohasida oz miqdordagi firmalarning hukmronlik qilishi bilan bog‘liq vaziyat.

**Oliy sinf** — jamiyatning eng boy a’zolaridan tashkil topgan, meros oladigan boylikka, o‘z biznesiga yoki katta miqdordagi aksiyalarga egalik

qiluvchilardan iborat ijtimoiy sinf.

**Oliy ta’lim** — maktabdan keyin kollej yoki universitetlarda davom etadigan ta’lim.

**Oligarxiya** – bir necha shaxsning hokimiyatga ega bo‘lishidir.

**Ommaviy axborot vositalari** — gazeta, jurnal, radio, televedenie singari katta auditoriyalarga mo‘ljallangan kommunikatsiya turlari.

**Ommaviy jamiyat** — hozirgi zamon jamiyatining qator o‘ziga xos tomonlarini ifodalovchi tushuncha. Jamiyat barcha sohalarining keng ommaviylashuv jarayoni tubdan yangi mehnat quroli – mashinalarning paydo bo‘lishidan boshlangan edi. Ommaviylashuv iqtisodiyot sohasida boshlanib, asta-sekinlik b-n jamiyatning boshqa sohalarini ham qamrab oldi. O.j. nazyasi ildizlari o‘rta asrlardagi an’anaviy ijtimoiy munosabatlarga zid ravishda shakllangan yangi munosabatlarga qarshi konservativ g‘oyalar b-n bog‘liqdir (E.Berk, J. De Mestr, A.Bonald). Yangi tartiblarning muqarrarligini anglagan fransuz mutafakkiri A.Tokvil (1805-1859) yangi jamiyatni undagi erkinlik va tenglik munosabatlari nuqtai nazaridan tavsiflaydi. U o‘zining “Amerikada demokratiya” asarida: “Mening diqqatimni jalg qilgan yangiliklar ichida hech qaysisi sharoitlarning umumiy tengligi kabi hayratlantirgan emas”, — deb yozdi. U demokratiyani goh jamiyat barcha tomonlarini tenglashtirishga intilish, goh “xalq”, goh bevosita boshqarish shakli sifatida talqin qildi, tenglikni amalga oshirish uchun markazlashtirish va byurokratlashtirish ijtimoiy hayotning barcha sohalari ustidan burjua nazoratini o‘rnatishga olib kelishini ko‘rsatdi. 2-jahon urushidan so‘ng O.j. konsepsiyalaring asosiy yo‘nalishi avtoritar tendensiyalarni tanqid qilishga qaratildi. O.j.ni yangicha talqin qilish hoz. zamon jamiyatidagi muhim jarayonlarni to‘g‘ri tushunish imkonini beradi. Ommaviylashuv jarayoni jamiyatning barcha sohalarida katta imkoniyatlar ochib berishi b-n bir qatorda ma’naviyat sohasida qator muammolarni keltirib chiqarganligi tufayli O.j konsepsiyalari ham ko‘pdir. Jamiyat hayotining turli sohalarida kechayotgan ommaviylashuv jarayonlari, shubhasiz, o‘zining miqyosi, mohiyati va namoyon bo‘lish shakliga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Nomoddiy ishlab chiqarishning turli ko‘rinishlarida esa u yoki bu darajada ommaviy faoliyatning texnologik, tashkiliy va b. tarkibiy qismini yaratadi. Mas., hozirgi zamon fani minglab odamlarni birlashtirgan yirik tashkilotlarni qamrab oladi. Bu haqiqatan ham axborotni (bilimni) ommaviy, industrial shaklda ishlab chiqarishdir. Iste’mol, insoniy munosabatlar, maishiy sohalarda ahvol boshqacha. Ularda ommaviylashuv kishilar faoliyatini qat’iy rasmiy tashkil etishni talab qilmaydi. Lekin bunda ham o‘ziga xos ko‘rinishda ommaviy faoliyat mavjuddir: ishtirok etadigan individlarning ko‘pligi, ular faoliyatining o‘xshashligi, faoliyatni tanlash imkoniyati nuqtai nazaridan erkinligi va b. Ommaviylashuv jarayonining ham eniga, ham bo‘yiga (gorizontal va vertikal) chuqurlashib borishi jamiyat

taraqqiyotida qonuniy, zaruriy hodisa bo‘lib, kelgusi jamiyat va inson qiyofasini belgilashda turli imkoniyatlar yaratadi.

**Ona tomonidan merosxo‘rlik** — mulk yoki unvonlarni ona tomondagi ajdodlardan meros qilib olish.

**Operatsiyalargacha bo‘lgan bosqich** — Piaje nazariyasiga ko‘ra kognitiv rivojlanishning bosqichlaridan biri bo‘lib, unda bola mantiqiy fikr yuritishning asosiy turlarini egallab oladi.

**Oq yoqalilar jinoyati** — malakali mutaxassislar yoki “oq yoqalilar”ga mansub odamlarning jinoiy xatti-harakatlari.

**Orqa asno** — old asnodagi faoliyatdan uzoqlashgan holat bo‘lib, Irvin Goffman ta’rificha, odam o‘zini unda erkin va norasmiy tutishi mumkin.

**Ota tomonidan merosxo‘rlik** — mulk yoki unvonlarni ota ajdodlaridan meros qilib olish.

**Ota-onsa oilasi** — individ tug‘ilgan oila.

**Ouen (Owen) Robert** (1771,14.5 — Nyutaun, Uels — 1856,17.11) — ingliz mutafakkiri, utopik sotsializm vakillaridan biri. 1781y.dan savdo muassasalarida hizmat qilgan. 1800 — 29y.larda Nyu-Lenark (Shotlandiya)dagi yigiruv korxonasida boshqaruvchi bo‘lgan. O. o‘zining ijtimoiy-fal-iy qarashlarini “Jamiyatga yangicha nazar yoxud xarakterni shakllantirish to‘g‘risida tajriba” (1812-13) asarida bat afsil yoritib berdi. U ijtimoiy hodisalarini izohlashda 18-a. fransuz materialistlari izidan bordi. Uning ta’kidlashicha, inson shart-sharoitlar mahsulidir. Inson xarakteri uning xohish irodasiga bog‘liq bo‘lmagan holda shakllanadi. Shaxsiy kamchilik va nuqsonlar uchun odamlarning o‘zлari emas, balki, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy tartib aybdor. Kishilarning jinoyatlari aslida ular yashab turgan jamiyatning jinoyatlaridir. O. ijtimoiy hayot sharoitlarini o‘zgartiring, ijtimoiy tuzumni yaxshilang, shundan keyin odamlarning xulq-atvori ham o‘zgaradi, degan g‘oyani ilgari surdi. Fransuz mutafakkirlari xususiy mulkka asoslangan jamiyat va inson erkinliklarini namuna sifatida qabul qilgan bo‘lsalar, O. bunday jamiyat mohiyat jihatidan feodal jamiyatdan farqlanmaydi, ijtimoiy tenglikka asoslanuvchi jamiyatgina kishilar turmushini farovon, o‘zlarini baxtli qiladi, deb hisobladi. Fransuz mutafakkirlari ayrim tabaqalarning imtiyozlarini bekor qilishni maqsad qilib qo‘ygan bo‘lsalar, O. esa jamiyatda odamlar o‘rtasida ijtimoiy tenglik o‘rnatish shiori b-n chiqdi. U xususiy mulkni, jamiyatning tabaqaviy-sinfiy tuzilishini, mehnat taqsimotini raqobatchilikning hukmronligini, keskin tanqid qiladi; jamiyatdagi barcha illatlarning sababi kishilarning nodon-johilligida, o‘z tabiatini bilmasligida, deb bildi. Shunday ekan, inson tabiatiga xos xususiyatlar uqib olinsa, odamlar o‘rtasidagi tengsizlikka barham beriladi, hamma baxt-saodatga erishadilar, barcha muammolar bartaraf etiladi, deb hisobladi. O. shu maqsadni ro‘yobga chiqarish uchun yuksak

mavqega ega bo‘lgan kishilarga, hukumatlarga umid bog‘ladi. Jamiyatni isloh qilish to‘g‘risidagi loyihalari b-n u chor Rossiyasi imperatori Nikolay I ga va Fransiya qiroliga murojaat qildi. Ijtimoiy hayotni yaxshilashga qaratilgan loyihasini amalga oshirish uchun shaxsan namuna ko‘rsatishga urindi. Biroq uning filantropik urinislari muvaffaqiyatsizlik b-n tugadi. Chunki uning loyihalari inson tabiatiga, ijtimoiy rivojlanishning tabiiy-tarixiy qonuniyatlariga zid edi. Tarixiy tajriba tadbirkorlikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, iqtisodiy erkinlikni rag‘batlantirish orqali ijtimoiy farovonlik va totuvlikka erishish mumkinligini ko‘rsatdi.

**Ovchi va termachilar qabilalari** — odamlar ovchilik, baliqchilik va iste’molga yaroqli o‘simliklarni terish bilan kun kechiradigan jamiyat tiplari.

**Ozchilik** — mazkur jamiyatda ozchilikni tashkil qiladigan odamlar guruhi bo‘lib, alohida madaniy yoki jismoniy belgilari tufayli jamiyatning boshqa a’zolariga nisbatan tengsizlik holatida bo‘lgan odamlar guruhi.

**Og‘ish submadaniyati** — a’zolari jamiyatdagi ko‘pchilik e’tirof etadigan qadriyatlardan farq qiladigan qadriyatlarga rioya qiluvchi madaniyat.

## P

**Pariylar guruhlari** — salbiy diskriminatsiya qilinuvchi mavqe tufayli azoblanayotganlar guruhi. Boshqacha aytganda, jamiyatning boshqa a’zolari ularga “yuqoridan pastga” nazari bilan qaraydilar. Evropa tarixidagi uzoq davr mobaynida yahudiylar pariylar bo‘lgan edi.

**Parmenid** (mil. av. 6-a.ning ikkinchi yarmi — 5-a.ning boshi) — qadimgi Eley falsafiy maktabining yirik vakillaridan biri, Ksenofanning mashhur shogirdi, iqtidorli muallim va mohir notiq, Zenonning ustozи. Boybadavlat oilada tavallud topgan, durustgina ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘lgan. Fay.ning tabiiy-ilmiy va fal-iy qarashlari o‘zining “Tabiat haqida” dostonida o‘z ifodasini topgan. Doston allegorik xususiyatga ega bo‘lib, unda o‘spirinning haqiqatga yo‘l ko‘rsatib beruvchi xudo huzuriga qilgan sayohati to‘g‘risida hikoya qilinadi. P.ning fikricha, haqiqiy borliq har qanday o‘zgarishni va ko‘plikni rad etuvchi borliqdir. U, aslida, har qanday xilmayxillikka ziddir. P.ning borliq haqidagi fikr-mulohazalari miletchilar va Geraklitning ilk asoslariga tubdan qarama-qarshi qo‘yiladi. Har qanday fal-iy qarash pirovard natijada quyidagi muqobillarning biriga javob bermog‘i lozim; 1) borliq mavjud emas; 2) borliqdan tashqari hatto yo‘qlik ham mavjuddir; 3) borliq va yo‘qlik nisbatan bir-biridan farqlanmaydi. Birinchi ko‘rinish eley maktabiga, ikkinchi ko‘rinish pifogorchilar maktabiga, uchinchi ko‘rinish esa, Geraklitga xosdir. P. Geraklitning dialektik

g‘oyalarini qabul qilmaydi. U borliq b-n yo‘qlikning bir vaqtning o‘zida aynan va bir-biridan farqlanuvchi jihatlar deb da’vo qiluvchi “miyasi g‘ovlagan olov”ni keskin tarzda rad etadi. “Borliq mavjud, yo‘qlik esa mavjud emas” tezisi hech qanday shubhaga o‘rni qoldirmaydigan haqiqiy asosdir. U bizni qurshab olgan olamning yagona ekanligini uqtirib berishga qodir. Yo‘qlikni hatto fikrda ziddiyatsiz bir tarzda ifodalab ham bo‘lmaydi. P.ga ko‘ra, bilish, o‘qib olish, talqin etishga taalluqli tushunchadir. Borliq vaqt nuitka nazaridan abadiydir. Borliining paydo brlishi yoki uning yri brlib ketishi trIrisidagi fikr-mulouazalar mantii ionun-ioidalariga ziddir. U yridan bor brla olmaydi, chunki yri narsa mavjud brlish real imkoniyatidan ma‘rumudir. Bundan tashiari, u boshia bir narsadan kelib chiimaydi, chunki borlii yagonadir. Borlii shu nuitka nazardan iaraganda, vaitda ibtidosiz va intijosiz brlsa-da, fazoda u chegaralangandir. U sharsimon shaklda mavjuddir, tarkiban bir xildir, muamma joyda markazdan bir xil masofada turadi. P. uchun paydo brlish, rzgarish, xilma-xillik yrilikning yaiiol timsolidir. Sekst-Empirikning ta’kidlashicha, Arastu, P. va uning izdoshlarini “sukunatchilar” va “Iayritabiatsunoslar” deb ataydi, chunki ular rزلارining fal-iy iarashlarida tabiat μarakatning manbai ekanligini rad etadilar. Demak, rzgarishlar, μarakat trIrisidagi μar ianday fikr-mulouaza odamlarning odati tufayli shakllangan oddiy kundalik tasavvurlardan boshia narsa emas. P. bilish jarayonida jonli mushoμada, sezgi a’zolari ma’lum rol rynasa-da, uni ailiy bilish b-n tenglashtirib brlmaydi, deb hisoblaydi. Jonli mushoμada uzoi borganda shaxsiy fikr, mulouazaga olib kelsa, ailiy bilish yagona μaiiiatni ifodalaydi. Sezgilar imkoniyatiga ortiicha baμo berish kundalik oddiy tajriba oiibatidir. Krp eshitish, krrish, srzomollik donishmandlikning μaiiiiy namunasi brla olmaydi. Γaiiiat ail orialigina yuzaga chiiadi. Fayl. sezgilarga, μissiy tajribaga etarli darajada baμo bermagan brlsa-da, ularning krmakchilik funksiyasini butunlay rad etmaydi. Sezgilarning maiomini kamsitish, ularga ailni iarama-iarshi iryish P.ning borlii trIrisidagi ta’llimotining mantiiiy davomidir. U narsa-buyumlar, μodisalardagi nisbiy turlunlikni e’tirof etadiyu, ulardagi tadrijiy rzgarishlarni tan olmaydi. U bilishda ail maiomiga aloμida e’tibor iaratgan brlsa-da, butun real jarayonlar trIrisidagi iarashlari krp jiμatdan mifologik xususiyatga egadir. Uning ta’kidlashicha, koinot markazida Haiiiat va zaruriyat turadi. U sayyoralar va yulduzlar μarakatini boshiaradi. U barcha xudolardan avval Eros – meμr-oiibat ma’budasini yaratgan. Eros tufayli odamlar rzaro μamkorlikka, μamjihatlikka intiladilar, rz maisadlariga erishadilar. P.ning fal-iy iarashlari jaμon fal-iy tafakkurining rziga xos bir krrinishi sifatida e’tiborlidir.

**Parsons (Parsons) Tolkott** (1902.13.12, Kolorado-Springs – 1979. 08.05, Myunxen) – amerikalik sotsiolog, G‘arbdagi strukturaviy-funksional sotsiologiyaning eng yirik vakillaridan, sotsial harakat nazariyasining

asoschisi. P. ta'limotining nazariy manbalari - sotsiologiyadagi mumtoz pozitivizm (Kont, Spenser)ga va E.Dyurkgeym funksionalizmiga, M.Veber sotsiologik ta'limotiga borib taqaladi. P. inson borlig'ining barcha tomonlarini qamrab oladigan va xususiy empirik vazifalarni bajara olish asosi bo'la oladigan umumiy mantiqiy-deduktiv nazariy tizim yaratishni yoqlab chiqqan. Inson xatti-harakati, P. bo'yicha, o'z-o'zini tashkil etuvchi, tartibga soluvchi tizimdir va uning amal qilishi quyidagi bir qator talablar bajarilishini taqozo qiladi: adaptatsiya (muhitga moslashish), maqsadga erishishga harakat qilish, integratsiya (uyg'unlashuv) va "qadriyat namunalari"ga amal qilish, ya'ni til, qadriyatlar yordamida o'zini idora etish. P. sotsiologik tizimining asosiy tushunchalari "struktura", "tartib", "harakat (xatti-harakat)", "muvozanat"dir.

**Panelli tadqiqot** (ing. ruyxat) — qayta (ikkilamchi) sotsiologik tadqiqot ko'rinishi bo'lib, bir xil ijtimoiy ob'ektni bir xil dastur va metodika bo'yicha ma'lum bir vaqt intervalida o'rganishni nazarda tutadi. Panelli tadqiqotning bosh maqsadi ijtimoiy jarayon yoki hodisaning rivojlanishi va dinamikasi tendensiyasini muayyan vaqt oralig'ida tadqiq etish. Uning longityud tadqiqotlaridan farqi shundaki, keyingisida ob'ekt o'zgarishi vaqt funksiyasi sifatida qaraladi. Panelli tadqiqotlarda esa ob'ekt o'zgarishi nazarda tutilgani holda, ular tashqi sharoitlar natijasi sifatida qaraladi.

**Paradigma** (gr. na'muna) — ilmiy tafakkur uslubi. Ayni vaqtida tan olingan va muayyan ilmiy tadqiqot (bilim)ni belgilovchi omillar birligi. Pozitivist G.Berman tomonidan kiritilgan va amerikalik fizik T.Kun tomonidan tabiiy fanlar uchun keng asoslangan tushuncha. Ilmda muayyan davrda qabul qilingan e'tiqodlar, qadriyatlar, texnik vositalar birligini anglatadi va ilmiy an'analar saqlanishini ta'minlandi. Paradigma nazariyadan kengroq tushuncha, uning almashinuvi fandagi inqilobni anglatadi. Siyosatni tushuntirishdagi asosiy paradigmalar: 1) Teologik - siyosat va hokimiyatni ilohiy talqini. 2) Tabiiy – a) siyosat tashqi tabiiy muhit ta'siri orqali ta'riflanadi - geografik paradigma; b) siyosat jonli tabiat xususiyatlari orqali ta'riflanadi - biologik paradigma. v) siyosat inson xususiyatlaridan keltirib chiqariladi - psixologik paradigma. 3) Ijtimoiy - siyosat ijtimoiy hayotning boshqa sohalari orqali talqin qilinadi. 4) Oqilona-tanqidiy - siyosat uning omillari, masalan, konflikt-konsensus orqali ta'riflanadi.

**Parmetr** (gr. o'lchovchi) — harf bilan belgilanuvchi va faqat muayyan konteksda o'z mazmunini saqlab qoluvchi doimiy kattalik.

**Paritet** (lot. *paritas* – tenglik) — tenglik, teng munosabat, bir xil vaziyatda bo'lishlik; tomonlarning teng vakolatlilik prinsipi.

**Partikulyar** (lot. *particularis* – alohida) — mahdud, norasmiy. Xususiy va tor guruhiy manfaatlar doirasida o'ralashib qolish.

**Patriarxat** (patriarchy) — erkaklarning ayollar ustidan xukmron-ligi. Ma'lum bo'lgan barcha jamiyatlar patriarchal xisoblanadi, lekin patriarchallik darajasi va erkaklarning ayollar ustidan hukmronlik moxiyati turlicha bo'lishi mumkin. Hozirgi dunyoda ayollar harakatlari-ning asosiy vazifasi mavjud patriarchal institatlarga qarshi ku-rashdan iborat.

**Patrimonal** — lot. avloddan o'tgan, urug'ga tegishli.

**Partizanlik harakati** — nohukumat harbiy tashkilot.

**Patrilocal oila** — oilani tashkil qilish tizimi bo'lib, unda xotinning er ota-onasidan uncha uzoq bo'limgan joyda yashashi ko'zda tutiladi.

**Patsifizm** — urushlarning axloqiy jihatdan oqlanishi mumkin bo'limgan hodisa ekaniga ishonish.

**Payg'ambarlar** — o'zlarining izdoshlarini muqaddas matnlarni talqin qilish vositasida safarbar etuvchi diniy etakchilar.

**Pensionerlar shahri** — odatda qulay iqlim sharoitiga ega bo'lgan shahar, unga nafaqaga chiqqan odamlar ko'chib borishadi.

**Periferiya** — jahon iqtisodiyotida sezilarli rol o'ynamaydigan mamlakatlarga taalluqli tushuncha bo'lib, bu mamlakatlar ular bilan savdo aloqalariga ega bo'lgan "yadro" mamlakatlariga qaram bo'ladilar.

**Pilotaj**(ing. tajriba qurilmasi) — muayyan metodikalarning (anketalar, rejalar, intervyu va hakazolarning) validligini aniqlash, tadqiqot tadbirlarini tekshirib olish maqsadida o'tkaziladigan sinov tadqiqoti.

**Platon** (mil.av. 427—347, Afina) — faylasuf, san'atkor, shoir va dramaturg. Attika qiroli sulolasiga qarashli Kodra oilasida tug'ilgan. Onasi Periktiona ham o'z davrining taniqli odamlari—mashhur qonunshunos Salon va hukmdor Kritiylar sulolasidan. Ma'lumotlarga ko'ra, Kritiy P.ning Suqrot ta'limotini olishiga sababchi bo'lgan. Ustozi Suqrotning fojiali o'limidan (399) so'ng P. Afinani tark etadi. Avvalambor u Misrning Geliopol shaxrida matematika, jamiyatshunoslik, iqtisodiyot va b. fanlarda erishilgan yutuqlar b-n yaqindan tanishadi, so'ogra janubiy Italiyaga va Sitsiliya oroliga boradi. 12 yillik ushbu sayohat davomida ilmiy va hayotiy jihatdan foydali ma'lumotlar to'playdi. Jan. Italiyada pifagorchilar ta'limoti b-n yaqindan tanishadi, ayniqsa, mashhur Arxit faoliyati tajribasida davlat arbobi uchun fanning (ayniqsa matematika) qanday katta ahamiyatga ega ekanligini kuzatadi. Sitsiliyada esa, A. Italiya va Yunonda eng mashhur bo'lgan madaniy markaz—Sirakuza shahrining hukmdori Dionisiyning ko'p qirrali siyosiy—boshqaruva faoliyatini o'rganadi va uning merosxo'ri Dion b-n yaqindan tanishadi. 367 y.da Dionisiy I ning o'rniga Dionisiy II taxtga o'tirgandan so'ng hukmdor maslahatchisi Dion taklifiga binoan P. yana Sitsiliyaga keladi. Chunki P. uchun bo'lajak podsho Dionni ideal davlat qurishga tayyorlash asosiy maqsad edi. Lekin P.ning ushbu maqsadi ma'lum sabablarga ko'ra ro'yobga chiqmadi, ammo eng muhimi — g'oya yaratilgan

edi. P. suhbat shaklida badiiy-fal-iy asarlar yozib qoldirgan. Uning fal-iy qarashlari “Timey”, “Katta Gippiy”, “Fedon”, “Bazm”, “Fileb”, “Fedr”, mantisiy ta’limoti – “Sofist”, “Teatet”, “Menon” siyosiy

qarashlari esa—“Siyosat”, “Qonunlar”, “Kritiy”, “Davlat” va b., asarlarida bayon etilgan. P. fal.sida “g‘oyalar dunyosi va soyalar dunyosi” asosiy o‘rinni

egallaydi. Uning ta’limotiga ko‘ra, “g‘oyalar dunyosi” birlamchi, “soyalar dunyosi” esa, ikkilamchidir. Uningcha, g‘oya hasisiy borlisni ifodalaydi, soyalar – ya’ni olamda mavjud narsa, hodisalar – o‘zgaruvchan bo‘lgani bois haqiqiy bo‘la olmaydilar. Chunki hasisiy taraqqiyot g‘oyalar dunyosiga xos. haqiqiy o‘zgarish va taraqqiyotni hamma ham bilmaydi, chunki ularni bilish uchun inson katta aql, sof tafakkur egasi bo‘lishi kerak, o‘zgaruvchan soyalar dunyosini bilish uchun insonga hissiyot va idrok yetarlidir. “g‘oyalar dunyosi” zamon va makonga bog‘liq bo‘lmay, mangu, abadiy va o‘zgarmasdir, va shuning uchun ham u haqiqiy dunyodir. Go‘zallik tushunchasi P. uchun “g‘oya”ni ifodalashda muhim rol o‘ynaydi, chunki ushbu tushuncha faqat ma’nан universal xarakterga ega. Go‘zallik aniq predmet, narsa va voqelikka nisbatan taqqoslangan nisbiylikdan kelib chiqadi. Shuning uchun ham go‘zallikni inson aql b-n anglaydi, agarda ushbu tushuncha biron narsa yoki voqelikkga nisbatan ishlatsa, unda boshqa inson uchun oddiy narsa yoki voqelikkina kelib chiqishi mumkin. Go‘zallik, ezgulik (“umumiyy manfaat”) kabi kategoriyalarning mantiqiy – fal-iy tahlili “g‘oya”ning inson hissiyotiga bog‘liq bo‘lmagan sabablarni isbotlashga qaratilgan edi. Chunki mutlaq, universal go‘zallik va ezgulik faqat Xudoga taalluqli kategoriyalardir. Demak, Xudoni inson faqat aql yordami b-n anglab olishi mumkin. P. ta’limotida ijtimoiy fal., jamiyat va davlat masalalari muhim ahamiyatga ega. Uning siyosiy, pedagogik va axloqiy qarashlari ham “g‘oya” ta’limoti b-n uzviy bog‘liq. Uningcha, davlat aristokratiya qo‘lida bo‘lishi va xalqni itoat etishga majbur qilishi lozim. P. o‘zining “ideal davlat” naz-yasida jamiyatni uch tabaqaga: davlat arboblari - fay.lar; soqchilar (harbiylar); dehqonlar va hunarmandlarga bo‘ladi; Bunday davlatda donolik, jasorat, bardoshli me’yor vaadolat kabi to‘rt tamoyil ustuvordir. Davlatni boshqaruvchi shaxslar avvalambor ana shunday sifatlarga ega bo‘lishlari kerak. Uning axloqiy qarashlari ham ushbu prinsiplarni atroflicha isbotlashga qaratilgan. P. fal. tarixida birinchilar qatorida empirik usulga asoslangan Demokrit va uning safdoshlari yaratgan kuzatuvchan fal.ga qarshi kurashadi va fal. fanining predmeti sifatida aql, tafakkur faoliyatini olg‘a suradi. Bu borada insonning bilish jarayonidagi mavjud ziddiyatlarni tahlil qilib, bilishning dialektik rivojlanishi to‘g‘risida teran fal.iy ta’limot yaratdi. Shu bois, uning ta’limoti o‘zining ahamiyatini yo‘qotmagan. XX-a. mashhur fay.i K.Popper iborasi b-n aytganda, buyuk nemis fay.i Gegel P. fal.sining yangicha

ta’rifini bergen, xolos. P. Sharq, Markaziy Osiyoda ham mashhur bo‘lgan. Uni “Birinchi ustoz” deb ulug‘laganlar, unga taqlid qilganlar va asarlarini o‘rganganlar.

**Plebeylar** (lot. plebei – oddiy xalq) — 1) Qad. Rimdagi erkin aholi shug‘ullangan. P. mil. av. V-IV asrlarda davlat lavozimlarini egallashlari va patritsiylar b-n nikoh tuzishlari mumkin bo‘lmagan. P. patritsiylarga qarshi qattiq kurash olib borgan va natijada Rim fuqarolari (grajdanlari) tarkibiga kiritilgan, majburiy qullik bekor qilingan. 2) o‘rta asrda P. atamasi «oddiy xalq» ma’nosida ishlatilgan.

**Plyuralizm** (lot. *pluralis* – ko‘plik) — 1) borliqning bir necha (yoki ko‘plab) mustaqil ibtidosi yoki bilimning bir qancha asosi mavjud deb hisoblovchi falsafiy qarash. Shu b-n birga, siyosatda manfaatlar, g‘oyalar, munosabatlar, qarashlarning ham xilma-xilligini bildiradi. «P.» terminini nemis faylasufi X.Volf (1679-1754) kiritgan (1712). P.ning aksi - monizm. G‘arb falsafasida juda ko‘p oqim bo‘lib, ular hozirgi falsafaning plyuralistik xarakteridan dalolat beradi (pragmatizm, personalizm, hayot falsafasi va b.); 2) jamiyat siyosiy tizimining xususiyati. Bunda ijtimoiy guruuhlar o‘z manfaatlarini o‘z vakillari (siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari, diniy va b. tashkilotlar) orqali ifodalash uchun tashkiliy tartib-qoida tusini olgan imkoniyatlarga ega bo‘ladilar. Jamiyatni demokratiyalash jarayonida (q. Demokratiya) P. shakllanib, rivojlanadi: u ijtimoiy guruxlarning turli-tuman manfaatlarini aks ettiruvchi har xil qarashlar, fikrlar mavjudligini anglatadi.

**Plyuralistik jamiyat** — bir necha etnik guruuhlar bir-biridan alohida yashovchi jamiyat.

**Poliandriya** — ayol bir paytning o‘zida ikki yoki undan ortiq erga tegishi mumkinligini e’tirof etuvchi nikoh shakli.

**Poligamiya** — individ ayni bir paytda bir necha shaxs bilan nikohda bo‘lishi mumkinligi.

**Poliginiya** — nikoh shakli bo‘lib, unda erkak ikki yoki undan ortiq xotinga ega bo‘lishi mumkin.

**Politeizm** — bir necha xudolarga sig‘inish, ko‘p xudolik.

**Politsentrik transmilliy korporatsiyalar** — ikki yoki undan ortiq etakchi ma’muriy markazga ega bo‘lgan transmilliy korporatsiyalar.

**Polyarizatsiya** — ijtimoiy guruuhlar yoki muayyan bir jamiyatning ikkita asosiy qutbga bo‘linib ketib, ular o‘rtasidagi keskin qarama qarshilik holatlarining yuzaga kelishi.

**Popper Karl Raymud (1902-1994)** – ingliz faylasufi va sotsiologi. P. Avstriya paytaxti Venada ziyoli oilasida tug‘ilgan. U tansidiy ratsionalizm g‘oyalarini rivojlantirib, ilmiy bilishning o‘sishi nazyasini yaratdi. U ilmiy bilimning nisbiyligini ta’kidlaydi va shu bois har sanday ilmiy bilim o‘zining taxminiylik xususiyatiga egaligini isbotlashga harakat qildi. P. asarlaridan

eng diqqatga sazovori “Ochiq jamiyat va uning dushmanlari” (1945)dir. Bu asarida P. siyosat va tarix fal.siga oid qarashlarini bayon etdi. P.ning bu kitobni yozishdan maqsadi totalitarizm to‘g‘risidagi qarashlarini chuqurlashtirish va unga qarshi kurashning samaradorligini oshirishdan iborat edi. Chunki har qanday yopiq jamiyat totalitar siyosiy tuzumning mahsulidir. P.ning fikricha, insoniyat o‘z tarixida doimo totalitar siyosiy tuzum b-n kurashib kelgan. Totalitar siyosiy tuzumning nazariy poydevori sifatida tarixiychilik usuli yotadi. P. tarixiylik (istorizm) b-n tarixiychilik (istoritsizm) tushunchalarining o‘rtasida katta tafovutni ko‘rdi. Agarda tarixiylik tushunchasi inson hayotida bo‘lib o‘tgan voqeа va hodisalar tasnifini ifodalasa, tarixiychilik tushunchasi esa voqeа va xodisalarni xronologik tartibda bayon silish o‘rniga ma’lum massad (shaxs, sinf, tabaqalar)ga qaratilgan dohiyona bashoratlarni asoslashga qaratiladi va ularni ro‘yobga chiqarishda manfaatdor ijtimoiy – siyosiy kuchlarni inqilobiy harakatlarga chorlaydi. P. o‘zi kashfiyotining

yangi ilmiy metod sifatida qabul qilinishini istamadi. Uning maqsadi tarixiychilikka asoslangan har qanday bashoratlar insoniyatni baxtli kelajakka olib kelmasligini atroflicha isbotlashdan iborat edi, xolos. Uning fikricha, doimo o‘zgaruvchi hayot tarixda har qanday bashoratlarni fosh qilib kelgan va shunday bo‘lishi muqarrar. Shunday ekan, insoniyat o‘zining kelajagini insonparvarlik prinsiplariga asoslangan qoida va rejalgara, dasturlarga tayangan holda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarini tashkil qilishi zarur. P. ochiq jamiyatni bozor iqtisodi (bozor erkinligi) bilan bog‘ladi. P. fikricha, dunyoda insonparvarlik prinsiplarga asoslangan ijtimoiy tuzumni tashkil qilish uchun insoniyat beshta eng muhim vazifani ado etishi zarur:

1. Erkinlikni mustahkamlash va undan kelib chiqadigan mas’uliyatni anglash;

2. Dunyoda tinchlik o‘rnatish;
3. Qashshoslikka qarshi kurash;
4. Demografik “portlash” ga qarshi kurash;
5. Zo‘rovonlikka qarshi ta’lim-tarbiyani jadallashtirish.

P. ushbu dasturni butun insoniyatga taqdim etgan va agarda jahon ahli ularni ro‘yobga chiqara olsa, dunyoda tinchlik, barqarorlik va erkin hayot mustahkam o‘rnatilishiga ishongan. Uning aql-idrokka (ratsionalizm) asoslangan fal-iy ta’limoti shunday xulosaga olib kelgan.

**Postindustrial jamiyat** (post-industrial society) — hozirgi vaqtida yuz berayotgan ijtimoiy o‘zgarishlar industrial era chegarasidan o‘tib ketdi, deb xisoblovchilar tomonidan qo‘llaniladigan tushuncha. Postindustrial jamiyat moddiy tovarlar ishlab chiqarishdan ko‘ra ko‘proq axborot ishlab chiqarishga tayanadi. Bu konsepsiya tarafдорлари fikriga ko‘ra, bizning bugungi jamiyatimizda bundan ikki asr avval sanoa

**Pozitivizm** — G‘arb mamlakatlarida keng tarqalgan falsafiy tafakkurning bir ko‘rinishi bo‘lib, uning diqqat-e’tibor markazida falsafa va fanning o‘zaro munosabati muammosi turadi. 19-a.ning 30-40-y.larida marksizm fal.si o‘zini yagona ilmiy dunyoqarash deb da’vo qilib chiqqanidan biroz oldinroq Fransiyada eski fal-iy an’analardan uzil-kesil voz kechish va yangi ilmiy fal. yaratish zarurligi to‘g‘risida O.Kont bahs-munozaralar yuritdi va P.falsiga asos soldi. O.Kontning fikricha, fal.ning fan b-n o‘zaro “da’vogarlik” tarixi shundan dalolat beradiki, “metafizik”, ya’ni fal-iy muammolarni ilmiylik ruhiga moslashtirishga bo‘lgan barcha urinishlar behuda. Har qanday fan unga o‘z hukmini o‘tkazishga jazm qiladigan fal.ga muhtoj emas. U har qanday tayanchni o‘zidagina topishi mumkin. An’anaviy fal. muammolarini ilmiy nuqtai nazardan, ya’ni tajriba va aqliy muhokama ko‘magida hal qilib bo‘lmaydi. Metafizika sarqitlarini fandan siqib chiqarish zarur. Bunday sarqitlardan biri fanning hodisalarni sababiyat tamoyili asosida tahlil qilishi va ularning mohiyatiga kirib borishga da’vosidir. Fanning vazifasi hodisalarning “nima uchun” ekanligini uqtirib berish emas, balki ularning “qanday ekan”ligini yoritib berishdan iboratdir.P. rivojlanishi jarayonida fandan dunyoqarashga bevosita taalluqli muammolar birin-ketin olib tashlana bordi. Buni 19-a. yirik P. vakillari J.S. Mill va G. Spenserning qarashlarida yaqqol ko‘ramiz. P. vakillarining ta’kidlashicha, bilish, tajriba, sub’ekt-ob’ekt munosabati, narsa, substansiya, voqelikning unsurlari, fiziologik va psixologik jarayonlarning o‘zaro aloqadorligi masalalari sof metafizik muammolar bo‘lib, ulardan voz kechish maqsadga muvofiqdir. P.ning rivojlanishi natijasida neopozitivizm oqimi vujudga keldi.

**Pragmatizm** (yun. *pragma* – ish, faoliyat, amaliyat) — amaliy va foydali natija beruvchi faoliyatnigina tan oladigan, politologiyaning nazariy - Asoschisi Pirs (XIX asrning 70-yillari).

**Praksiologiya** (yun. faoliyat bilan bog‘liq) — sotsiologik tadqiqotlar yo‘nalishi. U faoliyat yoki faoliyatlar birligini ularning samaradorligi nuqtai nazaridan o‘rganadi.

**Prestij** — individ yoki guruhning mavqeiga asosan ko‘rsatiladigan hurmat.

**Prognoz** — biror-bir qodisaning kelajakdag‘i qolati qahidagi ilmiy tadhihotlarga asoslangan eqtimoliy muloqaza. P.ning ikki ko‘rinishi mavjud: tabiiy-ilmiy P. va ijtimoiy P. Ular bir-biridan o‘zining xarakteri b-n ajralib turadi. Mas., tabiiy-ilmiy P.dan bashorat hilinayotgan qodisaning vujudga kelishini tezlashtirish yoxud oldini olish mahsadida foydalanish cheklangan. Bunday P.lar turkumiga meteorologik, gidrologik, geologik (litosfera qodisalariga doir), biologik (mas., o‘simliklar va qayvonot olamidagi kasalliklarga doir), tibbiy-biologik (inson organizmidagi kasalliklarga doir), ilmiy-texnik, kosmologik, fizikoximik P.lar kiradi. Ijtimoiy P.lardan olingan

informatsiyalar mahsadga muvofih faoliyatda shu hadar keng ho‘llaniladiki, kishilar o‘z xatti-qarakatlari b-n bashorat hilinayotgan qodisaning vujudga kelishini bexosdan tezlashtirib yuborishlari qam mumkin. Bunday P.lar sarasiga fan va texnikaning umumiy tarahhiyotiga doir P.lar, ijtimoiy P.lar, ihtisodiy P.lar. psixologik P.lar, siyosiy P.lar va b. kiradi. P.lar o‘z mahsadiga ko‘ra qam farh hiladi. Ayrim P.lar mavjud tendensiyalarning ohibatlarini anihlash mahsadida hilinadi. Bunday P.larda eqtimollik me’yori ma’lum shkalalar yordamida hayd etib chihiladi. Boshha P.lar esa qodisalarning kutilgan (xoqlangan, kishilar yaratgan ideallarga mos tushadigan) qolati hachon sodir bo‘lishini anihlashga haratiladi. P. bashorat hilinayotgan davr davomiyligiga harab joriy (1 oyga hadar), hisha muddatli (1-5 yil), o‘rta muddatli (5-10 yil), uzoh muddatli (10-30 yil), eng uzoh muddatli (30 yildan ortih) P.larga bo‘linadi.

**Prognozlash** – biror-bir qodisaning istihbollarini maxsus ilmiy tadhih etish. o‘z predmetiga ko‘ra tabiiy-ilmiy va P. jarayonini tafovutlash habul hilingan. P.da asosiy manba vazifasini tajribadan olingan ma’lumotlar, bashorat hilinayotgan qodisaning istihboliga doir analogiyaga asoslangan baqolar, ma’lum tendensiyalar ekstropolyasiysi, qodisalarning keljakdagi qolatiga doir modellar va b. o‘taydi. Ularga muvofih tarzda ijtimoiy soqani P.ning uch asosiy uslublari sinfi mavjud: 1) sub’ektiv fikr-muloqazalarni ob’ektivlashtirish mahsadida aqoli so‘rovini amalga oshirish; 2) ekstrapolyasiya va interpollashtirish – bashorat hilinayotgan jarayon ko‘rsatgichlarining o‘zgarib borishi xususiyatlarini anihlash; 3) modellashtirish – bashorat hilinayotgan qodisaning eqtimolligi me’yorlarini tuzish. P.da induksiya, deduksiya, analogiyadan, shuningdek, statistika, ihtisodiyot va sotsiologiya uslublaridan foydalilanadi. P.ning asosiy boshichlarini huyidagilardan iborat: 1) P. mo‘ljallarini anihlash (ob’ekt va predmetni, P. mahsadi va vazifalarini, ishchi gipotezalari va uslublarini belgilash); 2) P. uchun ma’lumot to‘plash; 3) P. uchun asos vazifasini o‘taydigan model tuzish; 4) mavjud tendensiyalarning ohibatlarini anihlash mahsadida bashorat hilish; 5) kutilayotgan qolatning yuzaga kelishi muddatini anihlash mahsadida bashorat hilish; 6) olingan natijalarning asoslanganligi darajasini anihlash; 7) tavsiyalar ishlab chihish.

**Progress** (lot. ðrîgregee — ilgarilanma harakat, muvaffaqiyat) — quyidan yuqoriga, oddiydan murakkabga tomon rivojlanish taraqqiyotni ifodalaydi. P. tushunchasi “regress” tushunchasining ziddidir. Olamdagi o‘zgarishlarning ma’lum yo‘nalishda sodir bo‘lishi to‘g‘risidagi tasavvurlar qadim zamonlardayoq paydo bo‘lgan. Ko‘pincha antik mualliflar tarixni o‘zgarmaydigan hodisalarning oddiy izchilligidan iborat, umuman, u qadimgi “oltin davrdan” keladigan regressiv jarayon (Gesiod, Seneka) yoki bir xil bosqichlarning takrorlanishi(Platon, Aristotel, Polibiy) tarzida tasvirlaganlar.

Xristian tarixshunosligi tarixni muayyan yo‘nalishida kechadigan jarayon sifatida o‘rganadi. P. xristian esxotologiyasidan emas, balki uning inkor etilishidan kelib chiqdi. Eng avvalo p. ilmiy bilish sohasida kuzatildi. F.Bekon va R.Dekart o‘tmishga, orqaga qarayvermaslik kerak, ilmiy bilim olamni olg‘a rivojlantiradi, deb ko‘rsatdilar. P. g‘oyasi ijtimoiy munosabatlar sohasiga ham (Fyурgo, Kondorse) tatbiq etildi. Ma’rifatparvarlik fal.si p.ni inson aqlidan keltirib chiqardi. Boshqa ratsionalistik oqimlarga ham tarixiylik yot edi. Ayni chog‘da Viko va Russo tarixiy jarayonning ziddiyatli xarakterga ega ekanligini ko‘rsatdilar. 19-a. boshlaridagi romantik tarixshunos ma’rifatparvarlarning ratsionalizmiga qarshi organik evolyusiya g‘oyasini, tarixiy davrlarning individualligi va beqiyosligi haqidagi tezisni olg‘a surdilar. Lekin bu tarixiylik o‘tmishga qaratilgan edi. Gegel o‘tmishga salbiy munosabatni ham, soxta tarixiylikni ham keskin tanqid qildi. Tarixiy p.ni “mutlaq ruh”ning harakati sifatida talqin etdi. Uning tarix fal.si sof ma’noda “ilohiylikdan” iborat bo‘lib qoldi. P.ning sobiq markscha-leninchcha konsepsiysi uni moddiy ishlab chiqarish usuli b-n bog‘lab tushuntirdi. Lekin, bu naz-ya ishlab chiqarish vositalariga ijtimoiy mulkchilikni progressning mutlaq asosi deb, hisobladи. Ijtimoiy amaliyat bunday qarashning biryoqlama va xato ekanligini ko‘rsatdi. Albatta, p.da ishlab chiqarish usulining roli bor. Ammo, ayni chog‘da ma’naviy omillarning rolini ham nazardan chetda qoldirmaslik kerak.

**Proeksiya** — individning o‘zi boshidan kechirayotgan tuyg‘ularni boshqalarga ham xos deb bilishi.

**Progress** (lot.progreses – ilgarigilanma harakat, muvaffaqiyat) – quyidan yuqoriga, oddiydan murakkabga tomon siljishi, taraqqiyotni ifodalaydi.

**Psixoanaliz** — Zigmund Freyd tomonidan kashf etilgan psixoterapiya usuli. **“Psixoanaliz”** — "ruhiy tahlilot" so‘zi odatda Freyd tomonidan yaratilgan intellektual tizim doirasida qo‘llaniladi.

**Psixologizm** (sotsiologiyada) — sotsiologiyaning ayrim yo‘nalishlariga (G. Tard, CH. Kuli, J. Mid, neofreydizm, strukturaviy-funksional mакtab va b.ga) xos metodologiya usuli. P. ijtimoiy munosabatlarni va strukturalarni psixologik ma’lumotlar, inson psixikasi xususiyatlari, odamlarning bevosita o‘zaro harakatlarini taxlil qilish asosida tushuntiradi. P. bo‘yicha, psixologiya umuman butun falsafaning, uning barcha sohalari, xususan, mantiqning (V. Vundt va b. fikriga ko‘ra) asosi hisoblanadi. P. tarafдорлари birdan bir fan psixologiyadir, deb biladilar. Chunki, deb uktirishadi ular, barcha fanlarning ob’ekti fakat ma’lum usullar orqali bilingan sezgilar-dir. Bunday qarashni birinchi galda empiriokrititsizm va pozitivizm vakillari ilgari suradilar.

**Psixopatik shaxs** — shaxsnинг alohida tipi. Bunday individlarda boshqa, me’yordagi odamlar uchun xos bo‘lgan axloqiylik va boshqalar

uchun g‘amxo‘rlik qilish tuyg‘usi bo‘lmaydi.

# Q

**Qadriyatlar** (values) — individ yoki guruxdarning nima yaxshi va nima yomon, nima ma’kul va nima ma’kul emasligi to‘g‘risidagi tas-savvurlari. Kddriyatlar orasidagi tafovutlar madaniyatlarni tushu-nish uchun kalit xisoblanadi. Individ qadriyatlariga mazkur madani-yatning o‘ziga xos xususiyatlari kuchli ta’sir o‘tkazadi.

**Qaram o‘zgaruvchi (zavisimaya peremennaya)** — boshqa omil ta’sir o‘tkazadigan o‘zgaruvchanlik.

**Qarindoshlik munosabatlari** (kinship) — individlarni qondosh-lik, nikoh yoki farzandlikka olish rishtalari bilan bog‘lab turuvchi munosabatlar. Qarindoshlik aloqalari, nomlanishda xam ifodalanga-nidek, nikoh va oila munosabatlarini o‘z ichiga oladi, lekin amalda uning ko‘lamni bu bilangina cheklanmaydi. Hozirgi jamiyatlarning ko‘pchiligidagi qarindoshlik aloqalari bilan bog‘liq ijtimoiy majbu-riyatlarning ba’zilari bevosita oila instituti doirasidan chetga chiqadi, boshqa ko‘pchilik jamiyatlarda esa qarindoshlik ijtimoiy hayotning ko‘p sohalarida katta ahamiyatga ega.

**Qayta tarbiyalash uchun harakat** — o‘z oldiga hozirgi holatga nisbatan yaxshiroq deb hisoblanuvchi o‘tmishga qaytishni maqsad qilib qo‘ygan ijtimoiy harakat.

**Qiyosiy tahlil** — 1) tarixiy rivojlanishning turli davrlarida; 2) turli ijtimoiy tizimlar (institutlar, guruqlar, hududlar va h.k.) da; 3) turli mualliflar va tadqiqotchi jamoalarda; 4) turi o‘lchovlarda va to‘plash usullarida olingan axborot qiyoslanadi. Qiyosiy tahlilda o‘xshashlik va farqni aniqlash va tavsiflash yoki analistik, ya’ni tushuntirish, bashorat, tavsiyalar ishlab chiqish vazifalarini hal qilish mumkin.

**Qiyosiy usul** - ijtimoiy xulq-atvor namoyon bo‘lishining umumiyligi qonuniyatlariga tayanadi, chunki turli xalqlarning ijtimoiy hayot, madaiiyat, siyosiy tizimida umumiyligi tomonlar ko‘p. Qiyosiy usul bir turdagiga ijtimoiy voqelik, ya’ni, ijtimoiy struktura, davlat tuzilishi, oila shakli, hokimiyat, an’analalar va boshqalarni solishtirib, taqqoslab ko‘radi.

**Qoldiq me’yorlarining buzilishi** — kundalik ijtimoiy o‘zaro ta’sirning asosiy jihatlarini nazorat qilib turuvchi mustahkam, sobit me’yorlarning buzilishi.

**Qonun** — sotsiologiyada: siyosiy hokimiyat tomonidan belgilangan va davlat qudrati bilan qo‘llab-quvvatlanadigan xulq-atvor qoidalari.

**Qonuniy hokimiyat** (authority) — bir individ yoki guruxning boshkalar ustidan qonunlashtirilgan xo‘kmronligi. Qonuniylik elementa qonuniy hokimiyatni hokimiyatning umumiy konsepsiyasidan ajratib turadi. Hokimiyat kuch ishlataш yo‘li bilan ham qo‘lga kiritilishi mumkin. Qonuniy hokimiyat esa tobe odamlarning ulardan yuqori tur-gan, buyruq va topshirikdar berish imtiyoziga ega bo‘lganlarning hukuqlarini e’tirof etishga bog‘liq.

**Quyi sinf** — sinfiy piramidaning eng quyi qismida joylashgan individlar sinfi. Odatda u etnik ozchiliklardan tashkil topadi.

**Qullik** — ijtimoiy stratifikatsiya shakli bo‘lib, bir guruh odamlarning boshqalarga mulk sifatida qaramligini ifodalaydi.

**Qurbonsiz jinoyat** — individning jinoiy deb hisoblanadigan, lekin bevosita boshqa odamlarga qarshi qaratilmagan jinoiy xatti-harakatlari.

**Quroл sotish** — hukumat yoki xususiy shaxslar tomonidan foyda olish maqsadida quroл-yarog‘ sotish.

**Qo‘zg‘olon** — siyosiy hokimiyatga qarshi kuch ishlatish yoki kuch ishlatish tahdidi bilan qilingan isyon.

**Qo‘shimcha qiymat** — Marks nazariyasiga ko‘ra individ mehnati bilan yaratilgan va uning evaziga ish beruvchi tomonidan haq to‘langandan keyin qoladigan “qoldiq” yoki “ortiqcha” qiymat.

## R

**Raqobat** — muayyan hududda eng yaxshi o‘rin egallash, har xil turlar o‘rtasidagi kurashni belgilash uchun ekologiyada qo‘llaniladigan tushuncha.

**Rassel (Russel) Bertran** (1872.18.5, Trellik, Uels-1970.2.2, Penrindaydrayt)-ingliz matematigi, faylasufi, sotsiolog va axloshshunos, mantihshunos, jamoat arbobi. Mantih soqasida “Matematik tamoyillar” (1910-13) asari, sotsiologiyada “Ozodlik yo‘llari: sotsiolizm, manarxiya va sindikalizm” (1918), axloq naz-yasida “Baxtga erishish” (1930) kabi asarlari R. ga katta shuqrat keltirdi. “G‘arb fal.si tarixi” (1946) asari qam mashqur. bo‘lsa-da, u R. ga fal.da shuqrat hozonishi uchun etarli bo‘lmadi. R. ning aynihsa, qoz. zamon matematik logikani rivojlantirishdagi xizmati katta. U munosabatlar logikasini rivojlantirdi, mantihiy simvolika tilini yanada takomillashtirdi. R. fal. o‘z muammolarini tabiiyot ilmidan olishini, uning asosiy vazifasi tabiiyot ilmi tamoyillari va tushunchalarini taqlil hilish va tushuntirish asosida tadhih etishdan iboratligini ta’kidladi. Ingliz neorealizmi va neopozitivizmi R. nomi b-n bog‘lih. Uning harashlari ob’ektiv idealizmdan sub’ektiv idealizmga tomon o‘zgarib bordi. R. fikricha inson bilishda qissiy ma’lumotlarga tayanib ish ko‘radi. *Bilish naz-yasida* R.

materialistik in'ikos naz-yasini inkor etib, skeptitsizm fal.ni taklif etdi. Dinning dushmani bo'lgan R, ateistik maslakni qimoya hilgan edi. U fanda asosan buyuk mantihshunos olim sifatida mashqur. 1962 yilda Kubada yuz bergen inhirozni bartaraf etishda N.S. Xrushchev b-n suqbatdosh bo'ldi va jaqonda tinchlikni sahslash, umumiy hurolsizlanish qarakatining faol hatnashchisi sifatida R. insoniyat tarahhiyoti uchun muqim xizmat hildi. Ilmiy ishlari Nobel mukofotiga (1950) sazovor bo'lgan.

**Ratsional** (fr. *rationalis* – oqilona) — maqsadga muvofiq, asoslangan, dalillangan (eng to‘g‘ri yo‘l ma’ nosida ham ishlataladi).

**Ratsionalizatsiya**, ratsionallashtirish (lot. *rationalis* - aqli, oqil) — biron-bir narsani takomillashtirish, yanada maqsadga muvofiq tashkillashtirish (Masalan ishlab chiqarishni R. qilish).

**Ratsionalizm** (lot. *ratio* - aql, aql-idrok) — aqlni bilishning va kishilar xulq-atvorining asosi deb hisoblovchi falsafiy yo'nalish. Irratsionalizm va sensualizmga qarama-qarshi turadi. XVII-XVIII asrlardagi klassik R. (R. Dekart, B. Spinoza, N. Malbransh, G. Leybnits) o'rta asrlar sxolastikasi va diniy aqidalarga qarshi chiqib, butun dunyoda cheksiz sabablar silsilasi hukmron degan tabiiy tartibot g'oyasini ilgari surgan. R.ga kura, ilmiy (ya'ni ob'ektiv, umumiy, zaruriy) bilimga bilishning manbai va uning haqiqiyligi mezon - aql vositasidagina erishiladi.

**Ratsionallashuv** — mavhum qoida va protseduralarga asoslangan aniq tahlil qilish va tashkil qilish usullari. Ijtimoiy hayotda ustunlik qilish jarayonlarini belgilash uchun M. Veber tomonidan qo'llangan tushuncha.

**Referent va a'zolik guruhlar** - kichik guruhlarning o'rganishning jihatlaridan biri bo'lib, “Referent guruh” deb atladijan guruhlarni tahlil xisoblanadii. “Referent guruh” termini amerikalik sotsial-psixolog Mustafo Sherif tomonidan kiritilgan. “Referent guruh” termini (inglizcha so‘z, “mansub bo‘lish” degan ma’noni anglatadi) individ ongli ravishda; kiradigan sotsial guruhlarga (iqtisodiy, siyosiy, madaniy, kasbiy) nisbatan ishlataladi.

**Reformatorlik harakati** — ijtimoiy o‘zgarishlar amaliy dasturini bajarishga yo‘naltirilgan ijtimoiy islohot harakati.

**Regress**(lot. regresus – orqaga qaytish) –rivojlanishda orqaga ketish, eski shakllarga qaytish, taraqqiyotning quyi darajasiga tushib qolishni anglatuvchi tushuncha. Aslida R. mohiyat e'tibori b-n barcha sistemalarga xosdir. CHunki murakkab sistemalarning emirilishi, R. mazmunini tashkil etadi. Siyosiy hayot, madaniyat, maorif kabi ijtimoiy hodisalar jamiyatda kechayotgan jarayonlarning progressiv yoki regressiv xarakterdaligini aniqlashda muhim o‘rin egallaydi. Mas., jamiyatning siyosiy omillar ta’sirida R.ga yo‘l tutishiga fashistik rejimlar hukmronlik qilgan mamlakatlarni kiritish mumkin. Jamiyat taraqqiyotida eskirgan shakllarga qaytish ham r.ga misol bo‘ladi. R.iv jarayonlarni alohida olingan insonlar, ularning hayoti,

xulqi misolida ham ko‘rish mumkin. Xususan, psixologiyada R.iv xulq deganda individning o‘z rivojlanishida oldingi davrlariga xos bo‘lgan xulqqa qaytishi tushuniladi. R.iv tendensiyalar mavjud bo‘lsa-da, bu uning inson va insoniyat rivojida ustuvorligini bildirmaydi. Zero, u yoki bu regressiv jarayonlardan qat’iy nazar, insoniyat rivoji umuman progressiv xarakterga egadir.

**Rejtimoiylashuv** — shaxsiyat o‘zgarishining bir turi bo‘lib, unda etuk individ oddin qabul qilganidan farqlanuvchi xatti-harakat turini qabul qiladi.

**Reprezentativlik** (fr. vakillik) — tadqiqot qilinayotgan birlikning xususiyatlarini aks ettiruvchi tanlov belgisi. Masalan, mamlakat o‘quvchi yoshlari o‘rganilayotgan bo‘lsa, uning R.ligini ta‘minlash uchun tanlovda ishtirok etuvchilar sarasiga shu guruh nisbatidan kelib chiqib, o‘quvchilardan tortib aspirantlargacha kiritish va o‘rganish kerak.

**Reproduktiv oila** — individ nikohdan o‘tganda yoki bola ko‘rganda vujudga keladigan oila.

**Resotsiallashuv** — inson hayotining har bir bosqichida bir-birini to‘ldirib boradigan ikkita sotsiallashuv jaroyonlaridan biri. R. yangi norma, qadriyat, rol va xulq-atvorni qabul qilish hisoblanadi.

**Respondent** (ingl. javob berish) — anketa savollariga javob berayotgan, intervyu berayotgan shaxs.

**Revolusion terror** — revolyusiya yetakchilari tomonidan o‘zlarini taklif qilayotgan siyosiy xatti-harakatlarni majburan qabul qildirish uchun zo‘ravonlik yoki zo‘ravonlik tahdididan foydalanish usuli.

**Ritual** (ritual) — xatti-harakatlarning formallahgan tipi bo‘lib, unda muayyan guruh yoki birlikka a’zo bo‘lgan odamlar muntazam ishti-rok etishadi. Din rituallar bajariladigan asosiy kontekstlardan biri, biroq rituallar bu sohadan ancha chetga ham chiqadi. Guruhlarning ko‘pchiligi ritual xatti-harakatlarning u yoki bu shakllarini qo‘llaydi.

**Rivojlanish** — olamdagi ilgarilanma harakatni, ob’ektlardagi sifatiy o‘zgarishlarni, borliqdagi yangi shakllarning vujudga kelishini ifodalovchi fal-iy kategoriya. R. eng avvalo o‘zgarish b-n bog‘liq, biroq har qanday o‘zgarishni ham R. deb bo‘lmaydi. Faqat eskidan keyin yangi sifatning yuzaga kelishi b-n bog‘liq o‘zgarishgina R. bo‘lishi mumkin. R. olamning umumiyligi emas, balki olamdagi moddiy va ma’naviy sistemalarning xususiyatidir. Konkret sistemalardan tashqarida R. yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas. SHu bois olam haqida gap borganida undagi konkret sistemalarning cheksiz taraqqiyoti nazarda tutiladi. Antik fal.da R. g‘oyalari uchramaydi. CHunki R.ning muhim tomoni shundaki, u zamon b-n bog‘liq. Zero, har qanday R. ma’lum vaqt davomida sodir bo‘ladi. Antik fal. esa zamonni siklli jarayon sifatida tasavvur etardi. Ushbu tasavvurga muvofiq, barcha hodisalar takrorlanib turadi, borliq o‘zining ma’lum bir holatiga

qaytaveradi. Albatta, bunday tasavvur R. g‘oyalariga o‘rin qoldirmasdi. Xristian dinining vujudga kelishi vaqtning kelajakka qarab yo‘nalganligi haqidagi tasavvurlarni vujudga keltirdi. Fanning taraqqiy etishi esa ushbu tasavvurlarni tabiat va jamiyatdagi o‘zgarishlarning yo‘nalganligi va kaytmasligi haqidagi mulohazalar b-n boyitdi. Buning natijasida R.ga doir qator konsepsiylar yuzaga keldi. G.Spenser R.ni butun tabiatning tadrijiy evolyusiyasi b-n bog‘ladi. Uning fikricha, R. bir xillikdan ko‘p xillikka, oddiydan murakkabga qarab boruvchi jarayondir. XIX a.ning ikkinchi yarmidan R.ning naturalistik konsepsiysi shakllana boshladi. CH.Darvin R.ni universal metodologik prinsip sifatida emas, juz’iy ilmiy tushuncha sifatida talqin etdi. R.ning antropologik konsepsiyasiga ko‘ra, R.ni “inson-tabiat” va “inson-inson” munosabatlaridan izlamoq lozim. R.ning yana bir konsepsiysi — ijodiy evolyusionizmda (emerjentizm) R. yangi sifatning vujudga kelishi tarzida tasavvur etiladi. Bu konsepsiya tarafdarlaridan biri bo‘lgan L.Morgan o‘zining 1922 y.da chop etilgan “Emerjent evolyusiya” nomli asarida yangi sifat sistemaning ichki ijodiy qudrati sharofati b-n vujudga kelishini asoslab berdi. 20-a.da esa R.ning yangi konsepsiyalari rivojlandi. Ulardan biri – muvozanat naz-yasida R. quyidagi prinsiplar asosida sodir bo‘lishi bayon etiladi. 1) R. “muvozanat-buzilish-muvozanat” tarzida sodir bo‘ladi; 2) muvozanatning eng asosiy xususiyati unda ziddiyatlarning yo‘qligidir; 3) muvozanat tashqi ta’sir ostida buziladi; 4) muvozanat tashqi ta’sirga moslashish orqali tiklanadi; 5) muvozanat mutlaq, buzilish esa nisbiydir. Bu konsepsiya asosan L.F.Uord va Le Dantek tomonidan rivojlantirildi. Konflikt naz-yasida R.ning asosiy manbai kishilar, avlodlar, ijtimoiy guruhlar va millatlar o‘rtasida sodir bo‘ladigan konflikt b-n bog‘lanadi. Ushbu konfliktning bartaraf etilishi R.ga olib keladi, deb hisoblanadi. R.ning eng muhim konsepsiysi dialektikadir. Unga ko‘ra, R.sifatiy o‘zgarish b-n bog‘liq bo‘lib, uning uch asosiy xususiyati mavjud: 1) R. orqaga qaytmaydi; 2) R. faqat kelajakka yo‘nalgandir; 3) R. zaruriylik b-n bog‘liq. Ushbu uch xususiyat mavjud bo‘lganidagina o‘zgarish R. darajasiga ko‘tariladi. Birinchi xususiyat bo‘lmasa o‘zgarish har qanday faoliyat ko‘rsatish jarayoni b-n, ikkinchi xususiyat bo‘lmasa – vorisiylik va aloqadorlikka ega bo‘lmagan jarayon b-n, uchinchi xususiyat bo‘lmasa – tasodifiy jarayon b-n cheklanib qoladi. R. sistemalarda mavjud bo‘lgan qarama-qarshiliklar birligi va kurashi jarayonida, miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishiga aylanishi, yangi sifat tomonidan eski sifatning inkor etilishi orqali yuz beradi. Ushbu jarayonning birinchi xususiyati dialektik ziddiyat qonunida, ikkinchi xususiyati miqdorning sifatga o‘tishi qonunida, uchinchi xususiyati dialektik inkor qonunida o‘z ifodasini topadi. R. davomida yangi sifatning vujudga kelishi asta-sekinlik b-n tadrijiy ravishda yoki birdan, qisqa muddatda yuz berishi mumkin. R.ning birinchi tipini evolyusion R., ikkinchi

tipini revolyusion R. dey.adi. R.ning har qanday tipida ijobiy, progressiv sifatlar jamlanib boradi. Biroq ayrim hollarda yangi vujudga kelgan sifat regressiv xarakterda bo‘lishi ham mumkin, shunga qaramasdan R.da umumiy progressiv yo‘nalish saqlanib qoladi.

**Rivojlanish savollari** — sotsiologiyada ijtimoiy institutlarning o‘tmishdan bugunga qarab rivojlanishini o‘rganishda qo‘llanadigan savollar turi.

**Ruhiy xastalik** (mental illness) — shaxe ruxiy jarayonlarining buzilishi. Psixiatrlar psixik xastaliklarning ikki turini ajratib ko‘rsatishadi: nevrozlar (bu engilroq daraja, masalan, xavotirla-nish, notinchlik holati) va psixozlar (og‘irroq daraja bo‘lib, unda individlarning voqelik bilan aloqasi uzelishi kuzatiladi). Ruxiy xastaliklarning organik o‘zgarishlar bilan qay darajada boshikli-gi, va umuman, bunday o‘zgarishlarni kasallik hisoblash mumkinmi yoki yo‘kligi to‘g‘risida munozaralar davom etmoqda.

## S

**Sababiyat** (causation) — bir omil yoki o‘zgaruvchanlikning boshqasiga ta’siri. Sabab-oqibat munosabatlari bir hodisa yoki holat bosh-qasi tomonidan keltirib chikarilganda maydonga keladi. Sotsiologiyada sababiy omillar individ xatti-harakatlari asosida yotgan hodi-salar, shuningdek, bunday xulq-atvorni belgilaydigan ko‘plab tashki omillarni kamrab oladi.

**Savdo shaxobchalari** — iqtisodiy ayriboshlash jarayonida mamlakatlar va kompaniyalar o‘rtasida vujudga keladigan aloqalar.

**Savodxonlik** — individning o‘qish va yozishni bilishi.

**Sanksiya** — rag‘batlantirish yoki jazolash turlari bo‘lib, ular yordamida ijtimoiy maqbul bo‘lgan xulq-atvor me’yorlari mustahkamlanadi.

**Safarbarlik** — guruhni jamoaviy harakatlarga “tayyorlash”.

**Segmentasiya** — davlat yoki jamiyatda muayyan darajadagi qatlam va guruhlarning yuzaga kelishi, ularning biror konsensusga kelmasdan o‘rtada konfliktlarning tobora avj olishi.

**Segregatsiya** (lot. *segregacio* – ajratish, chetlatish) — irqiy kamsitishning bir turi bo‘lib, biron irq yoki etnik guruhni chegaralangan hududga majburlab yoki ixtiyoriy yo‘l b-n ko‘chirish yohud alohida maktablar, transport vositalari, xizmat ko‘rsatish korxonalari tashkil etish yoki bo‘lmasa, boshqa diskriminatsiya choralarini orqali ajratib qo‘yish. S. - diskriminatsiyaning alohida ko‘rinishidir. Tarixda qonunlashtirilgan S. hollari bo‘lgan. CHunonchi, S. AQSH janubida XIX asr 2-yarmining boshida negrlar ozod qilingandan so‘ng XX asrda ham uzoq vaqt saqlanib turdi. JARda XX asrning 90-y.lari boshigacha S.ning eng yomon shakli - aparteid

mavjud edi. Irqiy kamsitishning har qanday shaklini tugatish to‘g‘risidagi 1965 y.gi xalqaro konvensiyaga muvofiq, unda ishtirokchi davlatlar irqiy S. va aparteidni qoralash b-n birga o‘z xududlarida bunday tusdagi har qanday harakatga yo‘l qo‘ymaslik, taqiqlash va yo‘qotish majburiyatini oldilar. Tarixda yahudiylar, negrlarga nisbatan s. faol qo‘llangan.

**Seksizm** — bir jins vakillariga muayyan sifatlar yolg‘ondan tirkaladi yoki inkor qilinadi, bu o‘z navbatida jinsiy tengsizlikka olib keladi.

**Seksual ta’qib** — bir individning boshqa individga nisbatan, uning qarshiligiga qaramay, nomaqbul jinsiy xatti-harakatlar qilishi.

**Seksual faollik** — jinsiy lazzat olishga yo‘naltirilgan faollik.

**Seksuallik** — odamzodning jinsiy xulq-atvori va jinsiy tavsiflarini ifodalovchi, keng tarqalgan atama.

**Sekta** — asosiy ortodoksal yo‘nalishdan chetga chiqqan diniy oqim.

**Sekulyar** (lot. *secularis* - dunyoviy) — nimanidur cherkov va diniy idoralar tasarrufidan olish, davlatni dindan ajratish, dunyoviy jamiyat qurish.

**Sekulyarizatsiya** (lot. dunyoviy) — ijtimoiy, siyosiy sohalarning diniy ta’siridan xalos bo‘lishi, dunyoviyligi. Cherkov va monastr mulkini tortib olish hamda uni davlat ixtiyoriga topshirish

**Semiotika** — tilga oid (masalan, svetofor signallari) bo‘lмаган hodisalar ma’nosini vujudga keltiradigan usullarni o‘rganish.

**Sen-Simon (Saint-Simon) Klod Anri** (1760,17.10.-1825,19.5.) — fransuz faylasufi, sotsiolog, utopik sotsial loyiha muallifi. Fransianing ijtimoiy-siyosiy hayotida faol qatnashdi. SHimoliy Amerika mustamlakalarining Buyuk Britaniyaga qarshi milliy ozodlik kurashida ishtirok etdi. 1789 y.gi Fransuz revolyusiyasining ozodlik, tenglik va qardoshlik shiorlarini keng targ‘ib etdi. o‘zining dvoryanlik va graflik titullaridan voz kechdi. 1797 y.dan boshlab qizg‘in ilmiy faoliyat b-n shug‘ullana boshladi. Fransianing Politexnika va Madaniyat mакtablarida ma’ruza tingladi, ilm olish maqsadida, Angliya va Germaniyada bo‘ldi. S.-S. hayotining so‘nggi yillarda sen-simonizm ilmiy to‘garagini shakllantirdi, unda B.P. Anfantek, S.A.Bazar, O.Rodrig singari faylasuflar ishtirok etdilar. O.Kent ma’lum muddat S.-S.ning ilmiy kotibi sifatida faoliyat ko‘rsatdi. S.-S. o‘zidan boy ilmiy-fal-iy meros qoldirdi. Muhim asarlari: “Jenevalik kishining zamondoshlariga maktubi” (1802), “Inson to‘g‘risidagi fan ocherki” (1813-16), “Sanoat sistemasi to‘g‘risida” (1821), “Sanoatchilar katevizisi” (1823-24), “Yangi xristianlik” (1825). Fransiya revolyusiya orqali o‘z maqsadiga erisha olmaganligini ko‘rgan S.-S. qashshoqlik tufayli kelib chiqqan va ijtimoiy mulkni mulksizlar o‘rtasida teng taqsimlashga intilgan revolyusiyalar jamiyatni parokandalik va boshboshdoqlikka olib keladi, degan xulosaga keldi. S.-S. kelgusida bunday parokandaliklarga yo‘l qo‘ymaslik uchun ilmiy ijtimoiy tizim yaratishni va uni hayotga tatbiq etishni

o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Bu maqsadga erishish yo‘li S.-S.ning fikricha, ko‘pchilik uchun foydali, qashshoq sinf ahvolini yaxshilaydigan jamiyatga ega bo‘lishdir. Bu maqsad S.-S.ni tarixiy rivojlanish muammolari b-n shug‘ullanishga majbur etdi. U fransuz mutafakkirlari izidan borib, “sotsial fizika” qonunlarini, ayniqsa, I.Nyutonning butun jahon tortish qonunini ijtimoiy hodisalar mohiyatini tushunishga ham tatbiq etish lozim, degan xulosaga keldi. Tabiat va jamiyat rivojlanishining qonuniy va ob’ektivligi g‘oyasi va insoniyat rivojlanishining progressivligi g‘oyasi S.-S. fal-iy qarashlarining tub mohiyatini tashkil etadi. S.-S. fikricha, taraqqiyotning bosh mezoni ilmiy bilimlar, axloq, dinning rivojlanishidir. Uning yana bir ko‘rsatkichi jamiyat a’zolari ko‘pchilik qismining farovonligi va baxtidir. Tarix ijtimoiy shakllarning quyi bosqichdan oliv bosqichga tomon rivojlanishida: teologik; metafizik; pozitiv bosqichlardan o‘tdi. Kelgusidagi jamiyat o‘zida sanoat sistemasini mujassamlashtirgan ijtimoiy idealdir. Sanoat sistemasiga o‘tish universal tarixiy qonuniyat. S.-S. fikricha, sanoat sistemasining bosh prinsipi — “har qanday parazitizmni bartaraf etish va jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlarini har tomonlama rivojlantirishdir. Bu esa jamiyat boyligning ko‘payishiga, ishlab chiqarish sistemasida band bo‘lgan barcha kishilar (er egalari, fabrika egalari, injener, ishchi, savdogar va h.o.)ning manfaatlari uchun xizmat qiladi. S.-S. o‘zining “sanoat sistemasi”ni “yangi xristianlik” konsepsiysi b-n to‘ldirdi. Oddiy xalq ijobiy fal. mohiyatini tushuna olmaydi, shuning uchun ham ijobiy (pozitiv) fal.ga diniy his-tuyg‘u kuchini berish lozim, deb hisobladi. S.-S.ning tarixiy-fal-iy qarashlari tarixiy rivojlanishning ma’nosи va uning harakatlantiruvchi kuchlarini tushunishda olg‘a tomon tashlangan muhim qadam bo‘ldi. S.-S. fransuz ensiklopedistlari b-n birga birinchi bo‘lib “garjdanlik jamiyati” va “davlat” tushunchalarini bir-biridan farqladi, nazariy jihatdan tahlil qildi; “industrlashtirish”, “industrial jamiyat” atamalarini ilmiy muomalaga olib kirdi. U birinchi bo‘lib jamiyat rivojlanishida tashkilot va boshqarishning ahamiyatiga e’tiborni jalb etdi. S.-S.ning ijtimoiy fal-iy g‘oyalari sotsiologik tafakkur rivojiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi.

**Sensomotor bosqich** — Piajega ko‘ra, bolaning tashqi dunyonibilishida bevosita sezish va hissiy idrok asosiy omil bo‘lgan bosqich.

**Sexrgarlik** — muayyan maqsadlarga erishish uchun ruxiy yoki g‘ayritabiyy hodisalarga ta’sir o‘tkazish maqsadida bajariladigan maro-simlar. Ko‘pchilik jamiyatlarda sexrgarlik va din o‘rtasida ziddiyat-lar mavjud. Dinga qarama-qarshi ravishda sexrgarlik ko‘proq sexrgar yoki shomon tomonidan bajariladigan "individual" faoliyat xususiya-tiga ega.

**Iiyosat (politics)** — hokimiyat xukumat faoliyati mazmuni va moxnyatiga ta’sir o‘tkazish uchun qo‘llaydigan vositalar. Siyosat sohasi fa-qatgina bevosita idora kilish faoliyatini bajaradiganlarnigina emas, balki juda ko‘p

boshqa guruh va individlar xatti-harakatlari-ni ham qamrab oladi. Boshqaruv apparatiga suusullar mavjud.

**Sifat usullari** — tadqiqotda individual tajriba, kuzatish, intunsiya, tushunchalarining an'anaviy falsafiy va mantiqiy tahlili usullari, tarixiy qiyoslash, shaxsiy va rasmiy hujjatlardan foydalanish, qaydlarni, xulosalarni va tavsiyalarni badiiy publitsistik asoslash usullaridan foydalanishga e'tibor qaratadi. Sifat usullari siyosiy hodisalar, jarayonlar va tizimlarining sifatiy jihatlarini tahlil qiladi. Odatda sifat usullari miqdor usullari bilan birgalikda qo'llanilishi mumkin. Sifatli turmushning tushunchasi atrof muhitni, odamlar sog'lig'ini saqlash, shaharlarning yangilanishi muammolari bilan bog'liq ravishda paydo bo'lib, keyinchalik ancha kengroq ma'no kasb etdi. U o'zida odamlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlvrini qondirish sifati bilan bog'liq tomonlarini aks ettiradi va ularni inson hayoti standartlari bilan qiyoslaydi. Inson hayotining miqdor ko'rsatgichalrida ifodalanmaydigan tamonlarini o'rganishda qo'l etadi.

**Sinf** (class) — bu tushuncha sotsiologiyada eng ko'p qo'llaniladigan tushunchalardan biri bo'lishiga qaramay, qanday qilib uni yaxshiroq ta'riflash mumkinligi haqida yaxlit tushuncha yo'q. Ko'pchilik sotsio-loglar bu atamadan turli individlar o'rtasidagi, ularning moddiy ahvoli va xukmdorlik darajasidagi farkdarga olib keladigan tafo-vutlarni ifodalash uchun foydalanadilar.

**Simvalik interaksionalizm** - Amerika sotsiologiyasida ta'sirchan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Djordj Gerbert Mid bu yo'nalish- ning asoschisidir (1963-1931). U ilgarigi interaktsionizmdan farqli o'laroq, odamlar o'rtasrdagi munosabatlar nafaqat to'ppa-to'g'ri, balki bevosita, ya'ni simvollar yordamida ham amalga oshadi. O'zaro munosabatlarning bevosita qurollari bo'lib, ular orasrsa ma'naviy ustuvorlik tizimini namoyish qiluvchilardan leksika, shuningdek, abadiy simvollar bo'lgan: avtomobil markasr, sigareta markasr, kompyuter tiplari muhim o'rinnegallaydi. U birinchi bo'lib sotsial rol va uning shaxs ijtimoiylashuvidanagi o'rni hamda odamning ijtimoiy qadriyatlarga kirishida simvolik o'yinlarning ahamiyatini ochib berdi. G.Midning simvolik interaktsionizm ko'pgina amaliy konsepsiyanlar uchun, jumladan, guruhiy dinamik nazariya, kichik guruhda liderlik konsepsiyasr, «Ko'zgudagi Men» nazariyalariga metodologik, asos bo'ldi. Simvolik interaktsionizmniba'zilar«harakatlar nazariyasr», ba'zilar esa «rollar nazariyasr» deb ataydilar.

**Sinfiy ong** — individ tomonidan sinfiy tizimni va o'zi mansub bo'lgan sinfnинг anglanishi.

**Siyosiy apparat** — faoliyati muayyan hudud doirasida muntazam siyosiy boshqaruvni ta'minlashga yo'naltirilgan hukumat tashkilotlari tizimi.

**Siyosiy huquqlar** — siyosiy hayotda, masalan mahalliy va davlat

darajasidagi saylovlarda ishtirok etish uchun mazkur hamjamiyat fuqarolariga beriladigan huquqlar.

**Siyosiy partiyalar** — davlat hokimiyatiga erishish va bu hokimiyatdan muayyan dasturni bajarish uchun foydalanishni maqsad qilib qo‘ygan tashkilot.

**Skeptitsizm** (yun. *skeptikos-* ko‘rib chiquvchi, tadqiq qiluvchi) — haqiqatning biron ishonchli mezoni mavjudligiga shubha b-n qaraydigan nuqtai nazar. Uning vakillari ob’ektiv voqelikni idrok qilish mumkinligiga shubha qiladilar. S antik jamiyat inqirozga yuz tutgan davrda yuzaga keldi. S.ning o‘ta shakli agnostitsizmamr. Uning rivojlanishini 3 davrga ajratish mumkin: ilk S. (Pirron), Platon akademiyasi S.i (Arkesilay, Karnead), so‘nggi davr S.i (Enesidem, Sekst Empirik va b.). S.ning yirik namoyandalaridan bo‘lgan D. YUm fikricha, garchi ob’ektiv reallik mavjud, degan ishonch kuchli bo‘lsada, bu ishonchni na fan, na amaliyot tasdikladi. YUm tabiat va undagi xodisalarni bilishda shubhalanadi. Uningcha, tabiat o‘z sirini odamlardan uzoqda tutadi. YAngi davr (XVI-XVIII asrlar) da S. hurfikrlilik, diniy va falsafiy aqidalarning tanqidi (M. Monten, P. Veyl va b.) sinonimiga aylangan.

**Soat vaqtি** — soat bilan o‘lchanadigan hamda soat, minut va sekundlarda ifodalananadigan vaqt. Soat ixtiro etilguniga qadar vaqt tabiatdagи hodisalar, masalan kun chiqishi va botishiga qarab hisoblangan.

**Sog‘liqni saqlash tizimi** — muayyan jamiyatda tibbiy xizmatni tashkil qilish.

**Sorokin Pitirim Aleksandrovich** (1889—1968) — sotsiolog, rus sotsiologiyasida pozitivizm asoschisi. S. o‘zini empirik neopozitivizm yoki tanqidiy realizm vakili hisoblagan, 1906 y. inqilobiy faoliyati uchun qamalgan. 1909 y. Moskvadagi psixonevrologiya in-tiga o‘qishga kirdi. So‘ngra Peterburg un-tining huquqshunoslik f-tida tahsil ko‘rdi. 1914 y. e’lon qilgan “Jinoyat va jazo, jasorat va mukofot” asarida o‘z davrining kriminologiya naz-yasi yutuqlarini umumlashtirdi. 1917 y. Peterburg un-tining privat-dotsenti unvonini oldi. O‘z faoliyatida E.Dyurkgeym g‘oyalalarini keng ommalashtirdi. 1920 y. sotsiologiya kafedrasining rahbari etib saylandi. Huquq va sotsiologiya bo‘yicha qator darslik va qo‘llanmalar yaratdi. S.ning ikki jildlik “Sotsiologiya sistemasi” (1920) asari unga katta shuhrat keltirdi. 1922 y. Rossiyadagi ilg‘or ziyorilar ommaviy ravishda qamoqqa olina boshladi. S. oilasi b-n chet elga ketishga, dastlab Pragada, so‘ng umrining oxirigacha Amerikada yashashga majbur bo‘ldi. Bu davrda “Revolusiya sotsiologiyasi” (1925), “Sotsial mobillik” (1927), “Hozirgi sotsiologik nazariyalar” (1930-1932), “Jamiyat, madaniyat va shaxs” (1947) “Sotsial va madaniy dinamika” (1937-1941) va b. asarlarini yaratdi. C. “Sotsiologiya sistemasi” asarida sotsiologiyaning besh asosiy prinsipini ko‘rsatdi: 1)

sotsiologiya tabiiy fanlarning prinsipi asosida yaratilishi mumkin va zarur; 2) sotsiologiya har qanday normativizmdan voz kechishi lozim; 3) u kuzatish, o‘lhash, tekshirish mumkin bo‘lgan hodisalarining o‘rganishi kerak; 4) sotsiologiya faqat faktlarga tayanishi va faylasuflik qilishdan bosh tortishi lozim; 5) sotsiologiya avval boshdanoq plyuralistik fandir. S. sotsiologiyani nazariy va amaliy sotsiologiyaga ajratdi. Nazariy sotsiologiya quyidagi uch bo‘limni o‘zi ichiga oladi: 1) sotsial analitika (sotsial o‘zaro ta’sir strukturasi); 2) sotsial mexanika (sotsial xulq-atvor va sotsial sirkulyasiya mexanizmlari); 3) sotsial genetika (jamiyat rivojlanishining asosiy tendensiyalari). Amaliy sotsiologiya o‘zaro ta’sirni zarurlik nuqtai nazaridan o‘rganadi va sotsial reallikni yaxshilash uchun amaliy tavsiyalar beradi. S. birinchi bo‘lib “sotsial mobillik” tushunchasini ilmiy muomalaga kiritdi va uni jamiyatning tabiiy-normal holati deb tafsifladi. S. sotsial mobillik deganda faqat individ va guruhlarning emas, balki sotsial ob’ektlarning ham o‘rin almashuvini nazarda tutdi. Mobillik vertikal va gorizontal bo‘lishi mumkin. Vertikal mobillik sotsial yuksalish va sotsial tushkunlikdir. S. nazyasida qadriyat tushunchasi markaziy o‘rin egallaydi. U o‘z davri madaniyatining chuqur inqirozga uchraganligini, “hissiy” madaniyatning so‘nib borayotganligini, insonning degradatsiyalashuvida uning aybdor ekanligini ko‘rsatdi.

**Sotsial almashuv** — politologiya, sotsiologiya, psixologiya, iqtisodda keng tarqalgan (P.Blaу, J.Xomans, R.Emersonlar). Unga ijtimoiy munosabatlarning asosini turli sotsial ne’matlar bilan almashinuv tashkil etadi. Uning asosida maqom, nufuz, hokimiyat singari tuzilmalar vujudga keladi. 1) Inson hulq-atvorida uni muayan «foyda» olishga da’vat etuvchi oqillik ustun turadi; 2) ijtimoiy ta’sirni odamlar o‘rtasida doimiy sotsial «foyda» bilan almashinish jarayoni sifatida qaraydi.

**Sotsietal** (lot. jamoa) — sotsiologiyada keng qo’llanuvchi atama. A.G.Keller tomonidan taklif etilgan. Butun jamiyat miqyosidagi munosabatlar va jarayonlarni bayon etish uchun qo‘laniladi.

**Sotsiokratiya** (lot. *societas* - jamiyat) — ijtimoiy islohotlarning nazariy asoslarini ta’minlashi va amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ijtimoiy fanlar, g’oyalarning kuchli ta’siri, hukmronligi. Bu tushuncha amerikalik ijtimoiy jamiyatining birinchi prezidenti L.F.Uord (1841-1913) tomonidan kiritilgan.

**Sotsium** (lot. *socium* – umumiyligining umumiyligini tavsiflovchi ijtimoiy birlik).

**Sotsial darvinizm** — ijtimoiy evolyusiyaga qarash bo‘lib, guruhlar va jamiyatlar o‘rtasidagi kurash taraqqiyot manbai ekanini ta’kidlaydi.

**Sotsializm** — hozirgi ijtimoiy ishlab chiqarishning jamoaviy asosga ega ekanini va ijtimoiy tenglikka erishish zarurligini ta’kidlaydigan siyosiy

g‘oyalar tizimi.

**Sotsiobiologiya** — odamlar va hayvonlar xulq-atvorini biologik tamoyillar atamalari yordamida tushuntirishga harakat qiladigan yondoshuv.

**Sotsiogeografiya** (lot. “societe” - jamiyat va “grapho” - tasvirlayman) — jaiiyatning hududiy taqsimlanishi, ijtimoiy tarkibi hamda mazkur tarkibiy jihatlarning o‘zaro aloqadorligi masalalarini o‘rganuvchi fan. ?amiyatni ijtimoiy geografik jihatlardan tadqiq etilishi unga nafaqat tahlil nuqtai nazaridan, balki yakuniy xulosalarga kelish, umumlashmalar qilish (sintez) talabi bilan yondashuvni ham taqozo etadi. Ijtimoiy-iqtisodiy muhitga sintetik yondashuv voqelikning o‘zaro uyg‘un amal qilish xususiyatidan, ya’ni integral mohiyatidan kelib chiqadi. Geografik yondashuv tamoyillari hududiy, yaxlit, mahalliy va global shart-sharoitlarni puxta hisobga olishni taqozo etadi. S. asosan statistika manbalariga, shuningdek, konkret sotsiologik tadqiqotlarning ishonchli natijalariga, rasmiy ma’lumotlar va hujatlarga tayanib ish ko‘radi. Ayni vaqtda, S. mazkur ma’lumotlarni qiyosiy o‘rganish hamda tahlil etish asosida jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy, demografik ahvolning territorial o‘ziga xosliklari, siyosiy-axloqiy o‘zgarishlarga doir holatlarning hududiy taqsimlanishi masalalarini umumlashtirib o‘rganadi.

**Sotsiologiya**(Societas – jamiyat, logos ta’limot) — jamiyat to‘g‘risida, ijtimoiy munosabatlar sotsial uyushmalarning rivojlanish va amal qilish qonunlari to‘g‘risidagi fan. S. atamasi birinchi bo‘lib shu fanga asos solgan fransuz mutafakkiri Ogyust Kont (1798-1856) tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan O.Kont jamiyat to‘g‘risidagi yangi fanni yaratish uchun o‘z davri fanlarining barcha yutuqlarini umumlashtirdi. U S. asosiga jamiyat o‘ziga xos murakkablikka ega bo‘lgan organizm ekanligini, uning har bir elementi mazkur sistema talablariga mos ravishda muayyan vazifalarni bajarishi faktidan kelib chiqdi. O.Kont S.ning predmetini global jamiyat fani deb hisobladi. Uni ijtimoiy sistemalarning almashinuvi emas, balki sistema ichidagi elementlarning o‘zgarishi ko‘proq qiziqtirdi. Kont fikricha, ijtimoiy sistemaning xossalari barqarordir. Ijtimoiy sistemaning barqarorligi b-n uning ichki elementlaridagi o‘zgaruvchanlikni ifodalash uchun Kont sotsial statika va sotsial dinamika tushunchalarini qo‘lladi. Kontning fikricha, sotsial statikaning vazifasi sotsial elementlar va omillar o‘rtasidagi aloqadorlikni sistemali ravishda o‘rganishdir. Bu esa sotsial tartibni ta’minalashga imkon beradi. Sotsial statika oilani tahlil qilishdan boshlanadi. Oila sotsial organizmning muhim hujayrsi bo‘lib, kishilarni sotsiallashtiradi, madaniy merosni saqlaydi, an’ana va yangiliklar o‘rtasidagi muvozanat o‘rnatadi. Oila b-n bir qatorda sotsial organizm mavjudligining zarur sharti mehnat taqsimotidir. Mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi asosida ijtimoiy guruh va sinflar tobora murakkablashib boradi, inson qobiliyatları, birdamlik hissi va

axloqi rivojlanadi. Kontning fikricha, sotsial dinamika insoniyat rivojlanishining umumiyligi qonuniyatlarini ochishga qaratilgandir; rivojlanish qonunlari ijtimoiy hayotning barcha sohalarida amal qiladi. Kont sotsial organizm barcha elementlarining uzviy bog‘liqligini alohida ta’kidladi, ma’naviy sohaning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini asoslashga harakat qildi. Jamiyat taraqqiyoti ongning bir bosqichdan yangi bir bosqichga o‘tishi, go‘yo uch bosqich qonun (teologik, metafizik, pozitiv)ning amal qilishi sifatida ro‘y beradi. Kont ta’limotiga ko‘ra, tartib va taraqqiyot yaxlit jamiyat borlig‘ining turlichay namoyon bo‘lishidir. SHuning uchun ham S.ning predmeti sotsial organizm sifatidagi yaxlit jamiyatdir. S.ning predmeti butun ijtimoiy hodisalar majmuasini qamrab oladi, S.ning o‘zi esa barcha ijtimoiy fanlarning yig‘indisi sifatida namoyon bo‘ladi. S.ning Angliyada rivojlanishi Gerbert Spenser (1820-1903) nomi b-n bog‘liq. U birinchi bo‘lib “Sotsiologiyaning asoslanishi” asarida S.ning predmeti, vazifalari va muammolarini sistemali ravishda bayon etdi. S.ning vazifasi eng umumiyligi evolyusiya qonunlari amal qilishini ochib beradigan tipik hodisalar sotsial faktlar va jarayonlarni o‘rganishdir, deb hisobladi. Spenser konsepsiyasida sotsial in-tlar alohida o‘rin tutadi. Sotsial in-tlar kishilarning birgalikdagi hayotini tashkil etish mexanizmlari bo‘lib, o‘z tabiatiga ko‘ra, nosotsial bo‘lgan insonni sotsial mavjudotga, birgalikda faoliyat ko‘rsatish qobiliyatiga ega bo‘lgan mavjudotga aylantiradi. Spenserning sotsial in-tlar naz-yasi jamiyatni sistemali tadqiq etish yo‘lidagi muhim qadam bo‘ldi. Jamiyatning barcha in-tlari yaxlit bir butunlikni tashkil etadi, ulardan har birining aniq ishlashi boshqasining normal va to‘g‘ri ishlashiga bog‘liqdir. Har qanday jamiyatda asosiy in-tlarning faoliyati bir-biriga muvofiq ravishda ro‘y beradi, aks holda “sotsial organizm” inqirozga yuz tutishi mumkin. Spenserning ta’kidlashicha, davlat vakolatining kengayib borishi jamiyatning boshqa in-tlarini vazifalari o‘rtasidagi teng mehnat taqsimotini izdan chiqarishi, sotsial organizmdagi muvozanatni buzishi mumkin. Klassik S.ning shakllanishi va rivojida buyuk fransuz sotsiolog Emil Dyurkgeymning asarlari alohida o‘rin tutadi. Uning asarlarida sotsiologizm konsepsiysi o‘zining to‘la ifodasini topdi. Dyurkgeym “Sotsiologiya metodi” (1899) asarida S.ning predmeti sotsial faktlar ekanligini ko‘rsatdi. Uning fikricha, sotsial faktlar individlarga bog‘liq bo‘lmasan holda mavjud bo‘lib, ularga nisbatan majbur qiluvchi kuchga ega. Dyurkgeym sotsial jarayonlarni o‘rganishning metodologik qoidalarini ishlab chiqar ekan, “sotsial faktlarga xuddi narsa sifatida qarash lozim”, degan shiorni ilgari surdi. Dyurkgeymning ta’kidlashicha, S.ning maqsadi ob’ektiv kuzatiladigan sotsial faktlarni tasvirlash va tartibga solishdan iborat emasdir. Sotsial faktlarni ob’ektiv kuzatish orqali sababiy aloqa va qonunlar ochiladi. Sotsial olamdagagi qonunlarning mavjudligi xuddi ana shu qonunlarni o‘rganuvchi fanning ilmiyligidan dalolat beradi. Sotsial

xodisalarning ob'ektiv qonunlarini bilishga intilish S.da statistikadan foydalanishga imkon berdi. Dyurkgeymning muhim xizmatlaridan biri uning S.ga "funksiya" tushunchasini olib kirganligidir. Dyurkgeymning ko'rsatishicha, mehnat taqsimotining asosiy funksiyasi ijtimoiy birdamlikni qo'llab-quvvatlashdir. Mehnat taqsimotini jamiyatdagi birdamlikni (mexanik tipidan to organik tipigacha) shakllantirish mexanizmi sifatida tasvirladi. Dyurkgeymning S. rivojidagi asosiy xizmat jamiyatning qadriyatli normativ sistemalarini tahlil qilishi va sotsial faktlarni tadqiq etishning qat'iy metodlarini ishlab chiqqanligidir.

S.ning rivojlanishiga nemis sotsiologi Maks Veber, rus sotsiologi P.A. Sorokin, amerikalik olimlar Parsons, Mertonlar salmoqli hissa qo'shdilar sobiq sovet jamiyatida S. mustaqil fan sifatida rivojlana olmadi. Unga "burjua fani" sifatida yot ko'z b-n qaraldi. Mustabid tuzum mafkurasining inqirozga yuz o'girishi va jamiyatni demokratlashtirish, milliy mustaqillikning qo'lga kiritilishi b-n jamiyatni ilmiy asosda o'rganish, uning istiqbollarini oldindan ko'rishga va etilgan muammolarni hal etishga imkon beradigan S. fanini har tomonlama rivojlantirish imkoniyati vujudga keldi.

**Sotsiologiyada geografik maktab** — xalqlar va mamlakatlar taraqqiyoti ularning geografik, tabiiy joylashuvlariga ko'p jihatdan bog'liq, deb hisoblaydigan yo'naliш. Maxanik geografik determinizm tarafdorlari inson faoliyatini to'liq tabiiy muhitga bog'langan va shundan kelib chiqadi, deb hisoblaydilar. S. g. m. tarafdorlari insonning tabiiy muhitni o'zgartirish, tabiatni muhofaza etish, atrof-muhit shart-sharoitlarini yaxshilash imkoniyatlarini tan olmaydilar. Mazkur oqim ta'sirida 20-a. oxirlariga kelib jahondagi eng nufuzli mamlakatlar b. davlatlarga siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy tazyiq ko'rsatuvchi "hayotiy zarur makon", "milliy manfaatlar hududi" singari talablarni ilgari surdilar. Keyingi o'n yilliklar mobaynida mazkur oqimdan sotsiogeografiya hamda ijtimoiy ekologiya oqimlari ajralib chiqdi.

**Sotsiologiyada funksional maktab** — hozirgi zamon G'arb sotsiologiyasidagi maktablardan biri. Malinovskiy, Redklif-Braun, Merton, Parsons, P.Sorokinning nuqtai nazariga ko'ra, jamiyat yagona, o'zaro aloqador "sotsial sistema", bu sistemaning har bir elementi muayyan funksiyani bajaradi. Komponentlarining o'zaro ta'siri va yagona belgilovchi asosning yo'qligi — bunday sistemaning muhim xususiyatidir. Ammo, haqiqatda "ruhiy qadriyatlarning tiplari" S.f.m.da sistemaning asosiy belgilovchi qismi hisoblanadi.

**Sotsial jarayon** - individ, ijtimoiy institutlar guruhlarning ijtimoiy holati yoki turmush tarzining o'zgarishi yo'naliшini ifodalovchi barqaror harakatlar o'zgarishlar, hatti-harakatlari holatlarining majmuasi.

**Sotsial infrastruktura** - (lot. infra - tagida va structura - tuzilma) -

ijtimoiy hayotning barcha sohalarida shu jumladan ijtimoiy-maishiy sohada inson hayoti va faoliyatini oqilona tashkil etishni ta'minlovchi moddiy elementlarning mustahkam majmuasi.

**Sotsiologiyada irqiy-antropologik maktab** — uzoq shakllanish tarixiga ega bo'lib, o'z ibtidosini mil.av. 13-11-a.larda Misr, Vavilon davlatlaridan hamda mil.av. 12 aa mil. 3-a-largacha bo'lgan davrlardagi Afina va Rim davlatlari ijtimoiy-siyosiy hayoti jarayonlaridan boshlaydi. SHarq xalqlari tarixida, xususan Markaziy Osiyoda irqiy-antropologik yondashuv mohiyati o'zgacha kechgan bo'lib, bu erda odamlar yuz tuzilishi, tili, tanasining rangiga ko'ra emas, asosan e'tiqodi, diniy mansubligi, millatiga ko'ra farqlangan. Evropada irqiy-antropologik maktab 19-a. oxirlaridan 20-a. o'rtalariga qadar muhim ijtimoiy mavqe kasb etib keldi. Evropa irqiy-antropologik maktabi namoyandalarining oikriga ko'ra, dunyodagi hayot er yuzi aholisining irqiy-antropologik tarkibiga bog'liq bo'lib, millatlarning rivojlanish aarajalari o'rtasidagi tafovutear tamomila xalqlarning irsiy va biologik kelib chiqishlariga bog'liqdir. Aholi turli tabaqalari o'rtasidagi deviant holatlar (axloqiy me'yordan og'ishlar) to'laligicha kishilarning irqiy va nasliy mansubliklariga bog'liqdir. Mazkur maktab namoyandalari kishilarning irqiy jihatdan qo'shilib ketishlari, boshqa millat vakillari bilan turmush qurish hollariga keskin e'tiroz bildiraailar. Iрqiy-antropologik maktab tarafdarlarining oikricha, bunday hol mamlakatning ijtimoiy taraqqiyoti va madaniy yaxlitligiga raxna soladi.

**Sotsial institut** - (intstitut - lat. institutum -qurilma) - g'arb sotsiologiyasida, ayniqsa strukturaviy funksionalizmda ko'p ishlatalidigan tushuncha. Sotsial institut inson faoliyatini boshqaruvchi va sotsial tizim yasovchi rollar va statuslar tizimini yaratuvchi turli rasmiy va norasmiy qoidalar, to moyillar, me'yorlar, qurilmalarning, qatii majmuini anglatadi. Sotsial institut sotsial guruh sotsial tashkilotlardan farq qiladi.

**Sotsializatsiya** (ijtimoiylashuv) - individ tomonidan mavjud ijtimoiy me'yorlar, qadriyatlar va bilimlar tizimini o'zlashtirish jarayoni.

**Sotsial maqom** (status) (lot. status - holat) individning ijtimoiy munosabatlar tizimidagi holati ahvoli.

**Sotsial moslashuv** (adptatsiya) - shaxs yoki guruhning ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabati turi ijtimoiy moslashuv individ yoki guruhning o'zi uchun yangi bo'lgan ijtimoiy muhitni o'zlashtirish jarayonida namoyon bo'ladi.

**Sotsiologiyada naturalistik oqim**— sotsiologiya faniga taalluqli barcha amaliy muammolarni aniq va tabiiy fanlar usullari orqali echib berish mumkin, degan nuqtai nazarni ilgari suradigan qarash vakillari. Mazkur oqimga muxolif bo'lgan olimlar naturalizm va pozitivizm yo'nalishlarini ayni bir xil ekanligini asoslashga urinadilar, pozitivistik va naturalistik tadqiqot

usullarini sotsiologiya amaliyoti uchun qo'llamaslikka chaqiradilar. Bunday airyoqlama talqindan farq qiluvchi realizm oqimi namoyandalari esa, tabiiy hamda ijtimoiy fanlar metodlarini airogalikda qo'llash foydali ekanligini va tadqiqot natijalarining ishonchlilik darajalari oshishini asoslaydilar. 19-a. oxiri 20-a. boshlarida naturalizmning ikki yo'nalishi (sotsial-biologizm va sotsial-mexanizm oqimlari) faoliyat ko'rsatdi. hiz. zamon sotsiologiyasida esa naturalizmning asosan metodologik hamda ontologik yo'nalishlari amal qilyapti. Bu oqimlarning namoyandalari "ilm-fanning birligi" g'oyasini asoslab, tabiiy fanlar tadqiqot usullarining ijtimoiy voqelik mohiyatini talqin etishda ustuvor ahamiyat kasb etishini har tomonlama asoslashga intiladilar.

**Sotsial nazorat** - jamiyatning sog'lom ijtimoiy tartibni ta'minlash maqsadida individ hatti-harakati va xulq-atvoriga maqsadli ta'siri.

**Sotsiologiyada organik maktab**— 19-a.ning oxiri 20-a.ning boshlarida shakllangan, ijtimoiy jarayonlarni tirik organizmlarga qiyoslab o'rghanuvchi, niyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar mohiyatini biologik qonuniyatlar vositasida tadqiq etuvchi sotsiologek yo'nalish.

Jamiyatni biologik jarayonlarga o'xshatishga bo'lgan moyillik O.Kont, G.Spenser, T.Gobbs asarlarida sezilib tursada, P.F.Lilienfeld, A.Sheffle, R.Vorms, A.Espinaslar tomonidan jamiyat organizmning aynan o'zi deb ham talqin etildi. Ular jamiyatni siyosiy boshqarishni, ya'ni hokimiyat funksiyasini insonning bosh qismiga, savdo-tijorat, oldi-berdi munosabatlarini odamning qon aylanish xususiyatlariga, jamiyatning ishlab chiqarish tizimini esa insonning oshqozon-ichak faoliyati bilan qiyoslardilar. S. o. m.ning nazariy qarashlari ilmiy asoslardan yiroq bo'lib, ijtimoiy voqelikka xos bo'lgan qator hodisalar: "qarama-qarshiliklar", "etnik mojarolar", "sinfiy munosabatlar" ilmiy tadqiq etilmay kelindi yoki bu hodisalarni ba'zi hollarda jamiyatning kasallik holati deb yuzaki talqin etishga urinildi. S. o. i. tarafdorlari jamiyat rivoji evolyusion negizlarda taraqqiy etishini asoslashga intildilar.

**Sotsiologiyadagi psixologizm** — ijtimoiy voqelikning mohiyati, tarkibiy tuzilmalarini individual psixologiya nuqtai nazardan izohlaydigan notsiologik oqim. S.p.iing taniqli namoyandasini Jordj Xomans jamiyat hodisalari ijtimoiy tartibotlar mahsuli emas, balki alohida shaxslar fe'l-atvorining mantig'idan kelib chiqadi, deb hisoblaai. Mazkur oqim E.Dyurkgeymning ijtimoiy hodisalar, sotsial faktlar alohida shaxslarning oe'l-atvori, xarakteri, o'ziga xosligidan qat'iy nazar yuzaga chiqadi va mustaqil amal qila oladi, degan nuqtai-nazariga zid eo'nalish sifatida shakllandi. 20-a.ning 70-y.lariga qadar jamiyatdagini ijtimoiy o'zgarishlar mohiyatiga baho berishda ana shu ikki sotsiologik oqim namoyandalarining nuqtai nazarlari dolzarb hisoblanib kelindi. Hoz. kunda ijtimoiy faoliyat mazmuni va sotsial tartibotlar mantig'iga ta'sir ko'rsatish orqali jamiyatga

samaraliroq ta'sir o'tkazish mumkinligi to'g'risidagi mulohazalar ilgari surilmoqda.

**Sotsial stratifikatsiya** — industrial jamiyatdagi individlar va ijtimoiy guruhlar o'rtasida moddiy ne'matlar, hokimiyat funksiyalari va imtiyozlarning notekis taqsimlanishini ifodalaydigan ijtimoiy-falsafiy tushuncha. S.s. ustuvorligini qaror toptirishga da'vo qiluvchi jamiyat o'z a'zolari o'rtasida turli ijtimoiy mavqe (pozitsiya)ni taqsimlashi va ularni shu mavqega mos ravishda o'z burchini bajarishga majbur qilishi kerak. Buning uchun jamiyat ikki xil darajadagi motivatsiya b-n shug'ullanishi lozim: avvalo o'z a'zolarida muayyan ijtimoiy mavqeni egallash istagini uyg'otishi, keyin esa shu pozitsiya b-n bog'liq majburiyatlarni bajarish istagini mustahkamlashi kerak. Agar turli pozitsiyalar b-n bog'liq majburiyatlar bir xilda ma'qul bo'lsa, bir xildagi qobiliyat va talantni talab etsa, bu pozitsiyani egallaydiganlar uchun hech qanday qizig'i bo'lmas edi. Aslida ahvol butunlay boshqacha: ayrim pozitsiyalar shunchaki ma'qul bo'lib qolmay, kishilardan maxsus qobiliyat va tayyorgarlikni ham talab etadi. SHuning uchun ham jamiyat kishilarni yuqori pozitsiyani egallashga rag'batlantirish uchun muayyan imtiyozlarga ega bo'lishi lozim. Ikkinchidan, jamiyat bu imtiyozlarni kishilarning egallagan pozitsiyasiga mos ravishda notekis taqsimlashi uchun o'z ixtiyorida muayyan qobiliyatlarga ega bo'lishi ham zarur. Imtiyozlar va ularning taqsimlanishi ijtimoiy tizimning tarkibiy qismi bo'lib qoladi va stratifikatsiyani vujudga keltiradi. SHunday qilib, ijtimoiy tengsizlik beixtiyor (anglanmagan holda) shakllanadigan vosita bo'lib, jamiyat ana shu vosita tufayli malakali shaxslarni muhim pozitsiyalar tomon yo'naltiradi. Har qanday jamiyat oddiy yoki murakkab bo'lishidan qat'i nazar kishilarni imtiyozi va obro'siga ko'ra tabaqlashtirishi va institutlashgan tengsizlik darajasiga ega bo'lishi kerak. Sotsial silkinishlardan ko'proq himoyalangan jamiyatlarda S.s.ning amal qilish doirasi ancha cheklangan. Agar sotsial struktura jamiyatning gorizontal kesishni ifodalasa, S.s. jamiyatning vertikal kesimini aks ettiradi.

**Sotsiologiyadagi sub'ektiv metod** — tarixiy bilishni idealistik talqin qilish. Bu talqinning asosini tarixiy bilimni tadqiqotchining axloqiy ideali b-n determinlashtirish (belgilash) haqidagi qoida tashkil etadi. Narodniklar bu metodning Rossiyadagi tarafдорлари edilar. "Sotsiologiya etikadan alohida fan emasdir. Uning asosiy haqiqatlari—shaxsiy axloq-odob haqiqatlaridir". (P.L.Lavrov). Ana shu ma'noda tarixiy bilim tabiiy-ilmiy bilimga qaramaqarshi bo'lib turadi. S.s.m. vakillarining fikricha, sotsiolog va tarixchining vazifasi-haqiqiy axloqiy idealni ishlab chiqishdan va unga muvofiq ravishda faktik materialni tartibga solishdan iborat. Bu ideal insoniyatning o'tmishidagi tarixiy voqealarni guruhashning birdan-bir qonuni, ijtimoiy hayot qonunidir. S.s.m. nazarida ijtimoiy fandagi har qanday "axloqiy ideal"

bab-baravar sub'ektiv va nisbiyidir. Unga erishish ob'ektiv zaruriyat b-n emas, balki idora b-n belgilanadi. Shuning uchun tarixiy bilimning haqiqatlik mezonini S.s.m. sub'ektiv-idealistik nuqtai nazaridan qo'yib hal etardi. Mixaylovskiy "g'arazli fikrlar" dan xalos bo'lishni, mas., "ilmiy sofdillikda", "siyosiy ahloq-odobda", ahloqiy ideal xarakterida deb bilardi. S.s.m. ning gnoseologik asosi-tarixiy protsessni pozitivistik talqin qilishdan iborat (*Pozitivism*). Marksizm tarixiy bilimning ob'ektivligini va partiyaviyligi prinsiipni S.s.m. ga qarama-qarshi qo'yadi.

**Sotsiologik tasavvur** — sotsiologik tadqiqot jarayonida o'z tasavvurlarini qo'llash. Sotsiolog tasavvur kundalik odatdagi hodisalardan chetga chiqish va muammolarni ijobiy hal qilishga ko'maklashadi.

**Sotsial xizmat** - korxona, muassasa va tashkilotning xizmatchilar va ishchilar faoliyatini qo'llab-quvvatlash orqati mehnat jamoasini boshqarish sohasi.

**Sotsiologiyadagi yonalishlar** — sotsiologiya fan sifatida shakllanganidan beri vjulga kelgan yo'naliishlar. Ularning ba'zilari tobora rivojlanmoqda, boshqalari eskirib, tarixiy ma'lumot sifatida ahamiyat kasb etmoqdalar. Hoz. zamon sotsiologiyasida "Worterbuch der Soziologie" kitobida ko'rsatishicha, quyidagi asosiy yo'naliishlar mavjud :

1) M a t e m a t i k yunalish – sotsiologik tadqiqotlarda oddiy bilimlarni yaqqolroq ko'rsatish uchun matematik usullarning qo'llanilishi; (Pareto). 2) F i z i k a l i s t i k yo'naliish (sotsial fizika, sotsial mexanika, sotsial energetika). Sen-Simon bu yo'naliishning birinchi vakili edi. 19-a.da bu yo'naliish Kont, Spenser va J.S.Miller tomonidan rivojlantirildi. Ijtimoiy hodisalarni energetizm nuqtai nazaridan talqin qilish (V.Ostvald) ham bu yo'naliish ichidagi maktab yaratilishiga olib kelgan; 3) S o s i a l – b i o l o g i k yo'naliish - jamiyatni ijtimoiy organizm sifatida talqin etishga asoslanadi: irlisyat va o'zgaruvchanlik, tabiiy va sun'iy tanlash, moslashish, hayot uchun kurash bu tafakkur uslubining asosiy tushunchalaridir (Spenser va boshqalar); 4) I j t i m o i y- a n t r o p o l o g i k yo'naliish irqlar va ijtimoiy tashkilotlar o'zaro bog'liqligi muammolari b-n shug'ullanadi (J.Gobino va F.Galton); 5) A n t r o p o g e o g r a f i k, i j t i m o i y g e o g r a f i k va e t n o l o g i k yunalishlar (Boden, Monteske, Gerder, Gumboldt, Bokl va b.); 6) T a r i x i y – f a l – i y , u n i v e r s a l – t a r i x i y va t a r i x i y yo'naliishlar odamni tarixiy mavjudot, ijtimoiy hodisalarni esa – madaniyat mahsuli sifatida qarashadi. Bu yo'naliishning vakillari Kondorse, Sen-simon, Kont, Paul Bart, Oppeneymer, Alfred Veber, K.Mangeym, SHeler, Trelch va Freyer.); 7) P s i x o l o g i k va s o s i a l – p s i x o l o g i k yo'naliishlar hamma ijtimoiy hodisalar ruhiy tomonidan belgilangan, shuning uchun ham ularni ruhiyat(psixika) orqali bilish mumkin deb hisoblaydilar.(Tard, Lebon va b.); 8) U n i v e r s a l i s t i k yo'naliishlar – jamiyatni antisub'ektivistik talqini

bo‘lib, u ijtimoiy tartibotni bir butun sifatida ko‘rilishi zaruriyatidan kelib chiqadilar. Bu yo‘nalish F.Akvinskiyga borib taqaladi, uning asosiy vakili – O.Shpann; 9) S i n f l a r n a z a r i y a s i ijtimoiy tabaqalanishni iqtisodiy omillar belgilaydigan manfaatlar b-n tushuntiradi (qar.: Tarixiy materializm). o‘rta tabaqalarni yo‘qolishiga olib kelishi mumkinligini ta’kidlashadi. (V.G.Ril va b.). o‘rta sinfni saqlab qolish jamiyat barqarorligini saqlab qolish demakdir; 10) F o r m a l yoki s o f sotsiologiya - sotsiologiyaning predmeti va ob’ektini shakl va mazmun nuqtai nazaridan talqin qilgan holda, uning vazifalarini aniqlashdan kelib chiqadi. Sotsiologiya empirik fan bo‘lib, u markazida o‘zaro ta’sir etadigan ijtimoiy aloqalar shakllarini o‘rganadi. (G.Zimmel va b.); 11) F e n o m e n o l o g i k yunalish - Gegelning “Ruh fenomenologiyasi”ga borib taqaladi. Sotsiologiyadagi bu yo‘nalish fal.dan kelib chiqqan, ayniqsa, Gusserl, Sheler va Xaydeggerlar tomonidan keng ishlangan. Bu yo‘nalish mohiyatni mushohada qilishga, ijtimoiy hodisalar mushohadasi materiallarini intuitiv bilish va mantiqlashtirishga harakat qiladi; 12) I j t i m o i y – i q t i s o d i y yo‘nalish o‘z tadqiqotining predmeti sifatida o‘zaro aloqador bo‘lgan xo‘jalik (iqtisodiyot) va jamiyatni oladi. Bu yo‘nalish Veber, Zombart, Oppeneymerlar tomonidan ishlab chiqilgan; 13) M a d a n i y – f a l - i y va m a d a n i y – s o s i o l o g i k yo‘nalish (Vindelband,Rikkertlarning tabiat va madaniyat fanlarini ajratganliklarini ko‘zda tutgan holda) tarixiy olamning tuzilishi to‘g‘risidagi ta’limot doirasida sotsiologiyadagi “madaniyat” tushunchasiga alohida o‘rin beradi; 14) I n d u k t i v – a n a l i t i k yo‘nalish empirik-statistik metod orqali konkret tajribada hosil bo‘ladigan materiallar b-n ish ko‘radi. U ayniqsa, AQSHda rivojlangan.Uning shiori – ilgaridan tayyorlangan usullar (masalan, testlar, anketalar) yordamida konkret ob’ektlar amaliy ishlashdir. Olingan natijalar sotsiogramma va sotsiografik shartli tasvirlarda aks ettiriladi. Bularning hammasining asosiy maqsadi – amaliyotda qo‘llanilishdir. Xuquq, madaniyat, san’at, adabiyot, xo‘jalik va ishlab chiqarish, texnika, mehnat, oila, moliya, pedagogik, bilim, din sotsiologiyasi va h.k. maxsus sotsiologiya fanlari hisoblanadi. Sotsiologiya natijalarini amaliy tadbiq etishga qaratilgan barcha urinishlar va ularga ijtimoiy-islohotchilik va ijtimoiy-siyosiy nuqtai nazardan baho berishning umumiy atamasi a m a l i y sotsiologiyadir.

**Spenser Gerbert (1820-1903)** - ham O. Kont kabi keng ma’lumotga ega bo‘lgan olim, o‘z davrining buyuk aql egalaridan biri xisoblanadi. U falsafa, sotsiologiya, psixologiya va boshqa fanlar bo‘yicha qator ilmiy asarlar muallifidir. Spenserning asosiy asari “Sintetik falsafa tizimi” bo‘lib, unda tabiiy va sotsial voqealarning tarixiy rivojlanishi haqidagi chuqr qarashlarini bayon etgan. G. Spenser sotsiologiyadagi organizmga oid

maktabning asoschisi hisoblanadi. U o‘zining organizmga oid nazariyasini va sotsial evolyusiya tushunchasini “Ilmiy siyosiy va falsafiy tajribalar” asarida atroflicha bayon etgan.

**Sotsiometriya** - (lot. *societas* - jamiyat, *metreo* - o‘lchayman) — kichik guruh a’zolari o‘rtasidagi bevosita emotSIONAL munosabatlarni o‘rganish va ularning darajasini aniqlashda qo‘llaniladigan metod. Unga amerikalik sotsiolog Djon Moreno asos solgan. Mazkur metod yordamida muayyan guruh a’zolarining o‘zaro munosabatini aniqlash uchun qaysi faoliyatda kim b-n birga qatnashishi so‘raladi. Olingan ma’lumotlar matriksa, grafik, sxema, jadval shaklida ifodalanadi. Ulardagi miqdor ko‘rsatkichlari guruhdagi kishilarning shaxslararo munosabatlari to‘g‘risida tasavvur hosil qiladi. Bu ma’lumotlar guruhiy munosabatlarning tashqi ko‘rinishini aks ettiradi, xolos. Shuning uchun hozirgi davrda Ya.L.Kolominskiy va I.P.Volkov tomonidan S.ning modifikatsiyalari ishlab chiqilgan. Bular shaxslarning bir-birini tanlash motivlarini keng ko‘lamda ifodalashga imkon beradi. Ayniqsa, S.ning Ya.L.Kolominskiy ishlab chiqqan o‘zgartirilgan turi, bolalar jamoasidagi shaxslararo munosabatlar haqida to‘laroq axborot beradi. Odatda, o‘quvchilardan quyidagicha savollarga javob berish talab qilinadi: “Sen sayohatga kim b-n birga borishni hohlaysan?”, “Imtihonga kim b-n birga tayyorlanishni istaysan?”, “Kim b-n qo‘shti bo‘lib yashashni yoqtirasan?”. Har bir savol sotsiometrik mezon (o‘lchov) vazifasini bajaradi va turmush voqeligidan olingen. Sinaluvchi har bir savolning uchta javobidan bittasini “Eng ma’qul” deb tanlashi lozim. Unga ”avval, hammadan ko‘ra ko‘proq kim b-n birga bo‘lishni xohlasang, o‘shaning familiyasini yoz”, “agar sen istagan shaxs to‘g‘ri kelmasa, yana kim b-n birga bo‘lishni istasang, shuning familiyasini yoz”, “aytilgan shartlarga binoan uchinchi shaxsning familiyasini yoz” deb uqtirish lozim. Guruhiy tabaqlanishni ko‘rsatish uchun sotsiogrammma to‘rtta “maydon”ga ajratiladi. qizlar doiracha b-n, o‘g‘il bolalar esa uchburchaklar b-n belgilanadi. Doiracha va uchburchaklar soni familiyalar soniga to‘g‘ri keladi. Guruh a’zolarining o‘zaro munosabatlari doiracha va uchburchaklar strelkalar b-n bog‘langanida o‘z ifodasini topadi. Eng ko‘p munosabatga ega bo‘lgan sinaluvchi doiraning markazidan o‘rin oladi. U guruh a’zolarining eng yoqimtoyi hisoblanadi. Shaxslar b-n aloqa o‘rnatmagan sinaluvchi doiraning eng chetidan joy oladi. Oraliqdagi “maydon”larga o‘rtacha va undan kamroq tanlangan tekshiriluvchilar joylashtiriladi. Tekshirishda, birinchidan, shaxslararo munosabatning darjasini va ko‘lami aniqlanadi, ikkinchidan, qizlar b-n o‘g‘il bolalar o‘rtasidagi ko‘rsatkichlar taqqoslanadi. Ko‘rsatkichlarga qarab guruhdagi yoki qizlar b-n o‘g‘il bolalar o‘rtasidagi munosabatlar va ularning o‘ziga xosligi, psixologik mexanizmlari haqida xulosa chiqariladi. Shunga asoslanib nazariy ahamiyatga molik g‘oyalar olg‘a suriladi, amaliy

ko'rsatmalar beriladi, tavsiyalar bildiriladi. Ta'lim tizimida (maktabgacha, maktab, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, oliv o'quv yurti), mehnat jamoalari va turli tashkilotlar, uyushmalar xodimlari o'rtasidagi munosabatlarning xususiyatlari, dinamikasi, shaxslararo ziddiyatlarining sababi shu metod yordamida o'r ganiladi. Turli ehtiyoj, motiv, qiziqish, intilish, harakat va hokazolar muayyan tartib hamda qoidaga binoan sistemalashtiriladi, ularning ijtimoiy-psixologik ildizlari to'g'risida ma'lumotlar olinadi. SHu b-n birga guruhlardagi shaxslarning yaqqol, aniq nuqtai nazari, guruhbozlik, og'machilik, qarama-qarshilik, his-tuyg'uning zo'riqishi, guruhiy jipslik, moslik, munosabat motivlari, jinslar o'rtasidagi muloqlarning zamini hamda sehri mana shu kalit b-n ochiladi. S. metodidan turli yoshda va jinsdagi, saviyasi har xil kishilar guruhlaridagi psixologik qonuniyatni tadqiq etishda unumli foydalanish mumkin.

**Statistika** (lot. holat) — jamiyat rivojlanishini miqdor o'zgarishlarida o'rganuvchi fan. Ushbu miqdor o'zgarishlari ilmiy va amaliy maqsadlarda qayta ishlanadi va tahlil qilinadi.

**Statistik usullar** — tadbiqiy matematik statistikaga oid usullar va modellar birligi. Shartli ravishda ularni ikkiga bo'linadi. Birinchi guruhga: terma (tanlash) usuli, tavsiflovchi (ta'riflovchi) statistika, bog'liqlik va aloqalar tahlili, statistik xulosalar baholar va mezonlar nazariyasi, tajribani rejalashtirish usullari kiradi. Ikkinci guruhniga ko'p o'zgaruvchili usullar kiradi: darajalash; taksonomik tadbirlar; korrelyasion, faktorli, sababiy tahlil va bir guruh statistik modellar.

**Status** - 1. Muayyan tizim, targ'ibot, hamda ierarxiyaning holati, darajasi va mavqeい. 2. Biron shaxs, davlat organi yoki xalqaro tashkilotning ijtimoiy mavqeini ifodalovchi burch va majburiyatlar majmui. Status (status) — muayyan individlar guruhining jamiyatdagi bosh-qa a'zolarga nisbatan ko'proq e'tirofga yoki prestijga ega bo'lish darajasi. Status guruxlari odatda, yashash stillari — shu guruhga mansub individlar uchun xos bo'lgan xulqatvor usullari bilan farq-lanadi. Status imtiyozlari ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Masalan, "pariylar" status guruhi.

**Stratifikatsiya** - jamiyatning tuzilmasi va alohida qatlamlarini, ijtimoiy tabaqalanish belgilari tizimini, ifodalovchi sotsiologik tushuncha.

**Sterotip tafakkur** — qatiy, cheklangan va qotib qolgan kategoriylar yordamida fikr yuritish jarayoni.

**Stimul** (lot. quvnoq) — faoliyatga undovchi turtki, sabab. Manfaatdorlik.

**Strata** (lot. *stratum*) — qatlam.

**Strukturalizm** — tilni o'rganishda vujudga kelgan, ijtimoiy va madaniy tizimlarning tuzilmasini anikdashga qaratilgan nazariy yondoshuv.

**Strukturaviy-funksional tahlil** — jamiyatshunoslikda asosiy

metodologik yondashuv. XX a.da asosan ijtimoiy bilimlar doirasida ishlab chiqilgan, eng rivojlangan metodologik yondashuvlardan biri hisoblanadi. S.f.t. tarafdorlari fikriga ko‘ra, ijtimoiy hayot –odamlar o‘zaro ta’sirlarining cheksiz ko‘pligi va bir-biri bilan chatishib ketganligi, deb tushuniladi. Bu o‘zaro ta’sirlarni tahlil qilish ularning qaysi sistemada sodir bo‘lishining o‘zini ko‘rsatish etarli emas. Bu sistemaning o‘zida mavjud bo‘lgan turg‘un elementlarini topish zarur hamda mutlaq ravishda harakatchan muhitning ichida barqaror elementlarini topish kerak. Ana shuning o‘zi strukturadir. Bu struktura operatsiyalari - uning funksiyalarini tashkil etadi.

Struktura o‘z funksiyalarini turg‘un, barqaror ravishda amalga oshirishi sababli, struktura va funksiyalarga ajratishning (farqlash) o‘zi nisbiy bo‘lib qoladi. Bir nuqtai nazardan struktura sifatida namoyon bo‘lgan narsa, ikkinchi tarafdan – funksiyadir va buning aksi. Mavjud sistemani saqlash uchun bajariladigan talablarni sanash, ularni funksional (va strukturaviy) jamlash zaruriyatiga olib keladi, yanada umumlashgan shaklda esa – funksional imperativlarga olib keladi.

Tavsiv etilgan yondashish o‘zida hech qanday sotsiologiyaga xos xususiyatlarga ega bo‘lmay, ko‘proq biologik sistemalarni eslatadi. Bu yo‘nalishning aksariyat namoyandalari biologiyaga o‘xshatishni keng qo‘llashgan. Sotsiologiya sistemai harakat sistemai sifatida amalga oshadi. Bunda uning strukturasi sifatida sistemadagi barqaror xatti-harakatlar namunalari, barcha uchun ahamiyatli harakatlarga (kutilayotgan natijaga) nisbatan normativ kutilayotgan natija namoyon bo‘ladi.

70-y.lar o‘rtalaridan boshlab strukturaviy funksionalizm g‘arb sotsiologiyasida hukmon sotsiologik maktab sifatida amal qilishi susayadi. Lekin uning ta’siri haligacha juda katta. Oxirgi yillarda, xususan AQSH va G‘arbiy Germaniyada unga bo‘lgan qiziqish yana jonlanmoqda.

**Sterotip tafakkur** — qatiy, cheklangan va qotib qolgan kategoriylar yordamida fikr yuritish jarayoni.

**Strukturalizm** — tilni o‘rganishda vujudga kelgan, ijtimoiy va madaniy tizimlarning tuzilmasini anikdashga qaratilgan nazariy yondoshuv.

**Sublimatsiya** (lot. sublimo - oshirmoq) – energiyani ijtimoiy va madaniy jihatdan nomaqbul (quyi, tuban) maqsad va ob’ektlardan maqbul (yuqori, olivyjanob) bo‘lgan ijtimoiy va madaniy ob’ektlarga o‘tkazish hodisasisidir. Sublimatsiya g‘oyasi XVIII asr g‘arb yozuvchilaridan G.Shtelling va Novalislarning asarlarida, shuningdek A.Shopengauer va Nitsshelarning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. XX asrning boshlaridan sublimatsiya tushunchasi psixoanalizda keng foydalana boshlandi. Z.Freyd nazariyasiga ko‘ra, sublimatsiya – bu maylni hirsiy qoniqishlardan uzoq bo‘lgan boshqa maqsadlarga yo‘naltirish va hirsiy tuyg‘ular energiyasini (manbasini) ijtimoiy maqbul bo‘lgan axloqiy jihatdan ijobiy faoliyatlarga

o‘zgartirishdir. Freyd diniy ibodat va marosimlarning paydo bo‘lishi, shuningdek san’at va ijtimoiy institutlarning shakllanishini ham sublimatsiya hodisasi orqali qarab chiqadi. G‘arbda ruhiy genetika va falsafiy antropologiya okimlarida sublimatsiyaning psixoanalitik talqinini bir necha bor zamonaviylashtirish va o‘zgartirishga harakat qilindi.

Tadqiqotchi Ssondi sublimatsiyaning uch bosqichini ajratib ko‘rsatadi: «Ijtimoiylashish» - ya’ni, istakni (maylni) professional faoliyat sohasiga ko‘chirish; «shaxsiy sublimatsiya» - insonning individual faoliyati bilan bog‘liq; «gumanizatsiyalashgan» - insoniyat taraqqiyotini ta’minlaydigan sublimatsiyaning eng yuqori shakli.

Shelarning fikriga ko‘ra, sublimatsiya qobiliyati tabiiy olamning barcha tashkillashgan shakllariga xosdir. U «sublimatsiyadan tashqari» (ortiq) tushunchasini kiritadi, bunda u haddan tashqari intellektuallashishni nazarda tutadi. Shelarning fikriga ko‘ra, sublimatsiya hodisasi zamonaviy madaniyatga xos bo‘lib, insonlarda destruktiv vayronkorlikka moy.likni ham keltirib chiqarishi mumkin. Hozirgi vaqtda faylasuflar, psixologlar va san’atshunoslar insondagi biologik va ijtimoiy jihatlar munosabatini, individ bilan jamiyatning o‘zaro bog‘liqligini, shaxsnинг ijtimoiylashish bosqichini, madaniy-tarixiy jarayonlar oqimining xususiyatlarini, ijodiyotning tabiatini va xususiyatini izohlashda sublimatsiya g‘oyasiga tez-tez murojaat qilmoqdalar. Freyd talqinida sublimatsiya insonda mavjud bo‘lgan instinkтив (shahvoniy yoki agressiv) intilish ob’ektini ijtimoiy jihatdan maqbul bo‘lgan boshqa faoliyat (mas., ijodiyot) ob’ekti bilan almashishi yoki o‘rnini bosishi hodisasidir. Ruhiyatning ongsiz («U») qatlamida to‘plangan ong osti energiya ijodiy tomon yo‘naltiriladi. Sublimatsiya kuchli ong osti energiyasini intilish ob’ektini almashtirish yo‘li bilan bu manbani ijodiy faoliyat tomon burib yuborish mexanizmini bildiradi. Sublimativ jarayon instinkтив intilish (mayl) ob’ektidagi energiyani boshqa faoliyat turiga o‘tishini ta’minlaydi. Bu jarayon davomida mayl o‘z yo‘nalishini o‘zgartiradi. Oqibatda avval shahvoniy hirsiyot uchun manba bo‘lgan ehtiros, energiya boshqa sohalarga ko‘chish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

**Submadaniyat** — alohida guruhlarning jamiyatda umum e’tirof etilganlardan farq qiluvchi qadriyat va me’yorlari.

**Suitsid** - (o‘z-o‘zini o‘ldirish). Suitsid bu odamning o‘zini-o‘zi o‘ldirishga harakat qilishdir. Suitsid muammosini birinchi marta E.Dyurkgeym o‘zining “Anomiya” nomli asari orqali ochib bergen.

**Sufrajistikalar** — erkaklar va ayollarning saylovdagi teng huquqlari uchun kurashgan dastlabki xotin-qizlar harakatining ishtirokchilari.

**Sun’iy muhit** (created environment) — inson texnologiyalar yordamida yaratgan moddiy dunyo jihatlari. Sun’iy muhit o‘z tarkibiga insonning ehtiyojlarini qondirish uchun yaratgan konstruksiyalar, masalan, avtomobil

va temir yo‘llari, fabrikalar, ofislar, turar joylar va boshqa binolarni qamrab oladi.

**Surrogat onalik** — bola ko‘ra olmaydigan er-xotinlar uchun boshqa ayolning bola tug‘ib berishi.

**Suxbat** — kundalik ijtimoiy hayotda so‘zlashish yoki verbal muloqot jarayonlari.

**Suxbat metodi** – chiqarilgan xulosalarni cho‘qurroq bilish va aniqlab olish uchun turli bosqichlarda tekshirishning boshida masalani aniqlab olish va uni oydinlashtirish uchun ishlatiladi.

**So‘fiylik** - islomdagi diniy falsafiy oqim. 8-4-asrlarga paydo bo‘lgan va Arab xalifaligida tarqalgan. So‘fiylik yagona Olloohni tash olishni va unga intilishni, faqat unga muhabbatni targ‘ib qiladi hamda qolgan barcha narsalarni Ollohnning aksi yoki sifatlari deb xisoblaydilar. Imom G‘azzoliy asos solgan sufizm, keyinchalik turli tariqatlarga bo‘linib ketdi. Kubroviya, Yassaviya hamda eng ko‘p tarqalgan Naqshbandiya tariqatlari Markaziy Osiyoda paydo bo‘lgan.

**So‘rov** - fransuz tilidan olingan bo‘lib, biron bir narsani aniqlash degan ma’noni anglatadi. Sotsiologiyada so‘rash usullari muayyan aholi guruhlariga savollar vositasida murojaat qilish orqali birlamchi ma’lumotlarni to‘plash ma’nosini anglatadi. So‘rash usullarining yozma (anketa), og‘zaki (intervyu) hamda sirdan (pochta, telefon va matbuot orqali) ma’lumotlar to‘plash shakllari mavjud.

## T

**Tabaqa** — individlar guruhlari o‘rtasidagi tengsizlik, qonun tomonidan mustahkamlab qo‘yiladigan stratifikatsiya shakli.

**Tabaqalashgan uyushmalar** — Edvin Sazerlend tomonidan jinoiy xulq-atvorni talqin qilish uchun taklif etilgan yondoshuv, unga ko‘ra jinoiy xatti-harakatlarga o‘rganish jinoiy dunyo vakillari bilan muloqot orqali yuz beradi.

**Tabaqalashuv** — organik tizimlar yoki jamiyatlarning kuchayib borayotgan murakkablik tomon rivojlanishi.

**Tadbirkor** — firma xo‘jayini. Shaxsiy mablag’iga ma’lum yonalishda ishlab chiqarish korxonasi tashkil qilgan inson.

**Tahlil tarkibiy** — funktsional. E.Dyurkgeym, V.Pareto va boshqalar tomonidan bayon etilgan yondoshuv. U ikki qismdan iborat: 1) tarkibiy - turli tuzilmalar tahlilidan ular bajarayotgan funktsiyalarni aniqlashga o‘tuvchi; 2) funktsional - funktsional talablarning muayyan birligidan kelib chiqib, bu funktsiyalarni bajaruvchi muayyan tuzilmalarni aniqlashga o‘tadigan yondoshuvlar. Ularning barchasi uchun me'yoriylik, ya’ni ijtimoiy muhit va

inson hulq-atvorining me'yoriy ko'rsatmalari va qadriyatlar bilan belgilanganligidan kelib chiqish xos

**Talabalarining tafakkuri** - o'qish, amaliy mashg'ulot va mustaqil bilim olish faoliyatlarida holatda jadal va uzlusiz ravishda rivojlanadi.

**Tanlash - 1)** sotsiologik tadqiqotning bevosita o'rganilishi kerak bo'lgan ob'ekti elementlarining majmuasi; 2) ob'ekt elementlarini, ommaviy sotsiologik tadqiqotlarda qo'llaniladigan kuzatuv va o'rganish birliklarini saralab olish uslublari, usullari va tartib-qoidalarining majmuasi.Tanlash (jarayon sifatida) – tadqiqotning butun bir ob'ektni (mamlakatning butun axolisi, barcha oilalar, maktablar) tashkil qiluvchi ko'pgina birliklardan (odamlar, oilalar va h.k.) ma'lum bir birliklar sonini tanlab olish.

**Tarbiya** - jamiyatda amal qilayotgan me'yordarga mos ravishda shaxsni maqsadli tizmiy shakllantirish jarayoni.

**Tard Gabriel** (1843 - 1904) - fransuz yuristi va sotsiologi, g'arb sotsiologiyasidagi ijtimoiy-psixologik yo'nalishning yorqin vakillaridan biri. Uning asosiy asarlari - "Taqlid qonunlari", "Huquq transformatsiyasi", "Ijtimoiy mantiq", "Jamoatchilik fikri va olomon" va boshqalar. Tardning olomon psixologiyasi va jamoatchilik fikri soxasidagi tadqiqotlari huquq sotsiologiyasi uchun ham, umumi sotsiologiya uchun ham muhim ahamiyat kasb etgan. Kishilarning tartibsiz to'dasi bo'lgan olomonga umumi emotsiyal holat hamda tsgishli xulq-atvor shakli xos. Olomon psixologiyasi inson pidividuallagini, psixologiyasini va intellektini bo'g'adi. Insonning olomondagi xulq-atvorida ishonuvchanlik va taqlidchilik kuchli. Olomon qanchalik ko'p sonli bo'lsa, deb ta'kidlagan Tard, uning intellektual darajasi shuncha past va individga emotsiional ta'siri shuncha yuqori bo'ladi. Tardga muvofik, omma olomondan (||)arqli ravishda, umumi o'zlikni anglashga ega bo'lgan alohida ijtimoiy tuzilma (kishilar birligi)dir. Ommanning ushbu o'zligini anglashi shakllanishida kommunikatsiya va ommaviy axborot iositalari muhim rol o'ynaydi. Shu tarika, **ijtimoiy fikr** Tardning ijtimoiy-psixologik konsepsiyasida ommanning umumi o'zligini anglashini ifodalash shakli sifatida talqin qilinadi.

**Terma** (vnorka) — individ yoki hodisalarining muayyan ulushi bo'lib, u tadqiqot jarayonida butun guruh xususiyatlarini ifodalaydi.

**Tarixiy materializm** — tarixdagi ijtimoiy o'zgarishlarning Marks tomonidan talqin qilinishi, unga ko'ra, o'zgarishlar jarayoni avvalo iqtisodiy omillar bilan belgilanadi.

**Tarixiylik** — tarixni tarixiy o'zgarishlar nuktai nazaridan tushunish, ya'ni ijtimoiy o'zgarish jarayonlari haqida axborot olish.

**Tarixni materialistik tushunish** — Marks tomonidan yaratilgan tarixga qarash, unga ko'ra tarixiy o'zgarishlarni belgilashda "moddiy" yoki iqtisodiy omillar hal qiluvchi rol o'ynaydi.

**Tashqi maydon** — muayyan vaqt davomida dunyo iqtisodiyotidan chetda qolgan davlatlar.

**Tashkilot** — muayyan hokimiyat munosabatlari tizimiga jalg etilgan odamlarning katta guruhi. Sanoatlashgan jamiyatlarda hayotimizning turli jihatlariga ta'sir o'tkazuvchi ko'plab tashkilot turlari mavjud. Mavjud tashkilotlarning hammasi ham byurokratik emas, biroq tashkilotlar taraqqiyoti bilan byurokratlashuv o'rtasida yaqin aloqalar mavjud.

**Ta'lim tizimi** — muayyan jamiyat doirasida ta'limni ta'minlovchi tizim.

**Temperament** (lot. temperamentum — aralashma) — shaxsning emotsiyonal qo'zg'aluvchanligi va umumiylar harakatchanligi b-n tavsiflanadigan individual xususiyatlar majmuasi. T. xususiyatlari deganda, ma'lum inson ruhiy faoliyatining dinamikasini belgilovchi psixikaning barqaror individual xislatlari tushuniladi. Ushbu xususiyatlar turli mazmundagi faoliyatlarda, motivlarda va maqsadlarda nisbatan o'zgarmaydi, shuning uchun T. turini tavsiflovchi tuzilmani hosil qiladi. T.ning fiziologik asosini asab sistemasining umumiylar tashkil qiladi. E.Krechmer va U.Sheldon naz-yasiga ko'ra, ma'lum odam T.ning xususiyatlari tashqi hayot sharoitlariga va faoliyat talablariga muvofiqlashgan bo'lishi mumkin. Lekin odamning T.iga bog'liq bo'lgan imkoniyatlar b-n jamiyat talablari o'rtasida keskin ziddiyat yuzaga keladi. T.ning paydo bo'lishida organizmning umumiylar tuzilishi emas, balki asab sistemasining umumiylar asosiy rol o'ynaydi. T.ning psixologik xususiyatlari nerv sistemasini umumiylar turining fiziologik xususiyatlariga ko'p jihatdan tobedir. T. turi deganda, muayyan odamlar guruhi uchun umumiylar bo'lgan xususiyatlarning qonuniy, zaruriy o'zaro bog'liqligi tushuniladi hamda bunday sub'ektivlikni engish imkoniyatiga ega bo'ladi. T.ning dastlabki tasnifi Gippokrat tomonidan amalga oshirilgan: sangvinik, xolerik, flegmatik, melanxolik. T. turlarining hozirgi zamon psixologik tavsifi quyidagi asosiy xususiyatlar b-n aniqlanadi: 1) senzitivlik; 2) reaktivlik; 3) aktivlik; 4) reaktivlik b-n aktivlikning o'zaro munosabati; 5) reaksiya sur'ati; 6) harakatlarning silliqligi; 7) rigidlik (qotib qolganlik); 8) ekstravertirovanlik; 9) intravertirovanlik. Irsiyat va turmush sharoitlari T.lar o'rtasidagi tafovutlarning sababchisidir. Geterozigot (bir xil bo'limgan ikkita tuxumdan paydo bo'lgan) egizaklarga qaraganda gozozigot (bitta tuxumdan paydo bo'lgan) egizaklar T.lari xususiyatlarning o'xshashlik darajasi yuqori bo'lib, T.ning irsiy yo'li b-n berilish imkoniyati 85% ga teng. T. ayrim xususiyatlarining hayot davomida o'zgarishlari umuman T. turining o'zgarishi zarurati b-n bog'liq emas. T.ni faoliyat talablariga moslashtirish yo'llari; 1) odamning ruhiy xususiyatlariga nisbatan faoliyatni tanlash (professional tanlash); 2)— inson oldiga qo'yiladigan talablarning individuallashtirilishi; 3) T.ning salbiy tarzda namoyon bo'lishini motivlar yordami b-n engishdan iboratdir. Faoliyatning individual uslubining tarkib topishi shartlaridan biri T. xususiyatlarini hisobga olish. Individual uslub paydo bo'lishining muhim shartlaridan biri bajarayotgan ishga ongli, ijodiy munosabatda bo'lish. Tarbiyaning asosiy vazifalaridan biri shundan iboratki, individual uslubni tarkib toptirish yo'li b-n shaxsning T.ini faoliyatning ob'ektiv

talablarga maqsadga yo‘naltirilgan ravishda moslashtirishdir.

**Tendensioz** (lot. *tendere* - harakat qilish, yo'nalmoq) — muayan tendensiyaga bo'ysindirishga qaratilgan islohotlar yoki amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar.

**Tendensiya** (lot. *yo'naltirish, intilish*) — 1) biror narsaga intilish, moyillik; 2) biror holat, hodisa rivojlanishi yo'nalishi.

**Tenglik** — jamiyatdagi barcha kishilar, qatlam, partiya va shu kabilarning qonun oldidagi huquqiy mas’uliyati va imkoniyatlarining baravarligini anglatadigan tushuncha. T. ta’minlangan jamiyatda uning barcha a’zolari yashash, ta’lim olish, mehnat qilish, erkin kasb tanlash, mulkdor bo‘lish, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish, qariganda, mehnat layoqatini yo‘qtoganda ijtimoiy ta’minot olish, fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi, saylash va saylanish kabi huquqlarga ega bo‘ladi. T.ning mantiqiy ma’nosni ayniyat b-n mos keladi. Formal mantiqdagi ayniyat qonuniga ko‘ra, agar fikrlar bir xil hajmga ega bo‘lsalar teng fikrlardir, agar bildirilgan fikrlar mazmun jihatidan o‘zgarmay qolsalar ham, teng fikrlardir.

**Tengdoshlar guruhi** — bir xil yosh va ijtimoiy mavqega ega bo‘lgan do‘stona individlardan tashkil topgan guruh.

**Teologiya** (lot. *theo* — xudo, *logos* — ta’limot) — Xudo to‘g‘risidagi fan, ta’limot. Xudo, uning sifatlari, belgilari va xususiyatlari to‘g‘risidagi diniy ta’limotlarni asoslash va himoya qilish tizimi. T.ga muayyan din tomonidan belgilangan aqidalarning haqiqatligini isbotlash b-n birga, dindorlarning hayot tarzi va me’yorlari kompleksi ham kiradi. o‘rta asrlarda T.mafkura sifatida jamiyatni, davlatni boshqarish ishlariga ishtirok etgan, shu sababli davlat boshqaruvining teokratiya shakli ham vujudga kelgan. T. o‘rta asr madaniyatining barcha turlarini ilm-fan, fal. hamda axloqni o‘zida mujassamlashtirgan yagona tizim shaklida namoyon bo‘ladi. o‘quv yurtlarida xuddi shuning uchun ham jahonning bir qator mamlakatlari dunyoviy ilmlar b-n birga ilohiyot o‘qitiladi. SHuningdek, jahonning ba’zi mamlakatlarida, jumladan, Misr Arab Respublikasida Al-Azhar, Tunisda Zaytuna, Hindistonda Aligarx, Pokistonda Panjob, Turkiyada Anqara diniy un-tlari faoliyat ko‘rsatib, T. asoslarini keng targ‘ib qilmoqda. Mustaqillikdan so‘ng o‘zbekistonimizda milliy ma’naviyatimizning tarkibiy qismi bo‘lgan islom ma’naviyatini tiklanishi natijasida Toshkentda Islom Universiteti ochildi. Bu ilm dargohida islom dini b-n bir qatorda barcha dunyoviy ilmlar, xorijiy tillar, kompyuter asoslari o‘rgatiladi.

**Terrorizm** — nodavlat guruhlarning siyosiy maqsadlarga erishish uchun zo‘ravonlikdan foydalanishi.

**Texnokratik nazariya** — mazkur nazariya XX asrning 20-yillarda vujudga kelib, 60-70-yillarda ancha keng tarqaldi. Uning tarafdorlari orasida T.Veblen, D.Barnxeym, G.Saymon, D.Bell va boshqalar bor edi. Umuman ushbu nazariya elitar nazariyasiga juda o‘xshab ketsa-da, zamonaviy voqelikni

hisobga olishi bilan ajralib turadi. Bu nazariyaga ko'ra, jamiyatni mutaxassis boshqaruvchilar, menejerlar idora etishlari lozim (ko'pincha amalda ham shular boshqaradilar). Aynan ular jamiyatning haqiqiy ehtiyojlarini, uning eng maqbul rivojlanish yo'llarini, buning uchun zarur vositalarni aniqlashga qodir. Bu boshqarishni ilmiy asosda olib borish imkonini beradi hamda jamiyatning ildam rivojlanishini ta'minlaydi. Mazkur ta'limot g'oyalaridan nafaqat davlatning mohiyati balki uning boshqa jihatlariga tegishli bo'lgan boshqa nazariyalarda ham foydalanilmoqda.

**Texnokratiya** (yun. *techne* san'at, hunar, mahorat va ...*kratiya*) — 1) ijtimoiy tafakkurdagi oqim, unga ko'ra, jamiyat butunlay ilmiy-texnika tafakkuri printsiplari bilan boshqarilishi mumkin; texniklar, muhandislar va olimlar (texnokratlar) ilmiy-texnika tafakkurining namoyandalari bo'lib, korxonalar va umuman jamiyatdagi barcha hokimiyat tadbirkorlar va siyosatchilardan ularga o'tishi kerak. Texnokratik kontseptsiyalar hozirda ijtimoiy ishlab chiqarishda fan va mutaxassislar mavqeining oshib borayotganligini aks ettiradi. T.ning barcha ko'rinishlariga xos bo'lgan belgi ijtimoiy jarayonlarni texnika va boshqa tor ixtisoslashgan mezonlar asotsida boshqarishga e'tiborni kuchaytirib, siyosatning qadriyatli-axloqiy o'lchovlariga kam ahamiyat berishdir; 2) monopoliyalashtirilgan ishlab chiqarish. va davlat apparatining yuqori mulozimlari - mutaxassislar qatlamini bildiradi; 3) XX-asrning 30-yillarida AQShda vujudga kelgan ijtimoiy harakat. U milliy miqyosda ishlab chiqarishni ilmiy rejorashtirish natijasida sanoat to'ntarishi yordami bilan umumiylar farovonlikka erishishni maqsad qilib qo'ygan (rahbarlari G. Loeb, G. Skot). Harakat 40-yillar boshida barbod bo'lgan.

**Texnokratizm** (yun. texnika - san'at, ustalik va kratos - hokimiyat so'zlaridan olingan) — texnik mutaxassislarning ilmiy bilimi asotsida butun jamiyatning manfaatlarini himoya qiluvchi, siyosiy hokimiyatni o'rnatilishi haqidagi sotsiologik kontseptsiya. Dastavval, T. g'oyasi amerikalik iqtisodchi va sotsiolog Torsteyn Veblenning, "Muhandislar va baholar sistemasi" ("The engineers and the price system") deb nomlangan asarida ilgari surilgan. Uning fikricha, XX-asrda sodir bo'layotgan, ishlab chiqarishdagi inqilobi o'zgarishlar jamiyat hayotida muhim o'rinni tutadi va shuning uchun butun xalq xo'jaligini va umuman jamiyat boshqaruvini kelajakda texnik ziyorilar qo'liga berish kerak.

**Texnologiya** — moddiy ishlab chiqarishda bilimlardan foydalanish. Texnologiya inson foydalanishi uchun moddiy vositalar (masalan mashinalar, avtomatlar) yaratishni bildiradi.

**Texnologik determinizm** — ijtimoiy rivojlanishning asotsini ishlab chiqarishning texnik va texnologik tuzilmalari o'zgarishlariga bevosita bog'laydi. Unga ko'ra texnik-texnologik har bir muhim o'zgarish ijtimoiy tuzilmalarni va ular o'rtasidagi munosabatlarni o'zgartiradi. Bu yondoshuv industrial, postindustrial, texnotron, axborot jamiyatlari kontseptsiyalari uchun xos. Ikki asotsiy yo'nalishi 1) evdemonizm (yun. baxt) ishi o'z-o'zidan barcha

muammolarni hal qilishidan kelib chiqsa; 2) alarmizm (fr. havotir) ishining salbiy oqibatlariga diqqatni qaratadi.

**Taylorizm** — “ilmiy boshqaruv” nomi bilan ham mashhur bo‘lgan, Taylor tomonidan taklif qilingan g‘oyalar tizimi bo‘lib, uning mohiyati sanoatda muvofiqlashtirilgan sodda operatsiyalarni qo‘llashdan iborat.

**Timsol** — predmet yoki hodisalarini ifodalash uchun belgilardan foydalanish, masalan millat yoki davlatni ifodalaydigan timsol bo‘lgan bayroqdan foydalanish.

**Timsoliy interaksionizm** — J. G. Mid tomonidan taklif qilingan, sotsiologiyada qo‘llaniladigan nazariy yondoshuv. Unda til va timsollarning shaxslararo o‘zaro ta’sirning asosiy elementlari sifatidagi roli ta’kidlanadi.

**Tizim**, Sistema (yun. systeme — qismlardan iborat butun) — o‘zaro munosabat va aloqada bo‘lgan, muayyan yaxlitlikni hosil qiluvchi ko‘p qismlar (elementlar) majmui. Moddiy va mavhum T.lar ajratib ko‘rsatiladi. Moddiy T.lar: 1) noorganik tabiat T.lari (tabiiy, geologik, kimyoviy va b.); 2) tirik T.lar (sodda biologik T.lar, organizmlar, populyasiyalar, turlar, ekotizimlar). Ijtimoiy T.lar barcha T.lardan ajralib turadilar, eng sodda ijtimoiy birliklardan tortib jamiyatning ijtimoiy tuzilmasigacha bo‘lgan turli-tuman qismlar unga mansubdir. Mavhum T.lar ham mavjud bo‘lib, unga tushunchalar, taxminlar, naz-yalar, ilm, shuningdek, formallashtirilgan, mantiqiy T.lar xosdir.

**Tizimli tahlil** — bilish jarayoni va tadqiqotlarda qo‘llaniladigan usul, keng ma’noda tizimli yondashuv uslubiga barobar tarzda so‘llaniladi. Tizimli yondashuv, T.t. vositasida amalga oshiriladi. Tor ma’noda—barcha vosea — hodisalar, modda-ashyolar, harakat — jarayonlar murakkab muammolarning echimlarini topib, ishlab chisarish jarayonlarida so‘llaniladigan metodologik vositalar majmui. T.t. sat’iy miqdor mezonlariga bo‘ysunmaydigan noanisliliklardan biror ob’ektni tanlab saror yoki hukm chisarish jarayonlarida so‘llaniladi hamda eng osil-optimal variant tanlash imkoniyatini beradi. T.t.ning ilmiy-metodologik asoslarini tizimlar umumiy naz-yasi va tizimli yondashuv tashkil etadi, lekin T.t. jarayonida mazkur asoslarning fasat eng umumiy va boshlang‘ich tasavvurlari hamda shart-sharoitlari ishga solinadi. T. t.ning metodologik masomi o‘ziga xosligi, bir tomonidan, u anis belgilangan uslub va amaliyot vositalariga ega bo‘lsa, ikkinchi tomonidan, T. t.da sat’iy bo‘lmagan va sifatli fikrlash, baholash, uslublash sezgilariga asoslangan vositalarga ega bo‘ladi. T.t. fan-texnika va amaliy hayot jarayonlari b-n chambarchas bog‘liq holda ifodalanadi.

**Toffler Olvin (1928)** – amerikalik sotsiolog, fay. va publisist-futurolog. T.ning asosiy fal-iy harashlari “Kelajak balosi” (1970), “Madaniyatli iste’molchilar” (1973), “Ekospazm haqida ma’ruza” (1975), “Uchinchi to‘lqin” (1980), “Dastlabki bitiklar va istiqbollar” (1983), “Sezgir korporatsiya” (1985) kabi asarlarida o‘z ifodasini topgan. T. postindustrial jamiyat haqidagi konsepsiyalardan birining muallifi. Uning fikriga ko‘ra, tarixiy evolyusiyani

chiziqli taraqqiyot yordamida ifodalab bo‘lmaydi. Chunki, unda ijtimoiy ziddiyatlar va to‘qnashuvlarning ahamiyati ham beqiyosdir. Ushbu ziddiyat va to‘hnashuvlar tartibsiz xarakterga ega bo‘lmasdan, balki ma’lum tartibda, muddat davomida sodir bo‘ladi. Ijtimoiy tarahhiyotda 4 soqa – texno-, sotsio-, info- va psixosferalar o‘zaro alohada bo‘ladilar. Ushbu alohadorlikda texnosferaning roli aynihsa aqamiyatli. Shu sababdan qam jamiyatdagi barcha o‘zgarishlar manbai texnologik inhilob b-n bog‘lih. Ushbu inhilob handay xarakterda bo‘lsa, uning asosida vujudga kelgan sivilizatsiyaning moqiyati qam shunday bo‘ladi. Chunonchi, agrar-texnologik inhilob natijasida hishloh xo‘jaligi sivilizatsiyasi dunyoga keldi. Ushbu sivilizatsiyaning asosiy xususiyatlari huyidagilardan iborat: 1) er – ihtisodiyot, oilaviy va siyosiy tizim, madaniyatning asosi; 2) oddiy meqnat tahsimoti qamda unga monand sinflar va ijtimoiy quhuqlarning mavjudligi; 3) avtoritar qokimiyat; 4) individ va ijtimoiy guruqlarning ijtimoiy mahomini belgilab beruvchi mezonlarning mavjudligi; 5) markazlashtirilmagan ihtisodiyot. Ikkinchi to‘lin sharofati b-n hishloh xo‘jalik sivilizatsiyasi o‘rnini industrial sivilizatsiya egalladi. Ushbu sivilizatsiyani qarakatga keltiruvchi hudrat sanoat ishlab chiharishda mashg‘ul bo‘lgan xodimlarning ho‘l kuchi bo‘ldi. Industrial sivilizatsiya insonni mashinalar tizimining huliga aylantirdi. Buning natijasi o‘laroh, ommaviy maqsulot, ommaviy tahsimot, ommaviy savdo-sotih, ommaviy madaniyat yuzaga keldi. Shunga muvofih, industrial texnosferaga asoslangan ijtimoiy soqa qam fabrikaviy ishlab chiharishga tortilgan kishilar qayotiga moslashtirildi. Jumladan, oila, korporatsiyalar, ta’lim, cherkov, kasaba uyushmalari, partiyalar, san’at va qatto qukumat qam bozorga, anonim iste’molchi eqtiyojlariga bo‘ysundirildi. Industrializm ishlab chiharishni iste’moldan ajratib ho‘ydi, ijtimoiy ziddiyatlar va tashvishlarga to‘la turmush tarzini vujudga keltirdi. Bu ijtimoiy illatlarning asl sababchisi industrializmning olti prinsipidir (standartlashtirish, ixtisoslashtirish, markazlashtirish, maksimallashtirish, jamlash va sinxronizatsiya). Industrial sivilizatsiya ikki sababga ko‘ra bundan keyin mavjud bo‘la olmaydi: 1) biosfera industrializmning tazyihlariga ortih bardosh bera olmaydi; 2) industrial tarahhiyotning manbai qisoblangan energiya manbalari tugab bormohda. 20-a.ning 2-chi yarmida texnologik va ijtimoiy o‘zgarishlarning uchinchi to‘lini namoyon bo‘la boshladi. Bu o‘zgarishlarning sababi kompyuterlar, lazer texnikasi, biotexnologiya, gen injeneriyasi, informatika, elektronika, televideokommunikatsiya rivoji b-n bog‘lih. Yangilanib turadigan manbalarga asoslangan energetika vujudga kelmohda. Postindustrial ishlab chiharishda ishchi kuchining emas, informatsiya, ijodiyot va intellektual texnologiyaning aqamiyati orta boradi. Endi ishlab chiharishning asosiy xo‘jayini malaka va informatsiyaga ega bo‘lgan xodimdir. Postindustrial jamiyatning vujudga kelishi jarayonida ishlab chiharishdagi tarkibiy yangilanishlar, meqnat mazmuni va xarakterining o‘zgarishi ohibatida ishsizlik orta boradi. Ishlab chiharish va iste’mol hilish jarayonlarining ho‘shilib ketishi

yangi xodim tipini – ishlab chiharuvchi iste'molchini yuzaga keltiradi. Postindustrial jamiyatda asosiy e'tibor mashinalarni o'zgartirishga emas, kishilar ongi va madaniyatini o'zgartirishga haratiladi. Olamni tushunish, qayotdan orhada holmaslik uchun shaxs hobiliyatlarini rivojlantirish, uzluksiz ta'lif b-n shug'ullanish, keng miyosda fikrlashga o'rganish zarur bo'ladi. Albatta, ikkinchi va uchinchi to'lhinlarning to'hnuashuvi ziddiyatsiz kechmaydi. Qishloq xo'jaligi va industriya sivilizatsiyasidagi ziddiyatlar urushlar va inhioblarga sabab bo'lgan bo'lsa, ikkinchi to'lhin to'hnuashuvi ihtisodiy inhirozlarga olib keladi. Bu inhiroz tabiatga noohilona munosabat, intellektual resurslar uchun kurash, informatsion portlash va sh.k.da o'z ifodasini topadi. Uchinchi to'lhin, T.ning fikricha, bizga ma'lum bo'lgan ilk insonparvar sivilizatsiyaning yuzaga kelishi b-n niqoyasiga etadi.

**Toirov Yori** (1936.21.3, Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumani YOvi qishlog'i – 2006. Farg'ona) – faylasuf. Fal. fanlari d-ri, prof (1983). Samarqand davlat un-tining tarix f-tida o'qidi (1950-59). Farg'ona davlat un-tida o'qituvchi, dotsent, kafedra mudiri, ilmiy ishlar bo'yicha prorektor, prof (1959 y.dan). Sankt-Peterburg Davlat un-tining ixtisoslashgan ilmiy kengashida "Mehnatning sotsial muammolari" mavzusida doktorlik (1981) dissertatsiyasini yoqladi: Ilmiy tadqiqot ishlari: "o'zbekistonda milliy munosabatlar" (hamkorlikda, 1972); "qishloq xo'jalik mehnatining industrial mehnatga aylanishi muammolari" (1985); "Falsafa kursining ayrim masalalari" (2-kitob, 1996); "Sotsiologiya asoslari" (1998). 80 dan ortiq o'quv qo'llanmalari, ilmiy maqolalar, uslubiy ko'rsatmalar e'lon qildi. Bozor munosabatlarining fal-iy-nazariy muammolari va komil insonni shakllantirish masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan. Moskva, Sankt-Peterburg, Samarqand shaharlarida bo'lib o'tgan ilmiy konferensiyalarda qatnashgan.

**Tokvil** (Tocqueville) **Aleksis** (1805.29.7, Vernyoy — 1859.16.4, Kann) — fransuz faylasufi, sotsiologi, tarixchi va siyosiy arbob. Tiraniyaning va demokratiyani cheklashning har qanday ko'rinishlariga qarshi bo'lgan. "Amerikadagi demokratiya to'g'risida" (1835) asarida jamiyatni undagi ozodlik va tenglik mutanosibligi nuqtai nazaridan tahlil qilgan. Asarida T. demokratik in-tlar faoliyati uchun mavjud xavfni 3 turga bo'lgan: davlat organlari qo'lida siyosiy hokimiyatning haddan ortiq markazlashuvi. Uning fikricha, bunday holat ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qat'iy nazorat ostiga olishi va erkinliklarni bo'g'ib qo'yishi mumkin; individualizm – bu xavf odamlarni bir-biridan ajratishi oaxsiy hayot qobig'iga mahkam o'rab, ularni siyosiy hayotga befarq qilib qo'yishi mumkin. Bu esa siyosiy despotiyaning maydonga kelishi va rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratadi; to'la tenglikka ortiqcha intilish. Bu xavf barcha fuqarolarni teng qilishi mumkin, lekin bu tenglik qashshoqlik asosidagi tenglik bo'ladi. "Eski tartib va revolyusiya" (1856) asarida esa jamiyatni inqilobi o'zgartirishga urinishlarning qoralaydi. Bunday urinishlar oldindan bashorat qilib bo'lmaydigan oqibatlarga, ko'ngilsiz hodisalarga olib

kelishi mumkin. SHuning uchun u taraqqiyotning evolyusion liberal-demokratik yo‘lini targ‘ib qildi. T. demokratik ijtimoiy tafakkurning ko‘zga ko‘ringan klassiklaridan hisoblanadi.

**Total urush** — aholining katta qismi bevosita yoki bilvosita ishtirok etadigan harbiy harakatlar bo‘lib, unda yuz ming va millionlab askarlar qirilib ketishi mumkin.

**Totalitarizm** — siyosiy boshqaruv shakli, unda butun hokimiyat uning siyosatidan norozi bo‘lganlarni terror qiluvchi, o‘zining sodiq odamlariga tayanuvchi diktator qo‘lida jamlanadi.

**Totemizm** —(alkongin tilidagi “totem” — uning urug‘i so‘zidan) — ibtidoiy jamiyatning ilk dinlaridan biri. U kishilarning ma’lum guruhi b-n hayvon va o‘simliklarning muayyan turlari o‘rtasida g‘ayritabiyy aloqa, qon-qardoshlik bor, degan e’tiqodga asoslanadi. “T.” iborasi ingliz sayohatchisi Dj.Long tomonidan 1791 y.da ilmiy muomalaga kiritilgan. T. batafsilroq 19-20-a.larda Dj.Mak Lenan, U. B. Robertson-Smit, Frezer va b.lar tomonidan tadqiq qilingan. T.ni tushuntirish va tadqiq qilish xilma-xil an’ana va tamoyillarga asoslanadi. Ularning ichida eng ommaviyalaridan biri (Dyurkgeym va b.). T.ni dinning ilk shakli deb bayon etish, hamda (Levi-Stros va b.) T.ni sodda aqliy tasnif tizimi deb atash. Ruhshunoslik tamoyillari ichida mashhuri *Freydning ruhiy analitik taxmini* hisoblanadi. Freyd ibtidoiy jamiyatning ilk dini bo‘lmish T. axloqiy (madaniy) cheklanishlarni — o‘ldirishni ta’qiqlashni, o‘zaro yaqin kishilarning qon almashishini (incest) ishlab chiqib, shundan madaniyatni yaratish boshlandi, deb qayd qilgan. T.da har bir urug‘, qabilaning har bir a’zosining hayoti va farovonligi, aynan shu urug‘ning ajdodi bo‘lgan totemga o‘simlik va hayvonga bog‘liq, deb qaralgan. o‘sha davrlarda g‘orlar hayvon, o‘simlikning surati totem ruhlarining makoni, tabiiy suratdagi narsa urug‘ning homysi tarzida qabul qilingan. SHunga ko‘ra, ular totemning yordamiga muhtoj bo‘lganlar, unga sehr yordamida ta’sir qilishga uringanlar. Bu b-n totemning yangi avlodiga “pok yo‘l” b-n totem o‘tib qolishiga, sehr jodu b-n totemga ta’sir qilib, muqaddaslashgan hayvon, o‘simlikning sonini ko‘paytirishga, urug‘-qabila farovonligini oshirishga, totem kuchi b-n urug‘-qabilaga kelayotgan halokatning oldini olishga intilganlar. Dastlab totem sifatida hayvonlar, ko‘proq ov hayvonlari e’zozlangan. Keyinroq esa, qarindoshlik munosabatlari boshqa hayvonlarga ham o‘tgan, ba’zan o‘simliklar, tabiat hodisalari: yomg‘ir, quyosh, shamol va b.larga ham tarqalgan. Totemistik e’tiqod va marosimlar muayyan ko‘rinishda ko‘p xalqlarda, ayniqsa, Avstraliyadagi qabilalarda saqlanib qolgan. Ularning odatlari bo‘yicha, totem urug‘i a’zolari o‘zaro nikoh qilishi mumkin emas. Avstraliya milliy aholisining har bir qabilasi hayvon yoki o‘simlik nomini olgan urug‘larga bo‘linadi. Urug‘ a’zolari o‘z totemini qarindoshi, otasi, akasi, do’sti, deb hisoblaydi.

**Totuvlik** – jamiyatda turli xil ijtimoiy qatlam va guruhlarning turli millat, irq va dinga mansub kishilarning o‘zaro munosabatlarida, ularning muayyan

davlat siyosatiga bo‘lgan munosabatlarida hamfikrlilik tamoyili asosidagi umumiylizni anglatuvchi tushunchadir. T. ijtimoiy taraqqiyotda katta ahamiyat kasb etadi. shu bois insoniyat tarixida sotsial taraqqiyot uchun kurashgan kuchlarning asosiy ezgu g‘oyalaridan biri jamiyat ahli o‘rtasida t.ka erishishi bo‘lgan. T.ka erishgan jamiyatda kishilar o‘rtasida samimiyat, mehr-muruvvat, oqibat o‘zaro yoradam, hamkorlik, ahillik kabi munosabatlar ustivor bo‘ladi. Davlat boshqaruvida barcha fuqarolarning manfaatini ko‘zlab ish yuritish, tabiiyki, ijtimoiy hayotda T. qaror topishining muhim omilidir. T. tinchlik, barqarorlik, yagona maqsad yo‘lida milliy birlashuvning ham muhim shartidir.

**Toynbi** (Toynbee) Arnold Jozef — (1889.14.4, London — 1975.22.10, York) — ingliz tarixchisi, faylasufi va sotsiologi. London un-ti (1919-24) va London iqtisod fanlari maktabida (1925—55) prof. Xalqaro munosabatlar qirollik in-ti rahbarlaridan biri (1925—55). “Tarix tadqiqot” 12-j., (1934-64) asari b-n mashhur. Tadqiqotlarida iatidoiy jamoa hayotini tahlil qilgan. 1922 y.dan madaniyat rivojining umumiylarini tarixiga oid ilmiy esh olib borgan. Asarida ta’kidlashicha, hech qaysi bir xalqda alohida madaniy kurtak, embrion iavjud emas. Madaniy yuksalish va tanazzul barcha xalqlarga oos. Lekin bu jarayon turli xalqlarda turli shakl va ko‘rinishlarda yuz beradi. Madaniy taraqqiyotni hech qanday sxema va jadvallarga solib bo‘lmaydi. Chunki sivilizatsiyalarning paydo bo‘lishi va tanazzuli turli mintaqalarda, turli xalqlarda turlichcha kechadi. T. bashariyat tarixini o‘rganishga sivilizatsion yondashuvning asoschisi hisoblanadi. Uning fikricha, tarix o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan alohida sivilizatsiyalar tarixidan iborat. “Tarixni bilish” asarida u insoniyat tarixida “! sivilizatsiya bo‘lganini ko‘rsatib, ularning iiqdorini 13 taga keltirdi. Sivilizatsiyalar orasida O‘rta Osiyo sivilizatsiyasiga alohida o‘rin ajratgan. Asarda ko‘rsatilishicha, har bir sivilizatsiya o‘z taraqqiyotida bir necha bosqichdan o‘tadi. Ular paydo bo‘lish, o‘sish, tanazzul va barham topish bosqichlarini boshdan kechiradilar va o‘z o‘rinlarini yangi sivilizatsiyalarga bo‘shatib beradilar. T. ijtimoiy taraqqiyotdagi qaytarilishlarning empirik qonunlarini asoslashga harakat qildi. Sivilizatsiyalarni

rivojlantiruvchi kuch, T. talqinida ijodiy elita yoki ozchilikdan iborat. Bu ozchilik tarixning chaqiriqlariga javob berar ekan, befarq ko‘pchilikni o‘z ortidan ergashtiradi. Tarix chaqirig‘iga o‘z vaqtida va to‘g‘ri javob bera olgan elita ko‘pchilikning olqishlariga erishadi va shu to‘lqinda u hokimiyat tepasiga keladi. Vaqt o‘tishi b-n hokimiyat tepasidagi elita tarix chaqiriqlariga javob bera olmay qoladi. Endi u jamiyatni o‘z obro‘sni b-n emas, kuch yordamida boshqarishga o‘tadi. Bunday elita urushlar, tabiiy ofatlar yoki ko‘pchilikning noroziligi nababli hokimiyat tepasidan ag‘darib tashlanadi. T., jamiyat tarahhiyotining asosiy sabablaridan biri, deb ma’naviy yuksalishni ko‘rsatgan edi. Insoniyat ibridoiy animistik dinlardan olamshumul dinlarga, ulardan esa yagona sinkretik dinga o‘tish orhali tarahhiyotga erishadi. T. ta’limoti moqiyat e’tibori b-n evropotsentrizmga harshi haratilgan edi. Rivojlangan g‘arb b-n

rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasidagi tafovut va ziddiyatni ma’naviy yangilanish, merkantilizm va moddiyunchilik fal.sidan voz kechish orhal qal hilish mumkin. T.ning fal-iy harashlari 20-a. 2-yarmidagi ijtimoiy fal-iy ohimlar rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

**Transmilliy kompaniyalar** — ikki yoki undan ortiq mamlakat hududida joylashgan kompaniyalar.

**Transformatsiya harakati** — tub ijtimoiy o‘zgarishlar o‘tkazishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan ijtimoiy harakat.

**Triada**, (yun. — uchlik) — borliq va tafakkur taraqqiyotining uch bosqichligini bildiruvchi fal-iy termin. Fal-iy tuzish usullaridan biri. Antik davrda platonchilik va neoplatonchilikda keng qo‘llanilgan. Platonchilik vakillari borliqning boshlang‘ich uchligi (namuna — demiurg-materiya) va uch bosqichi (aql — ruh — kosmos) to‘g‘risidagi ta’limotni bayon qilganlar. T. ta’limotining Plotin, Profiriyl, Fixte, Shelling, Gegel kabi namoyandalari bo‘lgan. T. tamoyili nemis klassik idealizmida keng rivoj topgan. Ayniqsa Gegel T. larni taraqqiyotning har qanday jarayonlarini o‘rganishning universal tizimiga aylantirgan va u quyidagicha ko‘rinishga ega bo‘lgan: Tezis (boshlang‘ich nuqta), Anti tezis (tezisni inkor etish, qarama-qarshi tomonga o‘tish), Sintez (qarama-qarshiliklarning yangi bir butun holga kelishi).

**Triangulyasiya** — alohida usul yordamida olingan natijalarga nisatan ancha ishonchliroq bo‘lgan empirik ma’lumotlar olish uchun bir necha tadqiqot usullarini birgalikda qo‘llash.

**Turmush** — kishilarning moddiy, oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, sog‘liqni saqlashga bo‘lgan, shuningdek, ma’naviy qadriyatlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishdan iborat ijtimoiy hayotning noishlab chiqarish sohasi. T. keng ma’noda tinchlik kundalik hayot tarzini anglatadi. T. ijtimoiy hayotning barcha sohalari mehnat, ijtimoiy faoliyat, kishilar kayfiyati va yurish-turishiga ta’sir ko‘rsatadi. Odatda T.ning ijtimoiy, shahar, qishloq, oilaviy va yakka T. shakllari farqlanadi. T. o‘zaro munosabat nuqtai nazaridan ham tasnif qilinadi: moddiy va ma’naviy T., ijtimoiy va yakka T. Vaqtini sarflash nuqtai nazaridan (fiziologik ehtiyojlarni qondirish, mehnat), ijtimoiy hamkorlik va muloqot jihatidan (oila, qo‘shnichilik, o‘rtoqlik jamoalari) T. turlari ajratib ko‘rsatiladi. T.da ijtimoiy ziddiyatlar ham o‘z ifodasini topadi. Jamiatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida T. unsurlari va uning tarkibi ham o‘zgaradi. Urbanizatsiya jarayonlari oqibatida T.da bo‘sh vaqtning ulushi ortib boradi. Ommaviy ehtiyojlarni qondirish va aholiga xizmat ko‘rsatishga mo‘ljallangan maishiy korxonalar tarmoqlarining kengaytirilishi oilaviy va yakka T.ga ta’sir ko‘rsatadi.

**Turmush tarzi** — ijtimoiy guruhlar, elat, xalq, millatlarning kundalik hayotini ifodalovchi tushuncha. T.t. turli jihatlar fal-iy, sotsiologik, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-ruhiy va b. yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Turmush ijtimoiy hodisa sifatida inson hayotining ob’ektiv shart-sharoitlari hamda hayotiy

faoliyat shakllari, ongi va xulqining dialektik birligini taqozo etadi. SHaxs, ijtimoiy guruh T.t. mavjud bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy davrdagi shart-sharoitlarning butun majmuasi b-n belgilanadi, binobarin, T.t. odamlarning, ijtimoiy-etnik birliklarning muayyan ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy sharoitlarda shakllangan hayotiy faoliyat uslubi bo‘lib, ularning kun kechirish muomalasi, xulq-atvori va tafakkur tarzida namoyon bo‘ladi. T.t. ijtimoiy kategoriya bo‘lib, turmush darajasi, deb ataladigan iqtisodiy kategoriyyaga nisbatan kengdir. “Turmush darajasi” asosan miqdor ko‘rsatgichiga ega. T.t.ning mohiyati, mazmuni va namoyon bo‘lish shakllari ko‘p holatda kishilarning hayot kechirishi, mehnati, sog‘ligi va hatto xulq-atvori b-n ifodalanadi. Ma’lumki, ijtimoiy turmush, shahar va qishloq turmushi, oilaviy va individual turmush bir-biridan farq qilinadi. o‘zbek xalqida insonlarning kundalik amaliyot ishlaridagi eng zarur axloqiy munosabatlarga, kamtarlik, izzat-hurmat, jasurlik, to‘g‘rilik, sofdillik kabi qoidalarga alohida e’tibor bergan. o‘zbek xalqidagi bunday fazilatlar milliy odat-an’analarda, hayot tarzida va millatlararo muomala munosabatlarida aks etgan. o‘zbek milliy T. t.ning nisbatan barqaror holatida quyidagi shakl va tarkibiy qismlarni ajratib ko‘rsatish mumkin: 1) milliy hudud, madaniy yashash sharoitlari, iqtisodiy asos va ijtimoiy rivojlanish b-n bog‘liq hodisalar, 2) millatning tabiiy betakrorligi, o‘ziga xosligi, tarixiy o‘zgaruvchanligi va ijtimoiy rang-barangligi; 3) millat tarixi, o‘tmishi; 4) urf-odatlar, an’analar, marosimlar, yashash tarzi, ma’naviy merosi va boshqalardagi milliylik, ular b-n bog‘liq o‘ziga xos xususiyatlar; 5) milliy til, milliy madaniyat va ma’naviy tuyg‘ular va g‘oyalar hamda milliy mafkuralar. o‘zbek xalqi T. t.dagi asosiy xususiyatlardan biri SHarq xalqlariga xos bo‘lgan ruhiy-psixologik hayot tarzidir. Xalqimiz hayotida odob-axloq me’yorlari asosidagi rasm-rusumlar, an’analar va odatlarning ahamiyati beqiyosdir. Inson jamoada tug‘ilib, o‘sib, kamolga etar ekan, uning tavallud topgan davridagi rasm-rusumlari, irimsirimlari, to‘y-tomoshalari, o‘smirlik davri urf-odatlari, bayramlari, hashar, ko‘mak yumushlari, dafn va ta’ziya marosimlari, xullas, hayotining barcha yaxshi-yomon kunlaridagi turfa eskirmas qoidalari jamoaning faol ishtirokida o‘tgan. Xalqimiz azaldan jamoa bo‘lib yashab, qo‘ni-qo‘shnichilik udumiga qat’iy rioya qilgan. Oilada tug‘ilgan har bir go‘dakka yaxshi niyat b-n ism qo‘yilgan va savodini chiqarish uchun ustoz-muallim qo‘liga topshirilgan. Farzandlarni hunarli va uy joyli qilish, ota-onalar hayot faoliyatining eng muhim vazifasiga aylangan. Kundalik yurish-turish salom-alikdan tortib, insoniylikning barcha tamoyillari jamoa nazarida bo‘lgan. Muayyan xalq, elat va millatning T. t. ularning yashash joylari b-n bog‘liq holda shakllanib, taraqqiy qilgan.

**Tursunmuhammedov Sattor Pazilhaqovich** (1929. 11. 1, Chimkent viloyatining Turkiston shahri) - faylasuf. o‘rta Osiyo davlat un-tining yuridik f-tini tamomlagan (1952). Falsafa fanlari doktori (1970), akad., prof. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi un-ti siyosatshunoslik kafedrasining prof. Mehnat

faoliyatini 1944 y.dan boshlagan. Kolxozchi, fabrika ishchisi (1944-46), Toshkent iqtisodiyot un-tining aspiranti (1952-55), mazkur un-tet kafedrasi assistenti, katta o'qituvchi, dotsenti, kafedra mudiri (1955-65), Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika in-ti rektori (1979-83), ToshDU qoshidagi Oliy pedagogika in-ti direktori, shu in-t fal. ijtimoiy-siyosiy munosabatlar kafedralari mudiri. Ijtimoiy fal., sotsiologiya, siyosatshunoslik yo'naliishlarida ilmiy tadqiqot ishlari olib boradi. Mazkur sohalarga oid 130 dan ziyod ishlar muallifi. Sanoat va qishloq ho'jaligi mehnati, ijtimoiy guruqlar, tabaqalar, mulukdorlar sinfining shakllanishi, jamiyatning ijtimoiy tarkibi kabi muammolar talqini bilan qiziqadi. 3 monografiya va o'nlab risolalar mualifi hamda bir qancha jamoaviy monografiyalara hammuallifi.

**Tushunish** — ob'ektiv olamdag'i narsa va hodisalar haqida tasavvur tushuncha, hukmlar hosil qilish va ularni ongdagi mavjud bilimlar b-n bog'lashdan iborat aqliy jarayon. T. ikkita o'zaro uyg'unlashgan tarkib orqali tavsiflanadi. 1) qaysidir narsaning ma'no va ahamiyatini anglash qobiliyati, natijasiga erishish vositasi; 2) ta'sirlarning mohiyati va qayta yaratilgan tasavvurlarning adekvatligiga shaxsning ishonch bildirishi, tashqi, ichki ta'sirlar tufayli vujudga kelgan ongning o'ziga xos holati. T.ning ishtirokisiz muomalani davom ettirish, harakatlarni muvofiqlashtirish, anglashilgan xatti-harakatni amalga oshirish va ta'sir o'tkazishning imkonini yo'q. T. keng ko'lamdag'i fanlar (psixologiya, filologiya, filosofiya, sotsiologiya, tarix) tomonidan tadqiq etiladi. T. muammo b-n maxsus shug'ullanuvchi germenevtika fani mavjud. T.ning o'ziga xos alohida xususiyati shundan iboratki, inson o'zi tahlil qilayotgan narsa va hodisalarning ichki murakkab aloqalari, bog'lanishlarini aniq sezadi. Oldin mexanik ravishda o'zlashtirilgan, hatto ma'nosini anglashilmagan ma'lumotlar, sababiy bog'liqliklar T. tufayli mantiqan muayyan tartibga, bir xil mantiqiy tizimga keltirilishi mumkin. Mas., matematik naz-yani dalillash, formulalarni, tabiatshunoslik bilimlarini T. xuddi shu tariqa kechadi. Inson hodisalarning mohiyatini va o'zaro bog'liqliklarini mantiqiy vositalarsiz aniq his qila oladi. Bunda hodisa individning maqsadi b-n uyg'unlashib ketadi, uning maqsadga muvofiq aks etishini ta'minlaydi. Jumladan, boshqa kishining xulqini, uning fikri va harakat motivini tushuna oladi. Ijtimoiy madaniyat, tarixiy voqealar, obidalar, yozma yodgorliklar mohiyatini individ xuddi shu asnoda tushunib etadi. Hayvonlar tabiatini, hodisalar to'g'risidagi taassurotlar b-n hozirgisining o'zaro o'xshashligini tez T. imkonini beradi. T. psixologiya mexanizmi sifatida qabul qilingan.

**Tushuntirish** — insonning hamkorlik faoliyatida bilish jarayonlari ob'ektiga kirgan narsa va hodisalarning mohiyatini fikr uzatish, o'zaro ta'sir o'tkazish, ta'sirlanish, muloqot, taqlid yordami b-n oydinlashtirish, xotiradagi bilimlar va ijtimoiy tajribalar b-n ularni uyg'unlashtirgan holda tushunish sari etaklovchi aqliy faoliyat. T. hamkorlik faoliyatida (fikrni izohlovchi — fikrni qabul qiluvchi ishtirokida) individual, dialogik, trialogik, polilogik shakllarida

amalga oshiriladi. T. ta’lim jarayonida, mehnat faoliyatiga, sportda, muomala negizi shaxsga shaxs ta’sir o’tkazishi tarzida namoyon bo‘ladi. o‘zining muddati, ko‘lami, uzatish vositalari, verbal va noverbal nutq turlari ustuvorligi b-n bir-biridan tafovutlanadi.

**Tushuncha** — narsa va hodisalarning umumiy muhim belgilarini aks ettiruvchi tafakkur shakli. T.ning hissiy bilish shakllaridan tubdan farq qilishiga alohida e’tibor berish zarur. T. predmetning yaqqol obrazi emas, balki abstrakt obrazidir. T. predmetning nomuhim belgilaridan chetlashar ekan, demak uni to‘laligicha aks ettira olmaydi. Bu ma’noda u hissiy bilish shakllariga nisbatan borliqdan uzoqroqda turadi. Lekin, T. predmetning muhim belgilarini in’ikos qilishi, mohiyatini aks ettirishi b-n hissiy bilish shakllariga nisbatan borliqni chuqurroq, to‘laroq ifoda etadi. T. hissiy bilish shakllaridan farqli o‘laroq, inson miyasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aks etmaydi. U ma’lum bir mantiqiy usullardan taqqoslash, analiz, sintez, abstraksiyalash, umumlashtirishlar foydalanilgan holda hosil qilinadi. T.ning shakllanishi so‘z b-n uzviy bog‘liq. Ular o‘rtasidagi aloqadorlik tafakkur va til o‘rtasidagi bog‘lanishning aniq tarzda namoyon bo‘lishidir.

**Tug‘ilishning umumiy darajasi** (crude birth-rate) — aholi o‘rtasi-da yil davomida tug‘ilish miqdorini ifodalaydigan statistik ko‘rsat-kich. Tug‘ilishning umumiy darajasi odatda ming kishiga yil davomida to‘g‘ri keladigan tug‘ilishlar sonidan chiqariladi. Bu usul juda ko‘p maqsadlarda foydalaniladi, biroq u o‘rtacha olingan raqam bo‘lgani uchun, tug‘ilishdagi o‘ziga xos xususiyatlarni, masalan yosh toifalariga qarab tug‘ilish darajasini aks ettirmaydi.

**To‘da xatti-harakatlari** — to‘daga birikkan individlarning xatti-harakatlari.

**“To‘rtinchi hokimiyat”** — oimaviy axborot vositalarining xalq b-n hokimiyat o‘rtasidagi o‘ziga xos munosabatini, oa’sir ko‘rsatish va ko‘rsata olish kuchiga ega ekanligini bildiruvchi tushuncha. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida “Ommaviy axborot vositalari erkendir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to‘g‘riliqi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo‘l qo‘yilmaydi”, deb belgilab qo‘yilgan. Mustaqillik yillarda jamiyat hayotini demokratiyalashuvida OAV rolini yanada oshirish maqsadida “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”, “Jurnalistlik kasbini himoya qilish to‘g‘risida”, “Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilindi. Endilikda respublikamizda 670 ta ommaviy axborot vositasi mavjud bo‘lib, shundan 495 gazeta, 113-jurnal, agentligi, 52-telestudiya, 5-radiostansiya, 3-teleradiostudiyalari faoliyat ko‘rsatmoqda. Ayni paytda, ommaviy axborot

vositalari, dunyoda “mafkuraviy kurash” yoki inson ongi va tafakkurini egallash, unga ta’sir ko‘rsatish maydoni hamdir. U turli xalqlar madaniy hayotiga, fikrlash oarziga, urf-odat qadriyatlariga ham ta’sir ko‘rsatishi va ko‘proq ta’sir “maydoniga” ega bo‘lish imkoniyatiga ega. OAV jamoatchilik

fikrini uyg‘otadi, shakllantiradi, yo‘naltiradi va ularni safarbar etadi. Shu ma’noda OAV jamiyat hayotini demokratiyalashuvi, kuchli fuqarolik jamiyatini qurish vazifalarini amalga oshirishda “T.h.” vazifasini bajaradi.

**To‘qnashuv** — ikki yoki undan ortiq individning «yuzma-yuz» vaziyatda uchrashuvi. Bizning kundalik hayotimizni to‘knashuvlar qator yuz beradigan hodisa sifatida olib qarash mumkin. Hozirgi jamiyatlarda to‘qnashuvlarning ko‘philigi notanish odamlar bilan yuz beradi.

## U

**Ulug’bek** (taxallusi; asl ismi Muhammad Tarag‘ay) (1394.22.3, — 1449.27.10) — mashhur o‘zbek astronomi va matematigi, davlat arbobi. Amir Temurning nevarasi, Movarounnahrning hokimi (1409-1449). o‘rta Osiyo xalqlari ilm-fani va madaniyatini o‘rta asr sharoitida dunyo fanining oldingi safiga olib chiqqan olimlardan biri. U.ning astronomiya sohasiga bo‘lgan qiziqishi ustozи atoqli Salohiddin Muso ibn Qozizoda Rumiy ta’siri ostida shakllandı. Samarqanddagi Ulug’bek madrasasi (1420) faqat oliv o‘quv yurti emas, rasadxona b-n birga olganda, o‘sha davrning akademiyasi ham edi. Zamonasing mashhur olimi, matematik va astronom qozizoda Rumiy madrasa muallimlaridan biri bo‘lgan. U.ning o‘zi ham astronomiyadan dars bergen. G‘iyosiddin Jamshid al-Koshiy, Nizomiddin al-Birjandiy U. mакtabining taniqli astronomlaridan bo‘lgan. U olib borgan ilmiy ishlarida unga yaqindan yordam bergen shogirdlaridan biri Ali qushchidir. Tarixchi Davlatshohning yozishicha, “Ulug‘bek geometriya borasida Evklidga, astronomiya sohasida Ptolomeyga o‘xshardi”. U.ning astronomik jadvallari “Ziji Ko‘ragoniy”, “Ziji jadidi sultoniy” “Ziji jadidi Ko‘ragoniy”, “Ziji jadidi sultoniy-ziji Ulug‘bek” kabi nomlar b-n ilmiy muomalaga kirgan. Bu asarning fors va arab tillaridagi 5 ta qo‘lyozma nusxalari O‘zFA Sharqshunoslik i-n.ining qo‘lyozmalar xazinasida saqlanadi. U. o‘zining jadvallarida taqvim (kalendor)ga alohida e’tibor qaratgan. Ilmiy tadqiqotlarda muayyan hodisalar, voqealarning qachon sodir bo‘lganligini aniqlashni, sana va yil hisobini to‘g‘ri belgilashni muhim, deb biladi. Asarda avvaliga yil va oy astronomiya fanida qanday ta’riflanishi, so‘ngra hijriy, yunon, yazdigurd, Malika yoki Jaloliddin, uyg‘ur va xitoy sanalari, ularning kelib chiqish tarixi va o‘zaro munosabatlari to‘g‘risida aniq ma’lumotlar beriladi. Hafta, oy va yilning boshlanishini, o‘tgan yoki kelgusi vaqtning sanasini aniqlash uchun tuzilgan javdallarni taqdim etadi. Astronomik hisob-kitoblarda trigonometrik jadvallarning roli behad darajada muhim. Shu bois, aniqlik darajasi yuksak bo‘lgan trigonometrik jadvallarni tuzish ustida U. va uning astronomik-matematik maktabi vakillari e’tiborli va samarali ishlarni amalga oshirdilar. Natijada aniqligi milliarddan bir bo‘lgan to‘qqiz xonali trigonometrik jadvallarni tuzishga erishildi. Samarqand rasadxonasi tomonidan

olib borilgan kuzatuvlar ko‘magida ekliptika tekisligi b-n ekvator tekisligining orasidagi burchak, ya’ni ekliptika tekisligining ekvatorga og‘maligi o‘ta aniqlik b-n  $23^{\circ} 30' 49''$  qilib belgilandi. 1 y. esa 365 kun 6 soat 10 minut 8 sekund qiymatida belgilandi. Bu ma’lumotni N’yukomb ma’lumoti (365 kun 6 soat 9 minut 6 sekund) b-n qiyoslaganda U. o‘z jadallarida yuksak aniqlikka erishgan. U. o‘zining tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-fal-iy, axloqiy va siyosiy qarashlarida ungacha yashab kelgan va uning davrida etakchi maqom va ahamiyatga ega bo‘lgan tamoyillar ta’siri ostida Movarounnahr hukmdori va astronomiya fanining sultoni maqomiga erishdi. U. diniy va dunyoviy bilimlarga o‘ziga xos bir tarzda yondoshdi: Olloh haqiqiy borliq, chunki u barcha narsalarning yaratguvchisidir. U hamma narsaga qodir. Lekin yaratganning abadiy ekanligi u yaratgan olamning abadiyligini ham ta’minkaydi, aks holda sabab b-n oqibat bir-biridan uilib qolgan bo‘lar edi. U o‘ziga xos kuch-quvvat, mantiqqa zid bo‘lmagan qonun-qoidalar asosida o‘zga narsalarni, ma’naviy-ruhiy jarayonlarni yaratadi. Barcha o‘zga jarayonlar, hodisalar uning beqiyos husnu jamolini tarannum etuvchi narsalardir. Yaratgan yaratilgan ashyolarda, turli-tuman mo‘jizaviy hodisalarda o‘zini namoyon etmasa, u olamni behudaga yaratgan bo‘ladi. U olamni, inson va jamiyatni, aql-zakovatni, hissiy-nafsoniy quvvatlarni tasodifan, behudaga yaratmagan. Bu yaratishning o‘zida uqib olinmagan sir-asrori bor. Ularing o‘zaro aloqadorligi, sabab-oqibat munosabatlarga kirishi, ta’sir etish va ta’sirlanishi azaldan matritsalar sifatida berilgan. Lekin ular nodon va kaltafahm kimsalar uchun nafis pardalar b-n niqoblangan. Aql-zakovat, farosat, fahm va sh.k.ning asosi barchaga taqsimlangan, lekin ularning insoniy quvvat hosil qilishi har bir insonning istak-xohishi, ehtiyojiga borib taqaladi. Kaltafahm kimsalar nafis pardani ko‘tarishga ahd qilganlarni dahriylikda ayblaydilar, chunki ular qur’oni Karim va hadisi sharifda aql, ilmga berilgan maqomni tushunmaydilar. U.ka ko‘ra, hamma narsa oldindan aniq va ravshan bo‘lganda edi, inson va jamiyatning yaratilishida, insonni er-zaminni obod qilish va uni boshqarishga vakil qilinishi, barcha mavjudotlarni unga bo‘ysundirishi haqidagi farmonda ma’no va mazmun mantiqqa zid bo‘lib qolar edi. Shunday ekan, olam sir-asrorini bilish, nodonlikdan, johillikdan nafratlanish, ilm olishdan ma’naviy lazzatlanish, ilm ahlini e’zozlash, ularni xayrli ishlarda har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ular iqtidorini Ollohning buyuk in’omi va ne’mati, deb bilish barcha fuqaroning muqaddas burchi bo‘lib qolmog‘i lozim. Ilmiy haqiqat va yuksak darajaga erishgan aniqlik bir-biri b-n uzviy bog‘liq. Bunday aniqlikka erishish hamma vaqt ham oson bo‘lavermaydi. Aniqlik birinchi galda ashyolarning miqdoriy munosabatlarini belgilash, matematik qonun-qoidalardan to‘g‘ri va samarali foydalanish natijasida qo‘lga kiritiladi. Matematikani turli ilmiy sohalarga, ayniqsa, astronomiyaga tadbiq etish inson va jamiyatga katta naf keltiradi. Buning boisi shundaki, quyosh, Oy va b. sayyoralar Yerda sodir bo‘ladigan hodisalarga yaqindan ta’sir qiladi. Taqvimlar yaratish, aniq vaqtini belgilash, quyosh va Oy holatlarini o‘rganish, ularning tutilishini oldindan

bashorat qilish muayyan ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan. Bilimning boshqa vazifasi ham mavjud. Ilm orqali inson komillik martabasiga erishishga intiladi. Ilm kishilarni kibru-havodan, manmanlikdan, mutaassiblikdan, nafs quliga aylanishdan asraydi, dillarni yoritadi, qalblarni turli xil illatlardan poklaydi, hayot yo'lini nurafshon qiladi, yomonlikni jilovlaydi, ezgulikka da'vat qiladi. Ayniqsa, muruvvat va saxovatning insonning ma'naviy yuksalishdagi o'rni beqiyosdir. U.ning o'zi sahovatli hukmdor, haqiqat va adolat bobida tengi yo'q shoh bo'lган. Ilm-fan, madaniyat ahli, iqtidorli talabalar, ijodkorlarga homiylik qilgan. Davlatshoh Samarqandiy "uning davrida olimu fozillar martabasi nihoyat cho'qqisiga ko'tarildi", — deb yozadi. U. jadvallari 200 y.dan keyin, 1643 y.da Oksford un-tida fors tilidan lotinchaga tarjima qilinib chop etildi. U.ning astronomik jadvallari 1648, 1650, 1665, 1725, 1765, 1839, 1845, 1847, 1853, 1854, 1889 y.larda Angliya, Fransiya, Belgiya va Ovruponing boshqa mamlakatlarida chop etildi. 1917 y.da "Ulugbek ziji" AQSHda nashr etildi. U. Ptolemy, Kopernik, Galiley kabi buyuk olimlar qatoridan e'tiborli o'rin egallaydi.

**Umum harbiy majburiyat** — muayyan yoshdagi individ (yoki muayyan yoshdagi erkaklar) harbiy tayyorgarlik davridan o'tishini ko'zda tutuvchi davlat xizmati tizimi.

**Umumiyl farovonlik davlati** — o'z fuqarolarini ko'p imtiyoz va yordam bilan ta'minlovchi siyosiy tizim.

**Undov-reaksiya** — beixtiyor undovlar, masalan hayratlanish, rohatlanish yoki kutilmaganlikni ifodalash.

**Urbanistik ekologiya** — tabiatdagi organizm va o'simliklarning atrof-muhitga moslashishiga qiyoslab shahar hayotini o'rganishga bo'lган yondoshuv. Mazkur yondoshuvga ko'ra, shahardagi tuman va mintaqalar shahar aholisining tabiiy moslashishi (adaptatsiya) natijasida yoki individlarning muayyan zaxiralarga egalik qilish uchun raqobati natijasida shakllanadi.

**Urbanizatsiya** (lot. urbs — shahar) — jamiyat hayotida shaharlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-madaniy roli oshib borishining tarixiy jarayoni. Hoz. davrga kelib, bu tushuncha jamiyatning ijtimoiy, demografik, etnografik, madaniy strukturasidagi miqdoriy o'zgarishlardan tashqari, muayyan tarixiy makonda ijtimoiy munosabatlarning mushtaraklashuvi, mujassamlashuvi va intensivlashuvining sifat jihatlarini ifodalaydigan universal fal-iy tushunchaga aylandi. Bundan tashqari, U.ning mavjudlik holati qishloqlarni ham taqozo qiladi. Ya'ni, shahar va qishloqqa munosabatlarini oqilona tashkil qilish hozirgi davr urbanistik siyosatining asosiy yo'nalishiga aylanmoqda. Boshqacha aytganda, ijtimoiy makondagi aholi yashash sharoitlari shahar va qishloqa ajratilishi nisbiy bo'lib, ommaviy axborot vositalari, kommunikatsiya, ishlab chiqarishning texnik-texnologik, intellektual imkoniyatlari nisbatan mustaqil ijtimoiy birlikni namoyon qilmoqda. Shahar va qishloq hayot tarzining integratsiyasi jamiyat taraqqiyotining omili hisoblanadi. Shaharlarda iqtisodiy,

siyosiy, madaniy, ma'muriy va b. boshqaruv in-t.larning markazlashuvi ijtimoiy nazoratning o'ziga xos xususiyatlarini vujudga keltirgan va ular qishloq hayotiga singib bormoqda. o'zbekistonda U.ning demografik ko'rsatkichlari tahliliga ko'ra: 1985 y.da-40,7 %; 1990 y. -40,9 %; 1995 y. -38,7 %; 2000 y. oxiriga kelib esa — 35,3 % aholining shaharlarda yashashi kutilmoqda. Bu respublikamizda bozor munosabatlariga o'tish davridagi vaqtinchalik dezurbanizatsiya hodisasiadir. Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin hukumatning joylarda kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan ijtimoy-iqtisodiy islohotlar siyosati jamiyatni U.lashtirishning yangi tarixiy davrini boshlab berdi.

**Ufr-odat** — an'analar sifatida umumxalq, tomonidan qabul qilingan tartib-qoida; rasm-rusum, tamoil. (Mas., o'zbeklarda kichiklarning kattalarga salom berishi, erta turib uy-hovlini supirib-sidirib, tartibga keltirib quyish, mehmonlarga alohida hurmatda bo'lish, bayram arafasida betob, ojiz va qiynalganlardan xabar olish, yordamga muhtojlarga hasharga borish va b.) U.-o. va rasm-rusumlar bir-birlariga juda yaqindan bog'liqdir, biri-ikkinchisining tarkibiy qismi hisoblanadi. U.-o. va rasm-rusumlar har bir millat va elatning tarixi, turmush tarzi va b. omillar ta'sirida o'ziga xos ravishda shakllanadi va millat elatning o'ziga xos qiyofasini belgilovchi xususiyatlaridan biridir. Mas., o'zbeklarda, qudashilik nihoyatda katta e'tiborni talab qiladi. "Kuyovni payg'ambarlar siylagan", deyiladi va shunga yarasha kuyovga hurmat ehtirom bildiriladi. o'tmishda ota o'z qizi kelin bo'lib tushgan mahalladan otdan tushib, piyoda o'tgan. U.-o. va rasm-rusumlar milliy an'analar, milliy til va milliy ruh b-n bir qatorda milliy ma'naviyat va madaniyatning muhim qirrasini tashkil qiladi. U.-o. va rasm-rusumlar har bir millatda o'ziga xos tizimni tashkil qiladi, millat tomonidan turmush tarzining zaruriy sharti deb qabul qilinadi. U.-o. va rasm-rusumlarga befarq kishi o'zini o'z millatidan uzoqlashtirib, uzib qo'yadi. U.-o. va rasm-rusumlarga hurmat o'z millatiga hurmatning tarkibiy qismlarga, ko'p millatli davlatda o'z millatining, U.-o.lariga rioya qilish boshqa millatlar b-n bo'lgan do'stona munosabatlariga putur etkazmasligi kerak.

**Urug'** (ijtimoiy birlik) — bir ota-onadan tarqalgan qon-qarindoshlarning uyushuvi natijasida shakllangan jamoa. Urug'chilik insoniyat tarixining qad. davriga xos bo'lib, yashash uchun kurash va tashqi dushmanlardan saqlanish maqsadida kishilarning qarindoshchilik asosida birlashuvi natijasida paydo bo'lgan. U.larga ular orasidan chiqqan, qondoshlari davrasida hurmat va obro'e'tiborga ega bo'lgan oqsoqollar boshchilik qilgan. qadimda o'zbeklarda 92 ta U. bo'lgan: qo'ng'iroq, mang'it, ming, barlos, jaloir, nayman, qurama, qipchoq va b.lar. Har bir kishi uchun o'z ajdodlari kimlar ekanligini bilish maqsadida qaysi U.dan ekanligini aniqlash ayb emas. Ammo U.chilikka mukkasidan berilib, faqat o'z U.i manfaatini ko'zlab, boshqalarni kamsitish, atrofiga o'z yaqinlarini to'plab qarindosh-urug'chilik qilish yagona millat birligiga xavf tug'diradi.

**Utilitarizm** (lot. utilitas — foyda, naf) — G‘arb etika nazariyasi. Bu nazya xatti-harakatning foydaligini, axloq — odob mezoni deb biladi. U. 19-a.da Angliyada paydo bo‘lgan va liberal burjua qatlami manfaatini ifodalagan. Bentam asos solgan U.ning asosiy prinsipi shaxsiy manfaatlarni qondirish vositasi b-n “eng ko‘p sonli kishilarga eng ko‘p baxt ta’minlab berishdan” iborat. SHu b-n birga xatti-harakatning axloqiyligi, uning natijasida hosil qilingan huzur-halovat va azob- uqubatlarning balansi sifatida matematik tarzda hisoblanib chiqilishi mumkin. Dj. S. Mill U.ga huzur-halovatni sifat jihatidan baholash prinsipi, aqliy lazzatlarni jismoniy lazzatlardan afzal ko‘rish talabini kiritgan. U. davlat va huquq funksiyalarini tushunishga ham asos qilib qo‘yiladi. “Foya prinsipi”ni bilish naz-yasiga ko‘chirish pragmatizmning paydo bo‘lishiga yordamlashdi. Hoz. zamon G‘arb etikasida U. o‘rniga “axloqiy mulohazalarni tahlil qilish” qo‘yilmoqda (Emotivizm, etikada logik pozitivizm).

**Uydagi zo‘rliklar** — oila a’zolaridan birining boshqalariga nisatan beshafqat xatti-harakatlari. Masalan, ba’zi erkaklarning o‘z oilasidagi ayollarga nisbatan beshafqatliklari.

**Uchinchi dunyo** — sanoat ishlab chiqarishi rivojlanmagan mamlakatlar. Er shari aholisining ko‘p qismi uchinchi dunyo mamlakatlarida yashaydi.

**Uchlamchi sektor** — iqtisodiyotning xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq sektori.

**Uyushgan jinoyatchilik** — maxsus guruhlar (tashkilotlar) tomonidan amalga oshiriladigan jinoiy xatti-harakatlar.

## V

**Vaqt geografiyasi** — inson xulq-atvorini o‘rganishga shved geografi Torstren Xagerstrend taklif qilgan yondoshuv bo‘lib, individlarning siljishi ayni paytda makonda va zamonda yuz beradi, deb ta’kidlaydi.

**Validlik** – respondentdan olingan ahborotni verifikatsiya ma’lumotlari bilan qiyoslash. Validlik o‘lchov haqiqiyligi mezonidir.

**Varnalar** (sanskritcha - sifat, rang) — qadimgi Hindistondagi to‘rt asosiy tabaqa. Jamiyatda brahman va kshatri tabaqalari yuqori mavqeni egallahsgan. Mehnatkash xalq vayshilar va shudrlar V.ga mansub bo‘lib, ularning mavqeい pastroq hisoblangan. V.ga mansub bo‘lmaganlar aholining eng quyi, xo‘rlangan, huquqsiz qismini tashkil etgan.

Veber Maks (1864-1920) - buyuk nemis sotsiologi. Uning ijtimoiy-siyosiy qarashlari va nazariy pozitsiyalari ko‘p jihatdan XIX asrning oxirgi choragida Germaniyadagi ijtimoiy-siyosiy holat va vaziyatlar bilan bevosita bog‘liq. Uning asarlari: “Urta asrlardagi savdo jamiyatlari tarixiga oid” (1989), “Rim agrar tarixi va uni davlat xususiy xuquq uchun ahamiyati” (1891), “Protestant etikasi va kapitalizm ruhi” (1905), “Dunyo dinlarining xo‘jalik

etikasi” (1919), “Xujalik va jamiyat” (1920) kabi asarlarida sotsiologik ta’limotlarga bag’ishlangan. M. Veber Dilteyning antinaturalizmni yoqlaydi. U insonning ongli mavjudod ekanligini xech bir tarixchi yo sotsiolog, iqtisodchi inkor eta olmasligini ta’killaydi. Dunyoqarashiga ko‘ra pozitivizmga yaqin. V. fikricha, har qanday ijtimoiy-iqtisodiy hodisaning mohiyati faqat uning ob’ektiv jihatlari b-n emas, balki, avvalo, tadqiqotchi nuqtai nazariga ko‘ra, shu hodisaning madaniy jarayonda qanday rol o‘ynashi b-n belgilanadi. V. falsafa va sotsiologiyaga “ideal tip” tushunchasini olib kirdi. Bu tushunchaning fanga olib kirilishini uning o‘zi ijtimoiy fanlar faqat alohida hodisalarni o‘rgangani sababli ilmiy abstraksiya qilish zarurati borligi bilan izohlaydi. Ideal tip, V. fikriga ko‘ra, borliqni aks ettirmaydi, balki, alohida tushuncha va hodisalarni tizim holiga keltirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Ideal tip tushunchasi, tub mohiyatiga ko‘ra marksizmdagi ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya tushunchasining muqobili sifatida yaratilgan edi. V.ning ijtimoiy fal. va sotsiologiyadagi eng katta xizmatlaridan biri, uning asarlarida dinning ijtimoiy taraqqiyotda o‘ynagan rolini tahlil qilib berishi bo‘ldi. V. din va jamiyat munosabatini tahlil qilar ekan, umuman din to‘g‘risida emas, muayyan davrdagi muayyan din yoki diniy oqim to‘g‘risida fikr yuritdi. V. nazariyasiga ko‘ra, boylik va boylik orttirishga intilishni unchalik xushlamaydigan xristian dini mazhablari iqtisodiy taraqqiyotga muayyan darajada to‘sinqlik qilganlar. Boylikni xudoning ne’mati, unga intilishni esa bandalarning burchi deb talqin qiladigan protestantlik esa iqtisodiy taraqqiyot va kapitalistik munosabatlarning rivojlanishiga kuchli turki berdi. V. talqinida protestantlik kapitalizm vujudga kelishidagi asosiy sabablardan edi. Dirlarni tahlil qilar ekan, V. ular sanoat kapitalizmi rivojlanishiga g‘ov bo‘lmoqda, degan xulosaga keldi. Moliyaviy munosabatlarga cheklovlar qo‘yish, ijtimoiy hayotga passiv munosabatni targ‘ib qilish orqali bu dinlar, V. fikricha, ijtimoiy taraqqiyotga to‘sinqlik qiladi. Uning talqinida protestantlik mazhabi hayotdagi adolatsizlikni passiv kuzatib o‘tirmay, uni bartaraf qilish uchun faol kurashga chaqirish orqali ijtimoiy taraqqiyotga katta turki beradi. Asosiy asarlari: “Milliy davlat va xalq xo‘jalik siyosati” (1895), “Protestantlik etikasi va kapitalizm ruhi” (1905), “Xo‘jalik va jamiyat” (1920).

**Versiya** (lot. ko‘rinishini o‘zgartirish) — dalil, farazlar; voqeani bayon qilish yoki tushuntirishning bir-biridan farq qiladigan turi.

**Vertikal integratsiya** — transmilliy kompaniyalarning xalqaro faoliyatini markazlashgan holda muvofiqlashtirish.

**Vertikal mobillik** — ijtimoiy stratifikatsiya tizimi ierarxiyasida yuqoriga va pastga qarab siljish.

**Vilfredo Pareto** (1848 - 1923) — italiyalik injener-iqtisodchi va sotsiolog bo‘lib, u ko‘proq sotsial fanda matematik iqtisod nazariyasini olib irgan mutafakkirlardan biri. U sotsiolog sifatida “Elita tahlili va ma’lum siklli jarayoni” haqidagi qarashlari bilan mashhurdir. Uning siklli nazariyasida

“Elitaning almashishi” yoki “sirkulyatsiyasr” qarashlari - ba’zi individlar (“sher”lar) jamiyat barqaror bo‘lganda, uni qo‘llab-quvvatlovchi, boshqalari esa (osongina moslashuvi “tulki”lar) yangilanishga va ijtimoiy o‘zgarishlar davrida samarali harakat qiluvchilami tashkil etadi. Pareto siyosiy sabablarga ko‘ra Fransiyadan emigrant qilingan i istokrat oilasrdan bolib, dastlab injenerlik ixtisosligini egalladi va faoliyatini Rim temiryo‘l kompaniyasrda boshladi. Paretoning ilmiy qiziqishlariga katta ta’sir qilgan taniqli italyan iqtisodchisi Mateo Pantaleoni va Lozani universiteti siyosiy iqtisod kafedrasr professori Leon Valrosdir. Valros bilan birgalikda iqtisodiy tenglik nazariyasr ustida ishladilar; sotsiologik tizimga umumnazariy jihatdan yondashdilar. Paretoning bir qancha maqolalari chop etildi. Valros iste’foga chiqqanidan keyin, uning kafedrasrda rahbar bo‘lib qoldi. Birinchi katta maqolalari ma’ruza tarzida «Siyosiy iqtisod kursi» nomi bilan nashr qilindi. U hukumatning bu sohadagi siyosatini ochiq tanqid qildi. U ko‘plab sotsialistlar bilan do‘st edi, hatto Dreyfusni himoya qilgan edi. Vaqt o‘tib borgan sari, ya’ni liberalizm, erkinlashtirish ortda qola bordi. Jamiyatda barqarorlikni ta’minalash zarur edi. Shuning uchun 1900-yillarda Pareto ochiqchasrga antidemokratik va antiliberal pozitsiyaga o‘tib ketdi. Uning yangicha qarashlari «Sotsiologik qarashlar» (1901) «Siyosiy iqtisoddan darslik» (1906) kabi kitoblarida bosilgan maqolalarida ifodasni topdi. Pareto yuragining kasalligi tufayli professorlik faolyaitini qisqartirishga majbur bo‘ldi.

1907-yilda kafedra mudirligidan bo‘sadi, faqat ma’ruzalar o‘qish bilan chekiandi (1917-yilgacha). 1912-yilda u o‘zining asosiy tadqiqotini yakunladi. «Umumiy sotsiologiya bo‘yicha traktatini yozib tugatdi. Ushbu asar faqatgina 1916-yildagina dunyo yuzini ko‘rdi. Sotsiologiya bo‘yicha hayotining oxirgi yillari yozgan bir qancha maqolalari, «Demokratiya transformatsiyasr» (1921), «Faktlar va nazariyalar» to‘plamida bosib chiqarildi. Oxirgi maqolasrda u Italiya hukumatini davlatni, jamiyatni boshqara oladigan kuchga ega emas, deb ochiq tanqid qildi. Bu bilan Pareto, asosan, fashizimni nazarda tutgan edi. Pareto vafotidan so‘ng bir yil o‘tgach, hokimiyat tepasrga fashistlar kelgach, ular o‘z munosabatlarini yangi rejim asosiga qo‘ya boshladilar. Har qanday erkin ijtimoiy-iqtisodiy qarash, fikrlarni taqiqlab qo‘ydilar.

**Vohidov Hamid Fozilovich** (1925. 10.12, Andijon viloyati qo‘rg‘ontepa tumani) – faylasuf, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi. Toshkent davlat yuridik in-tini tamomlagan (1950). Moskvada “o‘zbek xalqining ma’rifatchi-demokrat shoirlarining ijtimoiy-siyosiy qarashlari” mavzuida nomzodlik (1954), Toshkentda “O‘zbekistonda ma’rifatparvarlik ideologiyasi va g‘oyaviy kurash” mavzuida doktorlik dissertatsiyalarini yoqlagan. Toshkent Davlat yuridik in-tida aspirant (1950-53), siyosiy ta’limotlar va fal. o‘qituvchisi (1953-55), ToshDU fal. kafedrasining mudiri (1955-61), Toshkent davlat san’at in-tining fal. va estetika kafedrasini mudiri bo‘lib ishlagan. Fal. tarixi yo‘nalishida ilmiy-tadqiqot ishlari olib boradi. “Turkistonda ma’rifatparvarlik ideologiyasi”

(1979), “O‘zbek ma’rifatparvarlarining sotsiologik qarashlari” (1966), Berdaqning ijtimoiy-siyosiy qarashlari” (1962), “Furqat va Muqimiyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari” (1959), “O‘rta Osiyo ma’rifatparvarlik ideologiyasining metodologik muammolari” (1986), “O‘rta Osiyo ijtimoiy-siyosiy fikrida sotsial-utopik g‘oyalar” (1991), “Turkistonda ma’rifatpavarlik harakati” (1995) kabi monografiyalarning muallifi. Shuningdek, “Politologiya” (1992), “O‘zbekistonda ijtimoiy – fal-iy fikrlar tarixidan lavhalar” (1995), “Falsafa” (1997, darslik) kabi jamoaviy ishlarning hammuallifi.

**Vorislik** — ekologiya sohasiga oid atama bo‘lib, muayyan muhitda keng tarqalgan turning boshqa turlar bilan almashtirilishini bildiradi. V. — 1) tabiat, jamiyat va bilish taraqqiyoti jarayonida hodisalar o‘rtasidagi aloqadorlik; jamiyatda ijtimoiy va madaniy qadriyatlarning avloddan avlodga o‘tishi hamda o‘zlashishi; analalarning amal qilishi;

## X

**Xalqaro mehnat taqsimoti** — global bozorlarda savdo qilayotgan mamlakat va mintaqalarning o‘zaro bog‘liqligini ifodalaydi.

**XAN Sergey** Mixaylovich (1930.2.12, Rossianing Ussuri o‘lkasi, Nikolskiy tumani, Nikolsk qishlog‘i) – faylasuf. A.Navoiy nomidagi Samarqand davlat un-tini tarix ixtisosligi bo‘yicha tamomlagan (1954). “Umumxalq davlati shakllanishi va mohiyatining qonuniyatlari” mavzuida nomzodlik (1964) “Boshqaruv mehnatini ilmiy tarzda tashkil etish” lavozimida doktorlik (1983) dissertatsiyalarini yoqlagan. Ilmiy- pedagogik faoliyati 1954 y.da boshlangan. Toshkent Oliy partiya maktabi falsafa kafedrasida o‘qituvchi, dotsent, kafedra mudiri, Ichki ishlar vazirligi Oliy maktabi fal. kafedrasи dotsenti, prof. (1981-85), Toshkent Davlat madaniyat in-ti prorektori, rektori (1985-89). Ayni paytda o‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi fal. kafedrasining prof. 1993 y.da Seulda o‘tgan Xalqaro ilmiy anjuman ishtrokchisi. Ijtimoiy fal., sotsiologiya yo‘nalishlarida ilmiy-tadqiqot ishlari olib boradi. Mazkur sohalarga oid 100 dan ziyod ilmiy ishlar chop etilgan. “Sotsiologiya” (1997), monografiyalar muallifi. Shuningdek, “Ichki ishlar organlari bo‘lajak mutaxassis shaxsni shakllantrish” (1992) nomli jamoaviy monografiya hammuallifi.

**Xizmat ko‘rsatish sanoati** — tovar ishlab chiqarish emas, ko‘proq xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan industriya, masalan, turizm.

**Xristianlik** (yun. shristos — Xudo yarlaqagan vakil, xaloskor) — Rim imperiyasining sharqiy provinsiyasi (Falastin) da paydo bo‘lgan. X. 311 y.da rasman ruxsat berilgan dinga aylangan. Imperator Konstantin 324 X.ni davlat dini deb e’lon qilgan. 325 y.da uning ko‘rsatmasi b-n jahon xristianlarining birinchi yig‘ini — Nikey sobori chaqirilgan. Bu soborda episkoplar,

ilohiyotchilar X.ning asosiy aqidalarini tasdiqlaganlar, cherkov qonun-qoidalari yozilgan kitoblarni qabul qilganlar hamda cherkov tashkiloti tugal holga keltirilgan. “X.” atamasi e’tiqodni anglatish ma’nosida Antioxiyada (Suriya) 42 y.da vujudga kelgan. Dastlabki davrida Iso izdoshlari o‘zlarini xristianlar va ta’limotlarni X. deb atamaganlar. Bu nom dastlab ularga qarshi tomonidan haqorat sifatida qo’llangan. X.ning diniy ta’limoti mazmunini asosan quyidagilar tashkil etadi: Xudo muqaddas uchlikda (troitsa) namoyon bo‘ladi. Ya’ni Xudo uch qiyofali, lekin yagonadir. Bu degani, Xudo Xudo-Ota, Xudo-o‘g‘il, Xudo-Muqaddas Ruhdan iborat. Biroq, bu uch qiyofali xudolar ayni paytda shaxslariga ko‘ra farq qiladilar. Xudo - Ota tug‘ilish yo‘li b-n paydo bo‘lmagan, uni hech kim yaratgan emas. Xudo-o‘g‘il esa, tug‘ilgan. Xudo-Muqaddas Ruh esa, Xudo Otadan paydo bo‘lgan. Asosiy aqidalar quyidagilardir: Xudo-o‘g‘il (Iso) masih, ya’ni Xudo yarlaqagan vakil. U ilohiy xaloskor. Iso-X.ning asoschisi; Iso o‘ldirilgandan keyin osmonga ko‘tarilib ketgan, u kelajakda tiriklar va o‘liklar ustidan hukm chiqarish uchun oxirat kuni erga qaytib keladi; Iso ham ilohiy, ham insoniy tabiatga ega; Bibi Maryam Xudoning onasi, u qizlik iffati saqlangan holda ilohiy homilador bo‘lgan va Isoni tuqqan; ikonalarga sig‘inish; Xudo hamma narsadan ustun turadi va abadiydir. Uni hech kim yaratgan emas. Xudo dunyoning yaratuvchisidir; odamzot tug‘ilgan paytidan boshlaboq gunohkordir: Xudo yaratgan mavjudotlarning gultoji inson edi, chunki u insonni o‘ziga o‘xshash qilib yaratgan edi. Bu o‘xshashlikning asosiy qirralari — bu insonga berilgan aqidrok, iroda, abadiy o‘lmasliklarida edi. Xudo butun kosmik tartibni insonga bog‘liq qo‘ydi, biroq inson o‘zining irodasini, erkini Xudo irodasiga, erkiga qarama-qarshi qilib qo‘yanligi uchun uni abadiy gunohkorlikka mahkum etgan; cho‘qintirish yo‘li b-n Xudo odamlarga najot yo‘lini ochib bergen; Odam Ato va Momo Havo qilgan ish shunday gunohi azim ediki, odamlar qiladigan har qanday qurbanlik xudoni qanoatlantira olmaydi. SHuning uchun Xudo odamlarga rahm qilib, o‘z o‘g‘li Isoni o‘limga mahkum etgan. Bu qurbanlik Xudoni Isoga e’tiqod qilganlar b-n yarashtirgan va ularga cho‘qintirish marosimi orqali najot yo‘lini ochib bergen; faqat xristian cherkovi bag‘ridagina odamlar Xudoning marhamatiga, uning himoyasida bo‘lishiga umid bog‘lashlari mumkin; Iso o‘gitlariga, vasiyatlariga amal qilish, hayot mashaqqatlariga Iso kabi bardosh berish, buning evaziga narigi dunyoda ajr (mukofot)ga erishajaklik muqarrarligi; jannat va do‘zaxning mavjudligi; jonning o‘lmasligi. X.ning muqaddas kitobi “Bibliya” deb ataladi. Uning X. paydo bo‘lmasdan oldin yaratilgan birinchi va katta qismi “Eski Ahd” deb nomlanadi, u iudaizm dinining Muqaddas kitobi (“Tavrot”) hisoblanadi. “Bibliya”ning X. b-n bog‘liq qismi “Yangi Ahd” (“Yangi vasiyat”) deb ataladi. Kitoblar nomiga “Ahd” so‘zining qo‘sib ishlatalishi “Xudo b-n kishilar o‘rtasidagi munosabatlar ahdnama (vasiyat) b-n tartibga solib turiladi”, degan tushunchaning asos qilib olinganligi b-n izohlanadi. “Yangi Ahd” 27 kitobdan, ya’ni 4 ta “Injil”

(Evangeliya, ya’ni xushxabar), havoriyarlarning (Iso shogirdlari, X.ning dastlabki targ‘ibotchilari) amallari, 21 risolasi va Ioann (ilohiyotchi olim) “Vahiynama”idan iborat. 1054 y.ga kelib, diniy ta’limotlarni talqin etish, yangi vujudga kelgan cherkovlarni nazorat etish, daromadlarni taqsimlash yuzasidan kelib chiqqan ixtilof oqibatida X. katolik (butun dunyo) va pravoslavie (chin e’tiqod) cherkovlariga bo‘linib ketgan. Katoliklar Muqaddas Ruh-Xudo ham, Ota-Xudodan, ham o‘gil-Xudodan kelib chiqqan deb hisoblaydilar. Pravoslavlар esa, Muqaddas Ruh-Xudoni faqat Ota-Xudodan kelib chiqqan, degan ta’limotni tan oladilar. X.ning protestantizm konfessiyasi Reformatsiya harakati oqibatida shakllangan (1526). 1948 y.da jahon 44 mamlakatining 147 protestant cherkovini birlashtirgan jahon cherkovlari kengashi tuzilgan. X. o‘z tarixida ro‘y bergen bahs, munozara, murakkabliklarga qaramay, 2000 y.dan buyon yashab kelmoqda.

**Xudbinlik** — shaxsiy yoki individual xususiyat va qadriyatlarni mutlaqlashtirish, boshqalarni mensimaslik natijasida namoyon bo‘ladigan hayotiy prinsip va axloqiy sifat, individualizm ko‘rinishlaridan biri. X. tushunchasi ma’naviy jihatdan insonni uning jamiyatga va b. kishilarga munosabati nuqtai nazaridan tavsiflaydi. Xudbin kishi o‘z xatti-harakatida faqat o‘z manfaatlarini ko‘zlab ish ko‘radi, jamiyatning va tevarak-atrofdagilarning manfaatlari b-n hisoblashmaydi. Axloqiy sifat tariqasida X. insoniyat axloqiy ongi tarixida doimo salbiy baholanib kelgan. X.ni targ‘ib qiluvchi naz-yalar tobora ko‘proq antisotsial yo‘nalish, so‘ngra esa, reaksiyon mazmun kasb etgan, soxta axloqiy prinsip sifatida X.ga ongli ixlosmandlik esa aynib amoralizmga aylanib ketgan.

**Xulq**— insonning ma’naviy qiyofasi va faoliyatiga xos bo‘lgan axloqiy tushuncha. Shaxs hayot tarzining o‘ziga xosligini, uning faoliyatida axloqiy qadriyatlar tamoyillari nechog‘li o‘zlashtirilganligi, odob me’yorlari qay tarzda amaliy ahamiyat kasb etganligini va aksincha, odob-axloqqa zid bo‘lgan xislatlar mavjudligini ko‘rsatib turadi. X. shaxs axloqiy faoliyatining o‘lchami, ko‘rsatgichidir. Shaxsning yaxshi axloqiy fazilatlar b-n sug‘orilgan faoliyat tarzi “yaxshi X.” namunasi bo‘lib xizmat qilsa, faoliyatida axloqiy qadriyatlarga zid amallarning namoyon bo‘lishi esa, “yomon X.”ga misol bo‘la oladi. Inson X. uning ma’naviy-axloqiy dunyosining o‘ziga xos ko‘rsatkichi hisoblanadi. Shuningdek, ma’naviy-ruhiy kechinmalarning inson X.i orqali namoyon bo‘lishi ko‘p jihatdan mavjud shaxs ta’sirida bo‘lgan muhitning o‘ziga xos tarzda shakllanishiga ham ta’sir ko‘rsatadi. SHaxs ma’naviy-ruhiy kechinmalari ayni vaqtida uning X.i orqali amaliy ahamiyat kasb etib, o‘ziga xos bo‘lgan faoliyat me’yorlarini shakllantiradi.

**Xususiy sog‘liqni saqlash muassasalari** — tibbiy xizmat ko‘rsatish muassasalari bo‘lib, ulardan faqat shu xizmatga to‘la haq to‘lay oladigan odamlar foydalanishadi.

# Y

**Yalpi milliy mahsulot** — mamlakat tomonidan bir yilda ishlab chiqariladigan boylik miqdori; ko‘pincha bu aholi jon boshiga taq-simlab hisoblanadi.

**Yangi industrial mamlakatlar** — keyingi ikki-uch o‘n yillik davomida sanoatning rivojlanish darajasini o‘sirishda sezilarli yutuqlarni qo‘lga kiritgan uchinchi dunyo mamlakatlari. Masalan, Gonkong va Singapur.

**Yashirin dastur** — mактабда rasmiy dasturdan tashqari o‘zlashtiriladigan xulq yoki ustanovkalar. Yashirin dastur — ta’limning norasmiy dasturi bo‘lib, u aytaylik, gender tafovutlarni o‘zlashtirish bilan bog‘liq bo‘ladi.

**Yassaviy Ahmad** - (taxm. 1103-1166) - so‘fiylik tariqatining Xoja Yusuf Hamadoniy maktabiga mansub targ‘ibotchisi, turkiybon shoir. U o‘z asarlarni hozirgi davrda ham tushunarli o‘zbek tilida yozgan. Yassaviy asarlari majmuasi 1878 y.i nashr etilgan “Devoni hikmat” nomi b-n ma’lum. 1990 y.i “Devoni hikmat”ning Toshkentda nashr etilishi muhim voqeа bo‘ldi va u tez orada tarqalib ketdi. SHu boisdan 1992 y.da ikkinchi bor nashr etildi. Xoja A.YA. YAssi shahrida tug‘ilgan.Uning otasi Shayx Ibrohim ismli eshon bo‘lib, o‘g‘lining yoshligida vafot etgan. Yassaviyning fors adabiyoti vazn va uslubida emas, balki turk milliy vaznida, xalq adabiyoti uslubida hikmatlar yozgani aynan shu davrga to‘g‘ri keladi. A.Ya. oltmis uch yoshdan oshgach, xonaqohda erosti chillaxonasini qazdirib, shunga kirgan va foniy dunyodan aloqasini uzib, shayxlikni davom ettirgan, hijriy 562 y.da vafot etgan. Tasavvufning Yassaviya yo‘nalishi Ya. nomi b-n bog‘liq.

Xoja Ahmad Yassaviy she’rlarining har parchasiga “hikmat” unvoni berilgan va ular to‘planib kitob shakliga keltirilgan. Bahouddin Naqshbandga taalluqli deb tan olingan “Dil ba yor, dast ba kor” iborasini ham birinchi bor Ahmad Yassaviy “Niyating xudoda, qo‘lda ishing” shaklida bayon etgan. Demak, Yassaviy tariqati b-n Naqshband ta’limoti mohiyatan yaqin bo‘lib, o‘sha mashhur ibora birinchi marta 12-a.da turkiy, 14 a.da esa forsiy tilda aytilgan. A.Ya. qur’он hikmatlari, hadislar mazmunini va tasavvuff g‘oyalarini qo‘shib, uni insofuadolat, halollik va to‘g‘rilikni oriflik, oshiqlik, xilvat va uzlat b-n bog‘lagan. U tasavvuf g‘oyalarini xalq orasiga yoyib, nafs va xudbinlik kabi ko‘pgina yomon illatlarni qattiq tanqid qildi.

**Yetakchi**, lider (ing. leader—sardor, rahbar)— ijtimoiy guruh faoliyati va xatti-harakatini birlashtirish salohiyatiga ega bo‘lgan shaxs. E. ning ma’lum bir tipi ijtimoiy tuzumga, guruhning xususiyatiga va muayyan tarixiy vaziyatga bog‘liq. E. muammosi azaldan ko‘plab mutafakkirlarni qiziqtirib

kelgan. Gerodot, Plutarx kabi antik davr tarixchilari ta’limotlari markaziga buyuk etakchilar, ayniqsa, harbiy sarkardalar (mas., Aleksandr Makedonskiy) faoliyatini qo‘yanlar. Boshqa bir mutafakkirlar tarix nuqtai nazaridan faoliyat ulkan ahamiyatiga ega etakchi-arboblar (mas. Sohibqiron Amir Temur) timsolini alohida ajratib ko‘rsatadilar. Nitsshe, Tard, Freyd, Adler kabi mutafakkirlar E. va etakchilik faoliyatini uzviy bog‘liqlikda, uning turli jihatlarini tahlil etib kelganlar. Xususan, mashhur sotsiolog M.Veber etakchining an'anaviy, legal (qonuniy), xarizmatik tiplarini ko‘rsatgan edi. Hoz.gi paytda siyosiy E. muammolari chuqur tahlil etilmoqda. Bunda avtoritar E. shaxsan o‘zi ta’sir ko‘rsatishiga demokratik E. ning esa guruh a’zolarining o‘z-o‘zini boshqarishiga jalb etishi jihatlariga e’tibor beradilar. SHuningdek, rasmiy E. (asosan rahbar) va norasmiy E. (shaxsiy munosabatlarga asoslanuvchi) tiplarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

**Yorliq nazariyasi** — og‘ishlarni o‘rganishdagi yondoshuv bo‘lib, unda odamlarning “og‘ishi” siyosiy hokimiyat tomonidan muayyan yorliqlar yopishtirish natijasida yuz beradi, deb hisoblanadi.

**Yoshlar** – yosh xususiyatlari, ijtimoiy holatining o‘ziga xosligi bilan ajralib turuvchi ijtimoiy-demografik guruh. Hozirgi paytda 14-16 yoshdan 25-30 yoshgacha bo‘lgan kishilar yoshlarga mansub deb hisoblanadi. YO.ning alohida ijtimoiy-ruhiy qiyofasi jamiatning umumiy holati, ijtimoiylashuv qonuniyatları, ta’lim-tarbiya imkoniyatlari b-n belgilanadi.

## Z

**ZARDUSHT** (Zardust, Zaratushtra, Zoroastr) – dunyoda yakkaxudolik (monoteizm)ni targ‘ib etgan ilk payg‘ambarlardan biri. Uning tug‘ilgan vaqtiga ‘g‘risida bir-biriga zid fikrlar mavjud. Abu Rayhon Beruniy Z.ni Iskandardan 258 y. oldin dunyoga kelgan, degan fikrni aytadi. Lekin keyingi tadqiqotlar, ayniqsa, “Avesto”ning Gotlar qismini, uning tili va keltirilgan tarixiy davrlarini chuqur tahlil qilish orqali Z. mil.av. 8-a. yashab ijod etgan va mil.av. 8-a.ning oxirlari 7-a.ning boshlarida vafot etgan, degan xulosaga kelinmoqda. Z.ning asl nomi Magupta bo‘lib er.av. 8-a.ning birinchi choragida quyi Amudaryo xududlarida tashkil topgan Oriy qabilalar ittifoqiga qarashli Spitama urug‘idan chiqqan Purishasp ismli kishining o‘g‘li bo‘lgan. Onasi ana shu urug‘ga mansub bo‘lgan Faroximning qizi Dug‘dova ismli ayol bo‘lgan. YOshligida otasi uni o‘z davrining oqil odamlaridan biri bo‘lgan Barzin qurush (cho‘pon)ga shogirdlikka berdi. Barzin qurush tarbiyasida 7 yoshdan to 15 yoshgacha bo‘lib Oriy (arya) qabilalari orasida keng tarqalgan, turli soha tangrilarini madh etuvchi yashtlarni yod oladi. Arya qabilalari orasidagi ziddiyatlarning asl sababchilaridan biri ko‘pxudolik

ekanligini anglab etgan 23 yoshli Magupta (Z.) butun olamning qudratli hukmdori va dunyoviy aql (ruh shaklida tasavvur etgan) Axura Mazdagagina itoat etish lozim degan qarorga keladi. o‘z g‘oyasini o‘ttiz yoshlaridan boshlab, o‘z urug‘i va qabiladoshlari orasida targ‘ibot qila boshlaydi. Lekin har bir Xudoga alohida ibodat qilib odatlangan kishilarga yakka Tangriga sajda qilish kerakligini singdirish nihoyatda mushkul ish edi. Z. o‘z qabiladoshlari tomonidan badarg‘a qilinadi. o‘n yil cho‘lu-biyobonlar, tog‘utoshlar, turli shaharu qishloqlarni kezib yana o‘z yurtiga qaytadi. Z. o‘z qabiladoshi, lekin boshqa urug‘dan chiqqan qizga uylanib, uchta o‘g‘il va uchta qiz ko‘radi. qizlari: Frini, Trini, Purichisto, o‘g‘illari: Istavatr, Uruvatr, Xurchitra ekanligi tarixiy manbalardan ma’lum. U uch marta uylangan degan ma’lumotlar bor. Z. yashagan davrlar Aryoshayona (tarixda “Katta Xorazm” davlati deb ham yuritiladi) davlatning inqirozi boshlangan davr edi. Dastlab Aryoshayona davlatidan SHimoliy Afg‘onistonidagi Baxtar (Avestoda “Baxdi”) o‘lkasi ajralib chiqadi va o‘zini mustaqil davlat deb e’lon qiladi. Mustaqil Baxtar davlatining hukmdori Gushtasp (Vishtasp) saroyiga borib Z. karomatlarini ko‘rsatib, ularga o‘z e’tiqodini qabul qildiradi. Gushtasp irodasi b-n Z. tomonidan ijod etilgan Gota madhiyalari keyinchalik shogirdlari tomonidan to‘planib, bir kitob shakliga keltirildi. Z. etmish etti yoshida o‘zi tomonidan tarxi chizilgan markaziy ibodatxona (otashkada)ning ochilish marosimida Turon hukmdori Arjasپ buyrug‘i b-n Bratar Vaxsh tomonidan o‘ldirildi.

**Zardushtitlik** (otashparastlik, parsizm, zoroastrizm) – mil.av. 8 – 7 a. quyi Amudaryo hududlari va Marg‘iyonada vujudga kelgan yakkaxudolikni targ‘ib etadigan din. Z. Zardusht tomonidan isloh qilinib, takomillashtirildi. Z. ta’limoti miloddan oldingi 7-a.da Aryashayona davlati (tarixda Katta Xorazm davlati deb yuritiladi)ning inqirozga yuz tutgan davr vujudga keldi. Bu davrda turli xudolarga sajda qiluvchi qabilalar o‘rtasidagi ziddiyatlar parchalanib ketayotgan jamiyat (davlat)ning ichki qarama-qarshiliginini yanada kuchaytirishga olib kelgan. Mamlakat inqirozining oldini olish uchun qabilalar o‘rtasidagi ziddiyatlarga barham berib, umumiyl manfaatlar mushtarakligini targ‘ib qiluvchi muayyan maqsadga qaratilgan izchil g‘oyalar yaratish zaruriyati vujudga kelgan Bunday ta’limot, birinchidan, jamiyatning ijtimoiy barqarorligini saqlab qolish uchun xizmat qilishi, ikkinchidan, urug‘ va qabilaviy dinlardan ustun turuvchi hamda barcha urug‘ va qabilalar manfaatlariga mos tushadigan e’tiqod shaklini yaratishi, uchinchidan, har qanday qonli urushlar va xunrezliklarga qarshi xalqlarni osoyishtalikka chaqirishi, to‘rtinchidan, davlat chegaralaridan tashqari ko‘chmanchi chorvador qabilalar hujumiga qarshi mamlakat ichkarisidagi kuchlarni jipslashtiruvchi g‘oyalar tizimini shakllantirishi zarur edi. Bunday g‘oyalar tizimi esa, o‘z davrining siyosiy tashkiloti bo‘lgan Aryashayona

davlatining mafkurasidan boshqa narsa bo‘lishi lozim edi. qabilalar o‘rtasida mushtarak manfaatlarni shakllantirish uchun qabilalarning umumiy e’tiqodini vujudga keltirish zarur edi. Arya (oriy) qabilalari orasidagi ziddiyatlarning tub sababchisi ko‘pxudolik ekanligini tushunib etgan Zardusht odamlar butun olamning qudratli hukmdori, jahoniy aql (sohibi) Axura Mazdagagina itoat etishi lozim, degan qarorga kelgan. Zardusht odamlarni Axura Mazdaga sajda qilishga chaqirib insoniyat ma’naviyati tarixida yangi bosqichni boshlab berdi. Birinchidan, u ko‘pxudolik (politeizm)ga qarama-qarshi yakka xudolik (monoteizm)ga, ya’ni, diniy e’tiqodning yuqori bosqichiga qadam qo‘ygan edi. Ikkinchidan, ilgari odamlar xudolar qahridan, ularning dahshatli vayron qiluvchi qudratlari oldida ojiz, qo‘rquv dahshati ostida sig‘inishgan bo‘lsa, endilikda esa Z. odamlarga qalbi kishilarga mehr-shafqat b-n to‘lgan, yaxshilik tomon undovchi, ularning o‘limidan keyin mangu farovon hayot b-n ta’minlay oladigan tangri Axura Mazdaga ibodat qilishga chaqirdi. Z. diniy e’tiqodda dualizm (ikki xudolik)ni emas, yakkaxudolik (monoteizm)ni targ‘ib qilgan. Z. dunyo – yorug‘lik va zulmat, yaxshilik va yomonlik, hayot va o‘lim, yolg‘onchilik va rostgo‘ylik, vaxshiylik va ezgulik, johillik va shafqatlilik, axmoqlik va aqllilik, past va balandlik, olov va suv, issiqlik va sovuqlik abi qarshi kuchlar o‘rtasida kechadigan ayovsiz kurash maydoni sifatida tasavvur qilinadi. Olamdagи barcha yaxshilik, ezgulik, yorug‘lik kuchlarini Axura Mazda yaratadi va boshqaradi. Yomonlik, tubanlik, yolg‘onchilik va x.k. kuchlarning ijodkori va uning boshqaruvchisi qilib, Anxra Maynyu deb tushiniladi. Axura Mazda o‘zining oltita yordamchisi b-n barcha yorug‘ olamni boshqaradi. Bu “Mangu yashashga molik muqaddas ruhlar” Axura Mazda rahnamoligida mavjudlikning turli sohalarini o‘zida mujassam etadilar. hayot deb ataluvchi barcha narsalar: Insonlar, chorva, olov, er, osmon, suv va nabotot (o‘simpliklar) dunyosiga homiylik qiladilar. Muqaddas ruhlar (Avesto bitiklarida “Amesha Spenta deb aytiladi) jami oltita bo‘lib ular Muqaddas ruh Spenta Manyu yordamida vujudga keltiriladi. 1) Voxu Manu - ezgu fikr; 2) Asha Vaxishta - eng oliy haqiqat; 3) Spenta - muqaddas e’tiqod, diyonatga sodiqlik (iymon); 4) Xishatra - Varya - hukmronlik hohishi; 5) Harvatat - yaxlitlik; 6) Ameretat - mangulik; Axura Mazda b-n jami ettita; Z. ta’limotida Anxra Manyu-barcha yomonlik, zulmat kuchlarning timsoli sifatida u ham Jin, Shayton, Iblis, Alvasti, Jodugar, dev, ajdaho, Ilon va x.k.larni yaratib ular yordamida odamlar qalbiga qo‘rquv, daxshat urug‘larini sochib o‘zlariga tobe qilishga urinadilar. Bushyasta – odamlarda yalqovlik, dangasalikni kuchaytiruvchi, odamlar erta b-n turmoqchi bo‘lganida o‘zining uzun qo‘llari b-n boshini yostiqqa bosib yana uyquga eltuvchi iblis qiyofasidagi dev. Gandarva – daryolar, ko‘llar, dengiz suvlarini boshqaruvchi, suv to‘fonlari, toshqinlari, kema halokatlarini Amudaryoda dagishlarni keltirib chiqaruvchi qudratli gavdali, qo‘rinchli

ko‘rinishdagi qip-qizil ko‘zi b-n odamlar qalbiga dahshat soluvchi iblis qiyofali dev. Mozon devlari uzoq shimol tomonda, mangu qahraton sovuq hukmron bo‘lgan olis Ural tog‘lari orqasida makon tutgan, odamlar hayotiga aralashib turadigan, ularning taqdirlariga ta’sir ko‘rsatuvchi devlar va x.k. Odamlar bu ikki qudrat o‘rtasidagi chegarada hayot kechiradilar. Axura Mazda o‘z yordamchilari, ma’bud va ma’budalari, hur farishtalari b-n etti qavat osmonni o‘zlariga maskan tutadilar. Anxra Maniyu o‘z salaflari b-n etti qat er tagini o‘zlariga maskan tutadilar. Bu ikki hukmdor sultanatlarining chegaralari er yuzasidan, odamlar qalbidan o‘tkaziladi. Odamlarga bu ikki qudratdan birini tanlash imkoniyati yaratiladi. Agar kishi, ko‘proq shu bugungi kun tashvishi b-n qorin g‘amidan narisini o‘ylay olmaydigan, shaxsiy g‘arazli manfaat yo‘lida yolg‘onchilikdan hazar qilmasa, o‘lganidan keyin narigi dunyoga ishonmasa, bundaylar albatta Ahriman ta’siriga uchragan odamlar hisoblangan. Aksincha, bu dunyo odamlarga sinov uchun berilgan, haqiqiy hayot o‘lgandan keyin, chinvot (qil ko‘prik) dan keyin boshlanishiga ishonsa, narigi dunyoning abadiy farog‘at umr kechiradigan jannatga intilsa, bu dunyoda Axura Mazdaning yo‘lidan borish, unga amal qilishi, faqat ezgu fikr, ezgu K. (so‘z) va ezgu amallarga rioya qilib yashashi orqaligina erishiladi. Axura Mazda odamlarga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatish uchun odamlar orasidan eng sarasini Zardushtni o‘ziga elchi qilib tanlaydi. Zardushtga ezgu fikr va ezgu so‘z tayyor xolda dunyoviy qudratli aql-Axura Mazzadan yuboriladi. Bu yuborilgan ezgu fikr va ezgu so‘zga sidqidildan yondashib, ularga amal qilish odamlarga vazifa qilib yuklatiladi. Anxra Manyu esa Mazda yo‘lidan odamlarni qaytarish uchun insonlarning ichidan birini tanlab, eng buyuk qobiliyat ato etadi. Bu tanlagan odami Drug‘vand (Avestoda Druj) bo‘lib yolg‘onchilikda, beburdlikda, mubolag‘a, vahimali gaplarni qiyomiga etkazib odamlar qalbiga dahshat urug‘ini sochishda ustasi farang bo‘lib Z. ta’limotiga qarshi tashviqot ishlarini olib boradi. Z. ta’limotida (Avestoning gotlar qismida) chorvachilikka asoslangan turmush tarziga qaraganda o‘troq dehqonchilik turmush tarzini qarama-qarshi qo‘yib, ko‘chmanchi chorvachilikka asoslangan hayot tarzi barcha yovuzliklarning manbasi deb qarab, o‘z jamiyatining fuqarolarini cho‘l xalqlari yashash tarzida ko‘proq Ahriman irodasi qonunlashtirilganligidan ogoh bo‘lishga chaqiradi. Z.da olovga sig‘inish alohida ahamiyat kasb etadi. Olov ular uchun muqaddas hisoblanib, barcha yorug‘lik, tozalik, ezgulikning manbasi sifatida qaralgan. Axura Mazdaning qalbi quyoshi nuridan chiqarilgan (oltingan) olovnigina ular muqaddas hisoblaganlar. Olovning manbalarini ikkita birinchisi quyosh, ikkinchisi esa Er osti (jahannam) deb tushunganlar. quyosh nuridan olingan olov yaratuvchilik, gunohlardan tozalovchi, mehr yolqini manbasi sifatida qaralib, er qa‘ridan chiqqan olov vulqon, qora bulutdan chiqqan momoqaldiroq, yildirim (yashin) ko‘rinishida odamlar, hayvonlar va

nabotot olamiga qirg‘in keltiruvchi sifatida qaraganlar. SHuning uchun ham yilning o‘zini ham Ormuzd davri (ya’ni Navro‘zdan to Mehrjon bayramigacha) va Axrimon davriga mehrjon bayramidan (21-sentyabrdan) Navro‘z ayyomi (21-mart) gacha vaqtлага bo‘lib tasavvur qilganlar. Z. ta’limotida kishilik jamiyati jami 12 ming yil umr ko‘rishini, bu davrlar: Axura Mazda (oltin) davri qayumars (Govmard, Goptshox) dan boshlanadi. Yima Vivaxvand hukmronligining oxirgi yillarigacha davom etgan. Ormuz davrida ijtimoiyadolat to‘la tiklangan zamonlar bo‘lib odamlar tug‘iladi, lekin o‘lim bo‘lmagan deb hisoblanadi. Bu davr Yima Vivaxvand (Jamshid) kibr-havoga berilib, o‘zini Tangri o‘rniga qo‘yib, odamlar unga sajda qilishni buyurganidan keyin va Sigir go‘shtini eyishni buyurganidan keyin Axrimon ta’siriga mubtalo bo‘lguncha davom etadi. Axura Mazda Jamshidni abadiy umr ko‘rish huquqididan mahrum qiladi. Arximon davri to‘la adolatsizliklar avj olgan davr bo‘lib, u ham Ahura Mazda davriga teng uch ming yil davom etadi. Z. zamonidan boshlab Axura Mazda va Ahriman o‘rtasida hayot-mamot kurashi davri boshlanib u ham uch ming yil davom etadi. Z. o‘limidan so‘ng uch ming yil o‘tganidan keyin farovonlik (Axura Mazda) davri boshlanib, yana uch ming yil davom etishi bashorat qilinadi va h.k. Z.da er, suv, havo, olov mavjudlikning to‘rtta asosi sifatida ulug‘lanadi. Z.iylikdagi bu ta’limot Greklardagi sodd materialistlar (Fales, Anaksimen, Anaksimandr, Geraklit) ning fal-iy ta’limotlariga chuqur ta’sir qilganligini ko‘ramiz. SHuningdek, Axura Mazda (dunyoviy aql) ruh obrazida Suqrot va Platon fal.siga ta’sirini, Aristotel fal.sidagi borliqning to‘rtta asosi (er, suv, havo, olov) to‘g‘risidagi ta’limotining shakllanishida ham Z.iylik g‘oyalarining katta ta’sirini sezishimiz mumkin. Z.iylikning g‘oyaviy merosxo‘rlari sifatida moniylik, mitraizm, mazdakiylik ta’limotlari hisoblanadi. Arshakiylar va Sosoniylar podsholiklari davrida Z. yana davlat dini darajasiga ko‘tarildi. Arablar Eron va o‘rta Osiyoni bosib olganlaridan so‘ng eng fidoiy Zardushtiylar ikkinchi marta (birinchisi Iskandar Zulqarnayndan qochib) Hindistonda panoh topdilar. Hindistonning Bombey shahri atrofida va Gujarat shtatida hozir ham 250-300 ming kishidan iborat parslar nomi ostida Zardushtiylar qavmi istiqomat qiladilar. Eronning janubiy tog‘lar orasidagi daralarda ham ko‘p ming kishilik Zardushtiylar qavmi bor. Z. ta’limoti o‘zidan keyingi yanada rivojlangan milliy-mintaqaviy, jahon dinlari bo‘lgan yahudiylik, buddaviylik, xristianlik va islom e’tiqodining shakllanishida katta ahamiyat kasb etdi. Xususan, halol, harom, gunoh, savob, jannat, do‘zax, hur, farishta, iblis, shayton, dev, etti qavat osmon, etti qat er, etti iqlim, dunyoviy aql, dunyoviy ruh, qiyomat, oxir zamon, qil ko‘prik, (chinivot), oxirgi hukm va boshqa bir qator tushunchalar va obrazlar dastlab Z.ning muqaddas kitobi Avestoda ishlab chiqilgan edi.

**Zenon** – qadimgi Yunon faylasufi, Parmenidning shogirdi va do‘sti.

Z.ning fikricha, jism borliq, hajm va ko‘lamga ega bo‘lishi zarur. Na ko‘lam, na hajmga ega bo‘lman narsalarning o‘zi bo‘lishi mumkin emas. U o‘z ustozi singari borliqdan tashqarida biron bir bo‘shliqning mavjudligini tan olmadi. Borliqdan tashqarida alohida makon yo‘q, bo‘linishning oxiri bor. Ko‘plikning bo‘linmas qismi uning birlik o‘lchovini tashkil etadi. Demak, ko‘plik bo‘linish uchun ko‘pgina birliklar mavjud bo‘lishi kerak. Bu erda ko‘plikning birliklari bir-biridan alohida bo‘lishi kerak. Aks holda yaxlit massaga aylanadi, unda na birlik, na ko‘plik bo‘ladi. Ko‘plik birliklar yig‘indisidan iborat. Z. harakatning mavjud emasligi to‘g‘risida 4 ta aporiya yaratgan. Bular: 1) dixotomiya; 2) Axilles; 3) yoy; 4) stadion yoki Stadiy.

Z. o‘z aporiyalariga jism borlig‘i cheksiz bo‘lsa-yu, vaqt cheklangan bo‘lsa, u holda harakat boshlanmaydi; vaqt cheksiz davomiylikka ega bo‘lsa, unda jism cheklangan masofani bosib o‘tolmaydi va harakat hech qachon tugamaydi; makon va vaqt birlikda olinganda ham harakat bo‘lmaydi, degan g‘oyalarni ilgari surdi. Z. ta’limoti antik matematika, mantiq va dialektikaning rivojiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan.

**Ziddiyat** — antagonistik ijtimoiy tamoyillarni ifodalash uchun Marks tomonidan kiritilgan atama.

**Zimmel Georg (1858-1918)** - nemis faylsufi va sotsiologining xozirgi kunda 14 tomlik asari chop etilgan. Asosiy asarlaridan “Darvinizm va bilish nazariyasi”, “Sotsial differensiatsiya:sotsiologik va psixologik tadqiqotlar” asarlari bor. U Marks g‘oyalaraiga ta’sir o’tkazdi. Zimmel fikricha, sotsial fanlar uchun a’naviy xususiyat - boshqa fanlar shug’ullanadigan fanlar predmetini tanlash uchun emas, balki metod sifatida kerak. Zimmel qarashicha: a) umumiyligi sotsiologiya - turli ijtimoiy fanlarda a’ananaviy predmetlar doirasini, qonuniyatlarini aniqlaydi; b) sotsiatsiya (muloqot)ning shakllarini tasvirlash; v) sistemalashtirish - toza xaqiqiy yoky formal sotsiologiyadir. Asl sotsiologiya jamiyat xaqidagi turli fanlarning tadqiqotchilariga o‘z predmetlariga sotsiologik yondashishlarini ta’minlash uchun kerakli yunalishlarni ishlab chiqish lozim. Asl sotsiologiya boshqa ijtimoiy fanlar uchun metodologiya bulib xizmat qilsa, xususiy sotsial fanlar uchun nazariya bo‘lib xizmat qiladi.

**Zombart (Sombart) Verner (1863-1941)** – nemis sotsiologi, faylasufi, tarixchi va iqtisodchi. U 1906 yildan umrining oxirigacha Berlin un-tida professor lavozimida ishladi. Nemis sotsiologik jamiyatini tashkil etishda faol qatnashdi. Z. dastavval K.Marks ta’limotining ta’siriga berilgan bo‘lsa, keyinchalik unga qarshi kurashdi. Neokantchilikning Baden maktabi namoyandasasi sifatida faktik materiallar asosida kapitalizmning kelib chiqishi va rivojlanishini tadqiq etdi. Z. “kapitalizm” atamasini ilmiy muomalaga kiritdi, ijtimoiy barqarorlik, madaniyatning ommaviylashuvi muammolariga alohida e’tibor berdi. Z. asarlarida “kapitalizm ruhi” (foyda, pulga intilish)

asosiy o‘rin egalladi. “Kapitalizm ruhi” ni evropaliklarga xos xususiyat sifatida talqin etdi. Z. neokantchilik mavqeidan turib, tarixning olg‘a tomon rivojlanishi g‘oyasini inkor etdi. Uning ta’kidlashicha, xo‘jalik tarixidagi davrlar bir-biridan qanday ruhning ustunligiga qarab farqlanadilar, biroq xo‘jalik sistemalarining almashinuvi qonuniyatli xarakterga ega emasdir. Har bir iqtisodiy sistema o‘ziga mos iqtisodiy in-tlarni vujudga keltiradi. Z. sotsial-iqtisodiy hodisalarga xos umumiy xususiyat sifatida “kapitalizm ruhi”ni va uni o‘zida namoyon etuvchi burjuani ko‘rsatdi. Burjuaning sotsial-tipik xususiyatlarini “kapitalizm ruhi”ning asosini tashkil etuvchi “tadbirkorlik ruhi” va “meshchanlik ruhi” b-n bog‘ladi. Z. “tadbirkorlik ruhi”ni zo‘rlik vositasida boylik orttirishga moyillik b-n, “meshchanlik ruhi”ni esa “tinch” vositalar orqali boylik orttirish b-n bog‘ladi. Z. “kapitalizm ruhi”ni o‘zida namoyon etuvchi burjuaning shakllanishidagi ikki an‘anani ko‘rsatdi. Bunda asosiy an‘ana bir guruh Evropa xalqlarining boylik va tadbirkorlikka intilishi va buning oqibatida kapitalizmnning faol shakllanishi; ikkinchisi – zo‘ravoniksiz pul ko‘paytirish, tejamkorlik, ehtiyyotkorlik b-n “meshchanlarcha savdogarchilik” ruhida boylik orttirish; bu an‘ananing etnik asosini yahudiylar tashkil etadi. Z. kapitalizm g‘oyasini muttasil ravishda o‘sib boruvchi ratsionallik b-n bog‘ladi. Kapitalizm barqarorligini esa burjuada “tadbirkorlik” va “meshchanlik” ruhining uyg‘unlashuvi b-n bog‘ladi. Z.tning eng muhim asarlari: “Sotsializm va 19-a.da sotsial harakatlar” (1896), “Kapitalizm istiqboli” (1932), “Nemis sotsializmi” (1934). Z. o‘zining so‘nggi asari (“Nemis sotsializmi”) da totalitarizmni yoqladi.

**Zo‘rlash** — kuch ishlatish yoki tahdid yordamida individni jinsiy aloqa qilishga majburlash.

## O’

**O‘limning umumiyl darajasi** (crude death-rate) — aholi orasida har yil yuz beradigan o‘lim mikdorini ifodalovchi statistik ko‘rsat-kich. O‘limning umumiyl darajasi odatda har yili har ming kishiga to‘g‘ri keladigan o‘lim miqsoridan chiqariladi. Bu ko‘rsatkich guruh yoki jamiyat uchun xos bo‘lgan o‘lim darajasini ifodalaydi. SHuning uchun uni ko‘llash mumkin bo‘lgan sohalar chekdangan. Unda, aytaylik, yoshga qarab o‘lim mikdorining taqsimlanishi xisobga olinmaydi.

**O‘zgarish lavhalari** — turli jamiyatlarda bir xil tarzda amalga oshiriladigan ijtimoiy o‘zgarishlarning ketma-ketligi.

**O‘zgarishlarning dialektik talqini** — qaramaqarshi manfaatlar yoki guruhlar to‘qnashuvini ijtimoiy transformatsiyalarni harakatga keltiruvchi kuch, deb talqin qiladigan yondoshuv.

**O‘z-o‘zini anglash** (self-consciousness) — individning o‘zini odam sifatida boshqalardan ajralib turadigan ijtimoiy identligini ang-lashi. Inson tug‘ilishdan o‘z-o‘zini anglay olmaydi, bu xususiyat ijti-moilyashuvning dastlabki boskichlarida shakllanadi. Tilni egallash boladagi o‘z-o‘zini anglash jarayonlarining shakllanishi uchun juda muxim.

**O‘z-o‘zini bilish** — ijtimoiy tadqiqotlar jarayonida odamlarning o‘z xatti-harakatlari sharoitlari va vaziyatlarini tushunishi va anglashining o‘sishi, bu vaziyatni o‘zgartirishga imkon yaratadi.

**O‘rin almashish** — g‘oya va tuyg‘ularni ularning haqiqiy manbaidan boshqa biror ob‘ektga ko‘chirish.

**O‘rta sinf** — asosan “oq yoqalilardan” va quyi bo‘g‘in boshqaruvchilardan tuzilgan ijtimoiy sinf.

**O‘tuvchi sinflar** — Marks tomonidan umrini yashab bo‘lgan oldingi ijtimoiy formatsiyaga xos sinflarga nisbatan qo‘llangan atama, ular yangi sinflarning shakllanishini sekinlatadi. Masalan, yangi kapitalistik munosabatlar shakllanayotgan davrdagi dehqonlar va zamindorlar.

## Sh

**Shahar** — shtab-kvartira — xalqaro mehnat taqsimotida muvofiqlashtiruvchi rolini bajaruvchi shahar, dunyo moliya va savdo tizimining shtab-kvartirasi.

**Shahar zaxiralaridan ikkilamchi foydalanish** — nurab qolgan binolarini ta’mirlash va yangilarini qurish yo‘li bilan eski tumanlarni obodonlashtirish jarayoni.

**Sharq renessansi** – Sharqda ma’naviy-ma’rifiy, madaniy hayotidagi Uyg‘onish, ya’ni rsharq xalqlari ivojining yuksalish davrlari. Sh.r.ni ikki davrga bo‘lish mumkin. Birinchi – Markaziy Osiyoda mug‘ullar istilosigacha bo‘lgan davr, u Al-Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino kabi qomusiy olimlar, astronom al-Farg‘oniy, Buxoro tarixchisi Narshaxiy, mutafakkirlar Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf Xos Xojib va b. nomlari va ijodlari b-n bog‘liq. Bu davrda yashagan mutafakkirlarning deyarli barchalariga quyidagi xususiyatlar xos: madaniyatning o‘tmishda erishgan yutuqlarini, xususan, qad. YUnion, Hind, Xitoy merosini chuqur o‘rganish va uni ijodiy rivojlantirish; tabiatni o‘rganishga qiziqishning ortishi va tabiiy fanlar taraqqiyoti (astronomiya, geografiya, matematika, riyoziyot, meditsina va h.k.); ratsionalizm, ya’ni aqlni haqiqatning mezoni sifatida tan olish va buning natijasida mantiqni rivojlantirish; aqidaparastlikni rad etish va hurfikrlilikning rivojlanishi; insonparvarlikni ulug‘lash, insonning axloqiy, ma’naviy go‘zalligini, kamolotini Allohning yuksak in’omi sifatida talqin etilishi; so‘z san’atiga muhabbat; ilmiy asarning badiiy shakliga alohida

e'tibor berilishi; qomusiy bilimlarga ega bo'lishlik. Bu davrda yashagan mutafakkirlar fan va san'atning ko'p sohalarini chuqur bilgan allomalar bo'lganlar. Bu davrda Yaqin Sharqda Al-Ma'mun xalifalik qilgan davrda (813–833) davlat ilm-ma'rifikatning o'sishiga yordam berdi. Bag'dodda, so'ngra Damashqda astronomik observatoriyalar qurildi. Bag'dodda "Bayt ul-hikma" ("Donishmandlik uyi") tashkil etildi. Bu ilm dargohlarida o'rtas Osiyolik olimlar faol ishtirok etdilar. 11-a.ning boshlarida Xorazmda mashhur "Ma'mun akademiyasi" tashkil qilindi. Bu erda Beruniy atrofiga o'sha zamonning bir guruh olimlari, jumladan, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr bin-Iraq, shuningdek, fay. Abu Sahl Masihiy, tabib Abul xayr Hammor va b. olimlar ko'plab ilmiy izlanishlar olib bordilar. Bu davrda tabiiyot ilmi, panteistik fal. b-n birga islom ilohiyoti ham keng rivojlandi. Muhaddis sifatida butun musulmon olamida mashhur Imom Buxoriy, Imom Iso at-Termiziyy, kalom ta'limotining asoschilari Abu Mansur Moturidiy, Burhoniddin al-Marg'inoniy va Abu Homid Muhammad al-G'azzoliylar islom dini rivojiga katta hissa qo'shdilar. Ikkinchchi Renessans – Sohibqiron Amir Temur va temuriylar sulolasi hukmronlik qilgan (XVI-a.lar) davrga, to'g'ri keladi. Bu davrda yashab, ijod etgan olim va mutafakkirlar Sa'diddin Taftazoniy, Mir Sayyid Sharif Jurjoni, Muhammad Tarag'ay Ulug'bek, G'iyosiddin Jamshid al-Koshiy, Alouddin Ali ibn Muhammad qushchi, Abdurahmon Jomiy, Nizomiddin Mir Alisher Navoiy, Kamoliddin Husayn Voiz Koshifiy, mashhur tarixchilar Mirxon va Xondamir, rassomlar Kamoliddin Behzod va shoh Muzaffarlarning nomlari dunyoga mashhur bo'lgan. Bu davrda davlatni boshqarishda din va tasavvuf qoidalariga alohida e'tibor berildi. Ahmad Yassaviy va Bahouddin Naqshband ta'limotlari ma'naviyat rivojida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ilm-fan rivojlantirildi, me'morchilik san'ati yuksak darajaga ko'tarildi. Amir Temur Ko'ksaroy masjidi, Shohizinda, Bibixonim madrasasini qurdirdi. Keshda (Shahrisabz) Oqsaroy barpo etildi. Mirzo Ulug'bek davrida Registonda, keyinchalik Buxoro va G'ijduvonda madrasalar, Bibixonim masjidi, Go'ri Amir maqbarasi, Ulug'bekning falakiyat rasadxonasi qurildi. Ilm-fan, xususan fal. mantiq ilmi rivojiga katta e'tibor berildi. Buning natijasida 14–15-a.dan boshlab islom madrasalarida mantiq ilmini o'qitish huquq va tilshunoslik fanlari b-n bog'liq holda olib borildi. Buyuk falakiyotchi olim va davlat arbobi Muhammad Tarag'ay Ulug'bek matematika, astronomiya, geometriya, tarix, kimyo va b. sohalarda ilmiy tadqiqotlar olib bordi. Uning eng mashhur asari "Ziji jadidi Ko'ragoni" da 1118 yulduzning o'rni va holati aniqlab berilgan. Ulug'bek quyosh va Oy harakatlarini, ularning tutilish vaqtlarini to'g'ri hisoblab chiqqan. U atrofiga iqtidorli yoshlarni to'plab, o'zining ilmiy maktabini yaratdi. Sharq Renessansi 2-davrida yaratilgan fal-iy, badiiy tafakkur rivojining yorqin namunasi Alisher Navoiy ijodida o'z ifodasini

topgan.

Mustaqilligimiz tufayligina millatimiz va jahon madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan Sharq uyg'onish davrini ilmiy, xolis o'rganish, baholash imkonи ochildi.

**Shaxs** — alohida kishi, ijtimoiy-axloqiy mohiyatni o'zida mujassamlashtirgan individ. Bu tushuncha barcha ijtimoiy-gumanitar fanlarda o'z predmeti nuqtai nazaridan ishlataladi. SH. haqida xilma-xil talqinlar bor. SH. — biofiziologik, ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy va estetik fazilat va xislatlarning yaxlit bir butunlikka aylanishi hamda munosabatlar tizimi b-n qamrab olinishidir. SH.ning shakllanishida quyidagi omillar qatnashadi: 1) biologik (nasl); 2) tabiiy-muhit; 3) madaniy muhit; 4) ijtimoiy tajriba; 5) odamlar bilan munosabat. SH.ning biofiziologik jihatи ovqatlanish, joylashish, jinsiy aloqalarga kirishish, bola tug'ilishi kabi individual faoliyatni b-n bog'liq hoidisalardir. SH.ning shakllanishiga tabiiy aloqador buyum va aloqalar olami fizik muhit deb ataladi. SH. madaniylashgan jonzod; ijtimoiy-tarixiy tajribaga ega bo'lgan muayyan avlod vakili; odamlararo munosabatlar sub'ekti bo'lishi ham mumkin. Bu uch omil ham shaxs hayoti va faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

**Shaxs erkinligi**-insonlarning o'z qayoti va faoliyatini amalga oshirishi; ozod shaxs sifatida meqnat hilish, bilim olish, o'zi istagan kasb, qunarni, diniy etihod va boshqalarni ixtiyoriy tanlashi. Had. jamiyatlardan hozirgacha erkinlik, ozodlik, tenglikni barcha insonlarning ijtimoiy mavhei, dini, irhi, jinsi, millatidan hat'iy nazar honunlar oldida teng quhuhligini ta'minlash xalhning asosiy mahsadi bo'lib kelgan. SH.e.ning tarkibiy hismlari-shaxsning daxlsizligi, hadr-himmati, diniy e'tihod, vijdon erkinligi, so'z erkinligi, ijod erkinligi, xususiy mulkka egalik quhuhi va b.lardan iborat. SHaxsning daxlsizligi qoidalari had. va o'rta asrlarda cheklab kelingan. Insoniyat tarixida SH.e.ni ro'yobga chiqarishda AqSHda XVIII asr oxirida qabul qilingan "Inson huquqlari to'g'risida Bill" va fransuz inqilobi davrida qabul qilingan "Inson va grajdalar huquqlari deklaratsiyasi" muhim o'rin tutadi. Bu borada BMT 1948 yilda qabul qilgan va uning Nizomiga kiritilgan "Umumjahon inson huquqlari Deklaratsiyasi" katta ahamiyat kasb etadi. Hozirgi davrdagi ilg'or, demokratik jamiyatlarning honunlarida, xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qam SH.e. kafolatlangan. SH.e.ga daxl hilib, moddiy va ma'naviy zarar etkazgan, jabr-zulm hilgan shaxslar honuniy jazoga tortiladi. Sobih sho'rolar davrida so'z erkinligi, diniy e'tihod erkinligi, shaxsning milliy tuyg'ulari ta'hib hilinar, millatparvar odamlar "millatchi", "antisovert" deb jazoga tortilar edi. Nazariy-fal-iy jiqtadan SH.e qar bir davrda nisbiy ma'noda amal hiladi. Tanazzulga uchrayotgan jamiyatlarda turli zo'ravonlik, noqahliklar ohibatida SH.e.ning buzilishi, insonlarning hadr-himmati yo'holib borishiga sabab bo'ladi. Islom ta'limoti

bo‘yicha qam inson o‘z qayotida yaxshilik yoki yomonlik, savob yoki gunoq ishlarga ho‘l urishi uning o‘z ixtiyorida, Xudoi taolo bandalarga yomonlik hil, deb buyurmagani uchun, ular gunoqlarni o‘z ixtiyoriga ko‘ra hiladilar va buning u-n mas’uliyatlidirlar. Boshha tarafdan SH.e. vatan, xalh, jamiyat oldidagi insoniy burchlar, mas’uliyatlarni inkor hilmasligi kerak. SH.e. dan ko‘p foydalanuvchilar emas, balki vijdon, iymon, insof kabi burchlarni a’lo bajaruvchilar haqiqiy buyuk insonlardir. Burch va mas’uliyat SH.e.ni ohilona boshharib turadi. Burchini, mas’uliyatini yaxshi bilgan odamlarning el, yurt oldida obro‘yi, hadr-himmati qam oshib boradi. Bunday shaxslarni xalh e’zozlaydi. SH.e. ni yuzaki, biryoohlama tushungan odamlar barcha ishlarda fahat o‘z manfaatini o‘ylab, boshhalarni qah-huquqlarini toptashga urinadi. Davlat, honun tomonidan Inson qah-quhuhlarini qimoya hilishi fuharolarning ilm olish, meqnat hilish, jamiyat qayotida yuz berayotgan vohea-qodisalar qahida erkin so‘zlash, ijobjiy yoki tanhidiy fikrni aytish, qalol meqnat b-n topilgan mulkka egalik hilish quhuhlaridan foydalanishga imkon beradi. Mustahil o‘zbekiston Konsgitutsiyasida SH.e.ni yuzaga chiharuvchi barcha quhuhlar kafolatlangan.

**Shaxsiy maydon** — bir-birlarini yaqindan taniydigan odamlar orasida saqlanib turadigan masofa.

**Shizofreniya** — psixik xastalikning jiddiy shakli bo‘lib, unda individ voqelikni anglash tuyg‘usini yo‘qotgan bo‘ladi.

**Shomon** — atrofidagilarning fikriga ko‘ra, alohida ilohiy kuchga ega bo‘lgan, sehrgarlik qila oladigan odam.

## Ch

**Chaqaloqlar o‘limi darajasi** — mingta tirik tug‘ilgan chaqaloqqa nisbatan bir yoshga to‘lmay vafot etgan go‘daklar miqsori.

**Cheklangan kod** — mazkur madaniyat doirasida bir xil tushunilishga asoslangan nutq usuli. Cheklangan koddan foydalanganda ko‘pchilik g‘oya va fikrlarni so‘zlar yordamida ifodalashga ehtiyoj bo‘lmaydi.

**Cheklangan urush** — aholining nisbatan ozchilik qismi jalb etilgan harbiy harakatlar bo‘lib, ular asosan askarlar ishtirokida olib boriladi.

**Cherkov** — muayyan diniy uyushma doirasidagi odamlarning katta guruhi. Mazkur tushuncha diniy marosimlar bajariladigan joyni ifodalashda ham qo‘llaniladi.

**Chikago maktabi** - asoschisi A.Smolldir (1854—1926) Albiona Smollning asosiy e’tiborini manfaatlar nazariyasiga qaratilib, sog‘liq farovonlik, muloqot qilish, go‘zallik, adolatga qaratilgan yo‘nalish bilan bog‘liq edi. U li/ikada atom qanday rol o‘ynasa manfaat ham sotsiologiyada shunday rol o‘ynashi kerak, dedi. Manfaatiarning bir-biriga o‘tishi,

manfaatlar va undan kelishuvga o‘tish mumkinligini qayd etadi. Sotsial hodisalar uch omilning o‘zaro ta’siri natijasrdir: tabiat, individlar va sotsial institutlar. U ilmiy tadqiqotni to‘rt bosqichga bo‘ldi: qayd etish, analitik, baholash va konstruktiv. Sotsiologiya jamiyatni «amalda yaxshilashga» xizmat qilishi kerak dedi. Keyinchalik manfaatga hulqni larlibga soluvchi, sotsial jarayonni baholavchi omil sifatida qaradi.

Chikago maktabining yana bir ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri Uilyam Samneru (1840 - 1910). U sotsial evolutsiya so‘zsiz, shubhasrz, xarakterga, tabiiy tanlov va yashash uchun kurash esa barcha uchun universaldir, degan fikrni ilgari surdi. Sotsial tengsizlik sivilizatsiya rivojlanishining tabiiy holati va zaruriy shartidir. Bu hodisaga odamlarning o‘zaro munosabatigina emas, balki «nima i layapti», - degan masala qiziqtiradi. Jamiyat ijodiy xarakterga ega bo‘lib, atrof-muhit ustidan nazorat, umumiy qadriyatlarni o‘rganish va o‘zgartirish orqali amalga oshiriladi. U «guruh» tushunchasrga alohida ehibor bilan qaradi. Uilyam Somnerning: «Biz-guruuhlarimiz», «ular- guruuhlardir» tushunchasr ko‘proq mashhur bo‘ldi. «Biz guruuhlar»da birdamlik, «ular-guruuhlardir»da ko‘proq dushmanlik tuyg‘usi ustuvorlik qiladi. Oxirgisi etnosentrizm qarashi bilan bog‘liq bo‘lib, unda o‘zining guruhi boshqa odamlar uchun markaz bo‘lib, qolganlar esa ana shu atrofda baholanadi. Jamiyatdagi farovonlik to‘qlik, urf- odat, axloq vaqonunlarni bajarilishini ta’minlaydi. Urf-odatlar nafaqat manfaat, balki turli bahonalarni tug‘diradi. Bahonalarda ochlik, jinsiy xohish, o‘zini yaxshi ko‘rish, sevish va asossiz talvasaga tushish bilan xarakterlanadi.

Chikago maktabining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan yana biri Edvard Ross (1866-1951) bo‘lib, u ko‘proq sotsial tartib va birdamlik tabiatini bilan qiziqdi. Birdamlikka sotsial nazorat jarayon nuqtayi nazaridan qaradi. Birdamlik orqali individ va guruh yagona tashkilot yoki uyushmaga birlashim mumkinligini ko‘rsatdi. Hatto, odamlar o‘rtasrdagi munosabatlar ham kelishuv yoki nazorat shaklidanamoyon bolishligini ta’kidladi.

Sotsiologiyaning Chikago maktabi vakillari, umuman, sohaning nazariy va amaliy masalalari, sotsial muammolariga katta e’tibor berdilar. Chikago o‘ziga xos «sotsial laboratoriya» markazi rolini o‘ynadi. Bu erda qishloq jamoasr va emigrantlar, ularning shahar muhitiga moslashishi, hulqning buzilishi, oilalardagi muammolar, yoshlikdagi jinoyatchilik, darbadarlik kabi masalalarda keng taddiqotlar olib bordilar. Chikago universiteti bu sotsial laboratoriyada katta rol o‘ynadi.

Shunday qilib, XIX asr oxiri XX asr birinchi yarmida sotsiologiyaga jamiyat haqidagi maxsus fan sifatida qarashning to‘la asosi yaratildi. Jamiyatga o‘ziga xos yondashishning tashkil etuvchi nazariya konsepsiyasr va metodologik tamoyillari rivojlandi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. E.Giddens. “Sotsiologiya”. –T.: 2002 y.
2. Begmatov A. Sotsiologiyaga kirish. –Andijon, 1995.
3. Bekmurodov M.B. Sotsiologiya asoslari. – T.: Fan, 1994.
4. Sotsiologiya. O’quv qo’llanma. – Toshkent: Meros, 2002.
5. Umumiy sotsiologiya. – T. : Fan, 2002.
6. Yunusov K. Sotsiologiya. O’quv qo’llanma. – Andijon, 1997.
7. Xolbekov A., Idirov U. Sotsiologiya: izohli lug’at-ma’lumotnoma. –T.: Ibn Sino nashriyoti, 1999.
8. Xoshimov T.R. Sotsiologiya. (O’quv - uslubiy qo’llanma). –T., 1996.
9. “Sotsiologiya”. Mualliflar jamoasi. –T., 1999.
10. Aliyev B., Rafiqov F. va boshqalar. Sotsiologiya (oquv-qo’llanma) -T., 2006.
11. Falsafa qomusiy lug’at. -T.: Sharq, 2004.

## MUNDARIJA

1.	A.....	4
2.	B.....	17
3.	D.....	25
4.	E.....	34
5.	F.....	41
6.	G.....	56
7.	H.....	62
8.	I.....	64
9.	J.....	81
10.	K.....	84
11.	L.....	98
12.	M.....	101
13.	N.....	128
14.	O.....	133
15.	P.....	137
16.	Q.....	147
17.	R.....	148
18.	S.....	152
19.	T.....	170
20.	U.....	184
21.	V.....	188
22.	X.....	191
23.	Y.....	194
24.	Z.....	195
25.	O'.....	201
26.	Sh.....	202
27.	Ch.....	205
28.	Foydalanilgan adabiyotlar.....	207

Memo1

    1-QISM  
    1-tomon  
32,1,30,3,28,5,26,7,24,9,22,11,20,13,18,15  
    2-tomon  
16,17,14,19,12,21,10,23,8,25,6,27,4,29,2,31  
    2-QISM  
    1-tomon  
64,33,62,35,60,37,58,39,56,41,54,43,52,45,50,47  
    2-tomon  
48,49,46,51,44,53,42,55,40,57,38,59,36,61,34,63  
    3-QISM  
    1-tomon  
96,65,94,67,92,69,90,71,88,73,86,75,84,77,82,79  
    2-tomon  
80,81,78,83,76,85,74,87,72,89,70,91,68,93,66,95  
    4-QISM  
    1-tomon  
128,97,126,99,124,101,122,103,120,105,118,107,116,109,114,111  
    2-tomon  
112,113,110,115,108,117,106,119,104,121,102,123,100,125,98,127  
    5-QISM  
    1-tomon  
160,129,158,131,156,133,154,135,152,137,150,139,148,141,146,143  
    2-tomon  
144,145,142,147,140,149,138,151,136,153,134,155,132,157,130,159  
    6-QISM  
    1-tomon  
192,161,190,163,188,165,186,167,184,169,182,171,180,173,178,175  
    2-tomon  
176,177,174,179,172,181,170,183,168,185,166,187,164,189,162,191  
    OHIRGI QISM  
    1-tomon  
208,193,206,195,204,197,202,199  
    2-tomon  
200,201,198,203,196,205,194,207